

## MUSNAD

Ushbu kitobda diyorimiz musulmonlari amal qilayotgan Hanafiya mazhabining asoschisi, ulamolar peshqadami, muttaqiylar imomi - Imomi A'zam Abu Hanifa rahmatullohi alayh tomonlaridan tasnif etilgan hadislar jamlangan.

Har bir hadisning aniq manbalari ko'rsatilgani va zarur izohlar berilgani kitobning ilmiy, ma'rifiy qimmatini belgilovchi omillardandir.

«Musnad» manaviy qadriyatlarimizning bebaho durdonalaridan bo'lib, keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

MuTarjim kitob Tarjimasida ko'rsatgan yordamlari va ushbu ishga dalolatlari uchun zahmatkash, nuqtadan olim Muhammad Sharif Jumanga, ustoz Umar Foruq Saydo al-Jazariy xazratlariga samimiy shukronalarini izhor etadi.

*Mutarjim: Abdulloh Murod Xolmurod o'g'li*

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

Alloh taologa hamdu sanolar bo'lsin! Ul zot zul jalol haq din asoslarida ummatga tayanch va musulmonlarga qiyomatgacha namuna bo'lgan himmatli va idrokli imomlarni bizlarga yetkazdi. Uning Rasuliga salotu salomlar bo'lsin!

Imomi A'zam Abu Hanifa rahmatullohu alayh rivoyat etgan ahkomlarga oid hadislarini Tarjima qilishga bizlarni muvaffaq aylagan Alloh taologa sanoqsiz hamdlar aytamiz. Imomi A'zamning «Musnad»lari o'n to'rt farqli yo'l bilan kelgan. Xorazmiy «Jomi ul-Masanid» nomli asarida bu har xil yo'l bilan kelgan musnadlarni to'plagan. Qo'lingizdagi Tarjima 1327 hijriy yilda Misrda chop etilgan musnad nusxasi asosida tayyorlandi. Bu nusxada mazkur «Musnad»dagi hadislarini rivoyat etgan muhaddislar nomlari keltirilgan, ibodat va muomalaga oid ba'zi hadislariga izoh berilgan. Imomi A'zamning «Musnad»lari u zotning hadis sohasidagi mukammal ilmi, zakosi va salohiyatini ochiq-oydin ko'rsatuvchi xujjatdir. Fazilatni faqat fazilat ahli qadrlaydi.

Allohning tavfiqi bilan ilm toliblariga bu hadislarini taqdim etarkanmiz, Zoti zuljaloldan ularni o'qib, amal qilishga bizlarni muvaffaq etishini iltijo ila tilaymiz. Omin.

### IMOMI A'ZAM HAYOTI

Imom Abu Hanifaning ismi No'mon ibn Sobitdir. Hijriy 80-yilda (699 m.y) Kufada tug'ildilar. Hijriy 150-yilda (767 m.y)Bag'dodda vafot etdilar. Islom olamida keng tarqalgan Hanafiy mazhabining asoschisidirlar. Imom A'zam shunday derdilar: «Biz bu masalada faqat zarurat bo'lgandagina qiyosga o'tamiz. Bu shunday: Kitob va Sunnatda, sahobalarning hukmlarida dalil topolmasak, sahobalar ittifoq bo'lgan masalaga amal qilamiz. Agar sahobalar ixtilof qilishgan bo'lsa, illati mushtarak bo'lgan ikki hukmni bir-biriga qiyoslaymiz. Sahobalardan boshqalar esa bizlar kabidir».

«Sen dinda ko'p qiyos qilmoqdasan. Ilk qiyos etgan iblisdir», degan kishilarga Imomi A'zam juma kuni Kufa masjidida mazhabining mohiyatini tushuntirib bunday dedilar: «Men Allohning kitobi bilan, so'ng Rasulullohning (s.a.v.) sunnatlari bilan, undan keyin esa sahobalarning qarashlari bilan amal qilaman, agar ular ixtilof qilishgan bo'lsagina

qiyosga o'taman».

Shunda jamoat Imomning qo'lini o'pib: «Siz olimlar sarvarisiz, siz haqingizdagi oldingi yomon gumon gap-so'zlarimiz uchun bizni afv eting», dedilar. Imomi A'zam: «Alloh taolo bizni va sizni kechirsin!» deyishdi. («Uqudul javohirul-munifa», 1-5-betlar).

## **IMOMNING ZUHDI**

Imom A'zam juda ko'p ibodat qilar edilar. Tahajjud namozini qoldirmasdilar, Qur'oni karimni ko'p tilovat etar edilar. Halol ishlab, halol pul topardilar. Kufa va Bag'dod ulamolariga dars berganlar. 55 marta hajga borganlar.

## **IMOM A'ZAMNING ENG MASHHUR TALABALARI**

Muhammad ibn al-Hasan, Imom Abu Yusuf, Zufar, Rabia, Vake' ibn Jarrohlar.

## **ASARLARI**

Imom A'zamdin talabalari rivoyat qilgan quyidagi: «Fihi akbar», «Al-olim va mutaallim», «Qadariyyaga ra'ddiya», hadis borasida «Musnad» nomli asarlari mavjud. Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qilingan bir hadisda: «Ilm Surayyo yulduzida bo'lsa, uni fors kishilari olajak», deya marhamat qilingan.

Imom Suyutiy aytadiki: «Bu hadisning asli sahihdir. Unda Abu Hanifaga ishora bor. Hadisning sahihligi muttafaqun alayhdir» («Zujojatul masobih», 1- jild, 62-bet)

## **VAFOTI**

Imomi A'zam qamoqxonada vafot etdilar. Qozilikni qabul qilmaganlari uchun qamalga edilar. Imom A'zam vafot qilgan kuni Imom Shofe'iy tug'ildilar.

Imom A'zamning jasadlarini Bag'dod qozisi Hasan ibn Ammora yuvdi. Islom diniga, uning usuliga va fiqhda katta xizmatlar qilgan Imom A'zamdin Alloh taolo rozi bo'lsin.

Imomi A'zamning: «Ular ham, biz ham odam», degan so'zlarining mohiyatini anglamay mujtahidlikni da'vo qiluvchilar uchun barcha ulamolar yakdillik ila e'tirof etgan mujtahid darajasining shartlarini keltiramiz. Ular quyidagilar:

1. Mujtahid arab tilini barcha lahjalari bilan bilishi.
2. O'zidan oldin o'tgan ulamo va fuqaholar ixtilof qilgan masalalarni juda yaxshi bilishi.
3. Qur'oni karimni to'la yod olib uni yaxshi tushunishi. Uning turli qiroatlarini bilishi, tafsir ilmini o'rganib, muhkam, mutashobih, nosih va mansuh oyatlarni ajrata olishi, Qur'on qissalarini batafsil bilishi.
4. Hadis ilmini egallab, sahih, sahihbo'lmagan, muttasil, munqote', mursal, musnad, mashhur va mutavotir hadislarni bilishi.
5. Taqvodor bo'lib o'z ravshini Qur'oni Karim va sunnati nabaviyaga asoslagan bo'lishi lozim.

Bu fazilatlarga ega kishining ijti-hod qilishi va unga kishilarning ergashishi durustdir.

Ibn Qayim Javziya aytadilar: Ijti-hod shartlari bo'lmagan kishiga Qur'oni Kariim va hadislardan to'g'ridan to'g'ri masala chiqarishi mumkin emas

Imomi A'zam hazratlari musnadlarida rivoyat qilgan hadislar keltirilgan manbalar

Tarjimaga ilova qilindi. Unda hadis istilohlari haqida qisqa ma'lumot berdik. Mazhabimiz

masalalari manbaasini bilishga muvaffaq etgan Alloh taolaga beaded shukrlar aytamiz. Imomi A'zamning joylari jannat bo'lsin. Omiyn.

## بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

Abu Hanifa (r.a.), Yahyodan, u Muhammad ibn Ibrohim at-Taymiydan u Alqama ibn Vaqqos al-Laysiydan u Umar ibn Xattobdan (r.a.) rivoyat qiladi: Hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v.) aytdilar: «Amallar faqat niyatlarga bog'liqdir. Har kimga niyat qilgani bo'ladi. Alloh va Rasuli (s.a.v.) uchun hijrat qilgan kishining hijrati Alloh va Rasuligadir. Dunyo uchun hijrat qilgan kishi dunyoga erishadi, ayol uchun hidrat qilgan kishi unga uylanadi, demak, kishining hijrati hijrat qilgan narsasi uchun bo'ladi».

### IMON VA ISLOM, QADAR VA SHAFLOAT KITOBI

#### 1

Abu Hanifa (r.a.) Alqama Ibn Marsaddan, u Yahyo ibn Ya'mardan rivoyat qiladi. Yahyo ibn Ya'mor aytadi: «Bir birodarim bilan birga Rasulullohning (s.a.v.) shaharlarida Abdulloh ibn Umarni ko'rib qoldik. Birodarimga:

- Abdulloh ibn Umarning oldiga borib qadar haqida so'raylikmi? - degandim, u:  
- Ha, - dedi.

- Men so'ray qolay, chunki uni sendan yaxshiroq taniyman,- dedim.

Abdulloh ibn Umarning yoniga kelib salom berdik va o'tirdik. Unga aytdim:

- Ey Abu Abdurahmon, biz yer yuzida ko'p kezamiz, qadarni inkor qiladiganlar uchraydigan shaharlarga borib qolishimiz mumkin. Ularga qanday javob beramiz?

Ibni Umar (r.a.):

- Ularga men ulardan emasligimni yetkazing. Agar madadkorlar topganimda ularga qarshi urushgan bo'lardim, - dedilar. Keyin quyidagilarni so'zlab berdilar:

«Biz Rasululloh (s.a.v.) bilan birga edik. Oldilarida bir to'p sahobalar bor edi. Nogahon u zotning huzurlariga o'zidan muattar hid taratayotgan, chiroyli sochli, oq kiyimli bir yigit kelib Rasuli Akramga (s.a.v.): «Assalomu alayka yo Rasululloh, Assalomu alaykum», dedi.

Rasululloh (s.a.v.) va biz uning salomiga javob berdik.

Yigit: «Yo Rasululloh (s.a.v.), sizning yaqiningizga borsam», dedi. Rasululloh (s.a.v.): «Yaqinlash», dedilar. Yigit bir yohud ikki odim yaqinlashdida, so'ng Rasulullohga hurmat ko'rsatib tik turdi va yana «sizning yaqiningizga borsam», dedi. Rasululloh: «Yaxshi, mayli», dedilar va yigit tizzalarini Rasulullohning (s.a.v.) tizzalariga tekkizib o'tirib, «Menga imonni o'rgating», dedi. Rasululloh (s.a.v.): «Imon Allohga, Allohning farishtalariga, kitoblariga, payg'ambarlariga, oxirat kuniga, yaxshilik va yomonlik Alloh taoloning taqdiri ila bo'lishiga va o'lgandan so'ng qayta tirilishga ishonmoqdir», deya javob berdilar. «To'g'ri aytdingiz», dedi yigit.

Abdulloh ibn Umar (r.a.): «Biz yigitning Rasulullohning javoblarini tasdiqlashidan va bilgandek to'g'ri aytdingiz» deyishidan ajablandik», dedilar. Yigit yana:

«Menga Islom shariatining farzlarini o'rgating», dedi. Payg'ambarimiz (s.a.v.): «Namoz o'qish, zakot berish, Baytullohni haj qilish, ramazon oyida ro'za tutish, junub bo'lsa g'usl

qilish», dedilar.

Yigit: «To'g'ri aytdingiz», dedi. Biz uning «To'g'ri aytdingiz», deyishidan hayratlandik. «Menga ehsonni o'rgating, u nima?» dedi yigit.

«Ehson - Alloh uchun Allohni ko'rib turganday amal etmog'ingdir. Agar sen Uni ko'rmasang ham, U seni ko'radi», dedilar Payg'ambarimiz (s.a.v.). Yigit:

«Men shunday qilsam muhsin bo'lamanmi?» dedi. Rasuli Akram (s.a.v.): «Ha, dedilar. «To'g'ri aytdingiz», dedi va: «Menga qiyomat qachon bo'lishini bildiring», dedi.

Payg'ambarimiz (s.a.v.): «Qiyomat haqida savol so'ralgan kishi so'raguvchidan yaxshiroq bilmaydi, lekin qiyomatning alomatlari bor», dedilar va quyidagi oyati karimalarni o'qidilar: «Qiyomat qachon bo'lishini faqat yolg'iz Alloh biladi. U O'zi belgilagan vaqtda, yomg'ir yog'diradi va onalarning bachadonlaridagi homilalarning o'g'il-qizligini, yetilgan-etilmaganini biladi. Biron tirik jon ertaga nima qilishini bilmaydi. Biror tirik jon qaerda o'lishini bilmaydi. Faqat Alloh har narsani bilguvchi va har narsadan ogohdir» (Luqmon surasi, 34-oyat mazmuni)».

Yigit: «To'g'ri aytdingiz», dedi va chiqib ketdi. Rasululloh (s.a.v.): «Uni huzurimga qaytaring!» dedilar. Biz uning orqasidan chiqdik. Biroq qaerga ketganini bilolmadik, hech narsa ko'rmadik.

Bu holni janobi Payg'ambarimizga (s.a.v.) aytganimizda Ul zot: «Bu Jabroildir (a.s.), sizga diningiz asoslarini o'rgatish uchun keldi. Faqat men uni taniydigan qiyofada menga keldi», dedilar.

## 2

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u esa Ibni Mas'uddan (r.a.) rivoyat etadi. Ibn Mas'ud aytdilar: «Jabroil (a.s) Payg'ambarimizga oq libosli yosh yigit suratida keldi va: «Assalomu alayka yo Rasululloh!» dedi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) salomga alik oldilar. So'ng u: «Yaqinlashsam, yo Rasululloh», dedi. Hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v.): «Yaqinlash (yaqinroq kel)», dedilar. U: «Yo Rasululloh! Imon nima?» dedi. Payg'ambarimiz (s.a.v.): «Imon - Allohga, farishtalariga, kitoblariga, rasullariga, yaxshilik va yomonlikning Allohning taqdiri ila bo'lishiga ishonishdir», dedilar. U: «To'g'ri aytdingiz», dedi. Biz uning bilgandek «to'g'ri aytdingiz» deganidan ajablandik. So'ng u: «Yo Rasululloh! Islom ahkomlari nima?» dedi. Payg'ambarimiz (s.a.v.): «Namoz o'qish, zakot berish, ro'za tutish, junub bo'lsa, g'usl qilish», dedilar. U: «To'g'ri», dedi. Biz uning bilgandek «To'g'ri aytdingiz» deganidan ajablandik. So'ng u: «Ehson nima?» dedi. Payg'ambarimiz: «Alloh uchun Allohni ko'rib turganingdek amal qilmog'ingdir. Agar sen Uni ko'rmasangda, U seni ko'radi», dedilar. U: «To'g'ri aytdingiz», dedi. U: «Qiyomat qachon bo'ladi?» dedi. Rasululloh (s.a.v.): «Qiyomat haqida savol so'ralgan so'raguvchidan yaxshiroq bilmaydi», dedilar. So'ng u iziga qaytdi. Rasululloh (s.a.v.): «Uni xuzurimga qaytaring!» dedilar. Biz uni izladik, biroq undan asar ham ko'rmadik. Buni Rasululloh (s.a.v.)ga aytdik. Payg'ambar (s.a.v.) bizga: «U, Jabroil (a.s.) edi. Sizga diningizni o'rgatish uchun keldi», dedilar.

## 3

Abu Hanifa (r.a.) Atodan rivoyat qiladilar. Sahobai kiromlardan bir necha kishi unga quyidagilarni so'zlaganini aytdi.

Abdulloh ibn Ravohaning qo'ylarini boquvchi bir cho'pon ayol bor edi. Abdulloh cho'pon ayolga suruv ichidagi bir qo'yga alohida qarashini tayinladi. Cho'pon ayol qo'yni semirguncha boqdi. Cho'pon ayol boshqa qo'ylar bilan ovora bo'lib qolganda, bo'ri kelib

u qo'yni olib qochdi va o'ldirdi. Abdulloh kelib u qo'yni ko'rmadi. Cho'pon ayol voqeani Abdullohga aytgach, u cho'pon ayolga tarsaki tushirdi. Keyin bu ishiga pushaymon bo'lib, uni Rasulullohga (s.a.v.) aytdi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) bu voqeani jiddiy hisoblab: «Mo'mina ayolning yuziga urdingmi?» dedilar.

Ravoha: «U zanjiya ilmi yo'q ayol», dedi.

Payg'ambarimiz (s.a.v.) ayolga odam yuborib uni chaqirtirdilar. Undan:

- Alloh qaerda? - deb so'radilar.

- Osmonda, - deb javob berdi ayol.

- Men kimman?

- Siz Allohning rasulisiz, - javob berdi ayol.

Payg'ambarimiz (s.a.v.): «U mo'minadir, uni ozod et», dedilar.

#### 4

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibni Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibni Buraydaning otasi aytdi: «Biz bir kuni Payg'ambarimizning (s.a.v.) yonlarida o'tirar edik. U zot ashoblariga: «Turinglar, bemor yahudiy qo'shnimizni ko'rib chiqamiz», dedilar.

So'ng yahudiyning uyiga kirdilar va uni o'lim to'shagida ko'rdilar. Va unga: «Allohdan o'zga iloh yo'qligiga, men Allohning rasuli ekanimga iqormisan?» dedilar.

Yahudiy otasiga qaradi, otasi gapirmadi. Rasululloh (s.a.v.) yana unga: «Allohdan o'zga iloh yo'qligiga, men Allohning rasuli ekanimga iqormisan?» dedilar. Bemor yahudiy yigit yana otasiga qaradi. Otasi: «Iqror bo'l», dedi. Yigit: «Allohdan o'zga iloh yo'qligiga, Muhammad (s.a.v.) Allohning rasuli ekaniga iqorman», dedi. Payg'ambar (s.a.v.): «Men sababli bir jonni olovdan qutqargan Allohga hamd bo'lsin», dedilar.

Boshqa rivoyatda shunday: Bir kun Payg'ambarimiz (s.a.v.) sahobalarga: «Turinglar, yahudiy qo'shnimizni ko'rib chiqamiz», dedilar. Payg'ambarimiz (s.a.v.) uni o'lim to'shagida ko'rdilar. Undan: «Alloh taolodan o'zga iloh yo'qligiga iqormisan?» deb so'radilar. U «Ha», dedi. So'ng undan: «Mening Rasululloh ekanligimga iqormisan?» dedilar. Yigit otasiga qaradi. Ul zot (s.a.v.) bu so'zlarini uch marta takrorladilar. «Siz Allohning rasuli ekanligingizga iqorman», dedi nihoyat yahudiy yigit.

Rasuli Akram (s.a.v.): «Men sababli bir jonni olovdan qutqargan Allohga hamd bo'lsin», dedilar.

#### 5

Abu Hanifa (r.a.) Abdurahmon bin Hurmuz al-A'rojdan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat etadi.

Rasululloh (s.a.v.): «Har bir go'dak Islom dinida tug'iladi so'ng ota-onasi uni yahudiy yoxud xristian qiladi», dedilar.

Payg'ambarimizdan so'rashdi: «Ey Allohning rasuli, go'dakligida o'lganlar nima bo'ladi?».

Ul zot: «Ular nimalar qilishlarini Alloh biladi», deb javob berdilar.

#### 6

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobirdan rivoyat qiladi. Janobi Payg'ambarimiz (s.a.v.) aytdilar: «Insonlar bilan «La ilaha illalloh» (Allohdan o'zga iloh yo'q), degunlaricha urushishga buyurildim. Agar uni aytsalar, shar'iy haqdan o'zga holda qonlari va mollarini mendan saqlaydilar. Ularni Alloh azza va jalla hisobga tortadi».

## 7

Abu Hanifa Abu Zubayrdan rivoyat qiladi. Abu Zubayr aytdi: «Jobirga: «Gunohlarni nima uchun shirk hisoblamaysiz», dedim. Jobir (r.a.) dedi: «Abu Said: Yo Rasululloh (s.a.v.)! Bu ummatni kufrga olib boradigan gunohi bormi?» dedim. Rasululloh (s.a.v.) «Shirkdan boshqa hech bir narsa kishini kufrga olib bormaydi», dedilar.

## 8

Abu Hanifa (r.a.) Abdukarim ibn Abu al-Maxoriqdan, u Tovusdan rivoyat qiladi. Tovus dedi: «Bir odam Ibni Umarning oldiga borib so'radi: «Ey Abu Abdurahmon! Qulflarimizni sindirib, uylarimizni teshib, matolarimizni talagan kishilar haqida nima deysiz? Ular kofir sanaladimi?». Ibn Umar: «Yo'q», dedilar. «Bizning tepamizga o'tirib, qonlarimizni to'kkanlar haqida nima deysiz? Ular kofir bo'ladimi?» dedi kishi. Ibn Umar: «Yo'q. Agar Allohga shirk keltirmagan bo'lsa, kofir bo'lmaydilar», dedilar. Tovus men Ibni Umarning barmog'iga qaradim, uni qimirlatardi va «Hazrati Muhammadning (s.a.v.) sunnatlari shudir», dedilar. Bu hadisni katta bir jamoat bevosita Rasulullohdan (s.a.v.) marfu tarzda rivoyat qildi.

## 9

Abu Hanifa (r.a.) Abdulloh ibn Abu Habibadan rivoyat qiladi. U «Hazrati Payg'ambarning sahobasi Abu Dardodan eshitdim», dedi. Abu Dardo aytdi: «Men Rasululloh bilan ulovda mingashib ketayotgan edim. Rasululloh (s.a.v.): «Ey Abu Dardo! Kim Allohdan boshqa iloh yo'qligiga, men Allohning rasuli ekanimga iqror bo'lsa, unga jannat vojib bo'ladi», dedilar. Men: «Zino va o'g'irlik qilsa ham-a?» dedim. Rasululloh (s.a.v.) bir muddat sukut saqladilar, so'ng yurdilar va dedilar: «Kim Allohdan boshqa iloh yo'qligiga va men Allohning rasuli ekanimga iqror bo'lsa, unga jannat vojib bo'ladi». Men: «Zino va o'g'irlik qilsa ham-a?» dedim. Rasululloh bir oz sukut qildilar, so'ng yurdilar va «Kim Allohdan boshqa iloh yo'qligiga va men Allohning rasuli ekanimga iqror bo'lsa, unga jannat vojib bo'ladi, agar zino qilsa ham, o'g'irlik qilsa ham, agar zino qilsa ham, o'g'irlik qilsa ham va hatto Abu Dardo burun jiyirsa ham», dedilar. Roviyl deydi, men Abu Dardon burniga shahodat barmog'i bilan ishora qilganini ko'rdim.

## 10

Abu Hanifa (r.a.) Horisdan, u Abu Muslim Havloniydan rivoyat qiladi. Abu Muslim Havloniy aytdi: «Muoz Xumuzga kelganida bir yosh yigit uning oldiga borib: «Silai rahm va yaxshilik qiluvchi, to'g'riso'z, omonatdor, yomon ishlardan uzoq yuruvchi, kuchi yetgunicha xayrli ishlar qiluvchi, biroq Alloh va rasuli haqida shubhasi bor bir kishi haqida nima deysiz?» deya so'radi. Muoz aytdiki: «Uning barcha amallari bekor ketadi». Yigit: «Gunoh-ma'siyatlar, zino qilgan, mollarni nohaq olgan, biroq Allohdan boshqa iloh yo'qligiga, Muhammad (s.a.v.) Uning quli va rasuli ekaniga ixlos bilan ishongan kishi haqida nima deysiz?» dedi. «U haqda umid va qo'rquv orasidaman», dedi Muoz. Yigit: «Qasamki, imondagi shubha amallarni yo'qqa chiqargan bo'lsa, shubha aralashmagan imonga gunohlar zarar bermaydi», dedi va ketdi. Bu gapni eshitgan Muoz: «Sunnatni bu kishidan ham yaxshiroq biladigan odam bo'lmasa kerak», dedi.

## 11

Hammod Abu Hanifadan (r.a.), u Abu Molik al-Asjoidan, u Rabi ibn Haroshdan, u Huzayfadan rivoyat qiladi. Huzayfa dedi: «Islom kuylakdagi naqshlar kabi o'chib ketadi, faqat qari chol yo kampir qoladi. Ular: «La ilaha illalloh (Allohdan o'zga iloh yo'q), deyidigan insonlar bor edi» deyishadi-yu, o'zlari bu so'zni aytmaydilar. Silo ibn Zufar bunday dedi: «Ularga bu so'z foyda beradimi, ey Abdulloh! Axir ular ro'za tutmaydilar, namoz o'qimaydilar, haj qilmaydilar, sadaqa bermaydilar-ku. U aytdi: «U so'z bilan do'zzaxdan qutiladilar». U **2** marta ovozini ko'tarib: «Ey Silo ibn Zufar, shu kalima bilan o'sha qariyalar jahannamdan qutiladilar», dedi.

## 12

Abu Hanifa (r.a.) va Mas'ud Yaziddan rivoyat qiladi. Yazid: «Men xorijiyalar kabi ishonardim so'ng Rasulullohning (s.a.v.) bir sahobasidan so'radim. U menga Payg'ambarimizning (s.a.v.) aytganfikrlari mening aytgan fikrimga zid ekanini aytdi. Men unga: «Alloh taolo meni sen tufayli qutqardi», dedim.

## 13

Abu Hanifa (r.a.) aytdilar: «Biz Alqama ibn Marsad bilan birga ibn Rabohning yonida edik. Alqama undan so'radi: «Ey Abu Muhammad, bizning diyorda insonlar o'zlariga iymonni da'vo qilishmaydi va biz xaqiqiy mo'minmiz», deyishni o'zlariga ma'qul ko'rmay, «Inshaalloh, biz mo'minmiz», deyishadi

U: «Ularga nima bo'lgan? Nega «Biz mo'minmiz» demaydilar», dedi. Alqama: «Ular agar biz o'zimizga haqiqiy iymonni istasak, jannatni o'zimizniki qilgan bo'lamiz, deyishadi», dedi. U: «Subhanalloh, bu shaytonning tuzog'i va hiylasidir. Alloh taoloning eng ulug' ehsoni - imonni rad etishga va Rasulullohning (s.a.v.) sunnatlariga xilof qilishga shayton ularni undamoqda. Rasulullohning (s.a.v.) sahobalari o'zlarini haqiqiy mo'minligini aytishganlarini va buni Rasulullohdan (s.a.v.) naql qilishganlarini bilaman. Ularga ayting: «Biz haqiqatan mo'minlarmiz», desinlar. Faqat: «Biz shubhasiz jannatiylardanmiz», demasinlar. Chunki Alloh taolo ko'k ahliga va yer ahliga azob berishni xohlasa, azob beradi. Bu bilan Alloh ularga zulm qilmaydi». Alqama: «Ey Abu Muhammad, hatto ko'z ochib yumganchalik vaqt mobaynida ham isyon etmagan farishtalarni, Alloh azoblasa ularga zulm qilgan bo'lmaydimi?» dedi.

Abu Muhammad: «Ha», dedi. Alqama: «Bu bizlarga juda katta ish, biz buni qanday tushunamiz?» dedi. Bunga javoban Abu Muhammad: «Ey birodarimning o'g'li, qadar ahli ham xuddi mana shu o'rinda adashdilar. Sen ularning aytganlaridan o'zingni tiy. Zero ular Alloh taoloni rad etuvchi, Alloh taoloning dushmanlaridir. Haq subhanahu taolo payg'ambariga: «Eng mukammal dalillar Allohga oiddir. Shoyad Alloh xohlasa, sizlarning barchangizni hidoyatga solgan bo'lardi», deya marhamat qilmadimi?» dedi. Alqama: «Yo Abu Muhammad! Qalblarimizdan bu shubhani ketkizadigan etib sharhlang!» dedi.

Abu Muhammad: «Alloh taolo farishtalarni toatga undab, toatni ilhom etib, ularni toatga rag'barlantirib toatga buyurmadimi?» deya so'radi. «Ha», dedi Alqama. Shunda Abu Muhammad aytdiki: «Bu Alloh taolo ularga bergan ne'matlardir. Agar Alloh taolo bu ne'matlarning shukrini ulardan talab qilsa, bunga ularning kuchlari yetmas edi.

(Shukrda) nuqsonga yo'l qo'yishardi. Alloh taolo ne'matlarining shukrini to'la qilmaganligi uchun ularga azob bersa, zulm qilgan bo'lmaydi».

## 14

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobirdan rivoyat qiladi: Suroqa ibn Molik: «O' Rasululloh, bizga dinimizdan gapirib bering. Go'yo biz u uchun tug'ilgandaymiz. Biz taqdirda belgilangan va qalamlar bitgan narsalarni qilamizmi? Yo duch kelgan narsalarni qilamizmi? Amal nimada?» dedi. «Taqdirda belgilangan, qalam bitgan narsada», dedilar Allohning rasuli (s.a.v.). Biz: «U holda amal nechun?» deb so'ragan edik, Rasululloh (s.a.v.): «Amal qiling, zero har bir inson nimaga yaratilgan bo'lsa shunga muvaffaq bo'ladi. Kim molini Alloh uchun bersa, Allohdan qo'rqsa, shahodat kalimasini tasdiqlasa, biz bu bandani jannat ahlining amalini bajarishga muvaffaq qilamiz. Kim xasis bo'lsa, Allohdan qo'rqmasa, kalimai shahodatni yolg'onga chiqarsa, biz unga jannat ahlining amalini qiyinlashtirurmiz».

## 15

Hammod Abu Hanifadan (r.a.), u esa Abdulaziz ibn Rofidan, u Mus'abdan, u Sa'ddan rivoyat qiladi. «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Alloh taolo har bir jonning kiradigan va chiqadigan joyini va duch keladigan narsalarini belgilab qo'ygan», dedilar. «U holda amal nechun, ey Allohning rasuli?» deyildi. Marhamat etdilar: «Amal qiling, zero har bir inson nimaga yaratilgan bo'lsa, shunga muvaffaq bo'ladi. Kimki jannat ahliidan bo'lsa, u jannat ahlining amallariga muvaffaq bo'ladi. Kim do'zax ahliidan bo'lsa, do'zax ahlining amallariga muvaffaq bo'ladi». «Endi amal qilish lozim», dedi bir ansoriy.

## 16

Abu Hanifa (r.a.) Abdulazizdan, u Mus'ab ibn Sa'd ibn Vaqqosdan, u otasidan rivoyat qiladi. Abu Vaqqos bunday dedi: «Rasululloh (s.a.v.): «Alloh taolo har bir jonni kiradigan va chiqadigan joyini va duch keladigan narsalarini belgilab qo'ygan», dedilar. Ansorlardan bir kishi: «Unda amal nechun, yo Rasululloh?» deya so'radi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Amal qiling! Har bir inson nimaga yaratilgan bo'lsa, shunga muvaffaq bo'ladi. Badbaxtlar badbaxtlarning amaliga, baxtlilar baxtlilarning amaliga muvaffaq bo'ladi», dedilar. Bir ansoriy: «Endi amal qilish lozim», dedi. Boshqa rivoyatda: «Amal qiling! Har kim muvaffaqdir. Jannat ahli jannatiylar amaliga, jahannam ahli do'zaxiylar amaliga muvaffaq qilinadi», dedilar. Bir ansoriy: «Endi amal qilish lozim», dedi.

## 17

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Nafiydan, u esa Ibni Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibni Umar (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: «Taqdir yo'q», deydigan insonlar chiqadi. Ular iymondan chiqib zindiq bo'ladilar. Ularga duch kelganingizda salom bermang. Kasal bo'lsa borib ko'rmang. O'lsalar dafniga qatnashmang. Ular Dajjolning jamoasi, bu ummatning majusiylaridir. Alloh taolo ularni muhaqqaq otashda yoqadi».

## 18

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibni Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibni Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) aytadilar: «Taqdir yo'q deguvchi insonlar chiqadi. Ular imondan ayrilib zindiq bo'ladilar. Ular bilan uchrashganingizda salom bermang. Kasal



bo'lishsa, ko'rishga bormang. O'lsalar, janozasida bo'lmang. Ular Dajjol guruhidandir; bu ummatning majusiylaridir. Ularni majusiylarga qo'shish Alloh taoloning haqidir».

## 19

Abu Hanifa (r.a.) Solimdan, u Ibni Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibni Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilar: «Alloh taolo qadariylarni la'natlasin. Alloh taolo mendan oldin yuborgan har Nabiy ummatini qadariylardan ogohlantirib qadariylarni la'natlagan».

## 20

Anu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u ibn Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibn Buraydaning otasi aytdi: "Rasululloh s,a.v. marhamat qildilar: "Alloh taolo qadariylarni la'natladi. har bir rasul va har bir nabiy ularni la'natlagan va ummatini ular bilan gaplashishdan qaytargan".

## 21

Abu Hanifa (r.a.) Nofe'dan, u ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi: Ibn Umar aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: «Qadariylar bu ummatning majusiylaridir. Ular Dajjolning jamoasidir».

## 22

Abu Hanifa (r.a.) Yazid ibn Suhaybdan, u Jobir ibn Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Alloh taolo Muhammadning (s.a.v.) shifoati ila ahli imonni do'zaxdan chiqaradi», dedilar. Yazid: «Alloh taolo shunday marhamat qiladi: «Ular u yerdan, otashdan chiqmagaylar», dedi. Jobir: «Bundan oldingi «Muhaqqaqki, kofirlar...», deb boshlangan oyatni o'qidi. Bu faqat kofirlar haqidadir», dedi. (Yana bir rivoyatda): «Hazrati Muhammadning (s.a.v.) shifoati tufayli imon ahli do'zaxdan chiqadi», dedilar. Yazid aytdiki: «Haq taolo oyatida: «Shubhasiz, ular u yerdan chiqquvchi emaslar», dedim, dedi. Shunda Jobir: «Muhaqqiq kofirlar...» deb boshlanadigan oyatni o'qi, ular kofirlar», dedi. Boshqa bir rivoyatda (Yaziddan rivoyat qilinadi) Yazid aytdi: «Jobirdan shafolat haqida so'radim. «Alloh imon ahlidan bir jamoatga gunohlari sababli azob beradi, so'ngra Muhammad alayhissalomning shifoati ila do'zaxdan chiqaradi», dedi Jobir. Shunda men: «Kalomi majidda nima deyilgan?» deyishim bilan (yuqoridagi. - *Tarj*) hadisni zikr etdi.

## 23

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Robe' bin Xorroshdan, u Xuzayfadan (r.a.) rivoyat qiladi. Xuzayfa (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) bunday marhamat qildilar: «Alloh taolo tavhid ahlidan bir jamoani olovda yoqib ko'mir bo'lgandan so'ng, do'zaxdan chiqaradi va ularni jannatga kiritadi. Jannat ahli ularni «jahannamiylar» deb nomlaganliklari tufayli ular Allohdan yordam so'raydilar. Alloh taolo buni ulardan ketkizadi».

**24**

Abu Hanifa (r.a.) Atiyadan, u Abu Saiddan, u esa Hazrati Payg'ambardan (s.a.v.) rivoyat qiladi. «Shoyadki Rabbing seni maqtalagan maqomga yetkazgay» oyatidagi «Maqomi mahmud» shafobatdir. Alloh taolo imon keltirgan insonlardan bir jamoani gunohlari sababidan azoblaydi. Keyin esa Payg'ambarimizning (s.a.v.) shafoti bilan azobdan chiqadilar. So'ng ular abadiy hayot deyilguvchi bir daryoga keltiriladilar. Unda cho'miladilar so'ng jannatga kiradilar. Jannatda «jahannamliklar» deya ataladilar. So'ng Allohga yolvoradilar. Alloh taolo ulardan u ismni olib tashlaydi».

Bir rivoyatda bunday deyiladi: «Alloh taolo imon va qibla ahlidan bir qavmni Payg'ambarimizning (s.a.v.) shafoti bilan do'zaxdan chiqaradi. Bu shafot «maqomi mahmud»dir. So'ngra u qavm «hayovon - abadiy hayot» nomi berilgan bir daryoga olib kelinadilar va unga tashlanadilar. Keyin u yerda qush qo'nmas o'simligi kabi o'sadilar. Keyin u yerdan chiqadilar, jannatga kiradilar. Ular jannatda «jahannamiylar», deya nomlanadilar. So'ngra ular Allohdan bu nomni o'zlaridan ketkazilishini so'raydilar. Alloh ulardan bu nomni ketkizadi. Ular: «Allohning ozod etganlari», deya nomlanadilar». Abu Hanifa (r.a.) bu hadisni Abu Shaddot ibn Abdurahmondan, u Abu Saiddan rivoyat qildi.

**25**

Hammod Abu Hanifadan (r.a.), u Atiya al-Avfiydan rivoyat qiladi. Al-Avfiy aytadi: «Abu Said al-Hudriyning bunday deganini eshitdim: «Men Rasulullohning (s.a.v.) mana bu oyatni o'qiyotganlarida eshitdim: «Shoyadki, Robbing seni maqomi mahmudga yetkazgay». Oyatni o'qigach bunday marhamat qildilar: «Alloh taolo imon va ahli qibladan do'zaxga kirgan bir guruhni Hazrati Muhammadning (s.a.v.) shafoti bilan chiqaradi. Bu «maqomi mahmud»dir. Ular «hayovon» deb nomlangan daryoga keltiriladilar va unga tashlanadilar. So'ng qushqo'nmas o'simligi kabi o'sadilar. So'ngra chiqib jannatga kiradilar. Jannatda «jahannamiylar» deya nomlanadilar. Ular bu ismni ketkizishi uchun Alloh taologa yolvoradilar. Alloh taolo ulardan bu ismni ketkizadi».

**26**

Abu Hanifadan (r.a.), u Abdulmalikdan, u Ibni Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibni Abbos (r.a.) aytadi: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) aytdilar: «Bir qism mo'minlar qiyomat kunida gunohlari tufayli do'zaxga kiradilar. Mushriklar ularga: «Imoningiz sizga hech qanday foyda bermadi(ku), mana biz bilan bir makondasiz, birga azoblanyapmiz», deyishadi. Alloh taolo ulardan g'azablanadi va «La ilaha illalloh» degan hech bir kimsa do'zaxda qolmasin deb amr qiladi: Undan mo'minlar yuzlaridan boshqa joyi qop-qora bo'lgan holda chiqadilar. Chunki mo'minlarning ko'zlari ko'karmaydi, yuzlari qoraymaydi. So'ng ular jannat eshigi oldidagi bir daryoga keltiriladilar. U yerda yuvinadilar, butun fitna va aziyat ulardan ketadi, keyin jannatga kiradilar. Farishtalar ularga bunday deydilar: «Go'zal bo'ldingiz. Jannatga mangu kiring ». Biroq jannatda ular: «jahannamliklar» deya ataladilar. So'ngra ular duo qiladilar. Alloh taolo ulardan bu ismni ko'taradi. Ular bu ism bilan boshqa abadiy chaqirilmaydilar. Ular chiqqanlarida kofirlar: «Qaniydi, biz ham musulmon bo'lsaydik», deyishadi. Buning boshi, mana bu oyatdir: «Hali (qiyomat kuni) kofir bo'lgan kimsalar musulmon bo'lishni istab qolurlar». (Hijr, 2-oyat).

## 27

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Abdulloh ibni Mas'uddan rivoyat qiladi. Ibni Mas'ud (r.a.) aytadi: «Bir odam Rasulullohning (s.a.v.) huzurlariga keldi va:

- O' Rasululloh, Alloh taolaga shirk keltirmagan odam do'zaxda qoladimi? - deya so'radi.

- Ha, - dedilar Rasuli Akram (s.a.v.). - Jahannam tubidan «Hannon, Mannon» deb nido qiladigan bir odam bo'ladi. Jabroil uning ovozi eshitadi so'ng bu ovozdan hayratlanadi va sabri chidamay Rahmon arshiga borib sajda qiladi. Alloh taolo «Boshingni ko'tar, ey Jabroil!» deydi. U boshini ko'taradi. Alloh taolo O'zi bilsa hamki, so'raydi:

- Ajoyibotlardan nimalar ko'rding, ey Jabroil?

- «Xannon, Mannon» deb nido qilayotganni. Ey Robbim, ana shu ovozga hayron qoldim, - deydi Jabroil. Alloh taolo marhamat qiladiki:

- Ey Jabroil, Molikka (jahannam qo'riqchisi. - *Tarj*) borib ayt: «O' Hannon! O' Mannon!..» degan kishini do'zaxdan chiqarsin.

Jabroil jahannam eshiklaridan biriga kelib eshikni taqillatadi. Molik chiqadi. Jabroil Molikka: «Alloh taolo «O' Hannon, yo Mannon» degan kishini do'zaxdan chiqarishni buyurdi», deydi. Molik ichkariga kiradi; nido qilayotgan u odamni qidiradi, biroq u topilmaydi. Molik jahannam ahlini bir ona o'g'lini taniganidan ko'ra yaxshiroq taniydi. U Jabroilga deydi: «Shubhasiz, jahannam shunday ingramoqdaki, na toshni temirdan, na temirni insondan ajratolmayapman». Jabroil Allohning arshi huzuriga qaytib keladi va sajda qiladi. Alloh taolo unga:

- Boshingni ko'tar, ey Jabroil! Nechun qulimni olib kelmading? - deydi.

- O' Rabbim! Molik bunday dedi: «Shubhasiz do'zax shunday ingradiki, toshni temirdan, temirni esa insondan ajratolmayapman». Alloh taolo marhamat qiladi:

- Molikka ayt, mening qulim jahannamning falon-falon chuqurida.

Bir rivoyatda Jabroil borib Molikka xabar beradi. Molik (do'zaxga) kirib, u bandani aftoda, zalil, oyoqlari peshonasiga, qo'llari bo'yniga bog'langan, ilonlar, chayonlar unga yopishib olishgan bir holatda ko'radi. Molik u bandani bir silkitganda ustidagi chayon va ilonlar to'kilib tushadi. Keyin yana bir tortganida zanjir va bog'lar yechiladi. So'ngra uni otashdan chiqarib hayotbaxsh suvga soladi. Keyin esa uni Jabroilga topshiradi. Jabroil bu bandani peshonasidan ushlab o'ziga tortadi. Uni har bir farishta jamoasi yonidan olib o'tayotganda, farishtalar: «Bu banda naqadar jirkanchli», deydi.

Nihoyat Jabroil Rahmon arshi oldida sajdali holatda turadi. Alloh taolo:

- Ey Jabroil! Boshingni ko'tar! - deydi va u bandaga aytadiki:

- Ey qulim, Men seni go'zal suratda yaratmadimmi?! Senga rasul yubormadimmi?! U senga Mening kitobimni o'qimadimi?! Senga Mening buyruqlarimni yetkizmadimmi?! Seni ta'qiqlardan qaytarmadimi?!

- Shu-shu (gunoh)larni nega qilding?! - deydi Alloh. Banda javob beradi:

- Ey Rabbim!.. Nafsimga zulm qildim. Shuncha-shuncha payt do'zaxda qolgan bo'lsam hamki, Sendan umid uzmadim. O' Rabbim, Senga Hannon va Mannon ismlaring bilan duo qildim. Sen fazl-karaming ila meni jahannamdan chiqarding. Menga rahm et, Parvardigoro.

So'ng Alloh taolo aytadi:

- Guvoh bo'ling, ey farishtalarim, Men unga rahm qildim.

## 28

Abu Hanifa (r.a.) Muhammad ibn Mansur ibn Abu Sulaymon al-Balxiy va Muhammad ibn

Iso va Yazid at-Tusiydan, u Qosim ibn Umayya al-Hizoiy al Adaviydan, u Nuh ibn Qaysdan, u Yazid ar-Raqqoshiydan, u Anas ibn Molikdan rivoyat qiladilar. Anas ibn Molik (r.a.) aytadilar. Biz: «Qiyomat kunida kimni shafolat qilasiz, ey Allohning rasuli?» dedik. «Katta gunoh sodir etganlar, ahli musibat va odam o'ldirganlarni», deya marhamat qildilar.

## 29

Hammad Abu Hanifadan (r.a.), u Ismoil ibn Abu Holiddan va Bayon ibn Bishrdan, u Qays ibn Abu Hozimdan rivoyat qiladi. Abu Hozim dedi: «Jarir ibn Abdullohni eshitdim, bunday der edi: «Rasululloh marhamat qildilar: «To'linoy kechasi Oyni ko'rganingiz kabi Rabbingizni ko'rajaksiz. Uni hech bir narsaga o'xshatmay ko'rasiz. Tong va oqshom, quyosh chiqmasdan oldingi va kun botishdan avvalgi namozlarni o'tkazib yubormang». Hammad deydi: «Ular bomdod va shom namozlaridir».

## ILM

## 30

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Voildan, u Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Abdulloh (r.a.) aytdilar: «Payg'ambar (s.a.v.): «Ilm o'rganish har bir musulmonga farzdir», dedilar».

## 31

Abu Hanifa (r.a.) Nosihdan, u Yahyodan, u Abu Salamadan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): « Ilm o'rganish har bir musulmonga farzdir», dedilar».

## 32

Abu Hanifa (r.a.) aytdilar: «Hijriy 80-yilda tug'ildim. 16 yoshimda, hijriy 96-yilda Haj qildim. Masjidi Haramga kirganimda bir halqani (bir to'da odam) ko'rib, otamdan: «Bu kimning halqasi?» deya so'radim. Rasulullohning sahobalari Abdulloh ibn al-Horis ibn al-Jazning halqasi», dedilar otam. Borib uni tingladim. U: «Men Rasulullohning (s.a.v.): «Kimki dinda faqih bo'lsa, Alloh taolo uning muhim ishlarini bajo aylaydi, o'ylamagan joyidan unga rizq beradi» deganlarini eshitdim», dedi..

## 33

Abu Hanifa (r.a.) Ismoildan, u Abu Solihdan, u Ummu Xoniydan (r.a.) rivoyat qiladi. Ummu Xoniy (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: «Ey Oisha, shioring ilm va Qur'on bo'lsin».

## 34

Abu Hanifa (r.a.) Ali ibn al-Aqmardan rivoyat qiladi: U aytadi: Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) Allohni zikr etayotgan bir qavm yonidan o'tayotib ularga dedilar: «Sizlar men

nafsimni birga tutishga buyurilgan jamoatdansiz. Siz kabi insonlar o'tirib Allohni zikr qilishsa, farishtalar qanotlarini yozib ularni o'rab oladi. Ularni rahmat qoplaydi. Alloh ularni o'z huzuridagilar qatoridan yodlaydi».

### 35

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Abdulloh ibni Mas'uddan rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud aytadilar: Rasululloh (s.a.v.) marhamat etdilar: «Alloh taolo qiyomat kuni ulamolarni to'playdi va deydi:

- Men sizga yaxshilik istaganim uchungina qalblaringizga hikmatimni joyladim. Jannatga kiring! Sizdan sodir bo'lgan ayb-nuqsonlarni kechirdim».

### 36

Abu Hanifa (r.a.) Qosimdan, u otasidan, u bobosidan rivoyat qiladi. Qosimning bobosi aytadi: «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Kim qasddan menga bo'hton qilsa, yo men aytmagan gapni aytsa, do'zaxdan joyini tayyorlayversin».

### 37

Abu Hanifa (r.a.) Atiyyadan, u Abu Saiddan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Said aytdilar: Rasululloh (s.a.v.): «Kim qasddan menga bo'hton qilsa, do'zaxdan joyini tayyorlayversin», dedilar.

### 38

Hammud Abu Hanifadan (r.a.), u Atiyya al-Avfiydan, u Abu Said al-Xudriydan rivoyat qiladi. Abu Said al-Xudriy aytadi: «Rasululloh (s.a.v.) dedilar: «Kim qasddan menga bo'hton qilsa, do'zaxdan joyini tayyorlayversin». Atiyya dedi: «Men Abu Saidga bo'hton qilmaganimni Abu Said Hazrati Payg'ambarga (s.a.v.) bo'hton qilmaganini qat'iy bildiraman».

### 39

Abu Hanifa (r.a.) Saiddan, u Ibrohimdan, u Anasdan (r.a.) rivoyat qiladi. Anas (r.a.) aytadilar: Rasululloh (s.a.v.): «Kim qasddan menga bo'hton qilsa, do'zaxdan joyini tayyorlayversin», dedilar.

### 40

Abu Hanifa (r.a.) Zuhriydan, u Anasdan (r.a.) rivoyat qiladi. Anas (r.a.) aytadi: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Kim, menga qasddan bo'hton qilsa, jahannamdan joyini tayyorlayversin», dedilar.

Bu hadisni Abu Hanifa (r.a.) Yahyo ibn Saiddan ham rivoyat qilganlar.

## **TAHORAT KITOBI**

### **41**

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdi: «Hech biringiz tahorat oladigan turg'un suvga peshob qilmasin», dedilar

### **42**

Abu Hanifa (r.a.) Haysam as-Savvofdan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) g'usl qilinadigan, yo tahorat oladigan turg'un suvga peshob qilishdan qaytarganlarini aytdi.

### **43**

Abu Hanifa (r.a.) Shabiydan, u Hazrati Oishadan (r.a.) rivoyat qiladi. Hazrati Oisha (r.a.) aytdilar: «Rasululloh bir kuni tahorat oldilar. So'ng bir mushuk kelib idishdan suv ichdi. Mushuk suv ichgan idishdagi suv bilan Rasululloh (s.a.v.) tahorat oldilar».

### **44**

Abu Hanifa (r.a.) Mansurdan, u Abu Voildan rivoyat qiladi. Abu Voil aytdi: «Rasulullohni (s.a.v.) bir qavmning tashlandiq joyida tik turib peshob qilganlarini (tahorat ushatganlarini) ko'rdim».

### **45**

Abu Hanifa (r.a.) Adiy ibn Xotimdan, u Ibni Abbosdan rivoyat qiladi. Ibni Abbos (r.a.) aytdilar: «Men Rasulullohning (s.a.v.) sut ichib og'izlarini chayganlaridan so'ng tahorat yangilamay namoz o'qiganlarini ko'rdim».

### **46**

Abu Hanifa (r.a.) Ali ibn ar Raddodan, u Tammomdan, u Ja'far ibn Abu Tolibdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ja'far ibn Abu Tolib aytdilar: «Saxobalardan bir guruhlar Rasul Akramning (s.a.v) huzurlariga kirdilar. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) bunday dedilar: «Menga nima bo'ldi, tishlaringiz sarg'ayganini ko'ryapman. Tishingizni misvok bilan tozalang. Agar ummatimni mashaqqatga qo'ymaydigan bo'lganimda, ularni har namozga tishlarini misvok bilan tozalashni buyurardim».

Bir rivoyatda «Menga nima bo'ldi, huzurimga tishlaringiz sarg'aygan holatda kirayotganingizni ko'ryapman. Tishingizni misvok bilan tozalang. Agar ummatimni mashaqqatga qo'ymaydigan bo'lganimda, ularni har namozga, har tahoratda tishlarini misvok bilan tozalashga buyurardim», deya marhamat qilganlar.

### **47**

Abu Hanifa Hammoddan, u Xolid ibn Alqamadan, u Abdu Xayrdan rivoyat qiladi: Abdu Xayr aytdi: «Ali ibn Abu Tolib tahorat oldilar: qo'llarini oshig'i bilan uch marta yuvdilar,

og'izlarini uch marta so'ng burunni uch marta chaydilar va yuzlarini uch marta yuvdilar va bilaklarini uch marta yuvdilar va boshlariga uch marta masx qildilar va oyoqlarini yuvdilar so'ng: «Mana shu Rasulullohning tahoratidir», dedilar».

## 48

Abu Hanifa (r.a.) Xolidan, u Abdu Xayrdan rivoyat qiladi: Abdu Xayr aytadi: «Hazrati Ali (r.a.) suv so'radilar; qo'llarini oshig'i bilan uch bor yuvdilar, og'iz va burunni uch martadan chaydilar, yuzlarini va qo'llarini tirsaklari bilan qo'shib, uch marta yuvdilar. Boshlariga uch marta mash tortdilar, oyoqlarini uch marta yuvdilar va: «Bu Rasulullohning (s.a.v.) tahoratlaridir», dedilar.

Abdu Xayr Xolidan naql qilgan boshqa bir rivoyatda: Hazrati Ali (r.a.) suv so'radilar. So'ng qo'llarini oshig'i bilan uch bor yuvdilar. Burunlarini uch marta chaydilar. Yuzlarini va ikki bilaklarini uch martadan yuvdilar. Boshlariga bir marta mash qildilar. So'ng oyoqlarini uch bor yuvdilar.

Yana boshqa bir rivoyatda hazrati Ali (r.a.) suv so'radilar. Suvni bor bir idish va tos keltirildi. Abdu Xayr: «Biz unga qarab turardik», dedi. Hazrati Ali o'ng qo'llari bilan idishni oldilar, chap qo'llariga suv quydilar va qo'llarini uch marta yuvdilar. So'ng o'ng qo'llarini idishga tiqib qo'llarini to'ldirib suv oldilar. So'ng yuz va bilaklarini uch marta yuvdilar, og'iz va burunlarini chaydilar. So'ngra qo'lga suv olib boshiga bir marta mash tortdilar. Keyin oyoqlarini uch martadan yuvdilar. So'ng hovuchlari bilan suv olib: «Kimni Rasulullohning (s.a.v.) tahorat olishlarini ko'rish sevintirsa, mana shu Ul zotning tahorat olishlaridir», dedilar.

Yana bir rivoyatda Hazrati Ali (r.a.) suv so'radilar; qo'llarini, og'iz, burun va yuzlarini uch martadan yuvdilar. So'ngra hovuchlariga suv olib qo'llarini tirsaklariga qadar uch marta yuvdilar. Keyin esa boshga mash tortdilar va bunday marhamat qildilar: «Kimni Rasulullohning (s.a.v.) tahorat olishlarini ko'rish sevintirsa, mana shu tahoratga qarasin».

Boshqa bir rivoyatda «Hazrati Ali (r.a.) a'zolarini uch martadan yuvib tahorat oldilar», deyiladi.

Abdulloh ibn Muhammad Yaqubdan rivoyat qildilar. Yaqub (r.a.) Abu Hanifa (r.a.) Xolidan: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) boshiga uch marta mash tortdilar» deyilgan xadis to'g'risida shunday dedi: «Qo'llarini boshlarining tepasiga qo'ydilar, so'ng boshning orqasiga tortdilar, so'ng boshning oldiga tortdilar. Buni uch marta takrorladilar. Bu bir martaga xisob bo'ladi. Chunki qo'llarini uzmadilar. Suvni uch marta olmadilar. Bu suvni hovuchiga olib bilaklariga tortgan kishiga o'xshaydi.

Jorud ibn Zayd, Xorija ibn Mus'abdan, Asad ibn Umar rivoyat qilishgan hadislarida boshga bir marta mash tortilgan va mazkur hadisning manosi biz bayon etganimiz kabiligi aytilgan.

Hazrati Usmon (r.a.), Hazrati Ali (r.a.), Abdulloh ibn Mas'ud (r.a.) va boshqalar Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) boshlariga uch marta mash qilganlari haqidagi hadislarini rivoyat qilganlar.

Bayhaqiy aytadiki: «Hazrati Usmondan g'arib yo'llar bilan mashning takror qilingani bir-biriga xilof ravishda rivoyat etildi. Shuning uchun ular, ilm ahli nazdida hujjat bo'lmaydi.

Ularning manolari biz bayon qilgandan boshqa emas.

Kim Abu Hanifani mashning uch marta tortilishi borasidagi rivoyatda xatoga yo'l qo'ygan, desa adashadi va o'zi xato qiladi: Ko'pchilikning fikricha, Sho'ba bu hadisda qo'pol bir xato qilgan. U bu hadisni Molik ibn Urfatdan, u Abdu Xayrdan, u Hazrati Alidan (r.a.) rivoyat qilib aytgan. Sannadda ikki ismni noto'g'ri naql etgan. Xolidning o'rniga Molik, Alqama o'rniga Urqat degan. Mabodo bu xato Abu Hanifadan (r.a.) sodir etilsa edi, uni johillikda, kaltafahmlikda ayblashardi. Uni dindand chiqarishar edi. Bu esa taqvonning ozligi va havoyi nafsga ergashishdan bo'ladi.

#### **49**

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Hazrati Usmonning quli Ximrondan rivoyat qiladi. Ximron aytdi: «Hazrati Usmon (r.a.) a'zolarini uch martadan yuvib tahorat oldilar va: «Rasulullohning (s.a.v.) mana shunday tahorat olayotganlarini ko'rdim», dedilar.

#### **50**

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibni Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibni Buraydaning otasi aytdi: «Payg'ambar (s.a.v.) a'zolarini bir marta yuvib tahorat oldilar».

#### **51**

Abu Hanifa (r.a.) Muhoribdan, u Ibni Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibni Umar (r.a.) aytdi: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «To'piqlarga olovdan azob bo'lsin», dedilar.

#### **52**

Abu Hanifa (r.a.) Mansurdan, u Mujohiddan, u saqiflik Hakam yoki Ibnul Hakam degan bir kishidan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibnul Hakamning otasi aytdi: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) tahorat oldilar, keyin bir hovuch suv olib, uni tozalanadigan joylariga sepdilar».

#### **53**

Abu Hurayra (r.a.) Hakamdan, u Qosimdan, u Shurayhdan rivoyat qiladi. Shurayh bunday dedi: «Men Hazrati Oishadan (r.a.) so'radim:

- Mahsiga mash qilamanmi?

Hazrati Oisha (r.a.):

- Hazrati Alidan (r.a.) so'ra. U Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) bilan safarga chiqar edi,- dedilar».

Shurayh aytdi: «Hazrati Alidan (r.a.) so'radim. U menga: «Mash qil», deya javob berdilar».

#### **54**

Abu Hurayra (r.a.) Alqamadan, u Sulaymon ibn Buraydadan, Ibn Burayda otasidan naql qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) tahorat oldilar, mahsilariga mash tortdilar va besh vaqt namoz o'qidilar».



## 55

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibn Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibn Buraydaning otasi aytadi: «Hazrati Payg`ambarimiz (s.a.v.) Makka fathi kuni bir tahorat bilan besh vaqt namozni o`qidilar, mahsiga mash tortganlar. Hazrati Umar (r.a.) so`radi: - Bundan oldingi kunlarda bunday qilganingizni ko`rmagan edik.  
- Ataylab shunday qildim, ey Umar! - deya javob berdilar Rasululloh (s.a.v.).

## 56

Abu Hanifa (r.a.) Abdulkarim ibn Abu Umayyadan, u Ibrohimdan, u Jarir ibn Abdullohdan rivoyat qiladi. Jarir aytadi: «Moida surasi nozil bo`lgandan keyin Hazrati Payg`ambarning (s.a.v.) mahsiga mash qilishlarini ko`rdim».

## 57

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Hammol ibn Harsdan rivoyat qiladi. Hammol ibn-Hars Jarir ibn Abdulloh al- Bajaliyning (r.a.) tahorat olib mahsiga mash tortganini ko`rib bu haqda undan so`radi. Jarir shunday dedi: «Men Rasulullohning (s.a.v.) shunday qilganlarini ko`rdim. Moida surasi nozil bo`lganidan keyin ul zotga ergashgan edim».

## 58

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Sha`biydan, u Ibrohimdan, u Abu Muso Ash`ariydan, u Mug`iyra ibn Shu`badan rivoyat qiladi. Mug`iyra ibn Shu`ba Rasululloh (s.a.v.) bilan safarga chiqdi. Rasululloh (s.a.v.) bir joyga o`tib hojatlarini chiqarib qaytdilar. Ustlarida tor yengli Vizantiya (Rum) jubbasi bor edi. Rasululloh (s.a.v.) yenglarini shimardilar. Mug`iyra aytdi: «Men idishdan suv quyib turdim. Rasululloh (s.a.v.) namozga olinadigandek tahorat oldilar, mahsilarini yechmay unga mash tortdilar, so`ng o`tib namoz o`qidilar».

## 59

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, Hammod Sha`biydan, Sha`biy Mug`iyra ibn Shu`badan rivoyat qiladi. Mug`iyra aytdilar: «Men Rasulullohni (s.a.v.) tahorat oldirdim. Ustlarida tor yengli jubba bor edi. Rasuli Akram (s.a.v.) qo`llarini (englarini shimarib. - *Tarj.*) uning ichidan chiqardilar va mahsilariga mash tortdilar».  
Bir rivoyatda, Rasulullohning (s.a.v.) ustlarida tor yengli Shom jubbasi bor edi. Qo`llarini (englarini shimarib. - *Tarj.*) jubbaning yengidan chiqardilar, mahsiga mash tortdilar.

## 60

Abu Hanifa (r.a.) Sha`biydan, u Mug`iyra ibn Shu`badan rivoyat qiladi: Mug`iyra: «Rasulullohni (s.a.v.) mahsilariga mash tortganlarini ko`rdim», dedi.

## 61

Abu Hanifa (r.a.) Abu Bakr ibn Abu Jahmdan, u Ibni Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibni

Umar aytdilar: «Iroq g'azvasiga borganimda Sa'd ibn Molikni mahsiga mash tortganini ko'rib:

- Bu qanaqasi? - deya so'radim. Sa'd bunday javob berdi:
- Ey Ibni Umar! Otangning oldiga borsang, bu haqida so'ra.

Otamdan so'radim.

- Rasulullohning (s.a.v.) mahsiga mash qilganlarini ko'rdim, - dedilar otam.

Bir rivoyatda: « Iroqqa G'azvaga bordim. Qarasam, Sa'd ibn Molik mahsiga mash qilyapti.

- Bu nimasi? - dedim.

Sa'd:

-Hazrati Umarning oldiga borsang, undan so'ragin, - dedi. Hazrati Umar oldiga borganimda so'radim. U kishi aytdilar: «Rasulullohning (s.a.v.) mash qilayotganlarini ko'rdim va biz ham mash qildik».

Yana bir rivoyatda: «Iroqqa G'azvaga bordim. Sa'd ibn Abi Vaqqosni mahsiga mash qilayotganini ko'rib:

- Bu nimasi, ey Sa'd? - dedim. U:
- Mo'minlarning amiri bilan ko'rishganingda undan so'ra, - dedi.

Umar (r.a.)ni uchratib Sa'd qilgan narsani yetkazdim. Hazrati Umar (r.a.):

- Sa'd to'g'ri qilibdi. Rasulullohning (s.a.v.) shunday qilayotganlarini ko'rdim, so'ng biz ham shunday qildik,- dedilar.

Bir rivoyatda: «Iroq g'azvasiga bordik. Sa'd ibn Abi Vaqqosning mahsiga mash tortayotganini ko'rib, uni koyidim. Menga:

- Hazrati Umarning (r.a.) yonlariga borganingda, bu borada u zotdan so'rab ko'r! - dedim.

Hazrat Umar (r.a.) oldilariga borganimda shu xususda so'radim, unga Sa'd qilgan ishni aytdim.

«Amaking sendan faqihroqdir. Biz Rasulullohni (s.a.v.) mash qilganini ko'rdik va mash tortdik», dedilar hazrati Umar (r.a.).

## 62

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, U Solim ibn Abdulloh ibn Umardan rivoyat qiladi.

Abdulloh ibn Umar va Sa'd ibn Abi Vaqqos mash tortish xususida bahslashib qoldi. Sa'd: «Mash qilaman», dedi. Abdulloh: «Mash qilishni xush ko'rmayman», dedi.

Sa'd: «Hazrati Umarning huzurlarida to'plandik. Hazrati Umar dedilar: «Amaking sunnatni sendan yaxshi biladi».

## 63

Abu Hanifa (r.a.) Abdulloh ibn Dinordan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytadi: «Rasulullohni safarda mash tortganlarini ko'rdim, mashni bir vaqt bilan chegaralamadilar».

## 64

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Abdulloh al Jadliydan, u Huzayma ibn Sobitdan rivoyat qiladi. «Hazrati Payg'amg'ambar (s.a.v.) mahsiga mash tortish muddati haqida: «Mahsiga mash tortish uni tahoratli kiysa muqim uchun bir kecha bir kunduz, musofir uchun uch kecha uch kunduzdir», deya marhamat qildilar.

Yana bir rivoyatda: «Mahsiga mash tortish muddati mahsini tahoratli kiygan musofir uchun istasa uch kun, muqim uchun bir kun bir kecha», deganlar.

## 65

Abu Hanifa (r.a.) Saiddan, u Ibrohim at-Taymiydan, u Amr ibn Maymun Avdiydan, u Abu Abdulloh al-Jadliydan, u Huzayma ibn Sobitdan (r.a.) rivoyat qiladi. Huzayma (r.a.) aytadi: «Hazrati Payg'ambarimizdan (s.a.v.) mahsiga mash tortish haqida so'raldi. «Musofir uchun uch kun uch kecha, muqim uchun bir kun bir kecha», dedilar.

## 66

Abu Hanifa (r.a.) Hakamdan, u Qosim ibn Muhammaddan, u Shurayh ibn Honiydan, u Hazrati Alidan (r.a.) rivoyat qiladi. Hazrati Ali Payg'ambarimizning (s.a.v.): «Mahsiga mash tortish muddati musofir uchun uch kun va uch kechadir. Muqim kishi uchun bir kun va bir kechadir», deb marhamat qildilar.

## 67

Abu Hanifa (r.a.) Abu Ishoqdan, u Asvaddan, u Sha'biydan, u Hazrati Oishadan (r.a.) rivoyat qiladi. Hazrati Oisha bunday dedilar: «Rasululloh (s.a.v.) kechening boshida ahli bilan qo'shilar va yuvinmay uxlardilar, kechening oxirida uyg'onib ahli bilan yana qo'shilar, so'ngra g'usl qilar edilar».

## 68

Hammud Abu Hanifadan (r.a.), u Abu Ishoqdan, u Asvaddan, u Hazrati Oishadan (r.a.) rivoyat qiladi. Hazrati Oisha (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) kechening avvalida ahli bilan qo'shilar, g'usl olmas edi. Kechaning so'ngida uyg'onib ahliga yana qo'shilar, keyin g'usl qilar edilar».

## 69

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Hazrati Oishadan (r.a.) rivoyat qiladi. Hazrati Oisha (r.a.) bunday dedi: «Rasululloh (s.a.v.) junub bo'lganlarida uxlamoqchi bo'lsalar, namozga tahorat olgan kabi tahorat olardilar».

## 70

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u bir kishidan, u Huzayfadan (r.a.) rivoyat qiladi. Huzayfa (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) unga qo'llarini uzatdilar. Huzayfa Rasulullohdan (s.a.v.) qo'lini tortdi.

Rasululloh (s.a.v.):

Senga nima bo'ldi? - dedi.

- Men junubman, - dedi Huzayfa (r.a.).

Rasuli Akram (s.a.v.):

**24** Qo'lingni bizga ko'rsat. Shubhasiz, mo'min najas emas, boshqa rivoyatda mo'min najas bo'lmaydi,- deya marhamat qildilar».

## 71

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, Hammod Huzayfadan rivoyat qiladi. Huzayfa (r.a.) aytadi: «Rasululloh (s.a.v.) qo'lini Huzayfaga cho'zdilar. U qo'lini Rasulullohga uzatmadi. Shunda Rasululloh (s.a.v.): «Musulmon najas bo'lmaydi», dedilar».

## 72

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Hazrati Oishadan (r.a.) rivoyat qiladi. Allohning Rasuli (s.a.v.) Hazrati Oishaga (r.a.):  
- Menga atirni olib bering, - degan edilar, Hazrati Oisha (r.a.):  
- Men hayzliman, - dedilar.  
Shunda Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Hayzing qo'lingda emas», deya marhamat etdilar.

## 73

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan rivoyat qiladi. Ibrohim aytdiki, Ummu Sulaymdan (r.a.) eshitgan kishi menga aytdi: «Ummu Sulaym (r.a.) Payg'ambardan (s.a.v.): «Erkak ko'radigan narsani ayol ko'rsa nima bo'ladi?» deya so'radi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «G'usl qiladi», deya marhamat qildilar».

## 74

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, Ato Hazrati Oishadan (r.a.) rivoyat qiladi. Hazrati Oisha (r.a.) aytdilar: «Rasululloh: «Hammom naqadar yomon uy. U bekitmaydigan uy va poklamaydigan suvdir», dedilar».

## 75

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Hammom ibn Harsdan, u Hazrati Oishadan (r.a.) rivoyat qiladi. Hazrati Oisha (r.a.): «Men Rasulullohning (s.a.v.) kiyimlarida qurib qolgan maniyni ishqalab tozalar edim», dedilar.

## 76

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Hammomdan rivoyat qiladi. «Mo'minlarning onasi Hazrati Oisha (r.a.) bir odamni mehmon qildi. Unga yopinib yotish uchun yopinchiq berdilar. Uni kechasi yopinib uxladi. Kechasi junub bo'lib qoldi. Mehmon yopinchiqni to'la yuvdi. Hazrati Oisha (r.a.): «Yopinchiqni yuvishdan nima istadi, uni ishqalab tashlasa kifoya qilardi. Men Rasulullohning (s.a.v.) kiyimlarini ishqalab tashlardim. Keyin o'sha kiyimda Rasululloh (s.a.v.) namoz o'qir edilar», dedi».

## 77

Abu Hanifa (r.a.) Sammokdan, u Ikrimadan, u Ibni Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Rasululloh (s.a.v.): «Oshlangan har qanday teri toza bo'ladi», dedilar.

## 78

Abu Hanifa (r.a.) Sammokdan, u Ikrimadan, u Ibni Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Rasululloh (s.a.v.) Savdoning o'lib qolgan qo'yining yonidan o'tganlarida bunday dedilar: «Bu qo'yning terisidan foydalansalar gunoh bo'lmaydi». Shundan so'ng qo'y terisini shilib olib, mesh qildilar. Uni eskirgunga qadar ishlatishdi.

## NAMOZ KITOBI

## 79

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Abdullohdan, u Abu Zarrdan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Zarr (r.a.) namoz o'qidi. Namoz qiroatini qisqa qildi. Ruku va sajdalarni ko'p qildi. Namozni tugatgach bir odam unga dedi: «Sen Rasulullohning (s.a.v.) eng yaqin do'sti bo'la turib shunday namoz o'qiysanmi?!»

Abu Zarr (r.a.) so'radi:

«Ruku va sajdalarni to'la ado etmadimmi?». U:

«Aksincha, mukammal qilding».

Abu Zarr (r.a.) dedi: «Men Rasulullohning (s.a.v.) bunday deganlarini eshitgan edim: «Kim Alloh taolo uchun bir bora sajda qilsa, u sababidan jannatda bir daraja yuksaltiriladi». Men o'zimga ko'p darajalar berilishini, ko'p darajalar yozilishini istadim».

Ibrohimga bir kishi shunday dedi: «Rabzada Abu Zarrning yonidan o'tayotganda Abu Zarr qisqa qiroat qilib, ruku va sujud sonini ko'paytirib namoz o'qiyotgan edi. Abu Zarr (r.a.) salom bergach, unga dedi: «Sen shunaqa namoz o'qiysanmi? Axir sen Rasulullohning (s.a.v.) hamrohisan-ku?!».

Abu Zarr (r.a.) aytdi. «Men Rasulullohning (s.a.v.): «Kim Alloh uchun bir sajda qilsa, u sababidan Alloh taolo jannatda uni bir daraja ko'taradi», deganlarini eshitdim. Shuning uchun sajdani ko'paytiraman».

## 80

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, Ibrohim Abdullohdan rivoyat qiladi. Abdulloh aytdi: «Rasululloh (s.a.v.): «Kindik bilan tizza orasi avrat», dedilar.

## 81

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir ularga bir ko'ylakda imomlikka o'tdi. Uning ortiqcha kiyimlari bo'lsada bizga Rasulullohning (s.a.v.) sunnatlarini o'rgatish uchun shunday qilgan edilar.

## 82

Abu Qurra aytdi: Ibni Jurayh Abdurahmondan naql etadi. Bir odam: «O' Rasulalloh! Shu kimsa bir kiyim bilan namoz o'qiydi», dedi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Har biringizda ikki ko'ylak bormi?» dedilar.

Abu Qurra: «Men Abu Hanifadan (r.a.) eshitdim. U Zuhriydan, u Said ibn Musayyabdan, u Abu Hurayradan rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) bir ko'ylakda namoz o'qish haqida

so'radi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Har biringiz ham ikki ko'ylak topolmaydi», deya marhamat qildilar.

### 83

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir aytadi: «Rasululloh (s.a.v.) bir kiyimda namoz o'qidilar». Qavmlardan ba'zilari Abu Zubayrga bunday dedi: «Farzdan boshqa namozmi?». «Farz va farzdan boshqa namozda», dedi u.

### 84

Abu Hanifa (r.a.) Talha ibn Nofidan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir aytdi: «Rasulullohdan (s.a.v.): «Eng afzal amal nima?» deya so'raldi. «O'z vaqtida o'qilgan namoz», deya marhamat qildilar».

### 85

Abu Hanifa (r.a.) Abdulloh ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibni Umar (r.a.) aytadi: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Bomdod namozini tongni yorishtirib o'qing, bu katta savobga bo'sdir», dedilar».

### 86

Abu Hanifa (r.a.) Shaybondan, u Yahyodan, u Buraydadan rivoyat qiladi. Burayda (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.): «Asr namozini erta vaqtida o'qing», deya marhamat qildilar. Bir rivoyatda Burayda Aslamiy (r.a.) aytadi: «Rasululloh (s.a.v.) marhamat etdilar: «Kun bulutli bo'lganida asr namozini erta vaqtida o'qing. Chunki quyosh botib, asr namozini vaqtida o'qimaganning amali bekor ketadi».

### 87

Abu Hanifa (r.a.) Shaybondan, u Yahyodan, u Ibni Buraydadan rivoyat qiladi. Ibni Burayda (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.): «Asr namozini vaqtida o'qimagan kishi, oilasiga zulm qilgandek bo'libdi», dedilar».

### 88

Abu Hanifa (r.a.) Abdumalikdan, u Quzoa'dan, u Abu Saiddan (r.a.) rivoyat qiladi: Abu Said (r.a.) aytdilar. «Rasululloh (s.a.v.): «Bomdod namozidan keyin quyosh chiqquncha namoz o'qilmaydi. Asr namozidan so'ng quyosh botguncha namoz o'qilmaydi. Ikki kunda - Qurban va fitr hayiti kunlari ro'za tutilmaydi. Uch masjid - Masjidi Haram, Masjidi Aqso, va mening bu Masjidimdan boshqa joyga (savob qasdida - *Tarj.*) safar qilinmaydi. Ayol kishi, yonida bir mahrami bo'lmay ikki kunlik yo'lga safar qilmasin», deya marhamat qildilar».

### 89

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, Alqama Ibni Buraydadan rivoyat qiladi. Ibni Burayda (r.a.)

aytadi: «Ansoriylardan biri Rasulullohning (s.a.v.) yonlaridan o'tganda Ul zotni xafa holda ko'rdi. Bu ansoriy ovqatni ko'pchilik dasturxon bilan yerdi. Rasulullohning (s.a.v.) ahvolini ko'rib, mahzun bo'lib, ovqatini yemay yoniga kelganlarni qoldirib masjidga kirdi, namoz o'qirgan uni uyqu bosdi. Unga tushida bir odam bunday dedi:

- Sen Rasulullohning mahzunliklari sababini bildingmi?

- Yo'q.

- Namozga azon aytishni o'ylayaptilar. Hazrati Payg'ambarga (s.a.v.) bor. Bilolga azon aytishni buyursinlar, - dedi va ansoriyga azon chaqirishni o'rgatdi:

«Allohu akbar - to'rt marta

Ashhadu alla ilaha illalloh - ikki marta

Ashhadu anna Muhammadar rasululloh - ikki marta

Hayya `alal solah - ikki marta

Hayya `alal falah - ikki marta.

Allohu akbar, Allohu akbar

La ilaha illalloh».

Keyin shu tartibda iqomatni o'rgatdi. Keyingisida kishilarning azon va takbirlaridagidek

«qod qomatis solah» - ikki marta. «Allohu akbar, Allohu akbar. La ilaha illalloh» dedi.

Ansoriy masjiddan chiqdi va Rasulullohning (s.a.v.) eshiklari oldida o'tirdi. Abu Bakr

(r.a.) uning yonidan o'tdilar. Ansoriy Hazrati Abu Bakrga: «Ichkariga kirish uchun menga ruxsat olib bering», dedi.

Ansoriy ko'rgan tushni Abu Bakr ham ko'rgan va Rasulullohga aytgan edi. So'ngra Abu Bakr ansoriyga ruxsat oldi. U Rasulullohning (s.a.v.) huzurlariga kirib ko'rgan (tush)ni aytib berdi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) bunday dedilar: «Hazrati Abu Bakr (r.a.) ham shunga o'xshashini menga so'zladi», dedilar va Bilolga shunday azon aytishni buyurdilar.

Boshqa bir rivoyatda: «Ansoriylardan biri Rasulullohning (s.a.v.) yonlaridan o'tganda Ul zotni xafa holatda ko'rdi. Bu odamning ozuqasi serob bo'lib o'sha oqshom kishilarga ovqat berardi. Rasulullohni (s.a.v.) xafa ekanliklarini ko'rgach, ovqatni qoldirib, uyning namoz o'qiladigan bo'limiga namoz o'qish uchun o'tdi. Ittifoqo, uyqu bosdi. Uyqu asnosida birov keldi va bunday dedi:

- Rasulullohni (s.a.v.) nima xafa qilganini bilasanmi?

- Yo'q.

Shunda u:

- U nidodir. Hazrati Payg'ambarga (s.a.v.) bor, Bilolga buyursin, - dedi va menga azonni o'rgata boshladi:

«Allohu akbar - to'rt marta

Ashhadu alla ilaha illalloh - ikki marta

Ashhadu anna Muhammadan Rosululloh - ikki marta

Hayya `alal solah - ikki marta

Hayya `alal falah - ikki marta

Allohu akbar, Allohu akbar

La ilaha illalloh».

Keyin iqomatni ham shu tarzda o'rgatdi. So'ng oxirida ikki marta kishilarning azon va takbirlaridagidek «Qod qomatis - solah» dedi. Ansoriy uyg'onib Rasululloh (s.a.v.) huzurlariga borib eshik oldida o'tirdi. Shunda Abu Bakr (r.a.) kelib qoldilar. Ansoriy unga: «Menga ruxsat olib bering», dedi. Abu Bakr kirib Rasulullohga u ko'rgan kabi holni aytdilar. So'ng ansoriy kirib ko'rganini aytdi. Rasululloh (s.a.v.): «Abu Bakr bizga aytdi, Bilolga shuni ayt», dedilar.

## 90

Abu Hanifa (r.a.) Abdullohdan rivoyat qiladi. Abdulloh dedi: «Men Ibni Umardan (r.a.) eshitdim. Bunday dedi: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) azon aytilayotganda muazzin aytayotgan so'zlarni takrorlar edilar».

## 91

Abu Hanifa (r.a.) Abdulloh ibn Abu Avfadan rivoyat qiladi: U: «Rasulullohning (s.a.v.) bunday deganlarini eshitdim», dedi: «Kim Alloh uchun bedana uyiday bo'lsada bir masjid bino qilsa, Alloh taolo unga jannatda bir uy bino qiladi».

## 92

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibni Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) masjidida yo'qolgan tuyasini so'rab baqirayotgan kishi ovozini eshitib: «Topmagin», deya duo qildilar.

Bir rivoyatda, yo'qolgan narsasini qidirayotgan odam gapini eshitib bunday dedilar: «Topmagin. Bu masjidlar ibodat uchun qurilgan».

## 93

Abu Hanifa (r.a.) Osimdan, u otasidan, u Voil ibn Hujrdan (r.a.) rivoyat qiladi. U naql etadi: «Nabiy alayhissalom qo'llarini quloq yumshog'igacha ko'tarar edilar». Voil bir rivoyatda Rasulullohni namozda qo'llarini quloqlari yumshog'igacha ko'targanlarini ko'rganini aytdi.

## 94

Abu Hanifa (r.a.) Osimdan, u Abduljabbor ibn Voildan, u otasidan rivoyat qiladi. U: «Rasulullohning (s.a.v.) takbir paytida qo'llarini ko'targanlarini, (namoz oxirida) o'ng va chap tomonga salom berganlarini ko'rdim», dedi.

## 95

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, Hammud Ibrohimdan rivoyat qiladi. Ibrohim Voil ibn Hujr haqida Ibrohim bunday dedi: «U a'robiydir. Rasululloh (s.a.v.) bilan undan oldin aslo namoz o'qimagan. U Abdulloh va birodarlaridan bilimdonroqmi? Qo'llarni ko'tarishni eslab ular eslolmaydilmarmi?»

Bir rivoyatda Voil ibn Hujrning hadisi zikr etilgandi. «Bir a'robiydir. Undan oldin Nabiyning (s.a.v.) unday namoz o'qiganini bilmayman. U Abdullohdan bilimdonroqmi?» dedi.

Boshqa bir rivoyatda Ibrohimning oldida Voil ibn Hujrning u Rasulullohning (s.a.v.) ruku va sajda paytida qo'llarini ko'targanlarini ko'rgani haqidagi hadis zikr etildi. Ibrohim: «U a'robiydir. Islom shariatini bilmaydi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) bilan bor-yo'g'i bir marta namoz o'qigan. Sanoqsiz kishilar menga Abdulloh ibn Mas'uddan Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) faqat namoz boshlanishida qo'llarini ko'targanlarini rivoyat etgan». Abdulloh buni Payg'ambardan (s.a.v.) naql etgan. Abdulloh Islom shariatining



bilimdonidir. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) holini yaxshi o'rgangan. Muqimlikda va safarda doimo Ul zot (s.a.v.) bilan bo'lib, birga juda ko'p namoz o'qiganlar, dedi.

## 96

Sufyon ibn Uyayna aytdi: «Abu Hanifa (r.a.) va Avzoi Makkada «Bug'doychilar hovlisida birga bo'lishdi. Avzoi Abu Hanifaga dedi:

- Sizga nima bo'ldi, namozda rukuga borayotganda, rukudan turayotganda qo'llaringizni ko'tarmaysiz?

Abu Hanifa bunday dedilar:

- Bu borada Rasulullohdan bir narsa sobit bo'lmagani uchun.

Avzoi aytdiki:

- Nechun sobit bo'lmasin? Zuhriy Salimdan, u otasidan Rasululloh (s.a.v.) namoz o'qishni boshlayotganda, rukuga borayotganlarida va undan turayotganlarida qo'llarini ko'targanlari rivoyat qilingan.

Bunga javoban Abu Hanifa:

- Bizga Hammud Ibrohimdan, u Alqamadan, u Asvaddan, u Ibni Mas'uddan Rasululloh (s.a.v.) faqat namozni boshlayotganda qo'llarini ko'tarishlari, uni takror etmasliklarini rivoyat qilgan,- dedilar.

Avzoi:

- Men sizga Zuhriydan, u Solimdan, u otasidan rivoyat qilganini aytayapman. Siz menga Hammud Ibrohimdan rivoyat qildi, deysiz,- dedi.

Abu Hanifa:

- Hammud Zuhriydan faqihroqdir. Ibrohim Solimdan faqihroq edi. Alqama fiqhda Ibni Umardan kam emas. Ibni Umar sahobiy bo'lsalar, yo unda suhbat fazilati bo'lsa, Asvadda ko'p fazilatlar bor. Abdulloh Abdullohdir, - degach Avzoi jim bo'ldi.

## 97

Abu Hanifa (r.a.) Tarifdan, u Abu Sufyondan, u Abu Nazradan, u Abu Said Hudriydan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Said aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) marhamat etdilar: «Namozning kaliti tahoratdir. Takbir namozda boshqa ishlarni harom qilguchidir. Salom boshqa ishlarga ruxsatdir.

Har ikki rikatda salom ber, namoz Fotiha va undan so'ng bir sura o'qilmasa mukammal bo'lmaydi».

Muqri Abu Hanifadan (r.a.) shunga o'xshash bir hadis rivoyat etgan. Uning so'nggiga: Muqri Abu Hanifadan «Ikki rikatda salom ber nima deganing?» deb so'radim», deydi.

Abu Hanifa: «Undan maqsad «Tashahhuddir», dedilar Muqri: «Abu Hanifa to'g'ri aytdi», dedi. Bir rivoyatda: «Namoz faqat Fotiha va u bilan birga o'qiladigan oyatlar bilan mukammal bo'ladi», deyiladi.

## 98

Abu Hanifa (r.a.) Ato ibn Abu Rabohdan, u Abu Hurayradan (r.a.)rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytadi: «Madinada Rasulullohning bir munodiylari (jarchilari. - *Tarj.*) bunday dedi: «Namoz faqat qiroat bilan, agar u «Fotiha» surasi bo'lsada, bo'ladi.

## 99

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Anasdan (r.a.) rivoyat qiladi. Anas aytdi: «Hazrat Payg`ambar (s.a.v.), Hazrati Abu Bakr (r.a.) va Hazrati Umar (r.a.) «Bismilloh...»ni ovoz chiqarib o`qishmas edilar».

## 100

Abu Hanifa (r.a.) Abu Sufyondan, u Yazid ibn Abdulloh ibn Mu`affaldan rivoyat qiladi: «U bir imomning orqasida namoz o`qidi. Imom «Bismilloh...»ni ovoz chiqarib aytdi. Namoz tugagach, imomga: «Ey Allohning quli. Bu nag`mangni bizdan bartaraf qil. Men Rasulullohning (s.a.v.) orqalarida, Hazrati Abu Bakr (r.a.), Hazrati Umar (r.a.), Hazrati Usmonlarning (r.a.) orqasida namoz o`qiganman. «Bismilloh...»ni ovoz chiqarib aytganlarini eshitmaganman», dedi. Bular sahobiydir».

To`plovchi aytadi: «Bu hadisni bir jamoat Abu Hanifadan (r.a.), u Abu Sufyondan, u Yaziddan, u otasidan (r.a.), u Rasulullohdan (s.a.v.) rivoyat etgan. «Bismilloh..»ni oshkora aytganlarini eshitmadim», degan xabari to`g`ridir. Chunki bu Abdulloh ibn Mu`affaldan kelgan mashhur xabardir».

## 101

Abu Hanifa (r.a.) Adiydan, u Barodan rivoyat qiladi. Baro bunday deydi: «Rasululloh (s.a.v.) bilan birga xufton namozini o`qidim. «Tiyn» surasini o`qidilar».

## 102

Abu Hanifa (r.a.) va Mu`si Ziyoddan, u Qutba ibn Molikdan rivoyat qiladi. Qutba ibn Molik: «Rasululloh (s.a.v.) bomdod namozining ikki rakatining birida «Qof» surasi, o`ninchi oyatini o`qiganlarini eshitdim», dedi.

## 103

Abu Hanifa (r.a.) Musodan, u Abdulloh ibn Shaddoddan, u Jobir ibn Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Rasululloh (s.a.v.): «Kim imomga iqtido etsa, imomning qiroati uning qiroati bo`ladi», dedilar».

Bir rivoyatda: «Sahobadan birlari Hazrati Payg`ambarning (s.a.v.) orqalarida peshin va asr namozida qiroat qildi, bir sahoba imo bilan uni qiroatdan qaytardi. Namoz tugagach unga: «Rasuli Akramning (s.a.v.) orqalarida qiroat qilishdan qaytarasanmi?» dedi.

So`ngra ikkalasi bu xususda bahslashdilar. Ularning bahsini Payg`ambar (s.a.v.) eshitib: «Kim imomning orqasida namoz o`qisa, imomning qiroati uning qiroati bo`ladi», dedilar.

Yana bir rivoyatda: «Bir kishi Rasululloh (s.a.v.) orqalarida qiroat qildi. Rasululloh (s.a.v.) uni bundan qaytardilar», deyiladi.

Yana bir rivoyatda aytilishicha Rasululloh (s.a.v.) kishilar bilan namoz o`qidilar. U zot orqasida bir kishi qiroat qildi. Shunda Rasululloh (s.a.v.): «Mening ortimda qaysingiz qiroat qildi?» dedilar.

- Men o`qidim, ey Rasululloh, - dedi bir kishi.

Rasululloh (s.a.v.):

- Kim imom ortida namoz o`qisa, imomning qiroati uning ham qiroati bo`ladi, - deya marhamat qildilar.

Boshqa bir rivoyatda: Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) peshin va asr namozlarini o'qib chiqqanlaridan so'ng:

- Sizdan kim A'lo surasini o'qidi? - deb so'radilar.

Hech kim indamagach, yana bir bor so'raganlarida, jamoatdan bir kishi:

- Men o'qidim, ey Allohning rasuli, - dedi.

Rasuli Akram (s.a.v.) unga:

- Seni men bilan Qur'onni tortishayotganing holda ko'rdim, - dedilar.

## 104

Abu Hanifa (r.a.) Abu Yafurdan, u Sa'd ibn Molikdan rivoyat qiladi. Sa'd ibn Molik bunday dedi: «Biz namozda (rukuda. - *Tarj.*) qo'llarimizni sonlarimiz orasiga qo'yardik, so'ng tizzalarimizga qo'yishga buyurildik».

## 105

Ibn Abi Subu'i Ibn Talha aytadi: «Abu Hanifaning (r.a.) Atodan «Imom: «Samiallohu liman hamidah», degach, «Robbana lakal hamd», deydimi?» deb so'rayotganini ko'rdim.

- Buni aytishi lozim emas, - deya javob berdi Ato».

Ibn Umardan rivoyat qilingan bir hadisda shunday kelgan: «Nabiy (s.a.v.) bizga namoz o'qib berdilar. Rukudan bosh ko'targanlarida: «Samiallohu liman hamidah», dedilar.

Shunda orqalaridagi biri: «Robbana lakal hamdu, hamdan kasiyran toyyiban mubarokan fih», dedi. Nabiy (s.a.v.) namozni tugatgandan so'ng jamoatga qarab:

- Bu so'zni aytgan kim edi? - deya uch marta so'radilar.

Bir sahobiy:

- Ey Allohning Nabiysi, men aytdim, - dedi.

Hazrati Payg'ambar (s.a.v.):

- Meni haq ila yuborgan Alloh taologa qasamki, senga qaysi 1 bo'lib savob yozishga va uni ko'tarishga musobaqa qilayotgan o'ttizdan ortiq farishtani ko'rdim,- deya marhamat etdilar».

## 106

Abu Hanifa (r.a.) Osimdan, u otasidan, u Voil ibn Hijrdan rivoyat qiladi. U: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) sajdaga boayotganlarida tizzalarini qo'llaridan oldin yerga qo'yardilar. Sajdadan turayotganlarida qo'llarini tizzalaridan oldin ko'tarar edilar», dedi.

## 107

Abu Hanifa (r.a.) Tovusdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) yo bir necha sahobadan rivoyat qiladi: «Nabiyga (s.a.v.) yetti a'zo bilan sajda qilishga vahiy etildi».

## 108

Abu Hanifa (r.a.) Ikrimadan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbosdan (r.a.) aytadi: «Rasululloh (s.a.v.) aytdilarki: «Yetti a'zo bilan sajda qilishga, namozda soch va kiyimni tuzatmaslikka buyurildim».

### 109

Abu Hanifa (r.a.) Abu Sufyondan, u Abu Nazradan, u Abu Saiddan (r.a.) rivoyat qiladi. Rasululloh (s.a.v.): «Inson yetti a'zo: peshonasi, ikki qo'li, ikki tizza va ikki oyoq uchi bilan sajda qiladi: Sajda qilganingizda har bir a'zoni joyiga qo'yingiz. Ruku qilganda eshak kabi boshini egib belini chiqarmasin (ortini tekis tutsin. - *Tarj.*)», deya marhamat qildilar.

### 110

Abu Hanifa (r.a.) Abu Sufyondan, u Abu Nazradan rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.): «Sajda qilayotganingizda oyoqlaringizni cho'zmang. Inson yetti a'zosi bilan: peshonasi, ikki qo'li, ikki tizzasi, ikki oyoq panjalari bilan sajda qiladi», dedilar. Bir rivoyatda: «Sizlar sajda qilganda belingizni cho'zmang», deyilgan. Boshqa bir rivoyatda: «Rasululloh (s.a.v.) sajdada belini cho'zishdan qaytarganlar», deyiladi.

### 111

Abu Hanifa (r.a.) Jabla ibn Suhaymdan, u Abdulloh ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Abdulloh ibn Umar (r.a.) aytadi: «Rasululloh (s.a.v.): «Kim namoz o'qisa, it kabi tirsaklarini yerga to'shamasin», dedilar».

### 112

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud aytadi: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) bomdod namozida faqat bir oy Qunut duosini o'qidilar, bundan oldin ham keyin ham mushriklarni duo bad qilganlari ko'rilmadi».

### 113

Abu Hanifa (r.a.) Atiyyadan, Atiyya Abu Saiddan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Said (r.a.) aytadi: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) faqat qirq kun Usayya va Zakvon ahlini badi duo qilib, Qunut duosini o'qidilar. So'ng vafotlariga qadar bomdodda Qunut o'qimadilar».

### 114

Abu Hanifa (r.a.) Osimdan, u otasidan, u Voil ibn Hujrdan rivoyat qiladi. Voil ibn Hujr aytadi: «Rasululloh (s.a.v.) namozda o'tirganlarida chap oyoqlarini to'shab ustiga o'tirardilar, o'ng oyoqlarini esa tik tutar edilar».

### 115

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi: «Hazrati Ibni Umardan (r.a.):  
- Rasululloh (s.a.v.) zamonlarida ayollar qanday namoz o'qirdi? - deya so'raldi.  
Hazrati Umar (r.a.):

- Ayollar chordona qurib o'tirar edilar. Keyin sonlari ustiga (quymichlarida. - *Tarj.*) o'tirishga buyurildilar, - deya javob berdi».

### 116

Abu Hanifa (r.a.) Abu Ishoqdan, u Abu Barodan rivoyat qiladi. Abu Baro aytadi: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) bizga Qur'ondan sura o'rgatganlaridek namozdagi tashahhudni o'rgatar edilar».

### 117

Abu Hanifa (r.a.) Qosimdan, Qosim otasidan, u Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Abdulloh (r.a.): «Rasululloh (s.a.v.) bizga namozning xutbasini, ya'ni tashahhudni o'rgatdilar», dedilar.

### 118

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Abu Voildan, u Shaqiq ibn Salamadan, u Abdulloh ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Abdulloh aytadi: «Biz Hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) orqalarida namoz o'qirdik va «Assalomu alaalloh» der edik».

Bir rivoyatda: «Min ibodih Assalamu `ala Jibriyla va Mikoila» qo'shilgan.

Nabiy (s.a.v.) bizga burilib dedilar:

- Alloh taolo o'zi salomdir, siz tashahhudga o'tirganda bunday deng:

«Attahiyyatu lillahi vas-salavatu vat-toyyibatu. Assalamu `alayka ayyuhan - nabiiyu va rahmatullohi va barokatuhu. Assalamu `alayna va `ala ibadillahis - solihiyin. Ashhadu an La ilaha illalloh va ashhadu anna Muhammadan `abduhu va Rasuluh».

Bir rivoyatda bunday deyiladi:

«As-salomu `alalloh, as-salomu `ala Jibriyla, as-salamu `ala Rasululloh», deyishardi.

Rasululloh (s.a.v.): «As-salamu `alalloh demang, balki:

«Attahiyyatu lillahi vas-salavatu...», deb ayting.

Boshqa bir rivoyatda: «Rasululloh (s.a.v.) ularga tashahhudni oxirigacha o'rgatdilar», deyilgan. Bir rivoyatda «Bizga o'rgatdilar», deyiladi.

Yana bir rivoyatda bunday keladi: «Biz Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) bilan namoz o'qiganimizda, namoz oxirida o'tirganimizda: «As-salamu `alalloh, as-salamu `ala Rasululloh va `ala mala'ikatihi..», der edik. Rasululloh (s.a.v.): «Bunday demang, lekin: «Attahiyyatu lillahi vas-salavatu vat-toyyibatu...» denglar», deya marhamat qildilar».

### 119

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud (r.a.) bunday dedi: «Rasululloh (s.a.v.) o'ng tomonlariga: «As-salomu alaykum va rahmatulloh», deya salom berar edilar. O'ng va chap tomonlariga salom berganlarida yuzlarining yarmi orqalaridan ko'rinar edi».

Bir rivoyatda: «O'ng yonoqlarining oqligi ko'rinar edi», deyiladi.

### 120

Abu Hanifa (r.a.) Qosimdan, u otasidan, u Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Abdulloh

(r.a.) aytadiki: «Rasululloh (s.a.v.) ikki marta, ya'ni o'ng va chap tomonlariga salom berar edilar».

## 121

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan rivoyat qiladi. Ibrohim (r.a.) aytadi: «Abdulloh ibn Mas'ud, Huzayfa, Abu Muso (r.a.) va boshqa ashoblar bir uyda to'plandilar. Namoz vaqti kirganida: «Oldinga (imomlikka. - *Tarj.*) o't, ey falonchi», dedilar. U kishi esa oldinga o'tishdan bosh tortdi va:

- Ey Abu Abdurrahmon!.. Siz oldinga o'ting, - deyishdi.

Shundan so'ng Abdurrahmon imomlikka o'tdilar va ruku va sajdani mukammal etib, qisqa qilib namoz o'qidilar. Namozni tugatganida jamoat:

- Abu Abdurrahmon Rasulullohning (s.a.v.) namoz o'qishlarini yodda tutgan ekan, - dedi».

## 122

Abu Hanifa (r.a.) Abu Sufyondan, u Jobirdan, u Abu Saiddan rivoyat qiladi. Abu Said (r.a.) Rasululloh (s.a.v.) huzurlariga kirganda Ul zotni bir buyra ustida namoz o'qib, uning ustiga sajda qilayotganlarini ko'rdi».

## 123

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytadi: «Rasululloh (s.a.v.) o'tirib, tik turib va o'ralib namoz o'qidilar».

## 124

Abu Hanifa (r.a.) Abu Sufyondan, u Hasandan (r.a.) rivoyat qiladi. Hasan (r.a.) aytadi: «Rasululloh (s.a.v.) ko'z og'rig'i sababli o'ralib namoz o'qidilar».

## 125

Damig'on qozisi Muhammad ibn Bukay bunday dedi: «Abu Hanifaga (r.a.) «Kasal hushini yo'qotsa namoz vaqti kirganda unga nima qilish lozim?» deya maktub yozdim. U kishi menga: Muhammad ibn Munkadirdan, u Jobir ibn Abdullohdan (r.a.) rivoyat qilib yozdilar. «Jobir aytadi: «Men kasal bo'lganimda Nabiy (s.a.v.) meni ko'rishga keldilar. Yonlarida Hazrati Abu Bakr (r.a.) va Umar (r.a.) bor edilar. Namoz vaqti kirgan payt kasalligim tufayli hushimni yo'qotdim. Rasululloh (s.a.v.) tahorat oldilar va menga tahorat suvidan sepdilar va mendan: «Qandaysan, ey Jobir?» deya so'radilar va so'ngra: «Kuching yetuncha imo-ishora bilan bo'lsa-da, namoz o'qi», deya marhamat qildilar».

## 126

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytadilar: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) juda holsiz, behush bo'lgach: «Abu Bakrga ayting, odamlarga (jamoatga... - *Tarj.*) namoz o'qib bersin», dedilar. «Hazrati Abu Bakr (r.a.) tortinchoqlar. O'zlaricha Sizning maqomingizga

o'tishga iymnadilar», deyildi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Sizga buyurilgan ishni qiling», deya marhamat qildilar».

## 127

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Oisha onamizidan (r.a.) rivoyat qiladi. Hazrati Oisha (r.a.) aytadilar: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) behush, holsiz bo'lganlarida: «Abu Bakrga ayting, odamlarga namoz o'qib bersin», dedilar. Yo Rasululloh, hazrati Abu Bakr tortinchoqlar, sizning maqomingizda turishga iymnadilar», deyildi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Abu Bakrga ayting, odamlarga namoz o'qib bersin, ey Yusufning suyukli yo'ldoshlari», dedilar va bu so'zlarini bir necha bor takrorladilar».

## 128

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytadilar: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) vafotlari oldidan kasalliklaridan biroz yengillashganlarida namoz vaqti kimgach. Ul zot (s.a.v.) Oisha onamizga (r.a.): «Hazrati Abu Bakrga ayting, odamlarga namoz o'qib bersin», dedilar. Oisha onamiz (r.a.) Abu Bakrga «Allohning rasuli (s.a.v.) jamoatga namoz o'qib berishingizni buyuryaptilar», deb xabar yubordilar. U kishi: «E qizim, men keksa, nozik odamman. Rasulullohni o'rinlarida ko'rmasam, chiday olmayman. Sen va Hafsa Rasulullohning yonlariga boringlar. Hazrati Umarga xabar yuboradilar. U jamoatga namoz o'qib beradi», dedilar. Men aytganlarini qildim. Rasululloh (s.a.v.): «Sizlar Yusufning yo'ldoshlarisiz, hazrati Abu Bakrga buyuring, odamlarga namoz o'qib bersin», dedilar». Azon aytilganida hazrati Payg'ambar (s.a.v.) muazzinning «Hayya alas solah» deyayotganini eshitdilar. Rasululloh (s.a.v.): «Meni turg'izinglar», dedilar. Oisha onamiz raziyallohu anho: «Men hazrati Abu Bakrga jamoatga namoz o'qib berishlarini aytdim. Siz uzrlisiz», dedilar. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Meni turg'izinglar, namoz ko'zimning quvonchi etilgan», deya marhamat qildilar. Ikki kishi orasida turg'azildilar, oyoqlari yerda sudralar edi. Hazrati Abu Bakr (r.a.) Rasulullohning (s.a.v.) kelganlaridan boxabar bo'lgach, orqaga o'tdilar. Rasululloh (s.a.v.) unga ishora qildilar va Abu Bakrning (r.a.) chap tomoniga o'tirdilar. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) uning oldida takbir aytdilar, hazrati Abu Bakr (r.a.) U zotning takbirlarini baland ovozda takrorlar edi. Jamoat namoz tugaguncha hazrati Abu Bakrning (r.a.) takbiri bilan takbir aytdi. Rasululloh vafotlariga qadar bu namozdan boshqa jamoatga namoz o'qib bermadilar. Abu Bakr imom bo'ldilar. Rasululloh vafotlariga qadar og'ridilar.

## 129

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibrohim (r.a.): «Qavmga zinodan tug'ilgan farzand, qul, badaviy Qur'on o'qishni bilsa, imomlik qilishi mumkin», dedilar.

## 130

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Ikrimadan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytadi: «Nabiy (s.a.v.) bir odamga imomlik qilib namoz o'qidilar. U odam Rasulullohning orqalarida, uning orqasida ayol namoz o'qidi. Rasululloh namozni ular bilan jamoat bo'lib o'qidilar».

### 131

Abu Hanifa (r.a.) Ato ibn Yasordan, u Abu Said Xudriydan rivoyat qiladi. Abu Said Xudriy (r.a.) aytadi: «Rasululloh (s.a.v.): «Alloh taolo va farishtalari saflarini to'la qilib namoz o'qiganlarga salot va salom aytadi», deya marhamat qildilar».

### 132

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytadiki: Rasululloh (s.a.v.): «Kim bomdod va xufton namozlarini jamoat bilan o'qisa, uning uchun ikki xaloslik bor: biri - munofiqlikdan xaloslik, 2si - shirkdan xaloslik», dedilar.

### 133

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytadi: «Rasululloh (s.a.v.): «Kim qirq kun jamoat bilan uzluksiz namoz o'qisa, unga (nomai a'moliga. - *Tarj.*) munofiqlikdan va shirkdan xaloslik yoziladi».

### 134

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Shabiydan (r.a.), u ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.): «Nabiy (s.a.v.) ayollarning bomdod va shom namozlariga borishlariga ruxsat berdilar», dedilar. Shunda bir odam: «Bu ruxsatni su'iste'mol qilishlari mumkin», dedi. Ibn Umar (r.a.): «Men senga «Allohninng rasulidan (s.a.v.) naql qilyapman. Sen bo'lsang, bunday deysan», dedilar.

### 135

Abu Hanifa (r.a.) Zuhriydan, u Anas ibn Molikdan (r.a.) rivoyat qiladi. «Allohninng rasuli (s.a.v.): «Kechki ovqat hozir bo'lib, muazzin xuftonga azon aytsa, avval ovqatni yenglar», deb marhamat qildilar».

### 136

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Jobir ibn Asvad yoxud Asvad ibn Jobirdan, u otasidan (r.a.) rivoyat qiladi. «Ikki kishi Payg'ambar (s.a.v.) zamonlarida peshin namozini uylarida o'qidilar. Zero, ular jamoat namozni o'qib bo'lgan deb o'ylashgan edi. So'ng bu ikki odam masjidga keldilar. Bu payt Rasululloh (s.a.v.) namozda edilar. U ikkisi jamoatga qo'shib namoz o'qishni o'zlariga mumkin emas, deb o'ylab masjidning bir chetiga o'tirdilar. Namoz tugagach Rasululloh (s.a.v.) ikkisini ko'rdilar va ularga odam yubordilar. Ular Rasululloh (s.a.v.) oldilariga kelganda o'zlari haqida biror yomon narsa bo'lgan, degan gumonda titray boshladilar. Rasululloh (s.a.v.) ulardan so'radilar. Ular bo'lgan voqeani aytib berishdi. Rasuli akram (s.a.v.): «Agar shunday bo'lsa odamlar bilan birga namoz o'qing, 1 o'qigan namozingiz bilan farzni ado etgan bo'lasiz», deya marhamat qildilar». Bu hadisni ko'pchilik Abu Hanifadan (r.a.) rivoyat qilgan. Haysamning bu hadisni Rasulullohga (s.a.v.) bog'laganlarini aytishgan.



### 137

Abu Hanifa (r.a.) Yahyo ibn Saiddan, u Amradan, u esa Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytadilar: «Insonlar juma namoziga ust-boshlari chang-tuproq bo'lib terlab borishar edi. Ularga: «Kim juma namoziga borsa, g'usl qilsin», deyildi».

Bir rivoyatda: «Insonlar yerda ishlashardi. Ustlari ter va chang-tuproq holda masjidga borishardi. Rasululloh (s.a.v.) ularga: «Jumaga kelganingizda g'usl olib kelinglar», deya marhamat qildilar».

### 138

Abu Hanifa (r.a.) Mansur va Muhammad ibn Bishr Nofe'dan, u Ibn Umardan (r.a.) Rasulullohning (s.a.v.): «Namozga kelgan kishiga g'usl vojibdir», deb marhamat qilganlarini rivoyat etishgan.

### 139

Abu Hanifa (r.a.) Atiyyadan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytadi: «Rasululloh (s.a.v.) juma kuni minbarga chiqqanlarida xutbadan avval bir oz o'tirar edilar».

### 140

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u bir kishidan rivoyat qiladi.. U kishi Rasulullohning (s.a.v.) juma kuni xutbalari qanday bo'lishini Ibn Mas'uddan (r.a.) so'radi. Ibn Mas'ud unga: «Juma surasini o'qiysanmi?» dedi. «O'qiyman, biroq yodlamaganman», dedi haligi kishi. Ibn Mas'ud (r.a.) «(Ey Muhammad alayhissalom), qachon ular biron tijoratni yoki o'yin-kulguni ko'rib qolsalar, o'shanga qarab sochilib-tarqalib ketadilar va Sizni (minbarda) tik turgan holingizda tark qiladilar...» oyatini o'qib berdi.

### 141

Abu Hanifa (r.a.) Ahmad ibn Muhammad ibn Ismoil Kufiyyidan, u Yoqub ibn Yusuf ibn Ziyoddan, u Abu Junodadan, u Ibrohimdan, u Said ibn Jubayrdan, u Abdulloh ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) juma namozida «Juma» va «Munofiqun» suralarini o'qir edilar».

### 142

Abu Hanifa (r.a.) Ibrohimdan, u Hubayb ibn Solimdan, u No'mon ibn Bashirdan rivoyat qiladi. No'mon ibn Bashir aytdiki: «Payg'ambar (s.a.v.) Juma va Hayit namozlarida «A'lo» va «G'oshiya» suralarini o'qir edilar».

### 143

Abu Hanifa (r.a.) Qaysdan, u Toriqdan, u Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud

aytadi: «Rasululloh (s.a.v.): «Har juma kechasi Alloh taolo maxluqlarini uch marta nazorat qiladi», deb marhamat qildilar».

#### 144

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Hasandan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytadi: «Rasululloh (s.a.v.): «Kim juma kuni vafot etsa, qabr azobidan saqlanadi», deb marhamat qildilar».

#### 145

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Ummu Atiyyadan eshitgan kishidan rivoyat qiladi: Ummu Atiyya aytadi: «Ayollarga ikki hayit namoziga chiqishga ruxsat berildi. Hatto ikki yosh qiz bir libos kiyib chiqardi. Hayz ko'rganlar ham chiqardilar. Ular odamlar yonida o'tirib birga duo qilishardi, ammo namoz o'qimas edilar».

#### 146

Abu Hanifa (r.a.) Abdulkarimdan, u Ummu Atiyyadan rivoyat qiladi. Ummu Atiyya aytadi: «Rasululloh (s.a.v.) biz ayollarga Ramazon hayiti va Qurbon hayiti namozlariga chiqishga ruxsat berardilar».

Bir rivoyatda Ummu Atiyya aytadi: «Ikki hayitda hayzda bo'lgan ayollar ham chiqib, ayollarning yoniga o'tirib duo qilishar edi».

Yana bir rivoyatda shunday deyilgan: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) bizlarga Qurbon hayiti va Fitr kuni namoz o'qiladigan joyga o'ranib - hayz ko'rganlar ham qo'shilib - chiqishimizni buyurdilar. Biroq hayz ko'rganlar ajralib, ibodat qilayotganlarni va ularning duolarini ko'rib turardilar.

Bir ayol: «Yo Rasululloh! Birortamizning jilbobimiz bo'lmasa...» deganida, Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Qardoshi jilbobini kiygizsin», dedilar».

#### 147

Abu Hanifa (r.a.) Adiydan, u Said ibn Jubayrdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi: Ibn Abbos (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) hayit kuni namozgohga chiqdilar. Namozdan oldin ham keyin ham biror nafl namoz o'qimadilar».

#### 148

Abu Hanifa (r.a.) Muhammad ibn Munkadirdan, u Anas ibn Molikdan rivoyat qiladi. Anas bunday dedi: «Rasululloh (s.a.v.) bilan peshin namozini to'rt rakat o'qidik. Zulhulayfada esa asr namozini ikki rakat qilib o'qidik».

#### 149

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Abdulloh ibn Mas'uddan rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud (r.a.) dedi: «Rasululloh (s.a.v.) safarda ikki rakat namoz o'qir edilar. Hazrati Abu Bakr (r.a.) va Hazrati Umar (r.a.) ikki rakatdan oshiq o'qimasdilar».

## 150

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. «Abdullohning (r.a.) oldiga kelib: «Hazrati Usmon (r.a.) Minoda to'rt rakat o'qidi» deb aytishdi. Abdulloh (r.a.) bu gapni eshitgach: «Inna lillahi va inna ilayhi rojiun. Men Rasululloh (s.a.v.) bilan, Abu Bakr (r.a.) bilan, Umar (r.a.) bilan ikki rakat o'qiganman», dedi. So'ng Abdulloh (r.a.) Hazrati Usmon (r.a.) bilan namozda hozir bo'ldi va u bilan to'rt rakat o'qidi. Abdullohga: «Fikringdan qaytdingmi?» deyildi. «Men nima aytgan bo'lsam aytdim. To'rt rakat o'qidim. Chunki xilofat shuni taqozo etdi. Minoda to'rt rakat namozni to'la o'qigan 1 kishi hazrati Usmondir (r.a.)», dedi Abdulloh (r.a.)».

## 151

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Mujohiddan rivoyat qiladi. Mujohid Abdulloh ibn Umarga Makkadan Madinagacha hamrohlik qildi. Abdulloh ibn Umar (r.a.) Madinaga qarab ulovi ustida imo-ishorat bilan namoz o'qidilar. Biroq farz va vitr namozlarini ulovdan tushib yerda o'qirdilar. Mujohid: «Undan ulovi ustida yuzini Madinaga qilib namoz o'qigani haqida so'radim. U menga: «Rasululloh (s.a.v.) ulovlari ustida yuzlari qaragan tomonga imo-ishora bilan nafl namoz o'qirdilar»,- deb aytdi», dedi.

## 152

Abu Hanifa (r.a.) Abu Ya'fur Abdiydan, u ibn Umardan (r.a.) rivoyat qilgan kishidan rivoyat qiladi: Ibn Umar (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.): «Alloh taolo sizga bir namozni ziyoda qildi. U vitr namozidir», dedilar».

Bir rivoyatda: «Alloh taolo sizga besh vaqt namozni farz qildi va vitr namozini ziyoda etdi», deyiladi.

Boshqa rivoyatda «Alloh taolo sizga vitr namozini ziyoda qildi» shaklida keladi.

Yana bir rivoyatda bunday deb aytilgan: «Alloh taolo sizga bir namoz ziyoda qildi, u vitrdir. Uni doimo ado eting».

## 153

Abu Hanifa (r.a.) Abu Ishoqdan, u Osim ibn Hamzadan (r.a.) rivoyat qiladi. Osim (r.a.) aytdi: «Men hazrati Alidan vitr namozi vojibmi?»- deb so'radim. «Yo'q, biroq Rasulullohning (s.a.v.) sunnatlaridir. Uni tark etish hech kimga durust emas», dedilar.

## 154

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. «Rasululloh (s.a.v.) vitrni uch rakat o'qirdilar. 1 rakatda «Sabbihisma robbikal a'la», 2 rakatda «Qul ya ayyuhal kafirun», 3 rakatda «Qul huvallohu ahad» suralarini o'qir edilar».

Bir rivoyatda aytilishicha, Rasululloh (s.a.v.) vitr namozining 1 rakatida Fotihani va «Sabbihisma robbikal a'la»ni, 2 rakatda Fotiha va Kafirun suralarini, 3 rakatda Fotiha va Ixlos suralarini o'qirdilar.

Boshqa bir rivoyatga ko'ra, Rasululloh (s.a.v.) vitr namozini uch rakat o'qir edilar.

### 155

Abu Hanifa (r.a.) Zabid ibn Xars Yamiydan, u Ibn Umardan (r.a.), u Abdurahmon ibn Abzoyddan rivoyat qiladi. U aytadi: «Rasululloh (s.a.v.) vitr namozining 1 rakatida «A'lo» surasini, 2 rakatda Kafirun, 3 rakatda Ixlos suralarini o'qir edilar». Boshqa rivoyatda 1 rakatida A'lo surasini, 2 rakatda Kofirun surasini, 3 rakatda Ixlos surasini o'qirdilar.

### 156

Abu Hanifa (r.a.) Abu Sufyondan, u Abu Nazradan, u Abu Saiddan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Said aytadi: «Rasululloh (s.a.v.): «Vitr namozida bo'lish, (bir rakatni alohida o'qish) yo'qdir», dedilar».

### 157

Abu Hanifa (r.a.) Abdullohdan, u ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytadi: «Rasulullohning (s.a.v.): «Tunning avvalidagi Vitr shaytonning jahlini chiqishiga boisdur. Saharlik yeyish Allohning roziligidir», deganlarini eshitdim».

### 158

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Abu Abdulloh Jadaliydan, u Abu Mas'ud Ansoriydan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Mas'ud Ansoriy aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) musulmonlarga oson bo'lsin, deb vitrni kechanning avvalida, o'rtasida va oxirida o'qiganlar. Bu vaqtlarning qaysisida o'qisalar ham to'g'ri bo'ladi. Biroq kim tun oxirida uyg'onishiga ishonsa, vitrni kechanning oxirida o'qisin. Chunki bu afzaldir». Bir rivoyatda Abu Abdulloh Jadaliy Uqba ibn Omir va Abu Musodan (r.a.) rivoyat qiladi. Bu ikkisi aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) musulmonlarga kenglik bo'lsin, deya ba'zan kechanning avvalida, ba'zan o'rtasida, ba'zan esa oxirida vitr namozini o'qir edilar».

### 159

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Abdulloh ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. «Rasululloh (s.a.v.) peshin, yo asr namozi rakatini ko'p yoki kam qildilar. Namozni tugatib salom berganlarida so'raldi: «Yo Rasululloh, namozda biror yangilik bo'ldimi yo unutingizmi?». Rasululloh (s.a.v.): «Siz unutingiz kabi men ham unutam. Agar unutsam menga eslatib», dedilar. So'ngra qiblaga yuzlanib, ikki marta sajda qildilar va tashahhud o'qidilar. So'ng o'ng va chap tomonga salom berdilar».

### 160

Abu Hanifa (r.a.) Sammokdan, u Iyoz Ash'ariydan, u Abu Muso Ash'ariydan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Muso Ash'ariy aytdi: «Nabi (s.a.v.) Sod surasida sajda qildilar».

### 161

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Ibn Voildan, u Abdulloh ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Abdulloh ibn Mas'ud Habashistondan kelganida Rasulullohga (s.a.v.)

namoz o'qiyotganlarida, salom berdi. Rasululloh (s.a.v.) alik olmadilar. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) namozni tugatgach, Ibn Mas'ud: «Alloh taoloning ne'matini yomon ko'rishdan panoh tilayman», dedi. Rasululloh (s.a.v.): «Nima bo'ldi?» dedilar. Ibn Mas'ud: «Salom berdim, alik olmadingiz?» dedi. Rasuli akram (s.a.v.): «Namozda mashg'ul bo'linadi. Bundan buyon hech kim salomiga javob qaytarmaymiz», deb marhamat qildilar.

## 162

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Men uxlayotganimda Rasululloh (s.a.v.) tunda namoz o'qirdilar, kiyimlarining bir tomoni ustimga tushardi».

## 163

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) namozda ekanlikni bildirish uchun erkaklarga tasbehni, ayollarga chapakni sunnat qildilar».

## 164

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvad ibn Yaziddan rivoyat qiladi. Asvad ibn Yazid (r.a.) Oisha onamizdan (r.a.) namozni buzadigan holatlarni so'radi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Ey Iroq ahli! Siz namoz o'qiyotgan kishining oldidan eshak, ayol, it va mushuk kesib o'tsa, uning namozi buziladi, deb o'ylaysiz. Siz bizni ular bilan tenglashtirdingiz. Men uxlab yotganimda Nabiy (s.a.v.) yonimda namoz o'qir edilar, kiyimlarining bir tarafi ustimga tegardi».

## 165

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Abdulloh (r.a.) bunday dedi: «Rasulullohning (s.a.v.) o'g'illari Ibrohim vafot etgan kunda quyosh tutildi. Rasululloh (s.a.v.) xutba qildilar va dedilar:  
- Quyosh va oy Alloh taoloning oyatlaridan ikki oyatdir. Hech kimning hayoti va mamoti uchun ular tutilmaydi. Agar tutilganini ko'rsangiz namoz o'qing, Alloh taologa hamd ayting. Qaysi tutilgan bo'lsa chiqquniga qadar takbir va tasbeh ayting. So'ngra Rasululloh (s.a.v.) minbardan tushdilar va ikki rakat namoz o'qidilar».

## 166

Abu Hanifa (r.a.) Ato ibn Soibdan, u otasidan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdi: «Rasulullohning (s.a.v.) o'g'illari Ibrohim vafot etgan kun quyosh tutildi. Odamlar: «Quyosh hazrati Payg'ambarning o'g'illari Ibrohim vafot etgani tufayli tutildi», deyishdi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) namozda qiyomda uzoq turdilar. Sahobalar hazrati Payg'ambar (s.a.v.) ruku qilmaydilar, deb o'ylashdi. Keyin u zot rukuga bordilar. Rukulari qiyomlari qadar uzoq davom etdi. Rukudan bosh ko'tarib, rukulari qadar uzoq turdilar. Keyin sajda qildilar. Sajdalari ham qiyomlaridek uzoq bo'ldi. Ikki sajda orasida o'tirdilar. O'tirishlari sajdalari qadar cho'zildi. So'ng sajda qildilar. Sajdalari o'tirganlaridek uzoq bo'ldi. So'ngra 2 rakatni o'qidilar. 2 rakat ham 1 qadar

davom etdi. 2 rakat sajdasida Rasululloh (s.a.v.) yig'ladilar. Yig'ilari shu darajada kuchaydiki, hatto biz u zotning: «Yo Rabbiy, menga men ularning orasida bo'lganimda, ularni azoblamasligingni va'da qilmaganmiding?» deganlarini eshitdik. Keyin o'tirdilar va tashahhud o'qidilar. So'ngra namozni tugatib, sahobalarga qarab bunday dedilar: - Quyosh va oy Allohning oyatlaridan ikki oyat (alamat - *Tarj.*)dir. Alloh taolo ular bilan qullarini qo'rqitadi. Quyosh va oy bir kishining hayoti va o'limi uchun tutilmaydi. Tutilgan payti namoz o'qinglar. Men o'zimni jannatga yaqinlashtirilgan holda ko'rdim. Istasam, jannat daraxtining novdalaridan bir novda olardim. O'zimni do'zaxga yaqinlashtirilgan holda ko'rdim. Undan saqlana boshladim. U yerda Rasulullohning (s.a.v.) uylarini tunagan o'g'rini ko'rdim. Do'zaxda azob yer edi. U yerda hassasi bilan hojilarni tunagan, o'g'irlik qilgan Abd ibn Do'do'ni ko'rdim. Mushugini bir joyga bog'lab qo'yib, unga ovqat bermagan, yer hasharotlarini topib yeyishi uchun mushugini qo'yib yubormagan, oqibatda azoblanayotgan ayolni ko'rdim. Bir rivoyatda: «Hassasi bilan hojilarni tunagan Do'do'ni ko'rdim. Uni hech kim ko'rmasa, ketar agar ko'rsa: «Hassamga ilinib qoldi», der edi», deyiladi.

### 167

Abu Hanifa (r.a.) Nosihdan, u Yahyodan, u Abu Salamadan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) bizga Qur'oni karimni o'rgatganlaridek istihorani ham o'rgatar edilar».

### 168

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Abdulloh (r.a.) dedi: «Rasululloh (s.a.v.) bizga Qur'ondan sura o'rgatganlaridek istihorani o'rgatardilar».

Bir rivoyatda shunday deydilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Sizdan kimdir bir ishni istasa tahorat olsin, farz namozidan boshqa ikki rakat nafl namozi o'qisin so'ng: «Yo Rabbiy! Sendan ilming tufayli menga muvofiq xayr (yaxshilik)ni ko'rsatishingni, Qudrating tufayli yaxshilikni nasib etishingni so'rayman. Sening yaxshilik va ehsoningni so'rayman. Faqat Sen bilasan, men bilmasman. Sen qodirsan, men ojizman. Sen butun g'aybni bilguvchisan. Ey Allohim! Agar bu ish men uchun, hayotimda va oxiratimda xayrli bo'lsa, uni menga oson va muborak qil», desin».

Bir rivoyatda quyidagilar qo'shilgan: «Agar bundan boshqasi xayrli bo'lsa, menga xayrli bo'lganini nasib et. So'ng u bilan qanoatlantir».

### 169

Abu Hanifa (r.a.) Harsdan, u Abu Solihdan, u Ummu Honiydan (r.a.) rivoyat qiladi. Ummu Honiy (r.a.) aytadi: «Nabiy (s.a.v.) Makkaning fathi kuni sovutlarini yechdilar va suv so'radilar. Suvni unga quydilar. So'ngra bir kiyim so'radilar va u bilan namoz o'qidilar».

Bir rivoyatda: «O'ng qo'ltiqlaridan o'tkazib yelkalariga tashladilar», deyiladi. Yana bir rivoyatda shunday kelgan: «Rasululloh (s.a.v.) Makkaning fathi kuni sovutlarini yechib suv so'radilar. (Roviy aytadiki), xamir yuqlari bor katta bir idishda suv olib kelindi. Kiyim bilan to'sib g'usl qildilar So'ng bir kiyim so'radilar. Uni o'ng qo'ltiqlarining ostidan o'tkazib, chap yelkalari ustiga tashladilar va ikki rakat namoz o'qidilar. Abu Hanifa: «Bu Zuxo (Quyosh chiqqandan so'nggi namoz edi», dedilar.

Bir rivoyatda shunday kelgan: «Rasululloh (s.a.v.) Makkaning fathi kuni sovutlarini yechdilar va suv so'radilar. Xamir yuqlari bor idishda suv keltirildi. G'usl qilib, bir kiyimda o'ng qo'ltiqlarining ostidan o'tkazib chap yelkalariga tashlab to'rt yo'li ikki rakat namoz o'qidilar».

### 170

Abu Hanifa (r.a.) bir odamdan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) Ramazon oyi kirganida kechalar namoz o'qir va uxlar edilar. Oxirgi o'n kunida butun tunlarni ibodat bilan o'tkazar edilar».

### 171

Abu Hanifa (r.a.) Ziyoddan, u Mug'iyradan (r.a.) rivoyat qiladi. Mug'iyra (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) tun bo'yi turib namoz o'qirdilar. Hattoki, oyoqlari shishib ketar edi. Ashobi kirom ul zotga:

- Sizning o'tgan va bo'lg'usi gunohlaringiz kechirilgan emasmi? - dedi.

Rasululloh (s.a.v.):

- Rabbiga ko'p shukr etuvchi qul bo'lmayinmi?! - deya marhamat qildilar».

### 172

Abu Hanifa (r.a.) Abu Ja'fardan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Ja'far (r.a.) aytdi: «Hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) tungi namozlari o'n uch rakat edi: ulardan uch rakati vitr, ikki rakati esa fajr (tong, bomdod. - *Tarj.*) namozi edi».

### 173

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, Alqama Ibn Aqmardan, u Humrondan, Humron Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi.

Ibn Umar (r.a.) doim Humronni majlislarda o'zlariga yaqin o'tqazardilar. Bir kun:

- Ey Humron, doimo birga bo'lishimizni sen o'zingga yaxshilik istashingdan deb o'ylayman,- dedilar.

- Ha, ey Abu Abdurahmon, - deya javob berdi Humron.

- Men seni ikki narsadan qaytaraman va bir narsani senga buyuraman. Men Rasululloh (s.a.v.) uni buyurganlarini eshitganman.

- U uch narsa nima ekan, ey Abu Abdurahmon?- dedi Humron.

- To'lovini qoldirmagan qarzing bo'la turib o'lma. Biror oyatni noto'g'ri tilovat qilma. Zero Qiyomat kuni u sendan, uni kamsitganing kabi seni kamsitib, qasos oladi. Alloh taolo hech kimga zulm qilmaydi. Rasululloh (s.a.v.) menga buyurgan narsani men ham senga buyuraman, u - bomdod namozining ikki rakatidir. Uni aslo tark eta ko'rma, chunki unda rag'bat etiladigan mukofotlar bor.

### 174

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Ubayd ibn Umayrdan, u Oisha onamizdan (r.a.)rivoyat qiladi: Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bomdod namozining sunnatiga nafl namozlari ichida qattiq e'tibor qilganlar».

### 175

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Qirq kun yoki bir oy Nabiyni (s.a.v.) kuzatdim: bomdod namozining ikki rakat sunnatida Kafirun va Ixlos suralarini o'qiganlarini eshitdim».

### 176

Abu Hanifa (r.a.) Sammokdan, u Jobir ibn Samuradan (r.a.) rivoyat qiladi. Samura (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) bomdod namozini o'qiganlaridan so'ng quyosh chiqib oqarmaguncha joylaridan jilmasdilar».

### 177

Abu Hanifa (r.a.) Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.): «Kim xufton namozidan keyin masjididan chiqmasdan to'rt rakat namoz o'qisa, bu namoz Qadr kechasi shuncha o'qilgan namozga teng bo'ladi», deya marhamat qildilar».

### 178

Abu Hanifa (r.a.) Muhoribdan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.): «Kim xufton namozidan keyin to'rt rakat orasida salom bermay, o'qisa, uning 1 rakatida Fotiha bilan «Tanzil» - Sajda surasini, 2 rakatida Fotiha bilan «Ha, mim» - Duxon surasini, 3 rakatida Fotiha bilan Yosin surasini, 4 rakatida Fotiha bilan Mulk surasini qiroat qilsa, unga Qadr kechasi uxlamay ibodat qilganning savobi yoziladi, oila a'zolaridan do'zaxda yonishga loyiq bo'lganlarning hammasi shafolat qilinadi, qabr azobidan qutiladi», deya marhamat qildilar».

Ibn Umardan (r.a.) mavquf holda rivoyat etilgan (mavquf sahobiydan rivoyat qilingan hadis).

### 179

Abu Hanifa (r.a.) Hakamdan, u Mujohiddan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) peshindan keyin ikki rakat namoz o'qirdilar».

### 180

Abu Hanifa (r.a.) Nofe'dan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.): «Uylaringizda namoz o'qib turing, uni qabrga aylantirib qo'ymang», dedilar».

### 181

Abu Hanifa (r.a.) Nofe'dan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdi: «Hazrati Biloldan:

- Rasululloh (s.a.v.) Ka'baning qaerida va necha rakat namoz o'qidilar? - deb so'radim. Hazrati Bilol (r.a.):

- Ka'baning eshigidan keyingi ikki ustun yonida ikki rakat namoz o'qidilar,- deya javob



berdi».

O'sha paytda Ka'baning olti ustuni bor edi».

## 182

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Said ibn Jubayrdan, u Xazrati Umardan (r.a.) rivoyat qiladi: «Bir odam Hazrati Umardan (r.a.) Rasululloh (s.a.v.) Ka'bage kirganlarida o'qigan namozlari haqida so'radi.

- Ka'bada to'rt rakat namoz o'qidilar, - dedi Hazrati Umar (r.a.).

Haligi odam:

- Rasululloh (s.a.v.) namoz o'qigan joylarini menga ko'rsat, - dedi. Xazrat Umar (r.a.) o'g'lini u bilan yubordi. U xurmo yog'ochi yonidagi ustun tagini ko'rsatdi».

Bir rivoyatda: «Ibn Umar (r.a.): «Rasululloh Ka'bada to'rt rakat namoz o'qidilar», dedi. Men unga «Namoz o'qigan joylarini ko'rsat», dedim. O'g'illarini men bilan yubordilar. U menga xurmo yog'ochi ostidagi o'rta ustunni ko'rsatdi», deyiladi.

## 183

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibn Buraydadan, u otasidan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Buraydaning otasi (r.a.) aytadi: «Rasululloh (s.a.v.):

- Marhumning uch bolasi o'lgan bo'lsa, Alloh taolo uni jannatga kiritadi, - dedilar.

- Ikki bolasichi? - so'radilar hazrati Umar (r.a.).

- Ikki bolasi o'lgan bo'lsa ham, - deya marhamat qildilar Rasuli akram (s.a.v.)».

## 184

Abu Hanifa (r.a.) Abdul Malikdan, u shomlik bir odamdan, u Nabiyan (s.a.v.) rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) shomlik odamga: «Shubhasiz, qiyomat kunida tushikka:

«Qani, jannatga kir», deyilganda, u: «Yo'q, onam va otam jannatga kirmasa, kirmayman deganini ko'rsan», dedilar».

## 185

Abu Hanifa (r.a.) Sulaymon ibn Abdurahmon Dimashqiydan, u Muhammad ibn Abdurahmon Qushayriydan, u Yahyo ibn Saiddan, u Abdulloh ibn Omirdan, u otasidan rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.): «Banda o'lganida insonlar u haqida yaxshi gaplar gapiradilar. Alloh taolo uning yomon kimsa ekanini biladi. Alloh subhanahu va taolo farishtalarga: «Bandalarimning bu kimsa haqidagi guvohliklarini qabul qildim va uni kechirdim», deb aytadi», deya marhamat etdilar».

## 186

Abu Hanifa (r.a.) Mansurdan, u Solim ibn Abu Ja'ddan, u Ubayd ibn Nistosdan, u Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi: Ibn Mas'ud (r.a.) aytdi: «Tobutni to'rt tomonidan ko'tarishing hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) sunnatlaridandir. Oshiqchasi nafldir (qayta to'rt tomonidan ko'tarish - *Tarj.*).

### 187

Abu Hanifa (r.a.) Ali ibn Aqmardan, u Abu Atiyya Vodiiydan rivoyat qiladi: «Alloh rasuli (s.a.v.) janoza namozini o'qib berish uchun keldilar. Janoza uchun to'planganlar orasida bir ayolni ko'rdilar va uni ketkazishni aytdilar Ayol ko'zga ko'rinmay qolguncha Alloh rasuli (s.a.v.) takbir aytmadilar».

### 188

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, bir necha kishidan rivoyat qiladi: «Umar ibn Xattob (r.a.) hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) ashobini to'pladilar va ulardan janoza namozi takbirlari haqida so'radilar. So'ng ularga: «Janobi Payg'ambar (s.a.v.) o'qigan eng oxirgi janoza namozini yaxshilab o'ylang», dedilar. So'rab-surishtirish natijasida ma'lum bo'ldiki, Alloh rasuli (s.a.v.) vafot qilganlariga qadar to'rt takbir aytgan ekanlar. Hazrati Umar: «Janozada to'rt takbir ayting», dedilar».

### 189

Abu Hanifa (r.a.) Shaybondan, Yahyodan, u Abu Salamadan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. «Nabiy (s.a.v.) janoza namozi o'qiganlarida: «Ey Allohim! Bizning tiriklarimiz va o'liklarimizni, bu yerda bo'lgan va bo'lmaganlarimizni, katta-kichik, erkak va ayollarimizni mag'firat ayla», der edilar».

### 190

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibn Buraydadan, u otasidan *Tarj.*) rivoyat qiladi. Ibn Buraydaning otasi aytdi: «(Vafot-hazrati etganlarida Payg'ambarga (s.a.v.) lahad qilindi. Qibla tomondan olinib lahadga qo'yildilar. Lahad og'ziga xom g'isht terildi». (Lahad - to'g'ri qazilgan qabr ichi, yonidan murda qo'yiladigan, o'yilgan yer - *Tarj.*).

### 191

Abu Hanifa (r.a.) bir odamdan, u Said ibn Ubodadan (r.a.) rivoyat qiladi. Said ibn Uboda (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: «Mo'min kishi qabrga qo'yilganida uning yoniga ikki farishta keladi. U kishini o'tirg'izib:

– Rabbing kim? – deb so'raydi.

– Alloh, – deydi mo'min.

Payg'ambaring kim?- deb so'raydi.–

– Muhammad alayhissalom,- deydi u.

Dining nima?- deydi u farishta.–

– Islom,- deb javob beradi mo'min.

Qabr unga kengaytiriladi. Jannatdagi joyini ko'radi.

O'lgan kofir yoniga ham farishtalar kelishadi. Farishtalar uni o'tirg'izib:

– Rabbing kim?- deytilar.

bilmayman,- deydi u bir narsasini yo'qotgan kishiga o'xshab.– Eh,

kim?- deyishadi.– Payg'ambaring

– Eh, bilmayman,- deydi u bir narsani yo'qotgan kabi.

Dining nima?- deyishadi.–

– Eh, bilmayman,- deydi u.

Qabr unga toraytiriladi. Jahannamda o'tiradigan joyini ko'radi. Farishta uni shunday uradiki, inson va jinlardan boshqa hamma uning faryodini eshitadi», dedilar. Keyin Rasululloh (s.a.v.) «Imon keltirganlarni dunyo va oxirat hayotida haq so'zda Alloh taolo sobit qiladi: Zolimlarni adashtiradi. Alloh istaganini qiladi» mazmunidagi oyatni o'qidilar». (Ibrohim surasi, **27**-oyati mazmuni)

## 192

Abu Hanifa (r.a.) Ismoildan, u Abu Solihdan, u Ummu Xoniydan, u hazrati Payg'ambardan (s.a.v.) rivoyat qiladi: «Qabrda: Alloh haqida uch savol va (o'lim oldidan - *Tarj.*) jannatdagi darajalar va boshing oldida Qur'on o'qilishi» bor».

## 193

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibn Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibn Buraydaning otasi aytdi: «Bir janoza marosimiga hazrati Payg'ambar (s.a.v.) bilan birga bordik. Ul zot onalarining qabriga keldilar va yig'lay boshladilar. Shunchalik yig'ladilarki, jonlari chiqayozdi. Biz so'radik:

Rasululloh! Sizni yig'latgan narsa nima?– Ey

Onam Rabbimdan ruxsat so'radim. Menga ruxsat–qabrining ziyorati uchun berildi. Shafoat uchun izn so'radim, menga deya marhamat izn berilmadi,–qildilar».

Bir rivoyatda quyidagicha aytiladi: «Nabiy (s.a.v.) onalarining qabrini ziyorat qilish uchun izn so'radilar. Alloh taolo izn berdi. Musulmonlar ham ul zot (s.a.v.) bilan qabr yaqiniga bordilar va to'xtadilar. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) qabr oldida uzoq turdilar. So'ng Rasuli akramning (s.a.v.) yig'ilari kuchaydi. Biz yig'idan to'xtamaydilar deb o'yladik. Keyin yig'lab qaytdilar. Hazrati Umar (r.a.):

fido bo'lsin. Sizni yig'latgan nima?– dedilar.– Yo Rasululloh! Ota-onam sizga Rasuli akram (s.a.v.):

– Onamning qabrini ziyorat etish uchun Rabbimdan izn so'radim, menga izn berildi. Onamni shafoat qilishim xususida izn so'radim, bermadi. Unga rahmim kelib yig'ladim, deya marhamat qilganlarida, musulmonlar ham etishib yig'lashdi».–hazrati Payg'ambarga (s.a.v.) rahm

## 194

Abu Hurayra (r.a.) Alqamadan, u Mursid va Hammoddan, u ikkisi Abd bin Buraydadan, u otasidan, otasi Rasulullohdan (s.a.v.) rivoyat qiladi: Rasululloh (s.a.v.): «Men sizlarni qabrni ziyorat qilishingizdan qaytaragan edim. Endi uni ziyorat qiling. Yomon so'z ayt mang», dedilar.

## 195

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibn Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibn Buraydaning otasi aytdi: «Nabiy (s.a.v.) qabristonga borganlarida: «Ey ahli maskan musulmonlar, sizga salom bo'lsin. Biz ham, inshaalloh, sizlarga qo'shilamiz. Allohdan o'zimiz va siz uchun ofiyat so'raymiz», der edilar».

## ZAKOT

### 196

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.): «Rikoz -Alloh taolo yer ustida bo'ladigan ma'danlarda yaratgan narsadir», deb marhamat qildilar».

### 197

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytadi: «Rasululloh (s.a.v.): «Boy va kambag'alga qilgan har yaxshiliging sadaqadir», dedilar».

### 198

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohim al-Asvaddan, u esa Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi: «Oisha onamiz (r.a.) Bariraga go'sht tasadduq etdi (berdi, sadaqa qildi. - *Tarj.*). Buni hazrati Payg'ambar (s.a.v.) ko'rdilar va: «U tasadduq etgan narsang sen uchun sadaqa, biz uchun esa hadyadir», deb marhamat qildilar».

## RO'ZA

### 199

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Abu Solih Zayytdan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) (bir hadisi qudsiyda): «(Alloh taolo aytadiki,) insonning barcha amallari o'zi uchundir. (unda nafsning ulushi bor - *Tarj.*). Ro'za bundan mustasnodir, u xolis Men uchundir. Uning mukofotini Men beraman», dedilar».

### 200

Abu Hanifa (r.a.) Ismoildan, u Abu Solihdan, u Ummu Honiydan (r.a.) rivoyat qiladi. Ummu Honiy aytdi: «Rasululloh (s.a.v.): «Qaysi bir mo'min bir kun och qolsa, haromlardan saqlansa va musulmonlar molini nohaq yemasa, Alloh taolo unga jannat mevalarini yediradi», deb marhamat qildilar».

### 201

Abu Hanifa (r.a.) Ibrohimdan, u otasidan, u Hamid ibn Abdurahmon Himyariydan rivoyat qiladi. Himyariy aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) Ashuro kuni ashoblaridan bir odamga: «Qavmingga ayt, bugun ro'za tutsinlar», dedilar. Haligi odam: «Ular ovqatlanib qo'ydilar», degan edi, Rasuli akram: «Ular ovqatlangan bo'lsalar ham», deya marhamat qildilar».

### 201

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Muso ibn Talhadan, u Ibn Hutokiyadan, u hazrati Umardan (r.a.) rivoyat qiladi: «Bir kishi Rasulullohga (s.a.v.) quyon olib keldi. Ul zot

(s.a.v.) sahobalariga buyurdilar, ular ham yeyishdi. Quyinni keltirgan kishiga:

- Nega sen o'zing yemayapsan? - dedilar.

- Men ro'zadorman, - dedi haligi odam.

- Qanaqa ro'za tutgansan? - so'radilar Rasuli akram (s.a.v.).

- Nafl ro'za.

- Ayyomi Biyzda (hijriy oylarning o'rtalarida) ro'za tutmaysanmi? - deya marhamat qildilar Rasululloh (s.a.v.)».

## 203

Abu Hanifa (r.a.) Abdulloh ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.): «Bilol tunda azon aytadi. Ibn Maktum azon aytganicha yeb-ichingiz. Ibn Maktum namoz (vaqti)ning kirganida azon aytadi», dedilar».

## 204

Abu Hanifa (r.a.) Abu Suvordan, (u Abu Suro deb ham nomlangan yoki u Sulamiydir), u Abu Hojibdan, u Ibn Abbosdan rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) ro'zador holda Kahota deyilgan joyda (Makka bilan Madina orasidagi makonda) qon oldirdilar».

Bir rivoyatda: «Rasululloh (s.a.v.) Kahota deyilgan joyda ro'zador va ehromda bo'lganlarida qon oldirdilar», deyiladi.

Yana bir rivoyatda: «Nabiy (s.a.v.) qon oldirdilar va qon olgan kishiga uning haqini berdilar. Agar bu yomon bo'lganda bermas edilar», deyilgan.

## 205

Abu Hanifa (r.a.) Zuhriydan, u Anasdan (r.a.) rivoyat qiladi. Anas (r.a.) aytdi: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) ro'zador ekanlar, qon oldirdilar».

Bir rivoyatda Abu Hanifa (r.a.) dedi: «Menga Shihob Rasululloh (s.a.v.) ro'zador holda qon oldirganlarini aytdi».

Anasni sanadda zikr qilmadilar.

## 206

Abu Hanifa (r.a.) Abu Sufyondan rivoyat qiladi. Abu Sufyon (r.a.) aytadi: «Qon olgan va oldirgan ro'zasini buzadi, degandan so'ngra Nabiy (s.a.v.) qon oldirdilar».

## 207

Abu Hanifa (r.a.) Hammod ibn Sulaymondan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) junublikdan va qo'shilishdan g'usl qilib, boshlaridan suv tomib bomdod namoziga chiqar edilar».

## 208

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.)

aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) junublikdan g'usl qilib, boshlaridan suv tomib, bomdod namoziga chiqar edilar, so'ng ro'zador bo'lardilar».

## 209

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) dedilar: «Rasululloh (s.a.v.) tush ko'rmay junub bo'lib tong ottirardilar. Keyin ro'zalarini oxiriga yetkazardilar».

## 210

Abu Hanifa (r.a.) Sulaymon ibn Yasordan, u Ummu Salamadan rivoyat qiladi. Ummu Salama (r.a.) dedi: «Rasululloh (s.a.v.) boshlaridan suv tomchilab bomdod namoziga chiqardilar va ro'zador bo'lardilar».

## 211

Abu Hanifa (r.a.) Ummu Salamadan (r.a.) rivoyat qiladi. Ummu Salama (r.a.) bunday deydi: «Nabiy (s.a.v.) ramazonda ayollarini o'par edilar».

## 212

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Omir Sha'biydan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.) ro'zador bo'lib, uning (Oisha onamizning (r.a.). - *Tarj.*) yuzlariga tegardilar, ya'ni o'par edilar».

## 213

Abu Hanifa (r.a.) Ziyoddan, u Amr ibn Maymundan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.) ro'za bo'lganlarida o'par edilar».

## 214

Abu Hanifa (r.a.) Haysam ibn Hubayb Sayrafiydan, u Anas ibn Molikdan (r.a.) rivoyat qiladi. Anas ibn Molik (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) ramazon oyidan ikki kecha o'tganda Madinadan Makkaga yo'lga chiqdilar. Qudayd degan joyga yetganlarida kishilar ro'zaning qiyinligidan shikoyat etishdi. Rasululloh (s.a.v.) ro'zalarini ochdilar va Madinaga kelgunga qadar ro'za tutmadilar».

## 215

Abu Hanifa (r.a.) Muslimdan rivoyat qiladilar: «Rasululloh (s.a.v.) ramazon oyida Makkaga borish uchun yo'lga chiqdilar. Ro'zador edilar. Odamlar ham ul zot bilan birga ro'za tutishgan edi».

Bir rivoyatda quyidagicha aytiladi: «Rasululloh (s.a.v.) Madinadan Makkaga ramazon oyida ro'za tutib yo'lga chiqdilar. Biroz yo'l yurganlaridan so'ng insonlar ro'za mashaqqatidan shikoyat etishdi. Rasululloh (s.a.v.) ro'zalarini ochdilar va Makkaga kelgungacha ro'za tutmadilar».

Yana bir rivoyatda quyidagicha keladi: «Rasululloh (s.a.v.) ramazon oyida Makkaga

borish uchun yo'lga chiqdilar va ro'za tutdilar. Sahobai kirom ham ro'za tutdilar. Biroz yo'l yurilgach, ba'zi musulmonlar ro'za qiyinchiligidan shikoyat qildilar. Rasululloh (s.a.v.) suv so'radilar va ro'zalarini ochdilar. Musulmonlar ham ro'zalarini ochdilar».

## 216

Abu Hanifa (r.a.) Adiydan, u Abu Hozimdan, u Abu Sha'soiydan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.) visol ro'zasi (iftor qilmay, peshma-pesh ro'za tutishni) va sukut ro'zasidan qaytardilar». Sukut ro'zasi ibodat qasdi ila gapirmaslikdir.

## 217

Abu Hanifa (r.a.) Shaybondan, u Yahyodan, u Muhojirdan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) sukut ro'zasini va visol ro'zasini ta'qiqladilar».

## 218

Abu Hanifa (r.a.) Abdumalikdan, u Quza'adan, u Abu Saiddan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Said (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) uch kun ro'zasidan qaytardilar».

## 219

Abu Hanifa (r.a.) Abdumalikdan, u Quza'adan, u Abu Saiddan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Said (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) shak kunida ro'za tutishni ta'qiqladilar».

## 220

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Umar ibn Xattob (r.a.): «Men johiliyat davrida Masjidi Haromda e'tikof o'tirishni nazr qilgandim. Musulmon bo'lganimda Rasulullohdan (s.a.v.) «E'tikof o'tirishim kerakmi?» deb so'radim. Rasululloh (s.a.v.): «Nazringni ado et», deya marhamat qildilar», deganlarini aytdilar.

## HAJ

## 221

Abu Hanifa (r.a.) Atiyyadan, u Abu Saiddan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Said (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.): «Kim hajga bormoqchi bo'lsa, shoshilsin (tez harakat qilsin)», deya marhamat qildilar».

## 222

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan (r.a.) rivoyat qiladi. «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Hajga borgan kishi (gunohlari) kechirilgandir. Hajga borgan kishi muharram oyi chiqqunga qadar gunohini kechishni so'rasa, uning ham gunohlari avf etiladi», deya marhamat qildilar».

## 223

Abu Hanifa (r.a.) Qaysdan, u Toriqdan, u Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi: Ibn Mas'ud (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilar: «Hajning eng afzali baland ovoz va oqizishdir. Baland ovoz - talbiya va tahlil aytish va oqizish esa, qurbonlik so'yishdir». Bir rivoyatda: «Hady qurbonligi so'yishdir», deyilgan.

## 224

Abu Hanifa (r.a.) Yahyodan rivoyat qiladi. Yahyoga Nofiy xabar berdi. Nofiy aytadi: «Abdulloh ibn Umardan (r.a.) eshitdim: «Bir odam turdi va:  
- Ey Allohning rasuli! Tahlil qaerdan boshlanadi? - deb so'radi.  
Allohning rasuli (s.a.v.) marhamat qildilar:  
- Madina aholisi Zulxulayfadan boshlaydi. Iroq aholisi Aqiqdan boshlaydi. Shom ahli Juhfadan boshlaydi. Najd ahli Qarndan boshlab talbiya aytishadi».

## 225

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvad ibn Yaziddan (r.a.) rivoyat qiladi. Al-Asvad ibn Yazid (r.a.) aytdi: «Hazrati Umar (r.a.) odamlarga xutba qildilar va dedi:  
- Sizdan kim haj qilmoqchi bo'lsa, Miyqotdan boshlasin. Miyqot joylarini esa Nabiy (s.a.v.) belgilab berganlar. Madina ahli va madinalik bo'lmay, u yerdan o'tganlar uchun Zulxulayfa, Shom ahli va shomlik bo'lmay, u yerdan kelganlar uchun Juhfa miyqotdir. Najd ahlining va Najd ahlidan bo'lmay, u yerdan hajga kelganlarning miyqoti Qarndir. Yaman ahli uchun va yamanlik bo'lmay, u yerdan kelganlarniki Yalamlam, Iroq ahli va boshqa insonlarning miyqoti esa Zoti irqdir».

## 226

Abu Hanifa (r.a.) Abdulloh ibn Dinordan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdi: «Bir sahobiy:  
- Yo Rasululloh! Ehromli qanday kiyim kiyadi?- dedi.  
- Ko'ylak, salla, kamzul, shim (ishton), qalpoq va sariq rang bilan bo'yalgan kiyim kiyolmaydi. Nali (taxta shippagi - *Tarj.*) bo'lmasa, mahsilarning to'piqlaridan pastki qismini kesib kiysin, - dedilar Rasuli akram (s.a.v.)».

## 227

Abu Hanifa (r.a.) Amr ibn Dinordan, u Jobir ibn Zayddan, u Ibni Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi: Ibni Abbos (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Kimning izori (poy qismini o'raydigan mato) bo'lmasa, sarovil (ishton) kiysin. Nali yo'q kishi esa mahsi kiysin».

## 228

Abu Hanifa (r.a.) Ibrohimdan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibrohimning otasi aytdi: «Ibn Umardan (r.a.)  
- Ehromdagi kishi xushbo'ylik surtadimi?- deb so'radim.



- Xushbo'ylik surtishdan ko'ra qatron (qora, badbo'y suyuqlik. - *Tarj.*) surtish men uchun yaxshiroqdir, - deya javob berdi Ibn Umar (r.a.).

Oisha onamizning (r.a.) oldiga keldim va unga buni aytdim. Oisha onamiz (r.a.) bunday dedilar:

- Men Rasulullohga (s.a.v.) xushbo'ylik surtdim. Ul zot (s.a.v.) zavjalarini aylanib chiqdilar, keyin esa ehromga kirdilar».

Bir rivoyatda: «Men Hazrati Payg'ambarga (s.a.v.) xushbo'ylik surardim. U kishi ayollarini aylanib chiqar, keyin esa ehromga kirar edilar», deyiladi.

## 229

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobirdan rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytadi: «Rasululloh (s.a.v.) ashobiga haj ehromini yechib, umraga ehrom bog'lashlarini buyurdilar».

## 230

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi: Jobir (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) Vido hajida buyurgan amallarni aytganlaridan so'ng Suroqa ibn Molik so'radi:

- Yo Rasululloh! Umramizdan bizga xabar bering. Bu umra bizga maxsusmi (xosmi) yoki hammajami?

- Xammaga,- dedilar Hazrati Payg'ambar (s.a.v.)»

## 231

Abu Hanifa (r.a.) Al-Haysamdan, u bir odamdan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytishlaricha, hayzli ekanlar, Makkaga tamattu' hajini ado etish uchun boradilar. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) Oisha onamizga umrani tark etishlarini aytadilar. Oisha onamiz (r.a.) umrani tark qildilar.

## 232

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi: «Oisha onamiz (r.a.) hayzli bo'lganlarida Makkaga hajji tamattu' qilish uchun bordilar. Rasululloh (s.a.v.) umrani tark etishini aytadilar. Umrani tark etdilar. Haj qilishni boshladilar. Hajni tugatganlarida akalari Abdurahmon bilan Tan'imga borishni buyurdilar».

## 233

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u bir odamdan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) Oisha onamiz (r.a.) umrani tark qilganlari uchun bir sigir so'ydilar».

## 234

Abu Hanifa (r.a.) Abdumalikdan, u Rub'i ibn Harroshdan, u Oisha onamizdan (r.a.)

rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.) menga umrani tark etganimga jazo o'laroq, qurbonlik so'yishni buyurdilar».

### 235

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz(r.a.) aytdilar: «(Men): «Ey Allohning nabiyi, insonlar haj va umra qilishyapti, men esa haj qilyapman», dedim. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) Abdurahmon ibn Abu Bakrga: «U bilan bor. Ehromga kirsin, umrani tugatgach, tezda yonimga kelsin. Aqobada uni kutaman», deb buyurdilar».

### 236

Abu Hanifa (r.a.) Muhammad ibn Munkadirdan, u Abu Qatodadan rivoyat qiladi. Abu Qatoda aytdi: «Nabiyning (s.a.v.) ashobidan bir jamoa bilan yo'lga chiqdim. Jamoa ichida mendan boshqa ehromga kirmagan yo'q edi. Bir tuyaqushni ko'rib qoldim. Otinga qarab yurdim va otga mindim. Shoshilganimgan tayog'imni ololmagan edim. Ularga: «Menga tayog'imni bering», dedim. Ular bermadilar. Men tushdim va o'zim oldim. Tuyaqushni qidirdim, biroq topolmadim. Uning o'rniga eshak ovladim. Uni men va ular yedik».

### 237

Abu Hanifa (r.a.) Muhammad ibn Munkadirdan, u Usmon ibn Muhammaddan, u Talha ibn Ubaydullohdan rivoyat qiladi. Talha ibn Ubaydulloh aytdi: «Ehromga kirmagan kimsa ovlagan hayvon go'shtini ehromdagi kishining yeyishi borasida muzokara qildik. Rasululloh (s.a.v.) uxlar edilar. Ovozimiz baland chiqqani uchun Rasululloh (s.a.v.) uyg'ondilar. «Qaysi mavzuda muzokara qilyapsizlar?» deya so'radilar. «Ehromda bo'lmagan kimsa ovlagan narsani ehromdagi kishi yeyishligi haqida», dedik biz. Rasululloh (s.a.v.) uni yeyishimizni aytdilar».

### 238

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilar: «Ehromli kishi sichqon, ilon, it, kalxat va chayon o'ldirishi mumkin».

### 239

Abu Hanifa (r.a.) Sammokdan, u Ibn Jubayrdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) Maymuna binti Horisni ehromda bo'lganlarida nikohlariga oldilar (unga uylandilar)».

### 240

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Said ibn Jubayrdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) ehromda bo'lganlarida qon oldirdilar».

## 241

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Rasulullohni (s.a.v.) Hajar ul-Asvadni istilom qilishlarini ko'rganimdan beri uni istilom etishni tark qilmadim».

## 242

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Tavof asnosida har safar Ruknul Yamaniyga borganimda u yerda Jabroilga duch kelaman», deya marhamat qildilar».

## 243

Abu Hanifa (r.a.) Ato ibn Abu Rabohdan rivoyat qiladi. Ato ibn Raboh aytadi:

«Rasulullohdan (s.a.v.) so'raldi:

- Yo Rasululloh! Siz nega Ruknul Yamaniyni ko'p istilom qilasiz?

Marhamat qildilarki:

- U yerga har borganimda Jabroil u yerda turganini, uni istilom qilganini va gunohini kechishni Alloh taolodan so'rashini ko'raman».

## 244

Abu Hanifa (r.a.) Abdulloh ibn Dinordan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Ruknul Yamaniy bilan Hajar ul-asvad orasida Alloh rasuli (s.a.v.) shunday duo qilar edilar: «Ey Allohim! Kofirlikdan, faqirlikdan, xorlikdan, dunyo va oxiratda sharmandali o'rinlardan O'zing panoj bergin».

## 245

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Said ibn Jubayrdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) xastaliklarida ulovlari ustida turib Ka'bani tavof etdilar va rukunlarni istilom qildilar».

Bir rivoyatda naql etilishicha, Nabiy (s.a.v.) xastaliklarida ulovlari ustida Safo va Marva orasida sa'y qildilar.

## 246

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.) Hajar ul-asvaddan boshlab unga aylanib kelgunga qadar raml qilardilar. (elkalarini qimirlatib, tez yurar edilar)».

## 247

Abu Hanifa (r.a.) Yahyo ibn Abu Hayya Abu Janobdan, u Honiydan, u Zayddan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Arafotdan qaytib Jam'a (Muzdalifa)ga tushganimizda takbir aytdi va biz u bilan shom namozini o'qidik. Shom namozidan keyin u oldinga chiqdi va ikki rakat namoz o'qidi, so'ng suv olib keltirdi, uni

ustiga sepib yotoqlariga kirdi. Biz esa o'tirib uzoq vaqt namozni kutdik. Nihoyat:

- Ey Abu Abdurahmon! Namoz nima bo'ladi? (Namozni o'qimaymizmi? - *Tarj.*) - dedik.

- Qaysi namoz?

- Xufton namozida.

Abu Abdurahmon:

- Rasululloh (s.a.v.) o'qiganlari kabi men o'qib oldim, dedi».

- Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qilingan bir hadisda Ibn Umar (r.a.) aytadi: «Nabiy (s.a.v.) shom bilan xufton namozini jam etdilar (birlashtirib o'qidilar)».

## 248

Abu Hanifa (r.a.) Adiydan, u Abdulloh ibn Yaziddan, u Abu Ayyubdan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Ayyub (r.a.) aytadilar: «Muzdalifada Rasululloh (s.a.v.) bilan vido hajida shom namozini bilan xufton namozini o'qidim».

## 249

Abu Hanifa (r.a.) Abu Ishoqdan, u Abdulloh ibn Yazid Xitmiydan, u Abu Ayyubdan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Ayyub (r.a.) deydi: «Rasululloh (s.a.v.) shom va xufton namozini bir azon va bir takbir bilan jam qilib o'qidilar».

## 250

Abu Hanifa (r.a.) Salamadan, u Hasan Araniydan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. «Rasululloh (s.a.v.) xonadon ahli zaifalarini Muzdalifadan Minoga avval yubordilar. Ularga: «Quyosh chiqqunga qadar shaytonga tosh otmanglar», deya buyurdilar».

## 251

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Said ibn Jubayrdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) xonadon ahli zaifalarini Muzdalifadan Minoga yubordilar. Ularga, quyosh chiqqunga qadar shaytonga tosh otmanglar, dedilar».

## 252

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi: «Nabiy (s.a.v.) shaytonga tosh otish (aqoba) amalini qilgunga qadar talbiya aytdilar».

Bir rivoyatda (Ibn Abbosdan (r.a.) kelgan rivoyatda) quyidagicha aytiladi: «Rasululloh (s.a.v.) Fazl ibn Abbosni (r.a.) ulovlarining orqasiga mindirib oldilar. Fazl kelishgan bir yigit edi. Ayollarga qaray boshladi. Rasululloh (s.a.v.) uning yuzini burib qo'yar edilar. U zot (s.a.v.) shaytonga tosh otgunga qadar talbiya aytishda davom etdilar».

## 253

Abu Hanifa (r.a.) Abdul Karimdan, u Anasdan (r.a.) rivoyat qiladi. Anas (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.) qurbonlik tuyani haydab borayotgan bir odamni ko'rdilar va unga: «Tuyaga min», deb aytdilar».

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Subay ibn Ma'baddan rivoyat qiladi. Subay ibn Ma'bad deydi: «Haj qilish uchun Jaziradan yo'lga chiqdim. Uzaybadagi mashhur ikki olim - Salmon ibn Robia va Zayd ibn Suxon yonidan o'tdim. Mening umra va haj uchun bir yo'la talbiya aytayotganimni eshitib, ulardan biri: «Bu odam tuyasidan-da adashganroqdir», dedi. 2si esa: «Bu odam shu-shundan ham adashganroqdir», dedi. Men davom etdim. Ibodatim arkonlarini ado etganimdan so'ng mo'minlar amiri hazrati Umarning (r.a.) oldilariga borib bo'lgan voqeani so'ylab berdim: «Men uzoq masofadan, olis yurtdan bu yerga keldim. Alloh taolo menga haj qilishni nasib etdi. Umra va hajni birga ado etishni istab, bu ikkisi uchun talbiya aytdim. Salmon ibn Robia va Zayd ibn Suxon (oldilari) yonidan o'tdim. Men haj va umra uchun birga talbiya aytganimni eshitib ulardan birlari: «Bu odam tuyasidan-da adashgan», 2si esa: «Bu kimsa shu-shundan ham adashgan», dedi». Hazrati Umar (r.a.): «Keyin nima bo'ldi?» dedilar. Men: «Umruga tavof va sa'y qildim, so'ng qaytib yana tavof va sa'y qildim va ehromda qoldim. Hojilar nima bajarsa men ham ado etdim, ibodatlarning qolganlarini ham to'liq bajardim», dedim. «Sen Nabiyning (s.a.v.) sunnatiga ko'ra harakat qilibsani», dedilar hazrati Umar (r.a.)».

Subay ibn Ma'baddan qilingan yana bir rivoyatda bunday naql etiladi: «Men xristianlikdan qaytib, endigina musulmon bo'lgan bir kimsa edim. Umar ibn Xattob zamonlarida haj qilish uchun Kufaga keldim. Salmon ibn Robia va Zayd ibn Suxonlar faqat haj uchun talbiya aytishdi. Subay esa har ikkisi (haj va umra) uchun talbiya aytdi. Ular: «Hayf-e senga. Rasululloh (s.a.v.) tamattu' hajini ta'qiqlaganlar sen esa tamattu' qilmoqdasan. Sen tuyadan ham adashgansan», deyishdi. Bu gapdan so'ng Subay ibn Ma'bad: «Yaxshisi, birgalikda hazrati Umar (r.a.) oldilariga boraylik», deya taklif aytdi. Subay Makkaga kelgach, Baytni tavof etdi. Safo va Marva orasida umra uchun sa'y qildi. So'ng Harami Sharifga qaytdi. Ta'qiqlardan birortasini qilmadi. Keyin Baytni tavof etdi. Haj uchun Safo va Marva orasida sa'y qildi. Harami Sharifda qoldi, man eilgan narsalardan saqlandi. Arafotga bordi. Hajini tugatib, naxr kuni ehromdan chiqdi. Qurbon (hayiti. - *Tarj.*) kuni tamattu' haji uchun qurbonlik so'ydi.

Hajdan qaytayotganlarida hazrati Umarning (r.a.) yonlariga keldilar. Zayd ibn Suxon bunday dedi: «Ey mo'minlar amiri, siz tamattu' hajini man etgan bo'lsangiz ham, Subay ibn Ma'bad tamattu' haji qildi». Hazrati Umar (r.a.): «Nima qilding, ey Subay?» deya so'radilar. Subay ibn Ma'bad: «Ey mo'minlar amiri, haj va umruga tahlil aytdim. Makkaga kelgach, Baytni tavof qildim. Umram uchun Safo va Marva orasida sa'y qildim. So'ngra Harami Sharifga qaytdim. Ehrom holida qolib man etilgan ishlarni qilmadim. Keyin hajim uchun Safo va Marva orasida sa'y qildim. Bu amallarni bajargach, Harami Sharifda qoldim. Naxr kuni Qurbonlik so'ydim, qurbonlikdan so'ng ehromdan chiqdim», deya javob berdi. Hazrati Umar (r.a.) uning yelkasiga sekingina urib: «Sen Nabiyning (s.a.v.) sunnatiga binoan ish qilibsani», dedilar.

Bir rivoyatda esa quyidagicha keltiriladi: «Subay ibn Ma'bad Salmon ibn Robia va Zayd ibn Suxon bilan birga hajga bordi. Subay ibn Ma'bad ham haj, ham umra uchun ehromga kirdi. Salmon va Zayd esa faqatgina haj uchun ehromga kirdilar. U ikkalasi Subayni bu qilgan ishi uchun koyidilar va unga: «Tuyangdan-da adashgan ekansan, ham haj, ham umra uchun ehromga kirding. Vaholanki, mo'minlarning amiri haj va umruga birga ehromga kirishni man etganlar», deyishdi. Subay ibn Ma'bad: «Hazrati Umar (r.a.) huzurlariga boring men ham boraman», dedi. Makkaga bordilar. Subay umra uchun Baytni tavof qildi. Safo va Marva orasida sa'y etdi. So'ngra qaytib, takror haj uchun Baytni tavof etdi. Safo va Marva orasida sa'y qildi. Keyin u yerda iqomat etdi (yashadi).

Ehromni buzadigan biror nuqsonga yo'l qo'ymadi. Qurbon kuni bo'lgach, qurbi yetgan bir qo'y so'ydi. Haj ibodatlarini bitirgandan keyin Madinaga kirib o'tdilar. Hazrati Umarning (r.a.) huzuriga bordilar. Salmon va Zayd: «Subay haj va umrani birga qildi», deyishdi. «Nima qilding, ey Subay?» deb so'radilar hazrati Umar (r.a.). Subay: «Makkaga keldim. Umram uchun tavof qildim. Safo va Marva orasida sa'y qildim. So'ngra qaytdim. Hajim uchun Ka'bani tavof etdim. Safo va Marva orasida sa'y qildim», deb javob berdi. «Keyin nima qilding?» deya so'radilar hazrati Umar (r.a.). «Masjidi Haramda qoldim. Menga (ehromli kishiga. - *Tarj.*) harom bo'lgan biror ishni qilmadim. Qurbon kuni kelgach, qurbim yetgan bir qo'y so'ydim», dedi. Hazrati Umar (r.a.) uning yelkasiga sekingina urdilar va: «Sen Nabiyning (s.a.v.) sunnatiga binoan harakat etibsan», dedilar».

## 255

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Ramazon (oyi)da umra qilish hajga tengdir», deb marhamat etdilar».

## 256

Abu Hanifa (r.a.) Abdullohdan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.) Makkaning fathi kuni Qasva nomli qoramtir kulrang tuyalari ustida yoylarini taqqan va boshlarida qora salla o'ragan holda edilar».

## 257

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) dedilar: «Hazrati Payg'ambarning qabrlarini mana bunday ziyorat etish sunnatdir: qibla tarafdin hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) qabrlariga, kelib orqani qiblaga, yuzni qabrga qaratib: «Assalomu alayka ayyuhannabiy va rahmatullohi va barakotuh» (Allohning salomi, rahmati, barakoti sizga bo'lsin, ey Nabiy!), deysiz».

## NIKOH BO'LIMI

## 258

Abu Hanifa (r.a.) Qosimdan, Qosim otasidan, u Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Abdulloh aytdilar: "Rasululloh (s.a.v.) bizga nikoh xutbasini o'rgatdilar. U quyidagichadir: "Hamd Allohgadir. Biz Allohga hamd aytamiz, Undan yordam so'raymiz, gunohimizni kechishini so'raymiz. Undan hidoyat tilaymiz. Alloh taolo kimni hidoyatga erishtirsa, uni adashtiruvchi hech kim yo'q. Alloh taolo kimni adashtirsa, uni hidoyatga erishtiruvchi kimsa yo'q. Allohdan o'zga iloh yo'qligiga, Muhammad (s.a.v.) Uning quli va rasuli ekaniga biz iqro'miz.

Ey imon keltirganlar! Allohdan, lozim bo'lganidek qo'rqing. Faqat musulmon bo'lgan holda o'ling. Allohdan qo'rqing! Bir biringizdan narsalarni Uning nomini aytib so'raysiz. Silai rahmni uzming. U sizni kuzatib turuvchidir.

Ey imon keltirganlar! Allohdan qo'rqing va to'g'ri so'zni gapiring. Alloh sizning amallaringizni isloh etadi va gunohlaringizni kechiradi. Kim Alloh va rasuliga itoat etsa, shubhasiz, u najot topadi".

## 259

Abu Hanifa (r.a.) Ziyoddan, u Abdulloh ibn Harsdan, u Abu Musodan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Muso (r.a.) dedilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Uylaning (turmush quring), men sizning ko'pligingiz bilan boshqa ummatlar oldida maqtanaman», deya marhamat etdilar».

## 260

Abu Hanifa (r.a.) Abdulloh ibn Dinordan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Yosh (bokira, durkun - *Tarj.*) qizlarga uylaninglar. Zero ular serpusht, og'izlarining hidi yoqimli, axloqlari go'zaldir», deya marhamat etdilar».

## 261

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan rivoyat qiladi. Ibrohim aytdi: «Menga Madina ahlidan keksa bir kishi xabar berdi. U esa Zayd ibn Sobitdan rivoyat qildi. Zayd ibn Sobit hazrati Payg'ambar (s.a.v.) huzurlariga kelganda Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) undan:

- Uylandingmi? - deb so'radilar.

- Yo'q, - deb javob berdi u.

- Uylangin, iffatli bo'lgaysan (haromlardan saqlangaysan). Biroq besh ayolga uylanma: "Shahbara", "Nahbara", "Lahbara", "Habdara", "Lafut", - dedilar Rasuli akram (s.a.v.).

- Yo Rasululloh, bu aytganlaringizning birortasini bilmayman.

Rasuli akram aytdilar:

- Shabhara - yirik jussali, moviy ko'zli ayol, nahbara - zaif (oriq - *Tarj.*), ingichka, uzun bo'yli ayol, lahbara - shahvati yo'q, yoshi o'tgan ayol, habdara - bo'yi qisqa yoqimsiz ayol, lafut - sendan boshqa (avvalgi) eridan bola ko'rgan (tul) ayol».

Shayboniy aytadiki: "Abu Hanifa bu hadisni rivoyat etarkan, uzoq kuldi".

## 262

Abu Hanifa (r.a.) Abdul Malikdan, u shomlik bir odamdan, u hazrati Payg'ambardan (s.a.v.) rivoyat qildi: «Bir odam keldi va:

**230** Yo Rasululloh, men falonchiga uylanaman, - dedi.

Allohning rasuli (s.a.v.) unga uylanishdan qaytardilar. Haligi odam yana va yana keldi.

Rasuli akram (s.a.v.) yana nahy qildilar va bunday dedilar:

- Qora, ammo tug'adigan ayol menga chiroyli, tug'mas ayoldan sevimliroq, yaxshiroqdir».

## 263

Abu Hanifa (r.a.) Alqama ibn Marsaddan, u Ibn Buraydadan rivoyat qiladi. Ibn Burayda naql qildi: «Bir kuni sahobalar Alloh rasulining (s.a.v.) yonlarida balo haqida suhbatlashdilar. Rasululloh (s.a.v.): "Balo (xosiyatsizlik. - *Tarj.*) uyda, ayolda, otdadir. Uyning balosi tor bo'lishi, otning balosi sarkash (qaysar) bo'lishi, ayolning balosi bepust bo'lishidir", deya marhamat qildilar».

Hasan ibn Sufyon mana bu ifodani qo'shgan: "Yomon axloqli va bepust bo'lishidir".

Bir rivoyatda: "Agar balo (xosiyatsizlik) bo'lsa, uyda, otda va ayolda bo'ladi. Uyning balosi tor bo'lishidir. Ayolning balosi badxulq va bepusht bo'lishidir. Otning balosi sarkash bo'lishidir", deyiladi.

## 264

Abu Hanifa (r.a.) Ato ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi: "Nabiy (s.a.v.) qizi Fotimaga: "Ali seni eslayapti (so'rayapti, senga uylanmoqchi)", dedilar».

## 265

Abu Hanifa (r.a.) Shaybondan, u Yahyodan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) qizlaridan birini turmushga chiqarmoqchi bo'lsalar: «Falon erkak falon qizni eslayapti», der edilar, so'ngra uni uzatardilar».

Bir rivoyatda Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: "Nabiyning (s.a.v.) qizlaridan biriga uylanmoqchi bo'linsa (birov qizlarining qo'lini so'rab kelsa. - *Tarj.*), ul zot (s.a.v.) o'sha qizlarining xonasiga kelar, "Falon kishi falon qizni esga olyapti", der edilar. Keyin o'sha qizlarini turmushga berar edilar".

Yana bir rivoyat quyidagichadir: "Rasulullohning (s.a.v.) qizlaridan biriga sovchi kelganida, uning xonasiga borar, "Falon kimsa falon qizni eslamogda", der, keyin ketardilar va nikoh o'qir edilar".

## 266

Abu Hanifa (r.a.) Muhammad ibn Munkadirdan, u Jobir ibn Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir ibn Abdulloh (r.a.) aytdilar: «Oisha onamiz (r.a.) o'z yonida o'stirgan yetim qizni turmushga berdi. Qizning sepini esa Rasululloh (s.a.v.) o'z mollaridan tayyorladilar».

## 267

Abu Hanifa (r.a.) Shaybon ibn Abdurahmondan, u Yahyo ibn Abu Kasiyrdan, u Muhojirdan, u ibn Ikrimadan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: "Rasululloh (s.a.v.): "Bokira qiz faqat ruxsati (roziligi. - *Tarj.*) olingandan keyin turmushga beriladi. Bokiraning roziligi jim turishidir. Tul xotin faqat izni og'zaki (ayolning o'z og'zidan) olingandan so'ng turmushga beriladi", deb marhamat qildilar". Boshqa bir rivoyatda aytiladi: "Bokira qiz faqat izni (ruxsati) olingandan keyin turmushga beriladi. Bokiraning izni jim turishidir (sukut saqlashi). Tul xotin esa uning og'zaki izni olingandan so'nggina uzatiladi".

Yana bir rivoyatda: "Bokira ruxsati olinmaguncha nikohlanmaydi. Jim tursa, bu ruxsat (rozi. - *Tarj.*), demakdir. Tul ayol esa og'zaki izn olinmaguncha nikohlanmaydi", deyiladi.

## 268

Abu Hanifa (r.a.) Abdulazizdan, u Mujohiddan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Bir xotinning eri o'lgan edi. Bolasining amakisi (ya'ni, qaynakasi. - *Tarj.*) keldi va unga turmushga chiqishni taklif qildi. Qizning otasi qizini unga berishdan bosh tortdi. Ayol hazrati Payg'ambar (s.a.v.) yonlariga keldi. Voqeani aytdi. Rasululloh (s.a.v.) uning otasiga xabar yubordilar. Qizning otasi keldi.



- Bu ayol (qizing. - *Tarj.*) nima deyapti? - deya so'radilar Rasululloh (s.a.v.).  
- To'g'ri gapiryapti, biroq men uni u odamdan ham xayrli birisiga berdim, - dedi ota.  
Shunda Alloh rasuli (s.a.v.) bu turmushni (nikohni. - *Tarj.*) bekor qildilar. U ayolni  
bolasining amakisiga (nikohlab) berdilar".

Ibn Abbosdan (r.a.) bo'lgan boshqa bir rivoyatda aytiladi: "Asmoning o'ziga bolasining  
amakisi va boshqa bir odam otasiga sovchi bo'lishdi. Asmoning otasi Asmoni u odamga  
nikohlab berdi. Qiz hazrati Payg'ambarga (s.a.v.) kelib bu holatdan shikoyat qildi. Rasuli  
akram (s.a.v.) uning boshqa odam bilan bo'lgan nikohini bekor qildilar, bolasining  
amakisiga turmushga berdilar".

Yana bir rivoyatda quyidagicha keladi: "Bir ayolning eri vafot etdi. Bolasining amakisi  
ayolga sovchi bo'lib keldi. Biroq qizning otasi qizining roziligisiz uni boshqa bir odamga  
turmushga berdi. Qiz hazrati Payg'ambar (s.a.v.) huzurlariga bordi va bu voqeani  
tushuntirdi. Hazrati Payg'ambar qizning otasini chaqirtirdilar va:

- Uni (qizingni. - *Tarj.*) yanada xayrli birisiga uzatdingmi? - deya so'radilar.

U:

- Yanada xayrli birisiga uzatdim, - deya javob berdi. Rasululloh (s.a.v.) ayol bilan haligi  
odamni ajratdilar, u ayolni bolasining amakisiga nikohladilar".

Bir rivoyatda esa quyidagicha keltiriladi: "Bir ayolning eri vafot etdi. Uning bir o'g'il  
farzandi bor edi. Bolaning amakisi u ayolga sovchi bo'lib otasi oldiga bordi. Ayol otasiga:  
"Meni u odamga turmushga bering", dedi. Qizning otasi bundan bosh tortdi. Ayolning  
roziligini olmay, uni boshqa bir odamga berdi. Ayol esa hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v.)  
huzurlariga bordi. Bo'lib o'tganlarni hazrati Payg'ambar (s.a.v.) qizning otasidan  
so'radilar. U:

- Men qizimni bolasining amakisidan-da xayrli bir kishiga uzatdim, - deya javob berdi.  
Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) ayol bilan u turmushga chiqqan odamning orasini ajratdi. U  
ayolni bolasining amakisiga nikohlab berdilar".

## 269

Abu Hanifa (r.a.) Atiyya U'fiydan, u Abu Said Xudriydan rivoyat qiladi. Abu Said Xudriy  
aytdi: "Rasuli akram (s.a.v.): "Ayol ammasi va xolasining ustiga nikohlanmaydi (amma  
va xola jiyani bilan birga bir kishining nikohi ostida turmaydi)", dedilar".

## 270

Abu Hanifa (r.a.) Shabiydan, u Jobir ibn Abdullohdan, u Abu Hurayradan rivoyat qiladi.  
Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: "Rasululloh (s.a.v.): "Ayol ammasining va xolasining ustiga  
nikohlanmaydi. Katta kichikning ustiga nikohlanmaydi. (Xola - singlisining qizi, amma  
esa aka yo ukasining qizi ustiga nikohlanmaydi)", deb marhamat qildilar".

## 271

Abu Hanifa (r.a.) Zuhriydan, u Anasdan (r.a.) rivoyat qiladi. Anas (r.a.) aytadi: "Nabiy  
(s.a.v.) mut'a nikohini man etdilar".

## 272

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar:  
"Nabiy (s.a.v.) Haybar kuni mut'a nikohini man qildilar".

### 273

Abu Hanifa (r.a.) Muhoribdan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi: "Nabiy (s.a.v.) ayollar bilan mut'a nikoh qilishni man etdilar".

### 274

Abu Hanifa (r.a.) Zuhriydan, u Sarrot ahlidan (bo'lgan) bir odamdan rivoyat qiladi: "Nabiy (s.a.v.) Makkaning fathi kunida ayollar bilan mut'a nikoh qilishni man etdilar". Bir rivoyatda: "Makka fath qilingan yili qaytardilar", deyiladi.

### 275

Abu Hanifa (r.a.) Yunus ibn Abdullohdan, u otasidan, u Rabe' ibn Sabrata Juhaniydan, u otasidan rivoyat qiladi: "Nabiy (s.a.v.) Makkaning fathi kunida ayollar bilan mut'a nikoh qilishni ta'qiqladilar". Bir rivoyatda «Haj qilingan yili mut'ani man qildilar», deyiladi.

### 276

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: "Rasululloh (s.a.v.) Haybar jangi bo'lib o'tgan yili xonaki eshaklarning go'shtlarini yeyishdan va ayollar bilan mut'a nikoh qilishdan qaytardilar".

### 277

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan rivoyat qiladi. Alqama (r.a.) aytdilar: "Abdulloh ibn Mas'uddan azl haqida so'raldi. Abdulloh ibn Mas'ud: "Rasululloh (s.a.v.): "Alloh taolo kafolatini olgan narsa qoyaning ustiga qo'yilsada, albatta chiqadi", dedilar", dedi".

### 278

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Abu Haysamdan, u Yusuf ibn Mohakdan, u hazrati Payg'ambarning (s..a.v.) zavjalari Hafsadan (r.a.) rivoyat qiladi: "Bir ayol Hafsa onamiz yonlariga keldi va dedi:  
- Erim menga yonboshlatib yaqinlashadi. Men buni yoqtirmayman.  
Bu gap Rasuli akramga (s.a.v.) yetdi. U zot:  
- Qinga bo'lsa, zarari yo'q,- dedilar.

### 279

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan, u Hamid A'rajdan, Abu Zarrdan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Zarr (r.a.) aytdilar: "Nabiy (s.a.v.): "Xotinlarning orqalariga yaqinlik qilish haromdir", dedilar".

## 280

Abu Hanifa (r.a.) Mu'ndan rivoyat qiladi. Abu Avf Abdulloh Ibn Mas'uddan rivoyat qilib yozganida ko'rdim: "Xotinlarning orqalariga yaqinlashishdan qaytarildik".

## 281

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan, u Abu Minhaldan, u Qa'qo' Hashaniydan, u Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud (r.a.) aytadi: "Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): "Xotinlarning orqalariga yaqinlashmoq haromdir", dedilar".

## 282

Abu Hanifa (r.a.) Hammod ibn Abu Salimdan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Umar ibn Xattobdan (r.a.) rivoyat qiladi. Hazrati Umar (r.a.) aytdilar: "Nabiy (s.a.v.): "Bola yotoq sohibiga tegishlidir (oiddir). Zino qilgan toshbo'ron qilinadi", dedilar".

### ISTIBRO BAHSI

## 283

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi: "Rasululloh (s.a.v.) homilador joriyalarni ular qorinlaridagini tuqqunlariga qadar jimo' etishni ta'qiqladilar".

### RAZO (SUT) BAHSI

## 284

Abu Hanifa (r.a.) Hakamdan, u Qosimdan, u Shurayhdan, u hazrati Alidan (r.a.) rivoyat qiladi: "Nabiy (s.a.v.): "Nasabdan kimlar harom bo'lsa sut emishdan ham harom bo'ladi. Bu emish xoh oz bo'lsin, xoh ko'p bo'lsin", dedilar".

## 285

Abu Hanifa (r.a.) Hakamdan, u Arrokk ibn Molikdan, u Urva ibn Zubayrdan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: "Afloh ibn Abul Qu'aysiy keldi. Oisha onamizdan ichkariga kirish uchun ruxsat so'radi.

Afloh:

- Mendan qochayapsanmi? Men amakingman-ku,- dedi.

Oisha onamiz (r.a.):

-Qanaqasiga?! - dedilar.

-Akamning xotini seni emizgan, - dedi Afloh».

Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: "Bu haqda Rasulullohga (s.a.v.) aytganimda: "Alloh yaxshilik nasib etsin senga. Bilmaysanmi, nasabdan kimlar harom bo'lsa, sut emishdan ham harom bo'ladi", deya marhamat qildilar".

## TALOQ (AJRALISH) BO'LIMI

### 286

Abu Hanifa (r.a.) Atoddan, Yusuf ibn Mohakdan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: "Rasululloh (s.a.v.): "Uch narsaning jiddiyi ham, hazili ham jiddiydir. Ular: taloq, nikoh, rij'atdir. Eri rij'iy taloq qilgan xotiniga qaytish», dedilar".

### 287

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: "Nabiy (s.a.v.) Savdoni taloq qilganlarida unga: "Idda o'tir!" dedilar".

### 288

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi: "Rasululloh (s.a.v.) Savdoni taloq qilganlarida unga: "Idda o'tir!" dedilar".

### 289

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u bir odamdan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. "Ibn Umar (r.a.) ayolini u hayz ko'rganda taloq qildilar. Bu ishlari uchun tanqid qilindi. Ayoli hayzdan tozalangach, taloq qildilar. Iddasi hayzli paytida taloq qilingan kundan hisoblandi".

### 290

Abu Hanifa (r.a.) Abu Ishoqdan, Abu Ishoq Abu Burdadan, u otasidan rivoyat qiladi. Abu Buraydaning otasi aytdi: «Rasululloh (s.a.v.): Alloh taoloning shariati bilan o'ynashayotgan, xotinlariga «seni qo'ydim, qaytib oldim» deyotgan kishilar holi qanday bo'lar ekan!» deb marhamat qildilar".

### 291

Abu Hanifa (r.a.) Mansurdan, u Sha'biydan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi: "Rasululloh (s.a.v.): "Ma'tuh (aljirab qolgan, aql-hushini yo'qotgan. - *Tarj.*) kimsaning talog'i, savdo-sotig'i joiz emasdir", dedilar".

### 292

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: "Rasululloh (s.a.v.) bizga o'zlaridan ajralishga ixtiyor berdilar. Biz ajralmadik ul zotni ixtiyor qildik (tanladik). Bu taloq sanalmadi".

### 293

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi: "Oisha onamiz (r.a.) joriyasi Barirani ozod etdilar. Uning (joriyaning) eri

Abu Ahmad sulolasining ozod etilgan quli edi. Rasululloh (s.a.v.) joriyaga erining nikohida qolish-qolmaslik borasida ixtiyor berdilar. U ajrashishni xohladi. Rasululloh (s.a.v.) ularni ajratdilar. U joriyaning eri hur edi".

## 294

Abu Hanifa (r.a.) Atiyyadan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi: "Rasululloh (s.a.v.): "Joriyaning talog'i ikkita, iddasi esa ikki hayzdir", dedilar".

## 295

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u hazrati Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Hazrati Umar (r.a.) aytdilar: "Rost yo yolg'on gapirganni biz bilmagan bir ayolning so'zi bilan (so'ziga kirib) Rabbimizning Kitobini, Rasulimizning sunnatlarini tark etmaymiz. Uch taloq qo'yilgan xotinga yashaydigan joy va nafaqa beriladi".

## 296

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan rivoyat qiladi. Asvad aytadi: "Horis Aslamiyaning qizi Subayataning eri o'ldi. Ayol yigirma besh kechadan so'ngra tug'di. Abu Sanobil ibn Ba'kak Subayata oldiga keldi va:

- Bezanganingga qaraganda turmushga chiqmoqchisan, shekilli. Allohga qasamki, "Ikki iddaning ko'pi o'tguncha kutasan. (Tug'ishi bilan ayolning iddasi tugaydi. Eri o'lgan ayol esa to'rt oy o'n kun muddatigacha idda saqlaydi.)

Ayol bu holni kelib hazrati Payg'ambarga (s.a.v.) xabar berdi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.):

- U yolg'on so'zlabdi, kelganida menga xabar ber, - deya marhamat qildilar".

## 297

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Abdulloh ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud aytdilar:

- Kim istasa, u bilan qarg'ashaman (la'natlashaman).

Qisqa bo'lgan Taloq surasidagi "Homilador xotinlar tuqqach, iddalari tugaydi" oyati Baqara surasidagi "O'lganlaringiz ortda qoldirgan xotinlari to'rt oy-u o'n kun kutadilar" oyatidan keyin nozil bo'ldi".

Abdulloh ibn Mas'uddan bo'lgan rivoyatda hazrati Payg'ambarimiz bunday marhamat etdilar: "Qisqa bo'lgan Taloq surasining "Homilador xotinlarning, xoh ajrashgan bo'lsin, xoh eri vafot etgan bo'lsin, iddalari ko'z yorishlari bilan tugaydi" oyati har qanday idda muddatini nash etdi".

## 298

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Abdulloh ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud (r.a.) aytadi: "Mahr belgilanmay va jimo' qilinmay o'lgan ayol haqida so'raldi".

Ibn Mas'ud (r.a.) bunday dedi: "Ayol o'sha hududning ayollari olayotgan miqdorda mahri misl oladi. Unga meros tegadi, ayni paytda bu ayol idda saqlashi kerak bo'ladi". Ma'qil

ibn Sinon Ashjaiy dedi: "Guvohlik beramanki, Rasululloh (s.a.v.) Vosiqning qizi Birva haqida sen chiqargan hukm kabi hukm chiqardilar".

### 299

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan (r.a.) rivoyat qiladi. Alqama (r.a.) aytadilar: "E'lo qilgan kishi (xotini bilan yotmaslikka qasam ichgan kishi)ning qasamdan qaytishi jimo' qilishi bilandir. UZR sababli jimo' qilolmasa, tili bioan qasamdan qaytganini aytishdir".

### 300

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan(r.a.), u esa Ayyub as-Sahtiyondan (r.a.) rivoyat qiladi. Ayyub as-Sahtiyon aytdi: "Sobit ibn Qaysning xotini Rasululloh (s.a.v.) huzurlariga keldi va:

- Men va Sobit kelisholmaymiz, yo Rasululloh, - dedi.

Rasululloh (s.a.v.):

- Senga mahr sifatida bergan bog' evaziga (bog'ni unga qaytarib) xulu' qilasanmi (talog'ingni olasanmi - *Tarj.*)? - dedilar.

- Ha, hatto yanada orttiramani, - dedi ayol.

- Oshiqchasining keragi yo'q, - dedilar hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v.)".

## NAFAQA

### 301

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Said ibn Jubayrdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytadi: "Rasululloh (s.a.v.): "Alloh taolo nazdida sizdan biringizning oila ta'minotini o'ylab qayg'urishi Alloh yo'lida qilich bilan ming zarba urganlikdan xayrliroqdir", deb marhamat qildilar".

### 302

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u otasidan, u esa Sa'ddan (r.a.) rivoyat qiladi. Sa'd (r.a.) aytadilar: "Rasululloh (s.a.v.): "Alloh taoloning roziligini istab qilgan har bir nafaqang uchun ajr (savob) olasan. Bu xotining og'ziga uzatganing bir luqma bo'lsa ham", deb marhamat qildilar".

## MUDABBAR QUL VA VALO

*(Qulni ozod qilgani uchun uning mulkidan meros olish)*

### 303

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Jobir ibn Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: "Ibrohim ibn Nuaym Nahhamning bir quli bor edi. Uni mudabbir (xo'jayini o'lgandan so'ng ozod bo'ladigan qul) qildi. Keyin pulga ehtiyoj sezdi. Hazrati Payg'ambar

(s.a.v.) uni sakkiz yuz dirhamga sotdilar".

Bir rivoyatda: "Nabiy (s.a.v.) mudabbir qulni sotdilar", deyiladi.

### 304

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. "Oisha onamiz (r.a.) Barirani sotib olib ozod etmoqchi bo'ldi. Bariraning xo'jayinlari hazrati Oishaga (r.a.):

- Valo bizda bo'lishi sharti bilan senga sotamiz, - deyishdi. (Ozod etilgan qul o'lganida undan qolgan mol uni ozod qilgan zotga yoxud vorislariga qolishi "valo", deyiladi.) Oisha onamiz buni hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v.)ga aytganlarida ul Janob:

- Valo uni (qulni) ozod etganga bo'ladi, - deya marhamat qildilar".

### 305

Abu Hanifa (r.a.) Ato ibn Yasordan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. "Rasululloh (s.a.v.) Valoni sotishni va uni hadiya qilishni man qildilar».

## QASAMLAR

### 306

Abu Hanifa (r.a.) Nosih ibn Abdullohdan, u Ibn Ajlondan, u Yahyo ibn Yalodan, u Ishoq as-Salulidan, u Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali, Nufayl al-Hofizdan, u Yahyo ibn Abu Kasirdan, u Abu Salamadan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytadilar: "Rasululloh (s.a.v.) bunday marhamat qildilar:

- Alloh taologa qilingan isyonlar ichida jazosi eng tez beriladigani buzuqlikdir. Allohga toatlar ichida savobi eng tez beriladigani silai rahmdir (qarindoshlarni ziyorat qilish). Yolg'on dan ichilgan qasam mamlakatni bo'sh, kimsasiz cho'l holiga keltirib qo'yadi, har narsadan mahrum qiladi".

Bir rivoyatda: "Silai rahmdan boshqa savobi tez beriladigan narsa yo'q. Buzuqlikdan va silai rahmdan boshqa jazosi tez beriladigan narsa yo'q. Yolg'on qasam mamlakatni kimsasiz cho'lga aylantiradi, hamma narsadan mahrum qiladi». Yana bir rivoyatda: «Allohga toatlar ichida savob eng tez beriladigani silai rahmdir. Yomon amallar ichida jazo eng tez beriladigani buzuqlikdir. Yolg'on qasam mamlakatlarni kimsasiz cho'lga aylantiradi ", deyiladi.

Yana bir rivoyatda quyidagicha keltiriladi: "Allohga isyon etilgan amallar ichida jazosi eng tez beriladigani buzuqlikdir».

### 307

Abu Hanifa (r.a.) Muhammad ibn Zubayrdan, u Hasandan, u Imrondan (r.a.) rivoyat qiladi. Imron (r.a.) aytdilar: "Rasululloh (s.a.v.): "Kim Alloh taologa itoat etishni nazr qilsa, nazrini ado etsin. Kim Alloh taologa isyon etishni nazr qilgan bo'lsa, nazrini ado etmasin. G'azablangan paytda nazr bo'lmaydi", deb marhamat qildilar".

### 308

Abu Hanifa (r.a.) Muhammad ibn Zubayrdan, u Hasandan, u Imron ibn Husayndan (r.a.) rivoyat qiladi. Imron (r.a.) aytdilar: "Rasululloh (s.a.v.): "Allohga isyonda toatsizlikda nazr yo`q. Uning kafforati nazr kafforatidir", dedilar".

### 309

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: "Alloh taoloning: "Alloh sizning qasamlaringizdagi lag`v sababli jazolamaydi" oyatidagi «lag`v» so`zi qasam "yo`q, vallohi", "ha, vallohi"deyish ekanini eshitdim».

### 310

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan(r.a.), u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdandan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: "Alloh taoloning: "Alloh sizning qasamlaringizdan lag`v sababli jazolamaydi». Oyatdagi lag`v qasam kishining qalbi hech bir gapga bog`lanmay, gapirish asnosida "yo`q, vallohi", "ha, vallohi", deya gapirishidir.

### 311

Abu Hanifa (r.a.) Qosimdan, u otasidan, u Abdulloh ibn Mas`uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas`ud (r.a.) aytdilar: "Rasululloh (s.a.v.): "Kim qasam ichsa-yu "Alloh xohlasa", deya istisno qilsa, istisnosi qabul bo`ladi, (gapini yo ishini bajarmasa qasamini buzgan bo`lmaydi - *Tarj.*) dedilar".

### 312

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan (r.a.), u Qosim ibn Abdurahmondan, u otasidan, u Ibn Mas`uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas`ud (r.a.) dedilar: "Kim qasam ichib "Inshaalloh" ("Xudo xohlasa") desa, istisno qilgan bo`ladi».

## JAZOLAR BO`LIMI

### 313

Abu Hurayra (r.a.) Muslimdan, u Said ibn Jubayrdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Hazrati Payg`ambar (s.a.v.) aytdilar: "Alloh sizlarga ichkilikni, qimorni, mizmarni (nafas bilan (puflab) chalinadigan asbobni), narda o`yinini man` qildi.

### 314

Abu Hanifa (r.a.) Yahyodan, u Ibn Mas`uddan (r.a.) rivoyat qiladi. "Bir odam shirakayf, aql-hushini yo`qotgan ukasining o`g`lini Ibn Mas`udga olib keldi. U Ibn Mas`udning buyrug`i bilan qamab qo`yildi. Uning kayfi tarqab o`ziga kelgach, Ibn Mas`ud tayoq (darra) so`radi. Tayoq ustidagi meva va yaproqlarni olib tashladi. Keyin bir jallod



chaqirib, u odamni urishni aytdi.

- Qo'ltig'ining osti ko'rinmaydigan darajada qo'lingni ko'tar, - dedi.

Abdulloh sanay boshladi. 8 tayoqdan so'ng to'xtadi. Bir qari kishi:

- Ey Abu Abdurahmon! Allohga qasamki, u mening ukamning o'g'lidir. Mening bundan boshqa bolam yo'q, - degach, Abu Abdurahmon u qari kishiga qarab:

- Hayf sendek amakiga. Kichikligida unga yaxshi tarbiya bermabsan, katta bo'lgach, uning ayblarini berkitmabsan (uni yomon yo'ldan qaytarmabsan. - *Tarj.*), - dedi.

Keyin Abu Abdurahmon bizga quyidagi so'zlarni aytdi:

- Islomda ilk had jazosi o'g'irlik qilib, hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) huzurlariga olib kelingan bir odamga qo'llandi. O'g'riga qarshi dalil mavjud bo'lgach, hazrati Payg'ambar (s.a.v.): "Uni olib boring va qo'lini kesing!" dedilar. O'shanda Nabiyning (s.a.v.) muborak yuziga qaraldi. Go'yoki yuzlariga kul sepilgandek edi. Rasululloh (s.a.v.) yonlarida o'tirganlardan biri bunday dedi:

- Yo Rasululloh! Bu holat sizga og'ir keldi.

- Birodaringizga qarshi shaytonga yordamchi bo'lganingiz, albattaki, menga og'ir bo'ldi.

- Uni qo'yib yuborsangiz edi, - deyishdi.

- Koshki bu holat aybdorni mening huzurimga keltirmasdan oldin bo'lsa edi, chunki aybdor hukmdorga olib kelingach, hech kim unga jazo berishdan to'xtatolmaydi, - dedilar Rasuli akram (s.a.v.) va ushbu oyatni o'qidilar: "Ularni avf etsinlar va ularni kechirsinlar (gunohlaridan o'tsinlar)".

Ibn Mas'uddan kelgan boshqa bir rivoyatda aytiladiki: "Bir odam sarxush holatidagi ukasining o'g'lini Ibn Mas'ud (r.a.) huzuriga olib keldi.

- Uni tebrating, silkiting, hidlang, - dedi Ibn Mas'ud.

Undan sharob hidi kelayotganini sezishdi. Bu odam o'ziga kelgach, Ibn Mas'ud bir tayoq so'radi. Tayoqning butoqlari tozalandi." Ibn Mas'ud (r.a.) voqeani o'tgan hadisdagidek davom etdi.

Ibn Mas'uddan (r.a.) kelgan yana bir rivoyatga ko'ra, Islomda ilk had jazosi bunday bo'lgan: "Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) huzurlariga bir o'g'ri olib kelindi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) uning qo'llarini kesishni buyurdilar. O'g'rilik qilgan odam ketgach, Rasulullohning (s.a.v.) yuzlariga boqildi. Yuzlari kul sepilganday edi.

- Yo Rasululloh, bu (jazo. - *Tarj.*) sizga og'ir keldi.

- O'z birodaringizga qarshi shaytonga yordamchi bo'lganingiz og'ir kelmasinmi?! - dedilar Sarvari olam (s.a.v.).

- Uni qo'yib yuborolmasmidik? - deya so'rashdi.

Hazrati Payg'ambar (s.a.v.):

- Uni bu yerga olib kelinmasidan oldin mumkin bo'lardi, - deya marhamat qildilar.

Imomga (davlat rahbariga) bir jinoyatchi hukm uchun olib kelinsa, o'sha hukmni tadbiq etish lozim bo'ladi. Keyin ushbu oyatni o'qidilar: "Ular avf etsinlar va ularni kechirsinlar".

### 315

Abu Hanifa (r.a.) Qosimdan, u otasidan, u Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Abdulloh (r.a.) aytdilar: "Rasululloh (s.a.v.) davrlarida o'n dirham o'g'irlanganda qo'l kesilar edi". Bir rivoyatda Payg'ambar (s.a.v.): "Qo'l kesish faqat o'n dirhamda bo'lgan", deganlar.

### 316

Abu Hanifa (r.a.) Muqsimdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: "Rasululloh (s.a.v.): "Shubhalar bilan hadlarni qaytar", dedilar".

### 317

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibn Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. "Moiz ibn Molik Rasululloh (s.a.v.) xuzurlariga kelib:

- Bir kishi zino qildi (o'zini nazarda tutardi), unga had tadbiiq qiling, dedi.

Rasululloh (s.a.v.) uni qaytarib yubordilar. U 2 marta keldi. Yana haligi gapini aytdi.

Keyin 3 marta keldi. Oldingi gapini takrorladi. 4 daf'a keldi va:

- Kishi (o'zini nazarda tutardi) aniq zino qildi. Jazo bering! - dedi.

Rasululloh (s.a.v.) ashobga qarab: «Bu odamning aqli yo'q» demaysizlarmi? dedilar.

Sahobai kirom:

- Aqlini yo'qotmagan, - deyishdi.

Hazrati Payg'ambar (s.a.v.):

- Uni olib borib rajm (toshbo'ron) qiling, - dedilar.

Sahobai kirom uni olib ketdilar va toshbo'ron qildilar. O'lmadi. Toshlar ko'p joyga olib borib, uni o'lguncha toshbo'ron qilishdi.

Bu voqea hazrati Payg'ambarga (s.a.v.) yetkazilgach, u zot bunday dedilar:

- Qo'yib yuborsangiz bo'lardi! Umid qilamizki, bu jazo uning uchun tavba bo'ldi - dedi bir kishi. Buni Rasululloh eshitdilar: «U shunday bir tavba qildiki, bir guruh inson o'shanday tavba qilsa, qabul bo'lardi», dedilar.

Bu hol Moizning qavmiga yetgach, ular kelib Rasulullohdan (s.a.v.) jasadni nima qilishlarini so'rashdi.

Rasululloh (s.a.v.):

- Boshqa o'liklaringiz kabi uni ham kafanlab, janoza namozini o'qing va dafn eting, - deya marhamat qildilar".

Uning jasadini qavmi olib ketishdi va janozasini o'qishdi.

Bir rivoyatda aytiladi: "Moiz Ibn Molik Rasululloh (s.a.v.) huzurlariga kelib zino qilganiga iqror bo'ldi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) uni qaytarib yubordilar. U yana kelib zino qilganiga iqror bo'ldi. Rasululloh (s.a.v.) uni qaytarib yubordilar. 4 bor iqror bo'lgach, Rasululloh (s.a.v.) sahobalarga: «Uni aqlini inkor qilmaysizlarmi?» dedilar. Sahobai kirom:

- Uning aqlida nuqsonlik yo'q, - dedilar.

Rasululloh (s.a.v.) uni toshlari oz joyga olib borib rajm qilishlarini buyurdilar. Uning ajali kechikkach, toshi ko'p bo'lgan joyga qarab ketdi. Odamlar ham uning orqasiga tushib, o'lgunicha toshbo'ron qildilar. Keyin bo'lgan voqeani Rasulullohga (s.a.v.) aytib berdilar.

U zot (s.a.v.):

- Nega qo'yib yubormadingiz, - dedilar.

Qavm kelib uni dafn etish va janoza namozi o'qish uchun ruxsat so'radi. Bu xususda ularga izn berdilar va dedilarki:

- U shundayin tavba qildiki, bir guruh inson o'shanday tavba qilsa qabul bo'lardi".

Boshqa bir rivoyatda esa quyidagicha aytiladi: «Rasululloh (s.a.v.) Moiz ibn Molikni rajm etishni buyurganlarida. Moiz toshlari oz joyda turdi. Ajali kechikkach, u toshlari ko'p joyga olib borildi. Odamlar ham uning ortidan borib, uni toshbo'ron qildilar. Bu holat Rasulullohga (s.a.v.) yetgach:

- Qo'yib yuborsangiz bo'lardi! - deya marhamat qildilar».

Yana bir rivoyatda keltirilishicha, Moiz ibn Molik toshbo'rondan halok bo'lgach, insonlar u haqda ixtilof qildilar. Ulardan biri: «Moiz o'zini halok qildi» desa, bir qism odamlar: «U tavba qildi», deyishdi. Bu gap Rasulullohga (s.a.v.) yetib borgach, bunday dedilar: «U shunday bir tavba qildiki, soliq yig'uvchi o'shanday tavba qilganida edi, tavbasi qabul

bo'lardi yoki bir guruh inson o'shanday tavbani qilsa, ularniki ham qabul etilardi». Bir rivoyatda aytilishicha, Rasululloh (s.a.v.) yonlariga Moiz ibn Molik kelib o'tirib: «Yo Rasululloh, men zino qildim. Menga jazo qo'llang» dedi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) undan yuz o'giradilar. Moiz to'rt marta shunday dedi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) har safar undan yuzlarini o'girdilar. 4sidan so'ng: «Buning aqliga shubhangiz bormi?» deya so'raydilar. «Yo'q, shubhamiz yo'q. Biz uni aqli va doimo xayrli ishlar qiladigan bir kishi sifatida taniymiz», deyishadi. Shunda Rasululloh (s.a.v.): «Uni olib borib, toshbo'ron qiling», deya buyuradilar. Uni toshi kam joyga olib borishdi. Otilgan toshlar Moizga tega boshlagach, qo'rqdi va u yerdan chiqib shitob bilan Harra (degan joy)ga boradi. O'sha yerda to'xtab turdi. O'shanda ovozi chiqmagunga qadar yirik toshlar bilan toshbo'ron qiladilar. So'ng Rasulullohga, yo Rasululloh (s.a.v.) Moiz qo'rqdi va chiqib shitob bilan ketdi, deyilgandi, Nabiy (s.a.v.): «Uni qo'yib yuborsangiz bo'lardi», deydilar. Odamlar Moiz holi borasida ixtilofga tushadilar. Bir jamoa: «Moiz o'ldi, o'zini halok qildi» desa. Boshqa bir jamoa esa: «U shunday bir tavba qildiki, bir guruh insonlar o'shanday tavba qilsa qabul bo'lardi», deydi. «Yo Rasululloh, uni nima qilaylik?» deya so'rashadi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Boshqa o'liklardek uni yuving, kafanlang, xushbo'ylik suring va janoza namozini o'qib dafn eting», dedilar. Bu hadis turli yo'llar bilan rivoyat qilingan.

### 318

Abu Hanifa (r.a.) Rabiadan, u Baylamoniydan rivoyat qiladi. Baylamoniy aytadi: "Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) zimmiyni o'ldirgan bir musulmonni qasoschi qatl qildilar. Keyin esa bunday dedilar:

- Ahdga vafo qilishga men eng munosibman".

## JIHOD VA SIYAR

### 319

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibn Buraydadan, undan otasi rivoyat qiladi. U aytdi: «Rasululloh (s.a.v.): «Alloh taolo mujohidlarning ayollarini urushga bormay qolgan insonlarga onalari kabi harom qildi. Jihodga bormay qolganlardan kimdir mujohidlardan birining oilasiga xoinlik qilsa, Qiyomat kuni u mujohidga: «Bundan o'chingni ol! deyiladi. Siz nima deb o'ylayapsiz!?», dedilar».

### 320

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibn Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibn Buraydaning otasi aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) bir qo'shin yoxud sariyya (bir guruh suvoriy askar - *Tarj.*) yuborganlarida ularning qo'mondonlariga, o'zi xususida Allohdan qo'rqishini, u bilan birga bo'lgan musulmon askarlari xususida yaxshilik qilishini tavsiya etgach, yana bunday der edilar:

-Allohning nomi ila Alloh taolo yo'lida jihod eting. Allohni inkor etgan bilan jang qiling. Haddan oshmang. Ahdga xoinlik qilmang, hech kimning tana a'zosini kesmang, bolalarni va keksalarni o'ldirmang. Dushman bilan yuzma-yuz kelganda ularni Islomga da'vat eting. Agar qabul qilmasalar, jizya to'lashlarini taklif qiling, agar qabul qilmasa ular bilan jang qiling. Agar bir qal'a ahlini qamal etsangiz va ular sizdan Allohning hukmi bilan

so'rasha, bunday qilmang. Alloh taoloning hukmi qanday bo'lishini bilolmaysiz. Biroq ularni o'z hukmingizga tushiring. Keyin ular borasida o'zlaringizda tug'ilgan hukm bilan hukm qiling. Sizdan Allohning zimmatini istasha, o'z ahdingizni va otalaringizning ahdini bering. Ularga bergan va'dangizni buzish Allohning ustingizdagi zimmatini buzishdan yengilroqdir».

Bir rivoyatda esa quyidagicha aytiladi: «Agar sizdan Allohning zimmatini va Rasulullohning (s.a.v.) zimmatini ularga berishni so'rasha, bermang. Faqat o'z zimmatigizni va otalaringizning ahdini bering. Chunki sizning o'z nomingiz va otalaringiz nomidan bergan ahdni buzishingizning jazosi yengilroqdir».

### 320

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibn Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibn Buraydaning otasi aytdi: "Rasululloh (s.a.v.) asirlarning tana a'zolarini kesib jazo berishni ta'qiqladilar".

### 321

Abu Hanifa (r.a.) Ismoil ibn Hammoddan, u otasidan, u Qosim ibn Moindan, u Abdulmalik Atiyya Quroziydan rivoyat qiladi. Atiyya Quroziy (r.a.) aytdi: "Biz Qurayza jangida Rasulullohga (s.a.v.) havola qilindik. Kattalar o'ldirilib, kichiklarning asirga olishini buyurdilar. Kimning balog'at tuki chiqqan bo'lsa, o'ldirildi. Kimniki chiqmagan bo'lsa, u o'ldirilmadi".

Bir rivoyatda Abdulmalik Atiyya Quroziy dedi: «Hazrati Payg'ambarga (s.a.v.) ko'rsatildim.

- Qarang, agar tuki chiqqan bo'lsa, o'ldiring, - dedilar.

Meni tukim chiqmaganligini ko'rishdi va ozod qilib yuborishdi».

Boshqa bir rivoyatda Abdulmalik Atiyya Quroziy aytdi: «Qurayza asirlari orasida edim. Rasulullohga (s.a.v.) ko'rsatildim. Kindik ostimga qarashdi, unda tuk bitmaganini ko'rib, meni asirlar orasiga qo'shdilar».

### 322

Abu Hanifa (r.a.) Ibn Abu Laylodan, u Hakamdan, u Muqsimdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: "Handaq (janggi) kuni mushriklardan bir odam handaq ichida o'ldirildi. Mushriklar uning o'ligi (jasadi) evaziga mol berdi. Rasululloh (s.a.v.) ularni bundan qaytardilar".

### 323

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. «Rasululloh (s.a.v.) Haybar kuni o'ljalarning beshdan birini bo'linmay sotilishini ta'qiqladilar».

### 324

Abu Hanifa (r.a.) Muqossimdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: "Nabiy (s.a.v.) Badr g'azotidan olingan o'ljalarni Madinaga borgandan so'nggina, taqsimlab berdilar".

## OLDI-SOTDI HAQIDA

### 325

Abu Hanifa (r.a.) Hasandan, u Sha'biydan rivoyat qiladi. Sha'biy aytdi: «Rasulullohdan (s.a.v.):

- Halol qilingan narsalar aniq, harom qilingan narsalar aniq. Bu ikkisining orasida ko'p insonlar bilmaydigan shubhali narsalar bor. Kim shubhalardan saqlansa, dini va nomusini pok etgan bo'ladi», deb aytganlarini eshitganini eshitdim».

### 326

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Said ibn Jubayrdan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Alloh sharobni, uni siqib tayyorlaganni, quyganni, ichganni, sotganni, sotib olganni la'natlagan (la'natlaydi)».

### 327

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan, u Muhammad ibn Qaysdan rivoyat qiladi. Muhammad ibn Qays bunday dedi: «Ibn Umardan yo Ibn Kasirdan (roviy shubha qildi) yoxud boshqa biridan ichkilikning sotilishi haqida so'radim.

U bunday dedi: «Alloh taolo yahudiylarni la'natlagan. Ularga ichki yog'lar (charvi yog'i) harom qilindi. Ular uni yeyishni harom, sotishini halol hisobladilar. Pulini yedilar. Aroqni harom qilgan Zot uni sotishni ham harom qilgandir».

### 328

Abu Hanifa (r.a.) Abu Ishoqdan, u Horisdan, u Hazrati Alidan (r.a.) rivoyat qiladi. Hazrati Ali (r.a.) bunday dedilar: «Rasululloh (s.a.v) foiz yeganni ham, yedirganni ham la'natladilar»

### 329

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Ibn Abbosdan, u Usoma ibn Zayddan (r.a.) rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) bunday marhamat qildilar: «Ribo (foiz) nasiyadadir. Yadan bi yad (naqd) bo'lganida zarar yo'qdir».

### 330

Abu Hanifa (r.a.) Atiyyadan, u Abu Said Xudriydan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Said Xudriy (r.a.) aytdiki: «Oltin oltinga teng miqdorda sotiladi, oshiqchasi ribodir. Kumush kumushga teng miqdorda sotiladi, oshiqchasi ribodir. Xurmo xurmoga teng qilib sotiladi, oshiqchasi ribodir. Arpa arpaga teng miqdorda sotiladi, oshiqchasi ribodir. Tuz tuzga teng miqdorda sotiladi, oshiqchasi ribodir».

Bir rivoyatda: «Oltin oltinga teng vaznda naqd sotiladi, oshiqchasi ribodir. Bug'doy bug'doyga teng kaylda sotiladi, oshiqchasi ribodir. Xurmo xurmoga, tuz tuzga teng kaylda (soa' - don kabi to'kiladigan narsalarning o'lchov birligi) sotiladi, oshiqchasi ribodir», deyilgan.

### 331

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bir qulga ikki qul sotib oldilar».

### 332

Abu Hanifa (r.a.) Amr ibn Dinordan, u Tovusdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.): «Kim taom (don) sotib olsa, uni to'la qo'lga olmasdan sotmasin», dedilar».

### 333

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) aldab sotishdan qaytardilar».

### 334

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobir ibn Abdulloh Ansoriydan (r.a.) rivoyat qiladi: «Hazrat Payg'ambar (s.a.v.) muzobanani (daraxtdan uzilmagan hurmoni uzilgan hurmoga sotib olish), muhoqalani (boshqodagi bug'doyni yanchilgan bug'doyga sotish)ni ta'qiqladilar».

### 335

Abu Hurayra (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) daraxtdagi hali (pishib. -*Tarj*) aniq bo'lmagan mevani sotib olishni ta'qiqladilar».

### 336

Abu Hanifa (r.a.) Jabla ibn Suhaymdan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) hali yetilmagan xurmoni sotishdan qaytardilar».

### 337

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Hulkar yulduzi chiqqanida ofat ko'tariladi, ekinlarga qiron yetmaydi», dedilar».

### 338

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobir ibn Abdulloh Ansoriydan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Kim mevasi terilmagan xurmo daraxtini yoxud moli bor qulni sotsa, meva va mol - oluvchi (ularni ham olishni) shart qilmagan bo'lsa - sotuvchiniki bo'ladi», dedilar».

Bir rivoyatda: «Kim moli bor qulni sotsa, oluvchi uni moli bilan olishni shart qilmagan bo'lsa - qulning moli sotuvchiniki bo'ladi», deyilgan.

Boshqa rivoyatda: «Kim mevasi bor xurmo daraxtini sotsa, oluvchi mevasi bilan olishni shart qilmagan bo'lsa - mevasi sotuvchiliki bo'ladi», deyiladi.

### 339

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u muttaham bo'lmagan kishidan, u Abu Said Xudriy va Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Ikkisi aytdilar: «Nabiy (s.a.v.) bunday deb marhamat qildilar: «Hech kim birodarining savdosi ustiga savdo qilmasin, birodari sovchi bo'lib borganga (ayolga - *Tarj.*) sovchi bo'lmasin. Ayol amma va xolasining nikohlari ustiga nikohlanmaydi (Ya'ni, bir kishi amma va xolani jiyanlari bilan birga nikohida saqlab turolmaydi).

Bir odamning nikohidagi ikki xotindan biri o'z hissasining kengayishini istab 2sining talog'ini talab qilmasin (istamasin). Rizqni berguvchi Alloh taolodir.

Tosh otib, (ustiga tushganini olish uchun savdo qilmang. Mardikor yollamoqchi bo'lsangiz, oladigan haqini unga oldindan bildirib qo'ying».

### 340

Abu Hanifa (r.a.) Mo'ni ibn Abdurrahmon ibn Abdulloh ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Abdulloh Ibn Mas'ud (r.a.) aytdilar: «Hazrat Payg'ambar (s.a.v.):

- Alloh taolo hisobiga xarid qilinglar, - dedilar.

- Bu qanday bo'ladi, ey Allohning rasuli? - deya so'radi sahobai kirom.

- «Biz ulushlarimiz va o'ljalarimizga sotdik», deyish bilan, - dedilar Rasul Akram (s.a.v.)».

### 341

Abu Hanifa (r.a.) Haysam ibn Hubaybdan, u Ikrimadan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) ov itining savdosidan olingan pulga ruxsat berdilar».

### 342

Abu Hanifa (r.a.) Abu Ya'furdan, u Abdulloh ibn Amrdan (r.a.) eshitgan bir kishidan rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) Attob ibn Usaydni makkaliklarga boshliq qilib jo'natayotganlarida unga bunday dedilar: «Makkaliklarni savdoda ikki shartdan, sotish va salafdan, sotib olgan molni qabul qilib olmasdan sotishlaridan qaytar» (agar naqd bo'lsa, yuz (so'm) bir oy, nasiya bo'lsa ikki yuz (so'm) deb savdo qilish savdodagi ikki shartdir. Sotish va salaf «menga shuncha qarz bersang, molimni shunchaga sotaman», deyishdir - ).

### 343

Abu Hanifa (r.a.) Abdumalikdan, u Quzaa'dan, u Abu Said Xudriydan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Said Xudriy aytdi: «Nabiy (s.a.v.) «Hech biringiz qul va joriyani shart bor savdoda sotib olmasin, chunki u qulchilikdagi aqddir», dedilar».

### 344

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan, u Abu Malik Ashjaiydan (r.a.) rivoyat qiladi. U aytdi: «Menga Rabi' ibn Xarrosh Huzayfadan (r.a.) rivoyat qilgan. Huzayfa (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Qiyomat kunida bir qul Alloh taolo huzuriga keltiriladi va u bunday deydi:

- Ey Allohim! Men faqat xayrli ishlarni bildim. U xayrli ishlar bilan Sening rizoligingni ko'zladim. Boy insonlarga imkoniyat berdim, kambag'allarga nazr berdim.

Alloh taolo: «Bu ishlarni qilish sendan ko'ra ko'proq Menga yarashgay», deydi va farishtalarga: «Bu bandamni qo'yib yuboring, uni kechirdim», deydi.

Mas'ud Ansoriy dediki: «Rasululloh (s.a.v.) nomlaridan guvohlik beramanki, Huzayfa (r.a.) bu so'zni Rasulullohdan (s.a.v.) eshitdi».

### 345

Abu Hanifa (r.a.) Ismoildan, u Abu Solihdan, u Ummu Honiydan (r.a.) rivoyat qiladi. Ummu Honiy (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilarki: «Kimki ummatimdan qiyinchilikda qolgan (qarzdor) bir kishini, qarzini berishi uchun bosim ko'rsatsa (qistasa), Alloh taolo unga qabrida bosim ko'rsatadi (siquvgv oladi)».

### 346

Abu Hanifa (r.a.) Abdullohdan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.): «Oldi-sotdida bizni aldagan bizdan emas», dedilar».

### 347

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan, u Abu Sulaymondan rivoyat qiladi. Abu Sulaymon (r.a.) aytdilar: «Ilk dinorni (oltin pulni) chiqargan Tubba (Asad ibn Karb)dir. 1 bo'lib fulusni (kumush tanga pulni) chiqarib, odamlar qo'lida muomalaga kiritgan kishi Namrud ibn Kan'ondir».

## GAROV BO'LIMI

### 348

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v) yahudiydan taom (don) sotib oldilar va unga sovutlarini garov qilib qoldirdilar».

## SHUFA' BO'LIMI

### 349

Abu Hanifa (r.a.) Abu Muhammaddan rivoyat qiladi. Abu Muhammad aytdi: «Ibn Said ibn Ja'far Sulaymon ibn Abdullohdan rivoyat etib, menga Rasulullohning (s.a.v.):



«Qo'shni shufa'ga haqlidir» (Shufa' - ko'chmas mulkni aytmay sotganda xaridordan tortib sotib olish. - *Tarj.*) deganlarini yozib yubordi».

### 350

Abu Hanifa (r.a.) Abdulkarimdan, u Misvar ibn Maxramadan rivoyat qiladi. Misvar ibn Maxrama aytdi: «Sa'd uyini sotmoqchi bo'lganida qo'shnisiga bunday dedi: - Menga uyim uchun sakkiz yuz dirham berishmoqchi, uyimni sen yetti yuz dirhamga ol. Uni senga beraman, chunki Rasulullohdan (s.a.v.): «Qo'shni shufa'ni olmoqqa eng ko'p haq sohibidir», deb eshitganman.

Misvar, Rofi' ibn Hudayjdan qilgan boshqa rivoyatda Rofi' ibn Hudayj aytdi: «Said menga bir uy ko'rsatib: «Shu uyni sen sotib ol. Bu uy uchun menga sen beradigan puldan ko'proq berishmoqchi. Lekin sen uni olishga haqlisan. Chunki men Rasulullohning (s.a.v.): «Qo'shni shufa'ni olishga eng ko'p haqdordir», deganlarini eshitganman, dedi». Misvar, Sa'dning quli Rofi'dan qilgan yana bir rivoyatda: Rofi' Sa'dga bunday dedi: «Bu uyimni to'rt yuz dirhamga sen ol. Menga sakkiz yuz dirham beramiz, deyishdi. Biroq meni uni senga sotmoqchiman. Zero, Rasulullohdan (s.a.v.): «Qo'shni shufa'ga haqlidir», deganlarini eshitganman.

Sa'd ibn Molikdan qilingan boshqa bir rivoyatda shunday kelgan: Sa'd uyini qo'shnisiga to'rt yuz dirhamga sotishni taklif qildi va menga bu uy uchun sakkiz yuz dirham beradigan bo'lishdi. Lekin men Rasulullohdan (s.a.v.): «Qo'shni shufa'ga haqlidir», deganlarini eshitganman.

### 351

Abu Hanifa (r.a.) Ali ibn Aqmardan, u Masruqdan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Sizdan biringizning qo'shni devoriga yog'och qo'ymoqchi bo'lsa, to'sqinlik qilmasin».

## MUZOAR'A (SHERIK BO'LIB EKIN EKISH) BO'LIMI

### 352

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) muayyan ulush evaziga (M. uchdan biri, to'rtidan biri kabi ma'lum miqdor evaziga) sherik bo'lib ekin ekishdan qaytardilar».

### 353

Abu Hanifa (r.a.) Abu Husayndan, u Rofi' ibn Hudayjdan rivoyat qiladi. Rofi' ibn Hudayj (r.a.) aytdilar: «Hazrat Payg'ambar (s.a.v.) bir bog'ni ko'rdilar va u bog'ni juda yoqtirdilar.

- Bu kimniki? - deya so'radilar.

- Meniki, - dedim.

- Qaerdan seniki bo'lib qoldi?

- Uni ijaraga oldim, - degan edim, Rasuli Akram (s.a.v.)

- Uni daromadidan biror narsa evaziga ijaraga olma, dedilar.

Bir rivoyatda aytilishicha: «Nabiy (s.a.v.) bir boqqa duch keldilar va:

- Bu kimniki? - dedilar.
- Meniki. Uni ijaraga oldim, - dedim.
- Uni, daromadidan biror narsa evaziga ijaraga olma, - dedilar Rasululloh (s.a.v)».

## FAZILAT VA SHAMOIL BO'LIMI

### 354

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Robi'adan, u Anasdan (r.a.) rivoyat qiladi. Anas (r.a.) aytdilar: «Hazrat Payg`ambar (s.a.v.) 63 yoshlarida vafot etdilar. Hazrat Abu Bakr (r.a.) 63 yoshlarida vafot etdi. Hazrat Umar (r.a.) 63 yoshlarida vafot etdilar».

### 355

Abu Hanifa (r.a.) Yahyo ibn Saiddan, u Anasdan (r.a.) rivoyat qiladi. Anas (r.a.) aytdilar: «Hazrat Payg`ambar (s.a.v.) qirq yoshga kirganlarida payg`ambar qilib yuborildilar. Makkada o`n yil, Madinada o`n yil turdilar. Vafot etganlarida soqollarida va sochlarida yigirma dona oqargan tola yo`q edi».

### 356

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Hazrat Payg`ambarning (s.a.v.) hidlari xushbo'y edi».

### 357

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Abdulloh ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) masjidga borayotganlarida xushbo'y hidlari bilan bilinardilar».

### 358

Abu Hanifa (r.a.) Muhoribdan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Hazrat Payg`ambarda (s.a.v) mening oladigan qarzim bor edi. U zot qarzni uzdilar va oshiqcha berdilar».

### 359

Abu Hanifa (r.a.) Ibrohimdan, u Anas ibn Molikdan (r.a.) rivoyat qiladi. Anas ibn Molik (r.a.) aytdilar: «Men Rasulullohning (s.a.v.) kaftlaridan yumshoqroq ipakni ushlamanman».

Boshqa rivoyatda Abu Hanifa (r.a.) Ibrohim ibn Muhammad ibn Muntashirdan, u Anasdan (r.a.) rivoyat qiladi. Anas (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) u zot bilan birga o'tirganlarning oldida tizzalarini (oyoqlarini - *Tarj.*) aslo uzatmas edilar».

### 360

Abu Hanifa (r.a.) Ibrohimdan, u otasidan, u Masruqdan rivoyat qiladi. Masruq Oisha

onamizdan (r.a.) Hazrati Payg`ambarning (s.a.v.) axloqi haqida so`radi. Oisha onamiz (r.a.):

- Sen Qur'on o`qimaysanmi? (Ya'ni, ul zotning axloqlari Qur'oni karim edi. - *Tarj.*), - deb javob berdilar.

### 361

Abu Hanifa (r.a.) Muslimdan, u Anasdan ( r.a.) rivoyat qiladi. Anas (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) qul chaqirsa, borardilar, eshakka minardilar».

### 362

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qildi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Hazrat Payg`ambar (s.a.v.) kasalliklarida namozga borganlaridagi oyoqlarining oqligini hali ham ko`rayotgandayman».

### 363

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Hazrat Payg`ambar (s.a.v.) o`limlari oldidan kasal bo`lganlarida mening uyimda qolish uchun boshqa ayollaridan ruxsat so`radilar. Ular rozi bo`lishdi. Buni eshitgach, tezda turib, xizmatchim yo`q edi - uyimni supurib-sidirdim va Ul zotga izxir bandlari solib qoplangan yotoqlarini to`shadim. Rasulullohni (s.a.v.) ikki kishi qo`ltiqlaridan olib keldi va ul zot men solgan to`shakka yotdilar».

### 364

Abu Hanifa (r.a.) Yaziddan, u Anasdan (r.a.) rivoyat qiladi. Anas (r.a.) aytdilar: «Hazrati Abu Bakr (r.a.) Rasulullohning (s.a.v.) kasalliklari yengillashganini ko`rgach, xotini - Xorija qizining yoniga borishga ruxsat so`radi. U ansorning bog`larida turgan edi. Hazrati Abu Bakr (r.a.) Rasulullohning (s.a.v.) o`lim xotirjamligi ichida yotganliklarini bilmagandi. Rasululloh (s.a.v.) unga (ketishga) ruxsat berdilar.

Ul zot (s.a.v.) o`sha kecha vafot etdilar. Tong otgach, Hazrati Abu Bakr (r.a.) insonlar o`zaro bir nimalar deb gapirishayotganini eshitdi.

Hazrati Abu Bakr (r.a.) quliga ularning gapini eshitib, kelib aytishni aytdi. Qul kelib:

- Ularning Hazrati Muhammad (s.a.v.) o`ldi, deyishayotganini eshitdim, - dedi.

Bu so`zni eshitgan Hazrati Abu Bakr (r.a.) o`zlarini yomon his qilib: «Voh, belim sindi», deya boshladilar.

Hazrati Abu Bakr (r.a.) masjidga yetib bormagan edilar. Kishilar unga xabar yetmagan deb o`ylashdi.

Munofiqlar kishilarni g`alayonga solish uchun:

- Muhammad payg`ambar bo`lganda, o`lmas edi,- deya boshlashdi.

Hazrati Umar (r.a.):

- Kimning: «Muhammad (s.a.v.) o`ldi», deganini eshitsam, uning boshiga qilich solaman, - dedilar.

So`ng ular tilini tiydi.

Hazrati Abu Bakr (r.a.) u yerga kelgach Hazrati Payg`ambarning (s.a.v.) yuzlaridagi yopinchiqni oldi. Ul zotni o`pib, hidlay boshladi va bunday dedi: «Alloh taolo Sizga o`limni

ikki karra tatitmaydi. Siz Alloh taologa undan qadrlisiz».

Shundan so'ng insonlarga qarab:

«Ey insonlar!.. Kim Hazrati Muhammadga topinayotgan bo'lsa, (bilsinki) Hazrati Muhammad (s.a.v.) vafot etdilar. Kim Hazrati Muhammadning Rabbiga topingan bo'lsa, u o'lmaydi», dedi va quyidagi oyatni o'qiy boshladi:

«Muhammad ham payg'ambardir. Undan oldingi payg'ambarlar ham o'lishgan. Agar u o'lsa yo qatl etilsa, ortlaringizga - kufrga qaytasizmi? Kim iymondan so'ng kufrga qaytsa, Alloh taologa aslo, hech ziyon yetkazolmaydi. Alloh taolo islomda sobit qolib, Uning ne'matiga shukr etuvchilarga albatta ajr beradi» (Oli Imron surasi, **144**-oyat).

Hazrati Umar (r.a.) bu oyatni eshitgach: «Biz bu oyatni go'yo oldin hech o'qimagandaymiz», dedi. Insonlar ham Hazrati Abu Bakrning (r.a.) so'zini takrorlashdi. Men bu oyatni takror o'qidim.

Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) dushanba kuni kechasi vafot etdilar. Ikki kun, ikki kecha olib qolindi. Chorshanba kuni dafn etildi.

Usoma ibn Zayd, Avs ibn Havliy suv quyib turdi, Hazrati Ali (r.a.) va Fazl (r.a.) Hazrati Payg'ambarni yuvishdi».

### 365

Abu Hanifa (r.a.) Salamadan, u Abu Za'rodan, u Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud (r.a.) aytdilar: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) bunday deb marhamat qildilar: «Mendan keyingi ikki kishiga: Abu Bakr (r.a.) va Umarga (r.a.) ergashing».

### 366

Abu Hanifa (r.a.) Abdulmalikdan, u Rab'idan, u Huzayfa ibn Yamoniydan rivoyat qiladi. Huzayfa ibn Yamoniy aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Mendan keyin Hazrati Abu Bakr (r.a.) va Hazrati Usmon (r.a.)ga ergashinglar. Hazrati Ammor (r.a.) xulq-atvoridan namuna oling. Ibn Ummu Abd (Abdulloh Ibn Mas'ud) vasiyatiga rioya eting».

### 367

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Muso ibn Kasirdan rivoyat qiladi. Muso ibn Kasir (r.a.) aytdi: «Hazrati Umar (r.a.) bir kuni Hazrati Usmon (r.a.) uyiga bordi. Usmon juda xafa edi.

- Seni xafa qilgan narsa nima? - deya so'radi Hazrati Umar (r.a.)

- Nega xafa bo'lmayin?! - dedi Hazrati Usmon (r.a.). - Men bilan Rasululloh (s.a.v.) orasidagi qarindoshlik uzildi. Bu Rasululloh (s.a.v.) qizlari - hazrati Usmonning ayollari Ruqiyaning vafoti musibati edi.

Hazrati Umar (r.a.) unga bunday dedi:

- Seni qizim Hafsaga uylantirayin.

Hazrati Usmon (r.a.):

- Rasulullohning (s.a.v.) maslahatlarini ol, - dedi bu taklifga javoban.

Hazrati Umar (r.a.) bu gapni Hazrati Payg'ambarga (s.a.v.) aytgach, Rasululloh (s.a.v.) aytdilarki:

- Sizni Hazrati Usmondan ham yaxshiroq bilan qarindosh bo'lishga, Hazrati Usmonni sizdan-da xayrli bir kishi bilan qarindosh bo'lishga dalolat qilaymi?

- Ha, yo Rasululloh (s.a.v.), - dedi Hazrati Umar (r.a.)

Shunda Rasululloh (s.a.v.) bunday taklifni aytdilar:

- Sen Hafsani menga ber, men qizimni Usmonga beraman, ey Umar!  
Hazrati Umar (r.a.) bunga rozi bo'ldi va Rasululloh (s.a.v.) bu ishni amalga oshirdilar».

### 368

Abu Hanifa (r.a.) Salamadan, u Hibbatul Uroniydan rivoyat qiladi. (U Hazrati Alining hamadonlik do'stlaridandir). U aytdi: «Hazrati Alining: «Men ilk musulmon bo'lgan kishiman», deganlarini eshitganman.

### 369

Abu Hanifa (r.a.) Ismoildan, u Abu Solihdan, u Ummu Honiydan (r.a.) rivoyat qiladi. Ummu Honiy (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bir kuni Hazrati Alining (r.a.) yuziga qaradilar va uni ochlikdan holsiz bir vaziyatda ko'rgach:

- Nega ochsan? - deya so'radilar.

Hazrati Ali (r.a.):

- Yo Rasululloh, shu-shu kundan beri to'yib ovqat yemayman, - degach, Rasululloh (s.a.v.):

- Senga jannat xushxabarini beraman, - deya marhamat qildilar».

### 370

Abu Hanifa (r.a.) Ikrimadan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Oxirat kunida shahidlarning sayyidi Hamza ibn Abdulmuttolib, keyin davlat rahbarining huzuriga kirib, amri bil ma'ruf (yaxshilikka chaqirish. - *Tarj.*), nahyi anil munkar (yomonlikdan qaytarish. - *Tarj.*) qilgan kishidir».

### 371

Abu Hanifa (r.a.) Muhammad ibn Munkadirdan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) Ahzob (Handaq) kechasi (Handaq urushi kuni. - *Tarj.*):

- Bizga (dushmanning vaziyati haqida - *Tarj.*) kim xabar olib keladi? - dedilar.

Zubayr ketdi. Rasulullohga (s.a.v.) xabar keltirdi. Buni uch marta amalga oshirdi.

Shunda Rasululloh (s.a.v.) bunday deb marhamat qildilar:

- Har Nabiyning bir havoriysi bo'ladi. Mening havoriyim Zubayrdir».

### 372

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u bir odamdan, u Abdulloh ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud (r.a.) aytdilar: «Hazrati Abu Bakr (r.a.) va Hazrati Umar (r.a.) bir kecha Rasulullohning (s.a.v.) yonlarida suhbat qildilar.

Alloh Rasuli va ular birga chiqishdi. Ibn Mas'ud Qur'on o'qiyotganda uyi oldidan o'tdilar. Nabiy (s.a.v.) bunday dedilar: «Qur'onni nozil bo'lgani kabi o'qimoq kimni shod etsa, u Ibn Ummu Abd (Ibn Mas'ud)ning qiroatiga muvofiq o'qisin. Tilaganingni so'ra, so'ragan narsang senga beriladi».

Hazrati Abu Bakr (r.a.) va Hazrat Umar (r.a.) xushxabarni yetkazishmoqchi bo'lib, Ibn Mas'udning oldiga keldilar. Hazrati Abu Bakr (r.a.) yo Hazrati Umardan (r.a.) oldin kelib,

Ibn Mas'udga mujda: Nabiying (s.a.v.) Ibn Mas'udga (r.a.) duo qilishni aytganlarini yetkazdi. Ibn Mas'ud bunday dedi: «Allohim!.. Sendan doimiy iymon, tuganmas ne'mat, abadiy jannatingda Payg'ambaringga yo'ldosh bo'lmoqni so'rayman».

Bir rivoyatda (Haysamdan, u Abdullohdan qilgan rivoyatda) Abdulloh aytdi: «Hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) yonlarida Hazrati Abu Bakr (r.a.) bilan Hazrati Umar (r.a.) suhbatlashar edi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) tashqariga chiqdilar, ikkovi ham Ul zotning (s.a.v.) izlaridan chiqishdi. Ibn Mas'ud (r.a.) Qur'on o'qiyotganida, uning uyi yonidan o'tdilar.

Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) marhamat qildilar: «Qur'onni nozil qilingani kabi o'qish kimni quvontirsa, Ibn Ummu Abdning (Ibn Mas'udning) qiroati asosida o'qisin». Va: «Nimani so'rasang, so'raganing senga beriladi», dedilar.

Hadisning qolganini yuqoridagi kabi zikr etdi.

### 373

Abu Hanifa (r.a.) Avndan, u otasidan, u Abdulloh Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) uylariga kirganlarida onasi Ummu Abdni u yerga yuborib, Hazrati Payg'ambarning xatti-harakatlari (muomalalari, axloqlaridan) ko'rganlarini kelib aytishni so'rardi. So'ng onasi unga aytganlariday Hazrati Payg'ambarga ergashardi».

### 374

Abu Hanifa (r.a.) Avndan, u otasidan, u Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi.

Abdulloh (r.a.) Rasulullohning (s.a.v.) joynamozlarini olib yurardi.

Bir rivoyatda: «Rasulullohning (s.a.v.) hassalarini olib yurardi».

Bir rivoyatda: «Rasulullohning (s.v.v.) ridolarini olib yurardi».

Bir rivoyatda: «Rasulullohning (s.a.v.) ulovlariga qarardi».

Bir rivoyatda: «Rasulullohning (s.a.v.) misvoklari, obdastalari va Ul zotning oyoq kiyimlarini olib yurardi», deyiladi.

### 375

Abu Hanifa (r.a.) Mu'ndan, u Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud (r.a.) aytdilar: «Musulmon bo'lganimdan buyon faqat bir marta yolg'on so'zlaganman.

Men Hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) tuyalarini to'qimlar (egarlar - *Tarj.*) edim. Toiflik bir to'qim qiluvchi keldi. Mendan:

- Rasululloh (s.a.v.) qaysi to'qimni ko'proq yoqtiradilar? - deya so'radi.

Men esa:

- Toifiy, Makkiy to'qimni, - deb javob berdim. Holbuki, Rasululloh (s.a.v.) buni xushlamas edilar.

Tuya o'sha holatda keltirilgach, Rasululloh (s.a.v.):

- Buni kim tayyorladi? - deya so'radilar.

- To'qimchi tayyorladi, - deyishdi sahobalar.

Shunda Rasululloh (s.a.v.):

- Ibn Ummu Abd (Ibn Mas'ud)ga aytinglar, tuyamizga u to'qim ursin,- dedilar.

Shundan so'ng tuya menga keltirildi»

Bir rivoyatda Abdulloh (r.a.) bunday dedi: «Nabiyga (s.a.v.) toiflik bir kishi olib kelindi. Toiflik kishi mendan:

- Rasululloh (s.a.v.) tuyalari uchun qanday to'qim urilishini yaxshi ko'radi? - deb so'radi. Men dedimki:

- Toifiy, Makkiy to'qimini.

Tuyaga to'qim urilgach, Rasululloh (s.a.v.) chiqdilar va bunday dedilar:

- Bu to'qimning egasi kim?

- Toiflik, - deyishdi.

- Bizning bunga ehtiyojimiz yo'q», - dedilar Rasululloh (s.a.v.)».

### 376

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Sha'biydan, u Masruqdan, u Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Abdulloh (r.a.) aytdi: «Musulmon bo'lganimdan buyon faqat bir marta yolg'on gapirganman. Men Rasulullohning (s.a.v.) tuyalariga egar qo'yar edim. Toifdan bir egarchi keldi va dedi:

- Rasululloh (s.a.v.) tuyalarida qaysi egar turishini ko'proq yoqtiradilar?

- Toifiy, Makkiy egar, - dedim.

Ibn Mas'ud aytdiki: «Rasulullohga (s.a.v.) u egar xush yoqmasligini bila turib shunday dedim».

Tuya egarlanib Rasulullohga (s.a.v.) keltirilgach:

- Buni kim egarladi? - dedilar.

- Toifdan kelgan egarchi,- deyishdi.

Rasululloh (s.a.v.):

- Egarlashni Ibn Mas'udga (r.a.) bering, - deya marhamat qildilar».

### 377

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Abu Abdulloh Jadliydan, u Xuzaymadan (r.a.) rivoyat qiladi: «Xuzayma (r.a.) Rasulullohning (s.a.v.) huzurlariga bordi. Rasululloh (s.a.v.) bilan birga bir a'robiiy bor edi. U Rasulullohga (s.a.v.) sotgan narsasini inkor qilar edi.

Xuzayma (r.a.):

- Guvohlik beramanki, uni sotding, - dedi.

Rasululloh (s.a.v.):

- Uni sotganini qaerdan bilasan? - deb so'radilar.

- Samodan bizga vahiy olib kelsangiz tasdiqlaymiz-ku, - dedi Xuzayma (r.a.).

Rasululloh (s.a.v.) Xuzaymaning guvohligini ikki kishining guvohligi o'rniga qo'yidilar.

Boshqa rivoyatda Rasululloh (s.a.v.) Xuzaymaning (r.a.) shohidligini vafot etgunlaricha ikki kishi shohidligi o'rnida qabul qildilar».

### 378

Abu Hanifa (r.a.) Yahyo ibn Saiddan, u Anas ibn Molikdan (r.a.) rivoyat qiladi. Anas (r.a.) aytdilar: «Hazrati Xadicha jannatdagi shovqin-suronsiz, kulfatsiz uy bilan sevintirildi».

### 379

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohim Naxayidan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar:

- O'lim menga oson bo'ladi. Ey Oisha (r.a.)! Sening jannatda ayolim bo'lishingni ko'rdim. Keyin yonidagilarga qayrilib:

- O'lim menga oson, chunki Oishani (r.a.) jannatda ko'rdim, -dedilar».

### 380

Abu Hanifa (r.a.) Sha'biydan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Hazrat Payg'ambar (s.a.v.) ayollari ichida hech birida bo'lmagan yetti xislat menda bor edi. Xotinlari ichida Ul zotga eng suyuqliki edim. Menga bokira holimda uylandilar. Ul zotga Jabroil mening suratimda kelmaganlaricha, menga uylanmadilar. Jabroilni mendan boshqa ayollari ko'rmadi. Jabroil men Ul zotning yopinchiqlari ostida bo'lganimda ham kelardi. Menga qilingan tuhmat-bo'htonlar tufayli bir qism insonlar halok bo'lay deganida men haqimda oyat nozil bo'ldi.

Rasululloh (s.a.v.) mening uyimda, mening kechamda, mening kunimda (mening navbatim kelgan kecha va kunduzi.- *Tarj.*) ko'kragimda bosh qo'yib, vafot etdilar».

### 381

Abu Hanifa (r.a.) Avndan, u Omir Sha'biydan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) bunday dedilar: «Menda Rasululloh (s.a.v.) ayollari ichida bo'lmagan yetti xislat bor.

Rasululloh (s.a.v.) menga bokira holimda uylandilar. Mendan boshqa hech birini bokira holda olmadilar. Menga uylanmaslaridan oldin Jabroil mening suratimda tushdilar. Mendan boshqa birortasining suratida Jabroil Ul zotga tushmaganlar. Menga Jabroil ko'rindi, mendan boshqa birorta ayollariga ko'rinmadi. Ota va ko'ngil jihatdan men Ul zotga ulardan sevimliman. Ifk hodisasi tufayli insonlardan bir to'dasi halok bo'layozgandi, men haqimda oyat nozil bo'ldi. Hazrat Payg'ambar (s.a.v.) mening kechamda, mening kunimda vafot qildilar. Muborak boshlarini ko'kragimga qo'yib, vafot etdilar».

Bir rivoyatda Oisha onamiz (r.a.) bunday deydilar: «Menda yetti xislat borki, bulardan hech biri Rasulullohning (s.a.v.) boshqa ayollarida yo'q. Menga bokira ekanligimda uylandilar, mendan boshqasiga bokira holatida uylanmadilar. Uylanmaslaridan avval Jabroil Ul zotga mening suratimda keldi. Mendan boshqasining suratida kelmadi. Men Rasulullohga (s.a.v.) ko'ngil va ota tarafidan suyuqlilari edim. Men haqimdagi bo'htonlar sababli bir qancha insonlar halok bo'layozganda, oyat nozil bo'ldi. Mening kunimda, mening kechamda Rasululloh (s.a.v.) vafot etdilar. Ko'ksimga bosh qo'yib, vafot etdilar. Menga Jabroil ko'rindi, mendan boshqalariga ko'rinmadi».

### 382

Abu Hanifa (r.a.) Ibrohimdan, u Masruqdan (r.a.) rivoyat qiladi. Masruq (r.a.) Oisha onamizdan (r.a.) hadis rivoyat qilganda bunday der edi:

«Menga siddiqning qizi Siddiqa, ma'sumlighi sobit bo'lgan, Hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) suyuqli ayollari Oisha (r.a.) xabar berdi».

### 383

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Ikrimadan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) Oisha onamiz (r.a.) xastaligida yoniga kirish uchun izn so'radi. Oisha



onamiz (r.a.): «Men g'amginman, ket», deb odam chiqardilar.

Ibn Abbos (r.a.) Oisha onamiz (r.a.) yuborgan elchiga ichkariga kirmay ketmasligini aytdi.

Oisha onamiz (r.a.): «Men g'am va qayg'udaman. Nogoh yetadigan (o'limdan) xavfdaman», dedilar. Ibn Abbos (r.a.) unga:

- Allohga qasamki, men Rasulullohdan (s.a.v.): «Oisha (r.a.) Jannatdadir», deganlarini eshitdim. Rasululloh (s.a.v.) Allohning eng sevimli qulidirlar. Jahannam ahliga uylanishlari mumkin emas, - dedilar.

Oisha onamiz (r.a.):

- Mendan siqilish va g'amginlikni ketkazding. Alloh sening ham g'am va kadaringni ketkazsin!- dedilar.

### 384

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Omir Shabiydan rivoyat qiladi. Omir mag'oziy (g'azotlar) haqida gapirardi. Ibn Umar (r.a.) uni eshitgach: «Omir xuddi jangda ishtirok qilgandek so'zlaydi», dedi.

### 385

Abu Hanifa (r.a.) Dovud ibn Abu Hinddan, u Omirdan rivoyat qiladi. Omir (r.a.) yig'inda Rasulullohning (s.a.v.) mag'oziyarlari haqida so'zlab berardi. U jamoat ichida Ibn Umar (r.a.) ham bor edi. «Omir voqealarni go'yo urushlarda qatnashgan kabi naql etardi», deydi Ibn Umar (r.a.)

### 386

Zufar aytadi: «Men Abu Hanifadan (r.a.) eshitdim. U aytdi: «Hammoddan eshitdim, u aytdi: «Ibrohimga qarab, uning ravshini (muomalasi, xatti-harakati. - *Tarj.*) ko'rgan har kishi «Uning ravshi Alqamaning ravshidir», der edi. Alqomaning ravshini ko'rgan esa: «Abdullohning ravshi», der edi. Abdullohning ravshini ko'rsa: «U xuddi Rasulullohning ravshidir», deyishar edi».

### 387

Abu Hamza Ansoriy aytadi: «Abdulloh ibn Dovudning Abu Hanifaga (r.a.) bunday deganini eshitdim:

- Ulug'lardan kimni ko'rdingiz?

- Qosim, Solim, Tovus, Ikrima, Abdulloh ibn Dinor, Hasan Basriy, Amr ibn Dinor, Abu Zubayr, Ato, Qatoda, Ibrohim, Sha'biy, Nofiy va shularga o'xshashlarni ko'rdim, - dedilar (Abu Hanifa (r.a.)»

## HAZRATI MUHAMMAD (S.A.V.) UMMATINING FAZILATI KITOBI

### 388

Abu Hanifa (r.a.) Abu Burdadan, u otasidan rivoyat qiladi. Abu Burdaning otasi aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilarki: «Qiyomat kunida barcha maxluqot sajda

qilishga chaqiriladi. Ular sajda qilolmaydi. Ummatim boshqa ummatlardan oldin ikki marta uzoq muddat sajda qiladi. Ularga: «Boshingizni ko'taring. Do'zaxdan qutulishingiz uchun sizning sanog'ingizcha yahudiy va nasoroni fido etdim», deya xitob qilinadi».

### 389

Abu Hanifa (r.a.) Abu Burdadan, u otasidan rivoyat qiladi. Abu Burdaning otasi aytdi. Rasululloh (s.a.v) bunday dedilar: «Qiyomat kunida musulmonlardan har bir odamga yahudiy va nasorolardan bir odam beriladi va: «Bu sening otashdan qutulishing uchun fidyangdir», deyiladi».

Bir rivoyatda: «Qiyomat kunida Alloh taolo bu ummatdan har bir odamga kofirlardan birini beradi va u musulmonga: «Bu sening do'zaxdan qutulishing uchun fidyangdir», deyiladi.

Bir rivoyatda kelishicha: «Qiyomat kuni bu ummatdan har bir kishiga Ahli kitobdan biri beriladi. «Bu sening otashdan qutulishing uchun fidyangdir», deyiladi.

Bir rivoyatda: «Bu ummat rahmatga sazovor bo'lgan bir ummatdir. Azobi qo'llaridadir (dunyodadir)», deyiladi.

### 390

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibn Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibn Buraydaning otasi aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) bir kuni ashobiga bunday dedilar:

- Jannat ahlining to'rtidan biri bo'lishni xohlaysizmi?

- Ha, - deyishdi sahobalar.

- Jannat ahlining uchdan biri bo'lishni xohlaysizmi?

- Ha.

-Jannat ahlining yarimi bo'lishni xohlaysizmi?

- Ha.

Hazrati Payg'ambar marhamat qildilar:

- Sizga mujdalar bo'lsin - Jannat ahli bir yuz yigirma safdir. Bulardan **8** safi ummatimdir».

### 391

Abu Hanifa (r.a.) Abu Burdadan, u otasidan rivoyat qiladi. Abu Burdaning otasi aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) bunday deb marhamat qildilar: «Mening ummatim rahmat etilgandir. Ularning azobi qo'llarida - dunyodadir».

Bir rivoyatda quyidagi lafz ilova etildi: «Qatldadir».

### 392

Abu Hanifa (r.a.) Ziyoddan, u Yazid ibn Horisdan, u Abu Musodan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Muso (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) dedilarki:

- Ummatimning halokati ta'n va tou'ndadir.

So'raldiki:

- Yo Rasululloh, ta'nni bildik: yaralash va o'ldirish. Biroq to'un nima?

- Jinlardan bo'lgan dushmanlaringizning sizni urishlaridir. Ularning har birida shahidlik bordir, - dedilar Rasuli Akram (s.a.v.)».

Bir rivoyatda: «Har birida shahidlar bor», deyiladi.

### 393

Abu Hanifa (r.a.) Xolid ibn Alqamadan, u Abdulloh ibn Horisdan, u Abu Musodan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Muso (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.):

- Ummatimning halokati ta'n va to'undadir, - dedilar.

- Yo Rasululloh!.. Ta'nni (yaralamoq va o'ldirmoq) bilamiz, biroq to'un nima?

Dedilarki:

- Jinlardan bo'lgan dushmanlaringizning sizni urishidir. Har birida ham shahidlik bor».

## YEYISH-ICHISH, QURBONLIK, OVCHILIK VA HAYVON SO'YISH KITOBI

### 394

Abu Hanifa (r.a.) Muhoribdan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) hamma yirtqich hayvonlarni yeyishni man etdilar».

### 395

Abu Hanifa (r.a.) Muhoribdan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) Xaybar (jangi) kunida changalli barcha (yirtqich) qushlar go'shtini yeyishni ta'qiqladilar».

### 396

Abu Hanifa (r.a.) Abu Ishoqdan, u Barodan rivoyat qiladi. Baro (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) xonaki eshak go'shtini yeyishni ta'qiqladilar».

### 397

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdi: «Bizga yerdagi hasharotlarni yeyish man etildi».

### 398

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayr Makkiydan, u Jobir ibn Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir ibn Abdulloh (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Kim ehromda bo'lsin yo bo'lmasin, qurbaqa o'ldirsa, bir qo'y so'yishi lozim bo'ladi».

### 399

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi: «Oisha onamizga (r.a.) bir kaltakesak hadya qilindi. Hazrati Payg'ambardan (s.a.v.) so'raganlarida, uni yeyishni ta'qiqladilar. So'ng bir tilanchi keldi. Oisha onamiz (r.a.) uni berib yuborishni aytdilar. Shunda Rasululloh (s.a.v.): «O'zing yemagan narsani unga yedirasanmi?!» dedilar».

#### 400

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Hammomdan, u Adiy ibn Xotimdan rivoyat qiladi. Adiy (r.a.) aytdi: «Rasulullohdan (s.a.v.) so'radim:  
- Yo Rasululloh, biz o'rgatilgan itlarni ovlashga yuboramiz. Bu itlar bizga ushlab kelgan hayvonlarni yesak bo'ladimi?  
- «Bismilloh.» aytib yuborsang va itingga ovini tutishda boshqa itlar yordam bermasa yeyish mumkin, - deya javob berdilar Rasuli Akram (s.a.v.)  
- Agar it uni o'ldirsa hammi? - deya yana savol berdim men.  
- O'ldirsa ham (eyish mumkin).  
- Yo Rasululloh (s.a.v.), ba'zimiz kamon otib ovlaydi?  
Dedilarki:  
- Ovg'a o'q otganingda «Bismilloh.»ni aytgan bo'lsang va u shu holda chiqsa, yegin. Agar o'qning o'rtasi tegsa (uchi tegmasa), yema».

#### 401

Abu Hanifa (r.a.) Atiyyadan, u Abu Saiddan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Said (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) aytdilarki: «Suv quriganida qolganini ye».

#### 402

Abu Hanifa (r.a.) aytdilarki, Ajradning qizi Oishaning (r.a.) bunday deganini eshitdim: «Rasululloh (s.a.v.) aytdilarki: «Yer yuzida Alloh askarlarining eng ko'pi chigirtkalardir. Uni yemayman, harom ham qilmayman».

#### 403

Abu Hanifa (r.a.) Saiddan, u A'boya ibn Rifo'adan, u Rofi' ibn Xadijdan rivoyat qiladi: «Sadaqa qilingan tuyalardan biri qochib ketdi. Uni tutishmoqchi bo'lishdi. Uni quvishdan charchashgach, bir kishi unga kamon otib, jon joyiga tekkizdi. So'ng bu haqda Rasulullohdan (s.a.v.) so'raganlarida, Ul Zot uni yeyishni buyurdilar va: «Tuyalarning yovvoyiligi vahshiylarning yovvoyiligi kabidir. Agar ulardan qo'rqsangiz, bu tuyaga nima qilgan bo'lsangiz, shunday qiling. So'ng uni yeyavering», dedilar».  
Boshqa bir rivoyat: «Sadaqa qilingan tuyalardan biri qochib ketdi. Uni bir kishi kamon bilan otib, o'ldirdi. So'ng uni yeyish haqida Rasulullohdan (s.a.v.) so'raldi. Ul janob (s.a.v.) aytdilar: «Uni yenglar. Chunki ularning yovvoyiligi vahshiylarning yovvoyiligi kabidir».

#### 404

Abu Hanifa (r.a.) Nofe'dan, u ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) mujassamani yeyishni man qildilar» (mujassama - nishon qilib, mahkamlab qo'yilgan qush yoki boshqa narsa).

#### 405

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi: «Ka'b ibn Molik Hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) yonlariga keldi va bunday dedi:

- Yo Rasululloh, bir cho'pon qiz suruv boqib yurganida bir qo'yning o'lishidan (harom o'lishidan. - *Tarj*) qo'rqdi va uni tosh parchasi bilan so'ydi. Payg'ambar (s.a.v.) u qo'yning go'shtidan yeyishni buyurdilar».

#### 406

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Sha'biydan, u Jobir ibn Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdi: «Ansordan bir bola Uhud tomon borar ekan, bir quyvon ovladi. So'yadigan biror asbob topolmay uni tosh bilan so'ydi. Quyvonni qo'lida osiltirib Rasulullohga (s.a.v) olib keldi. Rasululloh (s.a.v.) uni yeyishni buyurdilar». Bir rivoyatda: «Bir odam ikki quyvonni tutib oldi. Ularni tosh bilan so'ydi. Nabiy (s.a.v.) uni yeyishni buyurdilar», deyiladi. Yana bir rivoyat lafzi quyidagicha: «Bani Salamadan bir odam Uhudda bir quyvonni tutib oldi. Uni tosh bilan so'ydi. Nabiy (s.a.v.) uni yeyishni buyurdilar».

#### 407

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Abdulloh ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bir ayol so'ygan hayvonning go'shtidan yedilar va ayollarning o'ldirilishini ta'qiqladilar».

#### 408

Abu Hanifa (r.a.) Mihval ibn Roshiddan, u Muslim Bittindan, u Said ibn Jubayrdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bunday deb marhamat etdilar: «Alloh taolo nazdida Zulhijja oyining ilk o'n kunidan xayrli kun yo'q. U kunlarda Allohni ko'p zikr etingiz».

#### 409

Abu Hanifa (r.a.) Jabladan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Qurbonlik so'yish Rasulullohdan (s.a.v) sunnat bo'lgan».

#### 410

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Abdurrahmon ibn Sobitdan, u Jobir ibn Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.) junli, qo'ng'ir ikki qo'chqorni qurbonlik qildilar. Birini o'zlari uchun, birini esa: «Allohdan o'zga iloh yo'q», deb iqror bo'lgan ummatlari uchun so'ydilar».

#### 411

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohim va Sha'biydan, u Abu Burda ibn Niyordan (r.a.) rivoyat qilinadi: «Abu Burda (r.a.) Hayit namozidan oldin qo'y so'ydi. Hazrat Payg'ambarga (s.a.v.) buni aytdi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): - Bu senga bo'ladi, (so'yganing qurbonlikka o'tadi). Sendan so'ng hech kimga bo'lmaydi,- dedilar».

#### 412

Abu Hanifa (r.a.) Alqama ibn Marsad va Hammoddan, u ikkisi Abdulloh ibn Buraydaning otasidan rivoyat qiladi: «Nabiy (s.a.v.) bunday dedilar: «Qurbonlik go'shtlarini uch kundan ortiq saqlashdan boylaringiz faqirlaringizga ko'proq berishi uchun qaytardim».

#### 413

Abu Hanifa (r.a.) va Musa'ir Muhorib ibn Dasordan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Muhorib Jobirning uyiga keldi. Jobir unga non, sirka qo'ydi va dedi: «Rasululloh (s.a.v.) bizni takallufdan (uy egasining o'zini qiynab qo'yadigan darajada mehmonga ikrom qilishidan) qaytardilar. Bu bo'lmaganda edi, sizga takalluf ko'rsatardim (siz uchun o'zimni ko'proq ovora qilardim - *Tarj.*) Men Rasulullohdan (s.a.v.) eshitdimki, bunday dedilar: «Sirka qanday yaxshi tamaddilikdir (qayladir)».

#### 414

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Sirka qanday yaxshi tamaddilikdir», dedilar».

#### 415

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilar: «Kofir yetti ichagini, mo'min bir ichagini to'ldirish uchun ovqat yeydi».

#### 416

Abu Hanifa (r.a.) Ali ibn Aqmardan, u Abu Juhayfadan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Juhayfa (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilarki: «Men suyanib ovqat yemayman, qul suv ichgani kabi suv ichaman. Rabbimga ajalim yetib vafot etgunimcha ibodat qilaman».

#### 417

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Huzayfadan (r.a.) rivoyat qiladi. Huzayfa (r.a.) dedi: «Rasululloh (s.a.v.) bizga oltin va kumush idishdan suv ichishni, oltin va kumush idishdan ovqatlanishni, ipak, sof ipak kiyishni ta'qiqladilar va: «Bular dunyoda mushriklarga, oxiratda sizlarga bo'ladi», dedilar».

#### 418

Abu Hanifa (r.a.) Muslimdan, u Abdurrahmon ibn Abu Laylodan rivoyat qiladi. Abdurrahmon dedi: «Huzayfa bilan birga Madoinda Dihqonning uyida tunab qoldik. Bizga ovqat olib keldi, yedik. Keyin Huzayfa (r.a.) suv so'radi. Dihqon kumush idishdan suv keltirdi. Huzayfa uni yuziga otdi.

Bu xatti-harakati bizni rosa xafa qildi.

- Nega bunday qilganimni bilasizmi? - dedi bizga.

- Yo'q, - dedik.

- O'tgan yil uning uyida mehmon bo'ldim. Shunda undan ichimlik so'radim. Menga kumush idishda ichimlik olib keldi. Men unga: «Rasululloh (s.a.v.) bizga oltin va kumush idishdan yeyish-ichishni, ipak, sof ipak kiyishimizni man etdilar. «Bular dunyoda mushriklarga, oxiratda bizga bo'ladi», dedilar», degandim.

#### 419

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan, u Abu Farvadan, u Abdurrahmon ibn Abu Laylodan rivoyat qiladi. Abdurrahmon (r.a.) aytdilar: «Huzayfa ibn Yamon Dihqondan suv so'radi. U kumush idishda olib keldi. Huzayfa (r.a.) idishni olib uning yuziga otdi. Va: «Rasululloh (s.a.v.) bizni kumush idishda suv ichishdan qaytarganlar», dedi».

#### 420

Abu Hanifa (r.a.) Hakamdan, u ibn Abu Laylodan rivoyat qiladi. Ibn Abu Laylo aytdi: «Biz Huzayfa (r.a.) bilan birga Madoinda edik. Huzayfa (r.a.) Dihqondan suv so'radi. Dihqon kumush jomda suv keltirdi. Huzayfa suvni unga otdi. So'ngra bunday dedi: - Rasululloh (s.a.v.) oltin va kumush idishdan suv ichishimizni ta'qiqlaganlar va: «Ular dunyoda kofirlarga, oxiratda sizga bo'ladi», deganlar».

#### 421

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi: «Nabiy (s.a.v.) dubba va xantam (ichkilik tayyorlangan ikki xum) dan bizni qaytardilar».

#### 422

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Sulaymon Ibn Buraydadan, u otasidan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Buraydaning otasi (r.a.) aytdi: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) marhamat qilib aytdilar: «Qabrlarni ziyorat qilishdan qaytargan edim. Menga onamning qabrlarini ziyorat qilishga izn berildi. Endi qabrlarni ziyorat qiling, biroq yomon so'zlar aytmang. Boylaringiz faqirlaringizga kengchilik qilishi uchun qurbonlik go'shtlarini uch kundan ortiq saqlashni man etgan edim. Endi Alloh taolo sizga kenglik berdi, uni (go'shtlarni. - *Tarj.*) yeng va g'amlab qo'ying».

Ul zot (s.a.v) xantam va muzaffatdan (ichi mumlangan, ichkilik tayyorlashda qo'llaniladigan idish) suv ichishni ta'qiqladilar».

Bir rivoyatda: «Nakir (taxta idish) va dubba (shisha idish)dan sizni qaytargan edim. Endi xohlagan idishdan ichishingiz mumkin. Chunki idish bir narsani halol yo harom qilmaydi. Siz mast qiluvchi ichkilik ichmang», deyiladi.

Bir rivoyatda: «Men sizni uch narsadan qaytargan edim:

1. Qabr ziyoratidan qaytargan edim, endi ziyorat qiling.
2. Qurbonlik go'shtlarini uch kundan ortiq tutishdan qaytargan edim. Endi uni saqlang va g'amlab qo'ying. Ta'qiqlashimning sababi boylar qurbonlik go'shtlarini faqirlarga yedirishlari, tarqatishlari uchun edi.
3. Men sizni dubba va muzaffatdan (mum, qora saqichli idish. - *Tarj.*) (suv) ichishingizni ta'qiqlagan edim. Endi nimadan istasangiz ichavering. Chunki idish bir narsani halol yoki harom qilmaydi. Siz mast qiluvchi ichkilik ichmang», deyiladi.

Boshqa bir rivoyatda, yuqorida sanab o'tilganlar tilga olinib «. Dubba, xantam,

muzaffatdagi ichimlikdan sizni qaytargan edim. Endi har qanday idishdan ichishingiz mumkin. Mast qiluvchi ichimlikni ichmang!.» lafzlari bilan kelgan.

#### 423

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Hammoddan, u ikkisi Abdulloh ibn Buraydadan (r.a.), u otasidan rivoyat qiladi. Abdulloh ibn Buraydaning otasi aytdi: «Hazrat Payg`ambar (s.a.v.): «Har qanday idishdan ichingiz, chunki idish biror narsani halol yoki harom qilolmaydi», dedilar.

#### 424

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Alqamadan rivoyat qiladi. Alqama (r.a.) bunday dedi: «Abdulloh ibn Mas'udning ovqat yegandan so`ng, nabiz (meva solingan suv) so`rab ichganini ko`rdim.

- Alloh sizni rahmatiga olsin. Nabiz ichasizmi? Ummat sizga ergashadi-yu, - dedim.

Ibn Mas'ud (r.a.):

- Rasulullohning (s.a.v.) nabiz ichganlarini ko`rdim. Agar Ul zotning (s.a.v.) nabiz ichganlarini ko`rmaganimda, nabizni ichmas edim, - dedi»

#### 425

Abu Hanifa (r.a.) Musa'irdan, u Atodan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) mayiz, quruq xurmo, g'o`ra xurmo va quruq xurmolardan tayyorlangan ichimlikni (ichishni) ta'qiqladilar».

#### 426

Abu Hanifa (r.a.) Alqama ibn Marsad va Hammud ibn Sulaymondan, u Abdulloh ibn Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. Abdulloh ibn Buraydaning otasi aytdi: «Nabiy (s.a.v.): «Mast qiluvchi ichimliklarni ichmangiz», dedilar».

#### 427

Abu Hanifa (r.a.) Abu Avn Muhammad Saqofiydan, u Abdulloh ibn Shaddoddan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Ichimlikning ozi ham, ko`pi ham, har qanday mast ichimliklar harom qilindi».

#### 428

Abu Hanifa (r.a.) Muhammad ibn Qays Hamadoniydan, u Abu Omir Saqofiydan rivoyat qiladi. U har yili Hazrat Payg`ambarga (s.a.v.) bir mesh aroq hadya etardi.

Bir rivoyatda: «Abu Omir kunyali saqiflik bir odam har yil Nabiyga (s.a.v.) bir mesh aroq hadya olib kelardi. Aroq harom qilingan yili avvalgidek yana bir mesh aroq hadya olib kelganda Rasululloh (s.a.v.):

- Ey Abu Omir. Alloh taolo aroqni harom qildi. Bizning sen olib kelgan aroq`ingga ehtiyojimiz yo`q, - dedilar.

- Buni olib soting. Pulini ehtiyojlaringiz uchun ishlating, - dedi Abu Omir.



Hazrat Payg'ambar (s.a.v.):

- Ey Abu Omir! Alloh uni ichish, sotish, uning pulini yeyishni harom qildi, - dedilar».

## KIYIM VA BEZANISH BO'LIMI

### 429

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: «Rasulullohning (s.a.v.) Shom bichimli qalansuvalari (bosh kiyimi) bor edi». Boshqa bir rivoyatda: «Rasulullohning (s.a.v.) Shom bichimli oq qalansuvalari (bosh kiyimi) bor edi», deyiladi.

### 430

Abu Hanifa (r.a.) Ali ibn Aqmadan, u Abu Juhayfadan rivoyat qiladi. Abu Juhayfa (r.a.) aytdi: «Nabiy (s.a.v.) ko'ylagi yerga sudralgan bir odamning yonidan o'tganlarida uning ko'ylagini qaytarib qo'ydilar».

Bir rivoyatda Ali ibn Aqmar hadisni munqote' (o'rtadagi roviyni tushirib) holda naql etganlar.

### 431

Abu Hanifa (r.a.) Hakamdan, u Ibn Abu Laylodan, u Huzayfadan (r.a.) rivoyat qiladi. Huzayfa (r.a.) aytdilar: «Rasululloh ipak va diboj (sof ipak) kiyishdan qaytardilar. «Buni oxiratdan nasibasi yo'qlar kiyadilar», dedilar».

### 432

Abu Hanifa (r.a.) Abu Ishoqdan, u Osim ibn Zamradan, u Hazrati Alidan (r.a.) rivoyat qiladi: «Rasulullohning (s.a.v.) uylarida rasmi bor parda osilgan edi. Jabroilning (a.s.) Rasulullohga (s.a.v.) kelishlari kechikdi. So'ng kelganlarida Rasululloh (s.a.v.) Jabroilga (a.s.):

- Sizni yonimga kelishdan nima kechiktirdi? - dedilar.

- Biz ichida it, rasmi bor joylarga kirmaymiz. Pardani olib tashlang, uni osmang, rasmlarning boshlarini o'chiring, bu kuchuk bolasini ham tashqariga chiqaring, - dedi Jabroil (a.s.)».

### 433

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Sochlaringizni xina bilan bo'yang: ahli kitobga zid qiling», dedilar».

### 434

Abu Hanifa (r.a.) Yahyo ibn Abdulloh Kindiydan, u Abu Asvaddan, u Abu Zarradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Zarr (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Oqargan sochlaringizning rangini o'zgartiradigan eng yaxshi narsa xina va katamdir (soch bo'yog'ini tayyorlashda ishlatiladigan o'simlik)»

Bir rivoyatda: «Oqargan sochlaringizni o'zgartiradigan narsalarning eng yaxshisi xina va katamdir», deya marhamat qildilar.

Boshqa bir rivoyatda: «Xina va katam oqargan sochlarni o'zgartiradigan eng yaxshi narsalardandir», deyiladi.

### 435

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u bir odamdan rivoyat qiladi. Abu Quhofa Nabiy (s.a.v.) huzurlariga kelganida soqoli yoyilib ketgandi. Rasululloh (s.a.v.): «Koshki uni mana bunday qilib olganingda edi», deya qo'llari bilan soqollarining yoniga ishora qildilar.

### 436

Abu Hanifa (r.a.) Ummu Savrdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.): «Ayolning sochiga jun ulashining zarari yo`q. Sochiga soch ulashi mumkin emas», dedi. Bir rivoyatda: «Sochga jun ulashning zarari yo`q. Inson sochi bo'lmasa, bo'ldi», dedilar.

## TIB, XASTALIKNING SAVOBI, DAM SOLISH VA DUOLAR BO'LIMI

### 437

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohim Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Alloh taolo insonga jannatda amali bilan yetisha olmaydigan yuksak darajalar beradi. Alloh taolo unga uzluksiz kasalliklar berib, u yuksak darajalarga yetkazadi», dedilar».

### 438

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibn Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibn Buraydaning otasi aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Qul xayrli ishlar qilayotganida xastalanib qolsa, Alloh taboraka va taolo farishtalariga: «Qulimga sog'ligida qilgan amallarning savobini yozing», deydi.

Bir rivoyatda quyidagi lafz qo'shilgan:

«Yo'liqqan kasalligining savobi bilan birga yozing».

Bir rivoyatda: «Qulimga sog' bo'lganida qiladiganini yozing», deyiladi.

Boshqa bir rivoyatda: «Qul bir amal qilayotganida kasal bo'lsa, Haq taboraka va taolo hafaza (muhofiz, qo'riqchi - *Tarj.*) farishtalariga bunday deydi:

- Qulimga sog'-salomat paytida qiladigan amalining savobini yozing».

### 439

Abu Hanifa (r.a.) Muqotil ibn Sulaymondan, u Abu Zubayrdan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.) bunday deb marhamat qildilar: «Alloh taolo har kasallik uchun davo yaratgan. Kasallik dorisiga duch kelsa, Allohning izni bilan tuzaladi, yo'qolib ketadi».

#### 440

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan, u Qays ibn Muslimdan, u Toriq ibn Shihobdan, u Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. «Nabiy (s.a.v.) bunday dedilar: «Alloh taolo o'lim va qarilikdan boshqa, yaratgan butun kasalliklarining davosini yaratgan. Sizga sigir sutini (ichishni - *Tarj.*) tavsiya etaman, chunki sigir sutiga barcha o'simliklardan qo'shadi».

#### 441

Abu Hanifa (r.a.) Qaysdan, u Toriqdan, u Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Alloh taolo qarilikdan boshqa barcha kasallikning davosini ham bergan. Sizga sigir sutini tavsiya qilaman, chunki u har xil o'tlardan yeydi», dedilar».

Bir rivoyatda: «Alloh taolo yer yuzida qarilik va o'limdan boshqa hamma kasallikning davosini yaratgan. Sizga sigir sutini tavsiya qilaman. Chunki sigir har turli o'tlardan yeydi», deyiladi.

Bir rivoyatda: «Alloh taolo o'lim va qarilikdan boshqa bergan kasallikni davosi bilan bergan. Sizga sigir sutini tavsiya qilaman, chunki u har xil o'tlardan yeydi» tarzda keladi. Boshqa bir rivoyat lafzlari bunday: «Alloh taolo yer yuzidagi hech bir kasallikni shifosiz yaratmagan. Sizga sigir sutini ichishingizni tavsiya etaman, chunki u har xil o'simliklardan, o'tlardan yeydi».

#### 442

Abu Hanifa (r.a.) Qaysdan, u Toriq ibn Shihobdan, u Abdulloh ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Sizga sigir sutini tavsiya etaman, chunki sigir har xil o't-o'landan yeydi. Unda har kasallikka shifo bor», dedilar».

#### 443

Abu Hanifa (r.a.) Abdullohdan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilar: «Alloh taolo shifoni sedonada, qon oldirishda, asalda, yomg'ir suvida qilgan».

#### 444

Abu Hanifa (r.a.) Abdulmalikdan, u Amr Jurashiydan, u Said ibn Zayddan rivoyat qiladi. Said ibn Zayd (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.): bunday dedilar: «Qo'ziqorin (er tagida o'suvchi) ne'matlardandir. Uning suvi ko'zga shifo bo'ladi».

#### 445

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Abu Solihdan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.): «Kimki ertalab: «Auzu bikalimatillahittomma - Allohning komil so'zlariga (Qur'onga) yukinaman», degan so'zlarini uch marta aytsa, oqshomgacha chayon unga zarar qilmaydi. Kim bu so'zni oqshom payti aytsa, ertalabgacha unga chayon zarar yetkazmaydi», dedilar».

Bir rivoyatda: «Allohning komil so'zlariga (Qur'onga) yukinaman» so'zini quyosh

chiqmasdan oldin, tongda uch marta aytsa, u kun chayon u kimsga zarar berolmaydi. Oqshom vaqti aytsa, tonggacha chayon unga zarar berolmaydi» shaklda kelgan.

#### 446

Abu Hanifa (r.a.) Muslimdan, u Ibrohimdan, u Mafukdan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bir kasalni ko'rishga borganlarida: «Ey insonlarning Rabbi, kasallikni ketkaz. Shifo berguvchi yolg'iz O'zingsan. Sening shifongdan o'zga shifo yo'q. Kasallikdan asorat qoldirmaydigan shifo ber, yo Rabbiy!..»der edilar».

#### 447

Abu Hanifa (r.a.) Abdullohdan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bunday deb marhamat qildilar:

- Mo'min nafsini razil xor etmasligi kerak.

Deyildiki:

- Mo'min nafsini qanday xor qiladi?

- Kuchi (toqati) yetmaydigan bolalarni so'raydi, kuchi yetmaydigan narsalarga o'zini urintiradi, - dedilar Rasuli Akram (s.a.v.)»

#### 448

Abu Hanifa (r.a.) Jobir ibn Abdullohdan rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.) huzurlariga ansordan bir kishi keldi va:

- Yo Rasululloh, men hech farzand ko'rmadim. Mening bolam yo'q, - dedi.

Shunda Rasuli Akram (s.a.v.) unga:

- Ko'p istig'for aytishdan, senga rizq qilib berilgan narsalardan sadaqa qilishdan seni nima to'xtatib (to'sib) turibdi, - dedilar.

Hazrati Payg'ambarimizning (s.a.v.) bu so'zlaridan so'ng xaligi odam juda ko'p istig'for qilib ko'plab sadaqalar berdi.

Jobir (r.a.) aytdilar: «O'sha odam to'qqiz o'g'il farzand ko'rdi».

#### 449

Abu Hanifa (r.a.) Ismoilidan, u Solihdan, u Ummu Honiydan (r.a.) rivoyat qiladi. Ummu Honiy (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: «Kim Alloh uni afv etishini bilsa (umid qilsa - *Tarj.*) u afv etilgandir, kechirilgandir».

#### 450

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Abu Voildan, u Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Shubhasizki, Alloh taolo ismlaridan biri Salomdir (ya'ni, aybu nuqsondan pokdir). Salomatlik Undandir».

## ADAB (ODOB) BO'LIMI

### 451

Abu Hurayra (r.a.) Muhammad ibn Munqadiridan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Sen va sening moling otangnikidir», dedilar».

### 452

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u otasidan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Bir odam Rasulullohga (s.a.v.) Alloh yo'lida jihod qilmoqchi ekanini aytdi. Rasululloh (s.a.v.) undan:

- Ota-onang hayotmi? - deb so'radilar.

- Ha, - deya javob qildi xaligi kishi.

- U holda ularga xizmat qilib jihod et, - dedilar Rasuli Akram (s.a.v.).

### 453

Abu Hanifa (r.a.) Ziyod sanadini Hazrati Payg'ambarga (s.a.v.) yetkazgan hadisda bunday deyiladi: «Nabiy (s.a.v.) har bir musulmonning musulmonga samimiy bo'lishni buyurdilar».

### 454

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan, u Ato ibn Soibdan, u Abu Hurayraning birodari Abu Muslim Ag'ardan u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) marhamat etdilar: «Alloh taolo bunday deydi: «Buyuklik (ulug'lik) Mening ridomdir. Azamat Mening izorimdir. Bu ikkisi borasida kim Men bilan tortishsa uni do'zaxga tashlayman».

### 455

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan (r.a.), u Ibrohimdan, u Muhammad ibn Munkadiridan rivoyat qiladi. Munkadirga ushbu rivoyat yetib keldi: «Kibrli inson boshi oyoqlari orasiga boshini tepaga qilib olovdan bo'lgan tobut ichiga qamab qo'yiladi. U olovdagi (do'zaxdagi) tobutdan abadiy chiqolmaydi».

### 456

Abu Hanifa (r.a.) Ziyoddan, u Usoma ibn Sharikdan rivoyat qiladi. Usoma (r.a.) dedi: «Men Rasulullohning (s.a.v.) yonlarida bo'lganimda badaviydar shradilar:

- Yo Rasulalloh! Insonga berilgan eng yaxshi narsa nima?

Janob (s.a.v.) marhamat qildilar:

- Go'zal xulq».

### 457

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Agar

halimlik (yumshoqlik) ko'z bilan ko'rinadigan tarzda yaratilganda edi, Alloh yaratgan narsalar ichida undan go'zali ko'rinmas edi. Agar jaholat va axmoqlik ko'zga ko'rinadigan tarzda yaratilganda edi, Alloh yaratgan narsalar ichida undan xunugi ko'rinmasdi».

#### 458

Abu Hanifa (r.a.) Muhammaddan, u Anasdan (r.a.) rivoyat qiladi. Anas (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) birga o'tirgan kimsalar yonida aslo tizzalarini (oyoqlarini - *Tarj.*) uzatmaganlar. Ular bilan barobar o'tirganlar. Rasulullohning (s.a.v.) qo'lini ushlagan bir kimsa, to o'zi qo'lini tortmaguncha, Rasululloh (s.a.v.) uning qo'lini qo'yib yubormas edilar. Rasulullohning (s.a.v.) yonlarida o'tirgan odam o'rnidan turmaguncha, Rasululloh (s.a.v.) o'rnilaridan turmaganlar. Anas (r.a.) aytdilarki: «Rasulullohning hidlaridan ham xushbo'y biror hid hidlamadim». Bir rivoyatda: «Ehtiyoj yuzasidan Rasulullohning (s.a.v.) oldilariga kelgan kimsaning o'zi ketmagunicha, Rasululloh (s.a.v.) uni tashlab ketmasdilar», deyiladi. Boshqa bir rivoyat: «Rasululloh (s.a.v.) birov bilan musofaha qilganida (qo'l berib so'rashganda - *Tarj.*), u odam qo'lini tortib olmaguncha, Ul zot (s.a.v.) undan ayrilib ketmasdilar», deyiladi.

#### 459

Abu Hanifa (r.a.) Abdullohdan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) uylarida bo'lganlarida, bir odam Ul zotni chaqirsa, Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Labbay, sizni eshitdim» deya uning yoniga chiqardilar».

#### 460

Abu Hanifa (r.a.) Muhammad ibn Munkadirdan, u Umayya binti Ruqayqadan rivoyat qiladi. Umayya (r.a.) aytdi: «Nabiyga (s.a.v.) bay'at qilish uchun borganimda Hazrati Payg'ambar (s.a.v.):  
- Men ayollar qo'lini ushlaymayman, - dedilar.

#### 461

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibn Yaziddan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibn Yazidning otasi aytdi: «Rasululloh (s.a.v.):  
- UZR so'rab kelgan bir musulmonning uzrini qabul qilmagan kimsaning gunohi maks egasining gunohidek bo'ladi, - dedilar.  
- Yo Rasululloh!.. Maks egasi kim? - deya so'rashdi.  
- Soliq yig'uvchidir, - dedilar Rasuli Akram (s.a.v.)

#### 462

Abu Hurayra (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Musulmon birodari uzr so'rab kelganida, uning uzrini qabul qilmagan kishining gunohi soliq yig'uvchining gunohi kabi bo'ladi».

### 463

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.): «Sizdan biringizga xushbo'y narsa keltirilsa, uni olsin», dedilar».

### 464

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) yulduzlarga qarab kelajak haqida xabar berishdan qaytardilar».

### 465

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobir ibn Abdullohdan rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Alloh va Rasuliga ishongan mo'minning hammomga ihzor (lungi, peshtomol)siz kirishi mumkin emas. Kim avratini insonlardan yashirmasa, Allohning, farishtalarining va butun maxluqotning la'natida bo'ladi», dedilar».

### 466

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilar: «Alloh nazdida ismlarning eng sevimlisi Abdulloh va Abdurrahmondur».

### 467

Abu Hanifa (r.a.) Nofiydan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Yaxshilik chirimaydi, yomonlik unutilmaydi»

### 468

Abu Hanifa (r.a.) Sammokdan, u Jobir ibn Samuradan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) dedilar: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) huzurlariga kelganimizda majlisning biz bilan yakun topadigan joyiga o'tirdik».

### 469

Abu Hanifa (r.a.) Atiyyadan, u Abu Said Xudriydan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Said Xudriy (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Insonlarga tashakkur etmagan Allohga shukr qilolmaydi», dedilar».

### 470

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u Muhorib ibn Dasordan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Zulm qilishdan saqlaning, chunki zulm Qiyomat kunida zulmlar bo'ladi», dedilar».

## 471

Abu Hanifa (r.a.) Osim ibn Burdadan rivoyat qiladi. Ibn Burda (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.) ansordan bir jamoaning uylariga borib ziyorat etdilar. Ular Hazrati Payg'ambarga bir qo'y so'yib, undan ovqat tayyorladilar.

Hazrat Payg'ambar (s.a.v.) u go'shtdan bir bo'lak olib ancha chaynadilar, ammo luqmani yutolmadilar.

- Bu qanaqa go'sht? - deb so'radilar.

- Bu falon kishining qo'yi edi. U kelgach, pulini berib, uni rozi qilamiz, - deyishdi.

Shunda Rasululloh (s.a.v.):

- Uni asirlarga yediring, - dedilar».

Bir rivoyatda (Osim ibn Kulayb, u otasidan qilgan rivoyatda) Osim ibn Kulaybning otasi aytadi: «Hazrati Payg'ambarga (s.a.v.) ashobidan bir odam ovqat tayyorladi va Payg'ambarni (s.a.v.) chaqirdi. Ul zot (s.a.v.) o'sha sahobaning uyiga bordilar. Biz ham Rasululloh (s.a.v.) bilan birga bordik va ovqatlanishga o'tirdik. Taom keltirildi. Nabiy (s.a.v.) u taomdan bir go'sht parchasi oldilar, uzoq payt chaynadilar. Ammo yeyolmasdan og'izlaridan chiqardilar va taomdan qo'llarini tortdilar. Rasulullohning (s.a.v.) bu hollarini ko'rgach, biz ham yeyishdan to'xtadik. Nabiy (s.a.v.) uy egasini chaqirib undan so'radilar:

- Bu go'sht qaerdan keldi? Menga gapirib ber.

- Yo Rasululloh, - dedi uy egasi, - bu birodarimizning qo'yi edi. Sotib olay desak o'zi yonimizda yo'q edi. Shoshilib turgan edik. So'yib sizga taom pishirdik. Birodarimiz kelgach, qo'yning pulini unga beramiz.

Shunda Rasululloh (s.a.v.):

- Ovqatni ko'taring, uni asirlarga yediring, - deb amr etdilar.

Abdulvohid deydi, men Abu Hanifaga (r.a.) aytdim:

- Bir odam egasi rozi bo'lmagan molni olib uning foydasidan sadaqa beradi, deysiz. Buni qaerdan oldingiz?

- Osimning hadisidan oldim, - dedilar Abu Hanifa (r.a.).

## 472

Abu Hanifa (r.a.) Anas ibn Molikdan (r.a.) rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Yaxshilikka dalolat qilgan yaxshilikni qilgan kimsa kabidir».

## 473

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibn Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibn Buraydaning otasi aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) «Yaxshilikning qilinishiga yo'l ko'rsatgan (sababchi bo'lgan - *Tarj.*) o'sha yaxshilikni qilgan kabidir», dedilar».

## 474

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibn Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibn Buraydaning otasi aytdi: «Nabiydan (s.a.v.) bir odam ulov so'rab keldi. Rasululloh (s.a.v.):

- Yonimda seni mindiradigan bir ulovim yo'q, biroq seni mindiradigan bir kishini ko'rsataman. Falonchi o'g'illarining qabristoniga bor. U yerda ansordan bir yigit bor, o'rtoqlari bilan birga otish mashqini o'tkazayapti. Uning bir tuyasi bor, o'shandan so'ra,



seni mindiradi, - dedilar.

U odam o'rtoqlari bilan otish ta'limi o'tkazayotgan kishini topdi. Unga Payg'ambarning (s.a.v.) gaplarini yetkazdi. Ayni paytda uni Rasululloh (s.a.v.) yuborganlari haqida uch marta qasam ichdi. Shundan so'ng yosh yigit uni tuyasiga mindirib Rasululloh (s.a.v.) yoniga olib keldi. Bo'lib o'tganlarni aytib berdi. Hazrat Payg'ambar (s.a.v.) marhamat qildilarki: «Yaxshilikka yo'l ko'rsatgan o'sha yaxshilikni qilgan kabidir».

Boshqa bir rivoyat: «Bir odam Hazrat Payg'ambardan (s.a.v.) bir ulov so'rash uchun keldi. Rasululloh (s.a.v.):

- Qasamki, yonimda seni mindirajak bir narsa yo'q, faqat seni falonchi o'g'illarining qabristoniga yuboraman. U yerda o'rtoqlari bilan otish mashqi o'tkazayotgan bir ansor yigitni topasan. Undan ulov so'ra, seni mindiradi. Shu odam Rasululloh (s.a.v.) aytgan joyga keldi va bo'lgan voqeani u yerdagi yigitga aytib berdi. Yigit qasam ichishni talab qildi.

U odam: «Allohga qasam ichamanki meni senga Rasululloh (s.a.v.) yubordilar», dedi. Bu qasamdan so'ng yigit unga bir tuya berdi. Birga Rasulullohning (s.a.v.) yonlariga keldilar. Rasululloh (s.a.v.) esa: «Yaxshi ishga yo'l-yo'riq ko'rsatgan u ishni bajargan kishi kabidir» (ya'ni, shuncha savobga ega bo'ladi - *Tarj.*), dedilar».

#### 475

Abu Hanifa (r.a.) Alqamadan, u Ibn Buraydadan, u otasidan rivoyat qiladi. Ibn Buraydaning otasi aytdi: «Rasululloh (s.a.v.): «Eng afzal jihod zolim sulton (rahbar) oldida haq so'zni gapirmoqdir», dedilar».

#### 476

Abu Hanifa (r.a.) Shaybondan, u Abdulmalikdan, u otasidan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Sendan maslahat so'ragan kishiga to'g'ri (yo'l) ko'rsat. Aks holda, unga xiyonat qilgan bo'lasan», dedilar».

#### 477

Abu Hanifa (r.a.) Hasan Sha'biydan rivoyat qiladi. Sha'biy aytdi: No'mondan eshitdim, u Rasulullohning (s.a.v.): «Mo'minlar bir-birlarini sevishda, o'zaro bir vujud kabidir. Agar bosh og'risa jasadning hammasi unga qo'shilib, uyqusi qochadi va harorati oshadi», deganlarini eshitganini aytdi.

#### 478

Abu Hanifa (r.a.) Abdurrahmon ibn Xozimdan rivoyat qiladi. Abdurrahmon ibn Xozim aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Jabroil menga qo'shni haqida shunchalar tavsiya berdiki, qo'shni-qo'shniga merosxo'r bo'lsa kerak, deb o'yladim. Jabroil menga tungi (tahajjud - *Tarj.*) namoz (o'qish)ni shunday tavsiya qildiki, ummatimning eng yaxshilari juda oz uxlasalar kerak, deb o'yladim».

#### 479

Abu Hanifa (r.a.) Anasdan (r.a.) rivoyat qiladi. Anas (r.a.) aytdilar: «Rasulullohning

(s.a.v.) bunday deganlarini eshitdim: «Alloh taolo g'amginga yordam berishni yaxshi ko'radi».

#### 480

Abu Hanifa (r.a.) Abdulazizdan, u Abu Qatodadan rivoyat qiladi. Abu Qatoda (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.): «Zamon (dahr) ni so'kmanglar. Alloh zamondir (zamonning yaratuvchisidir)», dedilar».

#### 481

Abu Hanifa (r.a.) aytdilarki: «80-hijriy sanada tug'ildim. Rasulullohning sahobalaridan Abdulloh ibn Unays 94-yil hijriyida Kufaga keldi. O'shanda 14 yoshda edim. Uni ko'rdim va uning Rasulullohdan (s.a.v.): «Bir narsani haddan ziyod sevmog'ing seni ko'r va kar qiladi», deb aytganlarini eshitdim, deganlarini eshitdim».

#### 482

Abu Hanifa (r.a.) deydiki: «Vasila ibn Asqodan eshitdim, u Rasululloh (s.a.v.): «Din birodaringning boshiga tushgan (musibatlar - *Tarj.*) narsalarga sevinma. Alloh unga ofiyat berib, seni u balolarga duchor qiladi», deganlarini aytdi».

### NAZOKAT KITOBI

#### 483

Abu Hanifa (r.a.) Hasandan, u Sha'biydan, u No'mon ibn Bashirdan rivoyat qiladi. No'mon aytdi: «Nabiy (s.a.v.) bunday dedilar: «Insonda bir parcha go'sht bor. U solih bo'lsa, jasadning qolgan a'zolari ham solih bo'ladi. U buzuq, boshqa a'zolar ham buzuq bo'ladi. U qalbdir!»

#### 484

Abu Hanifa (r.a.) Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Men Hazrati Muhammad (s.a.v.) bilan Ul zot dunyodan o'tgunlaricha ketma-ket uch kecha-uch kunduz to'yib non yemadik. Muhammad (s.a.v.) dunyodan o'tgunlari qadar boshimiz dunyo g'am-tashvishlaridan chiqmadi. Hazrati Muhammad (s.a.v.) dunyodan o'tganlaridan so'ng, ustimizga musibat yog'ildi». Bir rivoyatda «Dunyo ustimizga shunday yog'ildi», deyiladi. «Hazrati Muhammadning (s.a.v.) oilalari uch kun ketma-ket to'yib bug'doy noni yemadi», deyiladi yana bir rivoyatda.

#### 485

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, Hammod Ibrohimdan, u Asvaddan, u Umar ibn Xattobdan (r.a.) rivoyat qiladi. Hazrati Umar (r.a.) Rasululloh (s.a.v.) qattiq og'riqan paytda Ul zotning huzurlariga kirdi. Rasuli Akram (s.a.v.) Katavon molidan bo'lgan aboa (chakmon, kamzul) uustida, izxir to'ldirilgan jun yostiqa yotardilar. Hazrati Umar (r.a.):

- Ota-onam Sizga fido bo'lsin, yo Rasululloh! Kisro va Qaysar qirollari sof ipak ichidalar, - degan edi, Rasululloh (s.a.v.):

- Ey Umar!.. Ularga dunyo, bizga oxirat bo'lishini xohlamaysanmi? - dedilar.

So'ngra Hazrati Umar (r.a.) qo'lini Rasulullohga (s.a.v.) tekkizgan edi, Ul zotning kuchli isitmasi borligini bildi va: «Siz Allohning rasuli bo'lsangiz-da isitmangiz shunday bo'ladimi?», dedi.

Rasululloh (s.a.v.) bunday marhamat qildilar:

- Bu ummatning baloga eng ko'p duchor bo'ladigani nabiyidir, keyin xayrli kimsalar, so'ngra ulardan keyingi yaxshi odamlardir. Bizdan oldingi payg'ambarlar, alayhimussalom va ummatlari ham ana shunday edilar».

## JINOYATLAR BO'LIMI

### 486

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, Ato Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.): «Kimki qasosni afv etsa (qasosdan voz kechsa. - *Tarj.*) uning uchun jannat bordir», deya marhamat qildilar».

### 487

Abu Hanifa (r.a.) Zuhriydan, u Said ibn Musayyabdan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: «Yahudiy va xristianlarning diyati (qon jazosi. - *Tarj.*) musulmonning diyati kabidir».

### 488

Abu Hanifa (r.a.) Sha'biydan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.): «Tuzalgunga qadar yaradorlarga qasos (jazo. - *Tarj.*) tadbiiq qilmang», deb buyurdilar».

## HUKMLAR BO'LIMI

### 489

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Hasan Abu Zarrdan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Zarr (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Ey Abu Zarr!.. Amirlik, rahbarlik bir omonatdir. U qiyomat kuni pushaymonlik va xafagarchilikdir. Rahbarlikni kim zimmasiga olib, haqqoniy ado etsa, u bundan mustasno. Buni sen qanday ham amalga oshirarding!?»

Abu Hanifa (r.a.) Abu G'assondan, u Hasandan, u Abu Zarrdan (r.a.) qilgan boshqa bir rivoyatda Abu Zarr (r.a.) bunday deydi: «Nabiy (s.a.v.) aytdilarki: «Amirlik, rahbarlik (davlat ishlari) bir omonatdir. U razillik va pushaymonlikdir. Kim uni zimmasiga olsa-yu, haqqoniy ado etsa, bundan mustasno. Bu qanday bo'ladi (buni eplab bo'larmidi. - *Tarj.*), ey Abu Zarr?!»

#### 490

Abu Hanifa (r.a.) Atiyyadan, Atiyya Abu Saiddan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Said (r.a.) aytdilar: «Nabiy (s.a.v.) bunday deb marhamat qildilar: «Shubhasiz, qiyomat kunida eng uzun bo'yin inson odil rahbar bo'ladi».

#### 491

Abu Hanifa (r.a.) Hasan ibn Abdullohdan, u Hubayb ibn Sobitdan, u otasidan rivoyat qiladi. Hubayb ibn Sobitning otasi aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Qozi (hokim) uch toifa bo'lib, ulardan ikki toifasi otashga, biri jannatga tushadi», dedilar. Jahannamga tushgani odamlar ustidan savodsizlarcha hukm chiqaradi. Bir qism insonlarni boshqalar molini yeyishga yo'llaydi. Boshqa birisi ilmiga amal qilmasdan insonlar ustidan nohaq hukm chiqaradi.3 toifa Alloh taoloning Kitobi bilan hukm beradi va u jannatga tushadi».

#### 492

Abu Hanifa (r.a.) Abdulmalikdan, u Ibn Abu Bakradan, unga otasi Rasulullohdan (s.a.v.) ushbu hadisni eshitganini yozdi. U hadisda Rasuli Akram (s.a.v.) bunday degan ekanlar: «Hokim g'azablangan paytda hukm berolmaydi».

#### 493

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha (r.a.) aytdilar: «Hazrati Nabiy (s.a.v.) bunday dedilar: «Qalam uch kishidan ko'tarilgan: ulg'ayib balog'atga yetgungacha qadar boladan, hushiga kelgunicha majnundan (telbadan), uyg'ongunga qadar uxlagan kishidan».

Hammud Said ibn Jubayrdan, u Huzayfadan (r.a.) qilgan boshqa bir rivoyatda Rasulullohning (s.a.v.) bunday deganlari aytiladi: «Uch kishidan qalam ko'tarildi: uyg'ongunicha uxlab yotgan kishidan, o'ziga kelgunga qadar hushidan ketgan kishidan, ehtilom bo'lgunga qadar (aqli bolig' bo'lgunga qadar) boladan».

#### 494

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Sha'biydan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Dalil bo'lmagan paytda da'vo qilinuvchi qasam ichishga haqlidir».

#### 495

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, unga bir odam gapirib berdi. Ash'as ibn Qays Abdulloh ibn Mas'uddan bir qul sotib oldi.

Abdulloh undan pulini so'raganida, Ash'as:

- Men uni o'n mingga sotib oldim, - dedi.

Abdulloh ibn Mas'ud (r.a.) esa:

- Men uni senga yigirma mingga sotdim. Ikkimiz o'rtamizda hukm chiqarishi uchun istagan odamni tanla, unga boraylik, - dedi.

Ash'as:

- Men bilan sening oramizda hakam sensan, - dedi.

Abdulloh:

- Men Rasulullohdan (s.a.v.) eshitgan hukmni senga aytayin: Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: «Oluvchi va sotuvchi narx borasida ixtilof qilganlarida, ularning ikkovining ham dalili bo'lmay va mol (joyida) turgan bo'lsa, sotuvchining gapi inobatga olinadi. Yoki ikkisi ham bir-birlariga narsalarini qaytarib berishadi».

#### 496

Abu Hanifa (r.a.) Qosimdan, u otasidan, u bobosidan naql qiladi. Ash'as ibn Qays Ibn Mas'uddan (r.a.) amirlik qullaridan bir qul sotib oldi. Abdulloh haqqini talab qilganda oralarida ixtilof chiqdi.

Ash'as:

- Men qulni o'n ming dirhamga sotib oldim, - dedi.

Abdulloh (r.a.):

- Men uni senga yigirma ming dirhamga sotgan edim. O'rtamizda bir hakam tayinla, - dedi.

- Sen hakam bo'lasan, - dedi bunga javoban Ash'as.

Abdulloh (r.a.):

- O'rtamizda Rasulullohdan (s.a.v.) eshitganim bir hukm bilan hukm qilaman, - dedi va Rasululloh (s.a.v.) shunday deganlar: «Oluvchi va sotuvchi ixtilof qilganlarida sotuvchining so'zi e'tiborlidir. Oluvchi unga rozi bo'ladi yoxud ular olgan va sotganlarini bir-biriga qaytarib berishadi», dedi.

Bir rivoyatda (Qosim bobosidan qilgan rivoyatda) Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Oluvchi va sotuvchi ixtilof qilganlarida, mol mavjud (ishlatib yuborilmagan) bo'lsa, sotuvchining so'zi e'tiborlidir. Oluvchi va sotuvchi olgan va sotgan narsalarini bir-birlariga qaytarishadi».

Abdullohdan (r.a.) qilingan yana bir rivoyat: «Ash'as Abdullohdan bir qul sotib oldi. Abdulloh (r.a.) Ash'asdan haqqini so'ragan paytda oralarida kelishmovchilik chiqdi.

Abdulloh (r.a.):

- Uni yigirma ming dirhamga sotdim, - dedi.

Ash'as:

- Men uni o'n ming dirhamga oldim, - dedi.

Shunda Abdulloh (r.a.) bunday dedi:

- Men Rasulullohdan (s.a.v.) bunday deganlarini eshitdim: «Oluvchi va sotuvchi o'zaro ixtilof qilishsa, sotuvchining so'zi e'tiborga olinadi. Yoki oluvchi va sotuvchi narsalarini bir-birlariga qaytarib berishadi».

#### 497

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobir ibn Abdullohdan rivoyat qiladi. Jobir (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) huzurlarida ikki kishi bir tuya ustida talashib qoldilar. Har ikkovi ham tuya o'ziniki ekaniga doir dalil keltirdi. Hazrat Payg'ambar (s.a.v.) tuya kimning qo'lida bo'lsa, shuniki deb hukm qildilar».

#### 498

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u bir odamdan, u Jobir ibn Abdullohdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jobir ibn Abdulloh (r.a.) aytdilar: «Ikki shaxs bir tuya ustida talashib qoldi. Har ikkisi ham uni o'zining tuyasi tuqqaniga dalil keltirishar edi. Rasululloh (s.a.v.) tuya

qo'lida ushlab turgan kishiniki, deb hukm chiqardilar».

Bir rivoyatda: «Ikki kishi Rasululloh (s.a.v) ning oldilariga bir tuya xususida kelishdi. Ulardan biri uni tuyasi tuqqaniga dalil keltirdi. Hazrat Payg'ambar (s.a.v.) tuya kimning qo'lida bo'lsa, shuniki, deb hukm chiqardilar», deyiladi.

## FITNAGA DOIR BO'LIM

### 499

Abu Hanifa (r.a.) Junayddan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Kim ummatimga qilich ko'tarsa, (bilsinki - *Tarj.*) jahannamning yetti eshigi bordir. Bir eshigi ummatimga qilich ko'targan kimsalar uchundir».

### 500

Abu Hanifa (r.a.) Horisdan, u Abu Jullasdan (r.a.) rivoyat qiladi. Jullas (r.a.) aytdi: «Men Abdulloh ibn Shayboniyning juda katta gapini eshitganlardan biri edim. Uni bo'yniga urib Hazrati Aliga (r.a.) olib keldik. Hazrati Ali (r.a.) hovlida oyoqlarini chalkashtirib osmonga qarab yotgan ekanlar.

Hazrati Ali (r.a.) undan nimalar deb gapirganlarini so'radilar. Abdulloh ibn Shayboniy aytgan so'zini (yana bir bor) gapirib berdi.

- Bu so'zni Allohndan, uning Kitobidan yoki Allohning Rasulidan rivoyat qilyapsanmi? - so'radilar Hazrati Ali (r.a.).

- Yo'q, - dedi Abdulloh ibn Shayboniy.

- Unda qaerdan?

- O'zimdand.

Hazrati Ali (r.a.):

«Sen bu so'zni Allohndan, Kitobidan yoxud elchisidan xabar berayotganingni aytsang edi, kallangni uzib tashlardim. Agar mendan rivoyat qilganingni aytsang, senga azob berardim. Sen yolg'onchisan. Men Rasulullohdan (s.a.v.) eshitganman. Qiyomatdan oldin o'ttizta yolg'onchi payg'ambar chiqadi, sen ham o'shalardansan».

Bir rivoyatda Abu Jullasning bunday degani keltirilgan: «Men Abdulloh Shayboniydan juda katta gap aytganini eshitganlardan biri edim. Uni Hazrati Aliga (r.a.) olib keldik. Hazrati Alini (r.a.) masjidning hovlisida bir oyog'ini 2si ustiga qo'yib, osmonga qarab yotgan holda topdik.

Hazrati Ali (r.a.) undan qanday so'zlar so'zlaganini so'radi. U gapirganlarini aytib berdi.

- Bu so'zlarni Allohndan, Kitobidan yoki Allohning rasulidan rivoyat qilyapsanmi? - deya so'radilar Hazrati Ali (r.a.).

- Yo'q, - dedi u.

- Unda kimdan?

- O'zimdand.

Hazrati Ali (r.a.):

- Sen Allohndan, Kitobidan yoxud elchisidan naql etganingni aytganingda, bo'yningni uzardim. Agar mendan rivoyat qilganingni aytayotgan bo'lsang, senga azob berardim, yolg'onchisan. Men Rasulullohdan (s.a.v) eshitganman, Qiyomat vaqtidan oldin o'ttizta yolg'onchi payg'ambar paydo bo'ladi, sen ham o'shalardan bittasisan, - dedilar».

## 501

Abu Hanifa (r.a.) Abdurrahmondan, u Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qiladi. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v) bunday dedilar: «Shunday bir zamon keladiki, insonlar qabrlarga borib qabr ustiga yotib olishadi va shunday deyishadi:

«Koshki shu qabrda, biz bo'lsak edik...»

Sahobalar so'rashdi:

- Bu qanday bo'ladi, yo Rasululloh!

- Zamonning qiyinchiliklari, balolar va fitnalar ko'pligi bois shunday bo'ladi (deyishadi. - *Tarj.*), - dedilar Rasuli Akram (s.a.v.)».

## TAFSIR KITABI

## 502

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan, u Abu Farvadan, u Ato ibn Soibdan, u Abu Zuhodan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Alloh taoloning «Alif, lom, mim» so'zidan murod ushbu: «Men Allohman, hamma narsani biluvchi va ko'ruvchiman».

## 503

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan, u Salama ibn Nabitdan rivoyat qiladi. Salama aytdi: «Men Dahhoq ibn Mazohimning yonida edim. Bir odam «Biz seni muhsinlardan, yaxshilik qiluvchilardan deb bilamiz» oyatining manosini so'raganda shunday dedilar: U qiynalgan kishini ko'rsa, qiyinchilikdan qutqarardi. Kasalni ko'rsa, uning xizmatini qilardi. Muhtojni ko'rsa, uning hojatini chiqarishni istardi».

## 504

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan, u Atiyyadan, u Abu Saiddan (r.a.) rivoyat qiladi. Nabiy (s.a.v.) bunday dedilar: «Mo'minning farosatidan ehtiyot bo'ling, chunki u Allohning nuri bilan qaraydi», dedilar va ushbu oyatni o'qidilar: «Shubha yo'qki, bunda sinchiklab qarovchilar uchun ibratlar bordir».

## 505

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan, u Abdulmalikdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.): «Qasamki, ularning hammasidan qilgan narsalarini so'raymiz» oyatidagi «so'raladigan narsa» - «La ilaha illallohdir», dedilar».

## 506

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan, u Abu Zarrdan, u Said ibn Jubayrdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qildi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) Jabroildan (a.s.):

- Bizni avvalgidan ko'proq ziyorat qilmaysizmi? - deya so'radilar. Bir necha kechadan

so'ng ushbu oyat nozil bo'ldi: «Biz faqat Rabbing amri ila tusha olamiz. Oldimiz va ortimizdagi narsalar (dunyo va oxirat ishlari) Unikidir».

### 507

Abu Hanifa (r.a.) Sammokdan, u Abu Solihdan, u Ummu Honiy binti Abu Tolibdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ummu Honiy aytdilar: «Men Rasulullohga (s.a.v.) bunday dedim:  
- Ey Allohning Rasuli, Lut qavmining majlislarida qilgan yomonliklari nima edi?  
- Ular yo'ldan o'tayotganlarga xurmo danagi yoki toshcha otishar edi. O'tayotganlarni masxara qilishardi».

### 508

Abu Hanifa (r.a.) Atiyyadan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Umar (r.a.) Rasulullohga (s.a.v.) ushbu oyatni o'qidi: «Alloh sizni haqir bir suvdan yaratdi. Keyin sizni zaiflikdan (go'daklik chog'ingizdan) so'ng kuchli qildi. So'ngra kuchli chog'dan yana zaiflik va qarilik chog'iga keltirdi».

Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) Ibn Umarga (r.a.): «Min zahfin» (zaiflik), deya o'qi», dedilar».

### 509

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Sha'biydan, u Masruqdan, u Abdullohdan rivoyat qiladi. Abdulloh (r.a.) aytdilar: «Duxon va Batsha (o'rtani tutun qoplashi va Allohning Badr jangida mushriklarni azobga giriftor qilishi) Rasulullohning (s.a.v.) zamonlarida yuz berdi».

### 510

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u Ibrohimdan, u Asvaddan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi: Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Farzandlaringiz sizning kasbingizdandir, ular Allohning sizga hadyasidir. U (Alloh) istaganiga qiz, istaganiga o'g'il farzand beradi».

### 511

Abu Hanifa (r.a.) Makkiy ibn Ibrohimdan, u Ibn Luhay'adan, u Abu Qubayldan rivoyat qiladi. Abu Qubayl aytdi: «Men Abu Abdurrahmondan eshitdim, Rasulullohning (s.a.v.) quli Savbon Rasulullohdan quyidagini eshitgan ekan: «Dunyo ichidagilari bilan meniki bo'lsa-da, shu oyatni eshitgan darajada xursand bo'lmas edim: «Aytgin: «Ey havoyi nafslariga ergashib haddan oshgan qullarim. Allohning rahmatidan umid uzhang. Shubhasiz, Alloh barcha gunohlarni kechiradi».

Bir odam so'radi:

- Allohga shirk keltirganni hammi?

Rasululloh (s.a.v.) jim bo'ldilar. Haligi odam yana so'radi:

- Shirk keltirsa hammi?

Rasululloh (s.a.v.) yana sukut saqladilar. Keyin bunday dedilar:

- Faqat shirk keltirsa ham (umidini uzmasin)».



## 512

Abu Hanifa (s.a.v.) Muhammad ibn Soib Kalbiydan, u Abu Solihdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi: «Vahshiy Hazrati Hamzani o'ldirgandan keyin bir muddat o'tib, qalbiga Islom (iymon) otashi tushdi. Elchi yuborib, qalbida musulmon bo'lish orzusi paydo bo'lganini Rasulullohga (s.a.v.) ma'lum qildi va bunday dedi:

- Allohning Kitobidan aytganlaringizni eshitdim: «Ular Alloh bilan birga boshqa biron ilohga iltijo qilmaslar va Alloh (o'ldirishni harom qilgan) biron jonni nohaq o'ldirmaslar hamda zino qilmaslar. Kim mana shu (gunohlardan birontasini) qilsa, uqubatga duchor bo'lur. Qiyomat kunida uning uchun azob bir necha barobar qilinur va u joyda xorlangan holda mangu qolur» (Furqon, **68-69**). Men bu (gunoh) larning hammasini qildim. Men uchun najot bormi?

Jabroil kelib: «Ey Muhammad, unga ayting: «Magar kim tavba qilsa va iymon keltirib yaxshi amallar qilsa, bas, Alloh ana o'shalarning yomonlik - gunohlarini yaxshilik - savoblarga aylantirib qo'yur. Alloh mag'firatli, mehribon Zotdir» (Furqon, **70**), - dedi. Rasululloh (s.a.v.) bu oyatni unga yubordilar. Unga bu oyatlar o'qilgach Vahshiy bunday dedi:

«Bu oyatlarda shartlar bor. Bu shartlarni bajara olmaslikdan qo'rqayapman. Solih amal qilolmaslikdan qo'rqaman. Ey Muhammad!... Bundan-da qulaylik, kenglik (engillik) beradigan bir oyat bormi?»

Jabroil ushbu oyatni olib keldi:

«Aytgin: «Ey nafslariga zulm o'tkazib haddan oshganlar, Allohning rahmatidan umid uzvang. Alloh hamma gunohlarni kechiradi. Shubhasiz, U mag'firat va marhamat egasidir».

Rasululloh (s.a.v.) bu oyatni yozdilar va Vahshiyga yubordilar. Bu oyat unga o'qib berilganda: «Qanday ham yaxshi!», dedi va musulmon bo'ldi. Rasulullohga elchi yubordi va:

- Men haqiqatan musulmon bo'ldim. Endi Siz bilan uchrashsam bo'ladimi? - deya so'radi. Rasululloh (s.a.v.) unga bunday javob yubordilar:

- Ey Vahshiy!.. Yonimga kelsang, yuzingni ko'rsatma. Mening ko'zlarim amakim Hamzaning qotilini ko'rishga toqat qilolmaydi.

Vahshiy bu so'zlar qarshisida jim bo'lib qoldi.

Bir muddat so'ngra Musaylama Hazrat Payg'ambarga (s.a.v.) ushbu maktubni yubordi: «Allohning elchisi Musaylamadan Allohning elchisi Muhammadga. Yer yuzida Senga sherik qilindim. Yarmi meniki, yarmi Qurayshnikidir. Biroq Quraysh haddan oshgan qavmdir».

Ikki kishi bu maktubni Rasulullohga (s.a.v.) keltirdilar. Maktub o'qilgach, Rasululloh (s.a.v.) u ikki elchiga bunday dedilar:

- Agar elchi bo'lmaganingizda sizni o'ldirardim.

Keyin Ali ibn Abu Tolibni chaqirib unga «Yoz!», dedilar:

«Rahmon va Rahim Allohning nomi ila boshlayman. Allohning rasuli Muhammaddan yolg'onchi Musaylamaga. Salom hidoyatga ergashganlarga bo'lsin. Yer yuzi Allohnikidir. Unga qullaridan xohlaganini voris qiladi. Oqibat muttapiylarnikidir. Va sollallohu ala sayyidini Muhammad».

Musaylamaning yozganlaridan Vahshiy xabar topgach, nayzasini chiqardi va uni o'tkirladi. Keyin Musaylamani o'ldirishga qasd qildi. Bu izmida qattiq turdi. Nihoyat Yamomada uni o'ldirdi».

### 513

Abu Hanifa (r.a.) Salama ibn Kuhayldan, u Ibn Mas'udning birodarlaridan Abu Zag'rodan rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) bunday deb marhamat qildilar: «Shafomatim tufayli ahli iymon otashdan chiqadi va faqat bu oyatda zikr etilgan kimsalardan boshqasi unda qolmaydi: «Sizni Saqar jahannamiga tushirgan nima?», deb so'ralganda, ular bunday deyishadi: «Biz namoz o'qimas edik, faqirlarga taom bermas edik. Botilga sho'ng'iganlar bilan birga botilga sho'ng'ir edik. O'lganimizcha qiyomat kunini yolg'on, dedik». Shafotchilarning shafoti ularga foyda bermaydi». Boshqa rivoyatda: Ibn Mas'ud (r.a.) aytdi: «Alloh taolo qiyomat kuni iymon aholidan bir necha guruhini azoblaydi. So'ng ularni Muhammad (s.a.v.) shafotlari bilan undan chiqaradi. Unda faqat mazkur oyatda zikr eitlganlarga qoladi».

### 514

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan, u Salama ibn Kuhayldan, u Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Mas'ud (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Jahannamda Alloh taolo ushbu oyati karimada zikr qilganlardan boshqa hech kimsa qolmaydi: «Sizni Saqar do'zaxiga kirgizgan nima? Ular ayturlarki, biz namoz o'qimas edik, faqirlarga (taom) bermas edik». Shafotchilarning shafoti ularga foyda bermaydi».

### 515

Abu Hanifa (r.a.) Hammoddan, u otasidan, u Abu Osimdan, u Abu Solihdan rivoyat qiladi. Abu Solih bunday dedi: «Al-huqub (davrlar, zamonlar) 8 yildir. Uning olti kuni dunyoning butun kunlari sonichadir».

### 516

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan rivoyat qiladilar: «So'zning eng go'zaliga ishonsa» oyati Rasulullohga (s.a.v.) o'qilganida: «La ilaha illallohga ishonsa», dedilar».

## VASIYAT

### 517

Abu Hanifa (r.a.) Atodan, u otasidan, u Sa'd ibn Abu Vaqqosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Sa'd ibn Abu Vaqqos aytdilar: «Kasallanib yotganimda Nabiy (s.a.v.) meni ko'rishga keldilar. Ul zotga:

- Yo Rasululloh, molimning hammasini vasiyat qilayinmi? - degan edim.

- Yo'q, - dedilar.

- Yarmini vasiyat qilayinmi?

- Yo'q, - dedilar

Rasululloh (s.a.v.) aytdilar:

- Uchdan bir qismi ko'pdir. Ahli oilangni odamlarga muhtoj qilib qoldirib ketmagin, - dedilar.

Bir rivoyatda keltirilishicha, Rasululloh (s.a.v.) kasal yotgan Sa'dni ko'rish uchun yoniga

kirdilar. Sa'ddan:

- Vasiyat qildingmi? - deb so'radilar.

Sa'd:

- Ha, molimning hammasini vasiyat qilib qoldirdim, - dedi.

Rasululloh (s.a.v.) Sa'dning vasiyat qilib qoldirayotgan molining miqdorini toki u:

«Uchdan birini vasiyat qildim», degunga qadar kamaytirdilar va «Uchdan biri ham ko'p», dedilar.

Bir rivoyatda (Ato otasidan, u bobosidan, u Sa'd Abu Vaqqosdan (r.a.) qilgan rivoyatda)

Sa'd ibn Abu Vaqqos (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) meni ko'rishga keldilar. Men:

- Yo Rasululloh (s.a.v.), molimning hammasini vasiyat qilib qoldiraymi? - deya so'radim.

Hazrat Payg'ambar (s.a.v.):

- Yo'q, - dedilar.

- Yarmini vasiyat etayinmi?

- Yo'q, - dedilar.

Men:

-Uchdan birini vasiyat qilayinmi? - degan dedim, Rasululloh (s.a.v.):

- Uchdan biri ham ko'p. Vorislaringga molingni qoldirishing ularni odamlar qo'liga qaratib, muhtoj holda qoldirishingdan yanada xayrlidir, - dedilar».

## 518

Abu Hanifa (r.a.) Abu Zubayrdan, u Jobirdan (r.a.) rivoyat qiladi: Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Musulmon xristiandan meros olmaydi. Quli yoki joriyasi bo'lsa, mustasnodir».

## 519

Abu Hanifa (r.a.) Tovusdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: «Faroizni (hissalarni, ulushlarni) egalariga bering. Qolgan mol erkak kishiga (asabaga) tegishli».

## 520

Abu Hanifa (r.a.) Hakamdan, u Abdulloh ibn Shaddoddan rivoyat qiladi. Abdulloh ibn Shaddod aytdi: «Hamzaning qizi bir qul ozod qildi, qul o'ldi. Undan bir qiz qoldi. Nabiy (s.a.v.) molning yarmini bu qizga, yarmini Hamzaning qiziga berdilar».

## 521

Abu Hanifa (r.a.) Haysamdan, u Sha'biydan, u Masruqdan, u Oisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi. Oisha onamiz (r.a.) bunday dedilar: «Yetimlar molini zulm bilan yeganlar qorinlariga olov yegan bo'ladilar. Ular yaqinda jahannamga kirajaklar» mazmunidagi oyat nozil bo'lgach, yetimlarning mollarini nazorat qilishga mas'ul bo'lgan insonlarga ularning molini saqlash og'ir tuyuldi, ular yetimlarning moliga yaqinlashmay qo'ydilar. O'zlariga gunohga bo'lishdan qo'rqdilar.

Shunda ushbu oyat nozil bo'ldi: «Sendan yetimlar haqida so'raydilar. Ular uchun islohni (yaxshilikni) o'ylash siz uchun yanada xayrlidir. Ular bilan muomala qilsangiz, ular dinda sizning birodarlaringizdir». Ushbu oyati karimadan so'ngra ular ancha yengil tortdilar.

## 522

Abu Hanifa (r.a.) Muhammad ibn Munkadirdan, u Anas ibn Molikdan (r.a.) rivoyat qiladi. Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Rushd (balog'at. - *Tarj.*) chog'iga yetishgach, kishi yetim hisoblanmaydi».

## QIYOMAT VA JANNATNING VASFLARI

## 523

Abu Hanifa (r.a.) Ismoilidan, u Abu Solihdan, u Ummu Honiydan rivoyat qiladi. Ummu Honiy (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Qiyomat pushaymonlik va hasrat kunidir».

## 524

Abu Hanifa (r.a.) Ismoilidan, u Abu Solihdan, u Ummu Honiydan (r.a.) rivoyat qiladi. Rasululloh (s.a.v.) bunday deb aytdilar: «Jannatda Alloh o'tkir mushkdan, suvi salsabil, daraxtlari nurdan, ichida har birining 7 kokili bor go'zal hurlar aylanib yuradigan shahar yaratgan. U hurlardan bittasi yer yuzida ko'rilsa edi, g'arb va sharqni yoritardi. Uning xushbo'y hidi osmon va yer yuzini to'ldirardi».

So'rashdi:

- Yo Rasululloh!.. Bu (shahar. - *Tarj.*) kim uchun?

- Bu oladigan qarzini xushmuomalalik va yumshoqlik ila so'ragan kishi uchundir, - deya marhamat qildilar Rasuli Akram (s.a.v.)».

Bir rivoyatda: «Shoyad bu hurlardan bittasi ko'rinsaydi, g'arb bilan sharq orasini yoritardi. Osmon va yer u muattar hid bilan to'lar edi», deyiladi.

Yana bir rivoyat: «Ummu Honiy bunday dedi: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) marhamat qildilar: «Allohning arshi ostida ochilgan o'tkir mushkdan yaratilgan bir shahri bor. U shaharning daraxtlari nurdir. Suvi salsabildir. Yirik ko'zli hurlar yaratib qo'yilgan. Har biri 7 kokillidir. Ulardan birortasi sharqda bo'lsa ham, g'arbni yorug' qilar edi».

## **IZOHLAR VA TAXRIJ**

3-hadis

Joriyaning osmonni ko'rsatishi uning ma'rifatidandir. Bundan ikki maqsad ko'zlangan.

1. U ayol osmonning yuksaklikni biladi.

2. Ayol bu bilan yuksakligini nazarda tutgan. Chunki u butlarga yerda ibodat qilinishini biladi. Biroq bu boradagi haqiqat va sahih aqida quyidagichadir:

Alloh taolo zamon, makon va tomondan munazzahdir. Ba'zi firqalar ushbu hadisni dalil qilib, yo'ldan ozishdi.

Alloh taoloni biror jihatda deb e'tiqod etish kufr bo'ladi.

Joriya ayolning Alloh taoloni tanishiga ushbu hadis dalildir: Sharid ibn Suvayd Saqqofiydan rivoyat qilingan boshqa bir sahih hadisda bunday kelgan. Saqqofiy: «O' Rasullalloh! Onam bir mo'mina qul ozod qilishimni vasiyat qildi. Menda bir zanj joriya bor. O'shani ozod qilayinmi?» dedi.

Hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v.): «Uni chaqir», dedilar.

Men joriyani chaqirib keldim. Rasululloh (s.a.v.) undan so'radilar:

- Rabbing kim?

- Alloh, - dedi joriya. Rasululloh (s.a.v.):

- Men kimman? - deya so'radilar.

- Siz Allohning rasulisiz, - dedi.

- Uni ozod qil, chunki u mo'minadir, - deya marhamat qildilar.

Bu hadisi sharifni Abu Dovud va Nasaiy rivoyat etishgan («Taysirul-vusul», 1b-bet).

A'to ibn Abu Rabohdan rivoyat etilgan hadisni esa Ibn Xusrav «Musnad»ida keltirgan. Hadis sahihdir.

Muslim, Abu Dovud, Nasaiy hadisni Muoviya ibn Hakam Sulamiydan rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-18).

## **Go'dakligida o'lganlar hukmi**

5-hadis

Olimlar aytishadi: «Go'dakligida o'lganlar kofirning bolalari bo'lishsa ham, shar'iy taklif bilan mukallaf bo'lmaganlari uchun azobdan qutuladilar».

Abdurahmonning hadisini Imom Buxoriy, Abu Dovud va Termiziy, Bayhaqiy Anas ibn Molikdan rivoyat qilishgan.

## **Shirk**

7-hadis

Shirk mavzuida juda ko'p hadis bor: «Katta gunohlardan biri Alloh taologa shirk keltirishdir». Imom Buxoriy rivoyati. («Zujajatul-masabih», 1-21).

9-hadis

Hadis muttafaqun alayhdir. Termiziy bu hadisni Abu Zarr G'iforiy orqali rivoyat qilgan («Uqud'ul-munifa», 1-18).

## **Taqdir**

13-hadis

Imom Buxoriy bu hadisning bir qismini rivoyat qilgan.

#### 14-hadis

Hazrati Ali (r.a.) orqali rivoyat etilgan hadis muttafaqun alayhdir («Zujajatul-masabih», 1-22).

#### 15-16-hadislari

Hadisni Ahmad ibn Hanbal «Musnad»ida Abdulaziz orqali rivoyat qilgan.

Abu Dovud, Termiziy, Ibn Moja Hazrati Ali (r.a.) orqali farqli lafz bilan rivoyat etishgan («Uqud'ul-munifa», 1-20).

#### 17-18-hadislari

Ahmad ibn Hanbal va Abu Dovud Ibn Abbos (r.a.) orqali rivoyat qilishgan. Ibn Abbos (r.a.) aytdi: «Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilar: «Qadariylar 6u ummatning majusiylaridir. Kasal bo'lsalar, ko'rishga bormang, o'lsalar, janozalariga qatnashmang» (Zujajatul-masabih», 1-32).

#### 19-20-21-hadislari

Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda Hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v.) marhamat qiladilar: «Ummatimdan ikki toifaga Islom dinidan nasiba yo'q. Ular murjiya va qadariyachilardir».

Bu hadisni Imom Termiziy rivoyat etgan. Hadis g'aribdir («Zujajatul-masabih», 1-31).

### **Shafolat**

#### 22-hadis

Rubai ibn Hiroshning hadisini Buxoriy rivoyat qilgan («Zujajatul-masabih», 4-321; «Uqud'ul-munifa», 1-22).

#### 27-hadis

Ahmad ibn Hanbal, Abu Ya'lo Abu Zilol Qasmaliyning Anasdan rivoyat etgan hadisini rivoyat etishgan. Abu Zilol zaif roviydir. Uning ismi Hilol ibn Maymundir («Ihyoi ulumid-din», 4-26).

### **Alloh taoloni jannatda ko'rish**

#### 29-hadis

Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qilingan hadisni Buxoriy va Muslim rivoyat etishgan.

Buxoriy Jobir orqali rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-21).

Jarir ibn Abdullohdan rivoyat etilgan hadisda Rasululloh (s.a.v.) marhamat qiladilar: «Sizlar Rabbingizni ko'zlaringiz bilan ko'rasizlar» («Zujajatul-masabih», 4-362).

### **Ilm**

#### 30-31-hadislari

Anas ibn Molikdan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda Rasululloh (s.a.v.) marhamat qiladilar: «Ilm istash har bir musulmonga farzdir. Noahl (johil) kimsa oldida ilm aytuvchi (bu) cho'chqaga gavhar, inju taquvchiga o'xshaydi». Ibn Moja rivoyat qilgan («At-targ'ib vat-tarhib», 96-bet).

«Ilm talabidagi kishining rizqiga Alloh taolo kafildir». Zahabiy rivoyat qilgan.

#### 34-hadis

«Zikr majlisida o'tirganlarga sakinat (xotirjamlik) tushadi. Ularni farishtalar qurshab oladi, rahmat chulg'aydi. Alloh taolo ularni Arshida zikr etadi».

Abu Nuaym «Hilya» asarida Jobir (r.a.) orqali rivoyat qilgan («Al-munaviy», 5-519).

#### 35-hadis

Abu Musodan (r.a.) rivoyat qilingan hadisda Rasululloh (s.a.v.) marhamat etadilar: «Alloh taolo qiyomat kunida qullarini tiriltiradi, so'ngra olimlarni ajratib: «Ey olimlar jamoasi, Men sizga ilmimni azoblash uchun bermadim. Boring, Men sizni kechirdim», deydi».

### **Hazrati Payg'ambarga (s.a.v.) tuhmat qilish nojoiz**

#### 36-37-38-39-40-hadislari

Termiziy, Ibn Moja, Abu Dovud, Ahmad ibn Hanbal, Muslim, Nasaiy va Buxoriy rivoyat etishgan. Ibn Qayyum Javziy: «98 sahobiy bu hadisni rivoyat qilgan», deydi. Ibn Saloh: «Bu hadis darajasidagi mutavotir hadis yo'q» degan («Al-munaviy», 6-216-217).

### **TOZALIK**

#### **Turg'un suvning najas bo'lishi**

#### 41-hadis

Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda Rasululloh bunday deydilar: «Birortangiz oqmaydigan, turg'un suvga peshob qilmasin, so'ng bunday suvda g'usl qilmasin».

Imom Buxoriy, Muslim shu lafz bilan rivoyat qilishgan.

Muslim hadisni yana boshqa bir lafz bilan rivoyat etgan: «Birortangiz junubligida turg'un suvda g'usl qilmasin». So'raldi: «Ey Abu Hurayra, qanday qilinadi?» «U suvdan olib...», deya javob berdi («Taysirul-vusul», 3-48).

#### 42-hadis

Ibn Muzaffar, Bayhaqiy farqli lafzlar bilan rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-29).

### **Hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) mushuk tekkan suvdan tahorat olishlari sababi**

#### 43-hadis

Abu Qatodadan rivoyat etilgan hadisda Rasululloh (s.a.v.). «Mushuk najas emas, mushuk atrofingizda aylanib yuruvchi uy hayvonidir», deydilar.

Buxoriy va Muslim rivoyati. Ibn Huzayma va Termiziy, Ibn Hibbon, Hokim va boshqalar hadisni sahih deyishgan.

Abu Dovuddan rivoyat qilingan sahih hadisda «Rasululloh (s.a.v.) mushukdan qolgan suv bilan tahorat olardilar», deyiladi. Hanafiy mazhabida mushukdan qolgan suv ilan tahorat olish karohiyatli (makruh. -Tarj.) bo'lsa ham, joiz.

Abu Dovud Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilgan hadis mushukdan qolgan (suv)ning tozaligiga dalolat etadi («Osorus-sunan», 1-11).

#### **Tik turib peshob qilish**

#### 44-hadis

Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda («Osorus-sunan», 1-24) (ul muhtarama) bunday deydi: «Kim sizga Rasululloh (s.a.v.) tik turib tahorat ushatardilar desa, uning gapini tasdiqlamang. Rasululloh (s.a.v.) faqat o'tirib tahorat ushatganlar». Abu Dovud, «Kutubi sitta» sohiblari rivoyat qilishgan. Isnodi hasandir.

### **Sut ichilganida tahorat yangilanmaydi**

#### 45-hadis

Said ibn Jubayr Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qilgan hadisni Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Nasaiy rivoyat etishgan.

### **Misvok ishlatish**

#### 46-hadis

Tabaroniy shunday keltirgan: «Payg'ambar (s.a.v.) namoz o'qish uchun misvok ishlatmasdan uylaridan chiqqan emaslar».

Buxoriy va Muslim shunday rivoyat qilishgan: «Agar ummatimga mashaqqat bo'lmaganida, har namoz vaqti tishlarini misvok bilan tozalashni ularga buyurar edim». Ibn Huzayma «Sahih»ida bu hadisni rivoyat etgan. Hokim uni sahih degan («Fathul-qodir», 1-16).

### **Rasuli akramning (s.a.v.) tahorat olishlari, boshga bir marta mash tortishlari**

#### 47-48-hadislar

Abu Hanifa (r.al.) A'to ibn Abu Rabohdan, u Usmon ibn Affonning quli Himrondan rivoyat qiladi. Himron aytdi: Hazrati Usmon (r.a.) a'zolarini uch martadan yuvib: «Men Rasulullohning (s.a.v.) mana shunday tahorat olayotganlarini ko'rdim», dedi». Buxoriy, Muslim, Ibn Xusrav va Abu Dovud rivoyat etishgan («Uqud'ul-javohir», 1-24).

«Rasululloh (s.a.v.) a'zolarini bir martadan yuvib tahorat oldilar» hadisini Imom Buxoriy «Sahih»ida rivoyat qilgan.

Bu mavzu haqida kengroq ma'lumot olmoqchi bo'lganlar «Uqud'ul-javohir» kitobiga murojaat qilishlari mumkin.

## **TAHORAT**

#### 51-hadis

«Sahihi Muslim»da Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda: «Yuvilmagan paylarga otash azobi bo'lsin», deb aytilgan. «Oyoqlarni yuvishda tovon yuqorisidagi paylarga suvni yetkazing», deya marhamat qilingan.

Muslim va Ibn Moja bu hadisni boshqacha lafzlar bilan ham rivoyat qilishgan. Buxoriyda: «To'piqlarga otash azobi bo'lsin» shaklida rivoyat etilgan.

### **Tahoratdan so'ng tahorat a'zolariga suv purkash**

#### 52-hadis

Hadisni Abu Dovud, Nasaiy, Ibn Moja Mansur orqali rivoyat etishgan. Ibn Abbosdan



(r.a.) rivoyat qilingan hadisda: «Rasululloh (s.a.v.) a'zolarini bir martadan yuvib tahorat oldilar va tahorat a'zolariga suv purkadilar», deyilgan («Uqud'ul-javohir», 1-24).

### **Bir tahorat bilan bir necha namoz o'qish**

53-56; 59-61; 63; 65-67-hadislar

Hazrati Alining (r.a.) bunday deyishgani rivoyat qilingan: «Agar din ra'y bilan bo'lsa edi, mahsining ostiga mash etish ustiga mash qilishdan avloroq bo'lar edi. Men Rasulullohning (s.a.v.) mahsi ustiga mash tortayotganlarini ko'rdim». Abu Dovud hasan sanad bilan bu hadisni rivoyat etgan. Alqamaning hadisini Muslim va Nasaiy ham keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-30).

### **Tor kiyim kiyish**

58-hadis

Ibn Xusrav, Ibn Muzaffar, Abu Bakr ibn Abdul Boqi va al-Horisiy «Musnad»larida shunday keltirishgan. «Kutubi sitta» sohiblari quyidagi lafz bilan rivoyat qilganlar: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) hojat uchun tashqariga chiqdilar. Mug'iyra bir idish suv bilan ul zotning orqalaridan bordi. Rasuli Akram (s.a.v.) hojatini daf qilganlaridan so'ng, Mug'iyra ul zotning qo'llariga suv quydi. Rasululloh (s.a.v.) tahorat oldilar va mahsiga mash tortdilar» («Uqud'ul-javohir», 1-31).

### **Safarda mashning hukmi**

64-hadis

Safvon ibn Asoldan rivoyat qilingan hadisda Safvon aytadi: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) bizga safarda mahsilarimizni katta va kichik hojat hamda uyqu sababli uch kun, uch kecha yechmasligimizni, faqat junub bo'lsak, yechishimizni aytdilar». Nasaiy va Termiziy rivoyat etishgan. Buxoriy aytadi: «Mash muddatini ko'rsatib bergan hadislar ichida bundan sahihi yo'qdir». Termiziy hadisni sahih degan. Said ibn Masruqning hadisini Abu Dovud, Termiziy, Ibn Moja shu yo'l bilan rivoyat etgan. Hofiz aytadi: «Bu hadis keltirilgan eng mashhur yo'l Hammod va Hakamning Ibrohim Naxaiydan, u Jadaliydan, u Huzaymadan rivoyat qilgan yo'ldir».

### **Junublik ma'naviy najosatdir**

70-71-hadislar

Abu Dovud va Nasaiy hadisni rivoyat etishgan. («Uqud'ul-javohir», 1-36).

### **Hammomga lungisiz kirishning taqiqlanishi**

74-hadis

Jobir (r.a.) Rasulullohdan (s.a.v.) rivoyat etadi. Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: «Kim Allohga va oxirat kuniga ishonsa, hammomga lungisiz kirmasin. Kim Allohga va oxirat kuniga ishonsa, xotinini hammomga yubormasin». Bu hadisni Nasaiy va Termiziy rivoyat qilishgan. Hakim Muslimning shartiga ko'ra, bu hadisni sahih, degan («At-targ'ib vat-tarhib», 1-jild, 142-bet).

Termiziy va Nasaiy hadisni bunday lafzlar bilan rivoyat etishgan: «Kim Allohga ishonsa...»

Hakim va Ibn Adiy esa: «Lungisiz kirmasinlar» lafzi bilan rivoyat qilishgan: («Uqud'ul-javohir», 1-41).

### **Qurigan maniyni (kiyimdan) ishqalab tashlash, ho'lini yuvish**

75-76-hadislar

Bu mavzuda bir necha hadis bor. Oyisha onamiz (r.a.) aytadilar: «Men Rasulullohning (s.a.v.) kiyimlaridan (maniyni) ishqalar edim, so'ng u zot o'sha kiyim bilan namoz o'qir edilar (imomlik qilardilar. -Tarj)». Muslim rivoyati.

Yana Muslimga oid bir rivoyatda Oyisha onamiz (r.a.) bunday deganlar: «Rasulullohning (s.a.v.) kiyimidagi qurigan maniyni tirnog'im bilan ishqalab tashlar edim» («Osorus-sunan», 1-15).

Hammodning hadisini Muslim shu lafz bilan rivoyat etgan. Buxoriyda esa mana bunday: «Men Rasulullohning (s.a.v.) kiyimlarini yuvarдим».

Bazzor va Doraqutniy Oyisha onamizning (r.a.) hadisini quyidagicha keltirishgan:

«Rasulullohning (s.a.v.) kiyimidagi maniyni ishqalar edim» («Uqud'ul-javohir», 1-37).

### **Oshlangan teri**

77-hadis

«Oshlangan teri tozadir» hadisini «Sunan» sohiblari rivoyat qilishgan. Sammok ibn Harbning hadisini Termiziy, Nasaiy, Ibn Moja rivoyat etishgan. Muslim esa hadisni boshqacha lafz bilan keltirgan: «Teri oshlansa toza bo'ladi». «Terining oshlanishi uning pokligidir» tarzida ham kelgan («Uqud'ul-javohir», 1-26).

Terining oshlash bilan toza bo'lishi

78-hadis

Talha hadisni «Musnad»da mazkur holda rivoyat qilgan. Hadisni Ahmad ibn Hanbal Abu Uvona va Sammok orqali rivoyat etgan («Uqud'ul-javohir», 1-29).

## **NAMOZ**

79-hadis

«Taysirul-vusul» kitobining 3-jild, 176-betida: «Sen Alloh taolo uchun qilgan har sajdangda Alloh taolo sening darajangni yuksaltiradi. Bir xatoingni ketkizadi», deya marhamat qilingan.

Abu Ma'dan: «Abu Dardoning oldiga kelib, undan so'radim. U menga Savbonning aytganlarini gapirib berdi», deydi.

Bu hadisni Muslim, Termiziy, Nasaiy rivoyat etishgan.

### **Namozning shartlari**

80-hadis

Abdulloh ibn Ja'fardan rivoyat etilgan: «Kindik bilan tizza orasi avratdir» hadisini Hakim va Tabaroniy rivoyat qilishgan. Haysam bunday deydi: «Bu hadisda kelgan Asram ibn Hushab zaif bir kimsadir» («Al-munaviy», 5-432).

Doraqutniy A'to ibn Yasordan, u Ayyubdan rivoyat etgan hadisda: Abu Ayyub aytadi: «Men Rasulullohning (s.a.v.) bunday deyishganini eshitdim: «Ikki tizzaning usti avratdir, kindikning pasti avratdir» («Fathul-qodir», 1-180).

Hakim va Doraqutniy bu hadisni zaif sanad bilan rivoyat qilishgan. Ibn Hajar «Hidoya» hadisleri zikrida zaif sanad bilan rivoyat etgan. Abu Dovudning Amr ibn Shuaybdan rivoyatiga ko'ra, bu hadislar kindikning avrat emasligiga ochiq dalildir. Tizzalarning avrat bo'lishiga dalil aniq emas.

Bu hukm Buxoriydagi Abu Muso, Abu Dardo va Anasdan rivoyat etishgan, Muslim Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat etgan hadislar matnining taqozosidir.

Narsaning oxiri hukm doirasiga goho kiradi, goho kirmaydi. Mavzuga ehtiyot bo'lib yondashmoq lozim. Ehtiyotan oxirning ( bu joyda tizzaning) hukm doirasiga kirishiga hukm qildik. Usul qoidasiga binoan, harom bilan muboh bir joyda duch kelsa, harom mubohdan g'olib chiqadi.

Xulosa: Kindikdan tizza ostigacha bo'lgan oraliq erkak kishi uchun avrat sanaladi. Imomi A'zam bir rivoyatda kindikni ham avrat deganlar («Uqud'ul-javohir», 1-40).

### **Bir kiyim bilan namoz o'qish joiz emas, deydigarlarga javob**

81-82-hadislar

Zuhriyning hadisini Termiziydan boshqa «Sihohi sitta» sohiblari rivoyat etishgan. («Uqud'ul-javohir», 1-41).

Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat etiladi: «Rasulullohdan (s.a.v.) bir kiyim bilan namoz (joiz yo joiz emasligi. - Tarj.) haqida so'raldi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.): «Hamma ham ikkita ko'ylakka ega bo'la oladimi?» dedilar. Termiziydan boshqa barcha «Kutubi sitta» sohiblari hadisni taxrij etishgan.

Hofiz: «So'ragan kishining ismini topmadim», deydi. Saraxsiy «Masbut»da savol bergan kishining Savbon ekanini aytgan («Taysirul-vusul», 2-234; «Al-muntaqo», 1-277).

### **Bir kiyim bilan namoz o'qish joizdir**

83-hadis

Umar ibn Abu Salamadan (r.a.) rivoyat qilinadi: «Nabiy (s.a.v.) bir kiyimda namozo'qidilar».

Bu hadisni Termiziydan boshqa «Kutubi sitta» sohiblari rivoyat etishgan («Taysirul-vusul», 2-234).

Abu Zubayrning hadisini Talha, Ibn Xusrav, Ashnoniy rivoyat qilishgan. Hadis muttafaqun alayhdir («Uqud'ul-javohir», 1-41).

Jobirdan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda aytiladi: «Nabiy (s.a.v.) bir kiyim bilan namoz o'qidilar». Bayhaqiy rivoyat qilgan. Muttafaqun alayh («Al-muntaqo», 1-279).

### **Namozning fazilati**

84-hadis

Hadisni Ibn Hibbon, Ibn Huzayma va Hakim Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-38).

Hazrati Payg'ambarimizdan (s.a.v.): «Qaysi amal fazilatli?» deya so'raldi. Rasuli Akram (s.a.v.): «O'z vaqtida o'qilgan namoz», deya marhamat qildilar. Abu Dovud, Termiziy rivoyati («Taysirul-vusul», 3-190).

## **Namozning mustahab vaqtlari**

85-hadis

Abdulloh ibn Dinorning (r.a.) hadisini Muhammad ibn Marvon rivoyat qilgan. Uni «Sunan» sohiblari va Ibn Hibbon Rofe'dan rivoyat etishgan. Termiziy: «Bu hasan-sahih hadisdir», degan («Uqud'ul-javohir», 1-38).

Hadisni Humaydiy va «Sunan» sohiblari sahih isnod bilan rivoyat qilishgan.

Rofe' ibn Hudayjdan (r.a.) rivoyat qilingan hadisda Hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v.): «Bomdod namozini tong yorishgan paytda o'qing, chunki o'sha vaqtda o'qishning ajri ko'pdir», deya marhamat etganlar.

Zayloi «Nasbur-riya» asarida «isfiror» tong qorong'uligi yorishadigan paytdir, degan («Osorus-sunan», 1-35-36).

## **Bulutli kunlarda asr namozini vaqtli o'qish**

86-hadis

Shaybaning hadisini mazkur holda Ibn Muzaffar va Ibn Xusrav rivoyat qilishgan. Ibn Shayba o'z asarida Yahyo ibn Abu Kasirdan, u Abu Muhojirdan, u Burayddan marfu' o'laroq «Namozni erta vaqtida o'qing» lafzi bilan rivoyat qilgan.

Buxoriy, Ahmad ibn Hanbal va Nasaiy Yahyo orqali rivoyat etishgan. («Uqud'ul-javohir», 1-39).

## **Asr namozini o'tkazib yuborgan kimsaning gunohi**

87-hadis

Ibn Umardan (r.a.) rivoyat etiladi: «Rasululloh (s.a.v.): «Asr namozini o'tkazib yuborgan kishi oilasi va moliga zulm qilibdi», deganlar.

Hadisni «Kutubi sitta» sohiblari rivoyat qilishgan («Taysirul-vusul», 3-181).

## **Namozning makruh vaqtlari**

88-hadis

Abu Hurayra (r.a.) va Abu Saidning (r.a.) hadisini Buxoriy va Muslim rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-39).

## **Azon**

89-hadis

Azonning mashru'iyati (mashru' bo'lishi) haqida «Sahihi Muslim»da har xil lafzlar bilan kelgan rivoyatlar bor. Bu mavzu bo'yicha kengroq ma'lumot olishni istagan kishi «Sahihi Muslim»ning «Azon» bobiga qarashi kerak.

Alqama rivoyat qilgan hadisning isnodi sahihdir («Uqud'ul-javohir», 1-40).

## **Muazzinga javob**

90-hadis

Abu Said Xudriydan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda: «Muazzinning ovozini eshitganingizda uning aytganlarini takrorlang», deyilgan.

Bu hadisni Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Ibn Moja, Nasaiylar rivoyat qilishgan («At-targ'ib vat-tarhib», 1-jild, 183-bet).

Abdullohning hadisini Ibn Moja Ummu Habibadan rivoyat qilgan. Termiziy Abdulloh ibn Umarning (r.a.) hadisini, Hanbal esa Abu Rofiiyning hadisini rivoyat etgan («Uqud'ul-javohir», 1-41).

### **Masjid qurishning fazilati**

91-hadis

Abu Zarrdan (r.a.) rivoyat qilinadi: Rasululloh (s.a.v.): «Kim Alloh taolo uchun kaklik uyidek bo'lsa-da, masjid qursa, Alloh uning uchun jannatda bir ko'shk bino qiladi», dedilar. Bazzor rivoyati. Tabaroniy «Jomius-sag'ir»ida, Ibn Hibbon esa «Sahih»ida rivoyat etgan («At-targ'ib vat-tarhib», 1-193).

Hadisni Ahmad ibn Hanbal Ibn Abbosdan, Bazzor Anasdan (r.a.) rivoyat qilgan («Al-munaviy», 4-96).

### **Yo'qolgan narsani masjidida so'rab-surishtirishdan qaytarish**

92-hadis

Alqamaning hadisini Muslim va Ibn Moja xuddi shunday lafz bilan rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-59).

Hadis lafzlari bir-biriga juda yaqin. Muslim, Abu Dovud, Ibn Moja rivoyat etishgan («At-targ'ib vat-tarhib», 1-202).

### **Takbirda qo'llarini quloq yumshog'iga tekkizish (ko'tarish)**

93-hadis

Qo'llarning quloq to'g'risigacha ko'tarilishiga doir hadislar juda ko'p. Hammasi Muslimdan rivoyat etilgan («Osorus-sunan», 1-64).

Hadisni Yazid ibn Ziyod orqali Muslim, Abu Dovud, Nasaiy, Ahmad ibn Hanbal, Ishoq, Doraqutniy, Tahoviy rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-42-43).

### **Iftitoh takbirida qo'llarni ko'tarish**

94-95-hadislar

Hadisni Muslim rivoyat qilgan. («Osorus-sunan», 1-64). Osimning hadisini Muslim boshqa bir lafz bilan rivoyat qilgan. Hadisni Abu Dovud va Nasaiy ham keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-42).

### **Namoz ichidagi intiqol takbirlarida qo'llarni ko'tarmaslik**

96-hadis

Alqamadan rivoyat etilgan hadisda Abdulloh ibn Mas'ud (r.a.): «Sizga Rasulullohning (s.a.v.) namozini o'qib beraymi?» dedi va (imomlikka o'tib. - Tarj.) namoz o'qidi. Iftitoh takbirida qo'llarini ko'tardi, boshqa takbirlarda ko'tarmadi.

Bu hadisni Ibn Hazm sahih degan. Termiziy: «Ibn Mas'udning (r.a.) hadisi hasan hadisdir», deb aytgan. Hammodning hadisini Abu Dovud va Termiziy boshqa yo'l orqali rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-39; «Osorus-sunan», 1-103).

## **Namozda o'qiladigan oyatlar**

97-98-hadislar

Uboda ibn Somitdan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda Rasululloh (s.a.v.) marhamat qiladilar: «Fotihani o'qimagan kishining namozi (namoz) bo'lmaydi».

Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda Rasululloh (s.a.v.): «Kim namoz o'qib, Fotiha surasini o'qimasa, uning namozi bekordir, bekordir, bekordir», deya (oxirgi so'zni) uch marta takrorlaydilar. Hadisni Muslim rivoyat qilgan («Osorus-sunan», 1-64). Ahmad ibn Hanbal: «Hadisning ma'nosi bir o'zi bo'lsa», degan. Abu Dovud va Sufyon: «bu yolg'iz o'quvchiga», deb aytishgan («Osorus-sunan, 1-65).

## **Namozda «Bismillah»ni ovoz chiqarmay aytish sahobalarning ijmosidir**

100-hadis

Muslimning rivoyatida: «Bismillah»ni qiroatning avvalida ham, so'ngida ham (ovoz chiqarib) zikr qilmas edilar», deyiladi.

Anasdan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda Anas (r.a.) shunday degan: «Rasulullohning (s.a.v.) ortlarida namoz o'qidim, Hazrati Abu Bakr (r.a.), Hazrati Umar (r.a.), Hazrati Usmon (r.a.) bilan o'qidim, hech birlarining «Bismillah»ni ovoz chiqarib aytganini eshitmadim». Muslim rivoyati. Hadisni Muslim Nasaiy va boshqalar ham rivoyat etishgan.

Hadisning sanadi sahihdir. Abdulloh ibn Mag'faldan rivoyat etilgan hadisda aytiladi: "Namoz o'qiyotganimda, "Bismillah..."ni oshkora aytdim. Otam buni eshitib: "Ey bolam! Sen bid'at qilyapsanmi? Men Rasulullohning (s.a.v.) ashobiga: «Islomda bid'atdan boshqa nafratliroq narsa borligini bilmayman», deganlarini eshitganman, - dedilar. "Men Rasululloh (s.a.v.) bilan birga, Hazrati Abu Bakr (r.a.), Hazrati Umar (r.a.), Hazrati Usmon (r.a.) bilan namoz o'qidim. Ulardan hech biri buni (ovoz chiqarib) aytganini eshitmadim. Sen namoz o'qisang, "Alhamdulillah Robbil a'lamiyin"deya boshla,"dedi. Bu hadisni Termiziy rivoyat etib, "hasan hadisdir", degan. Zayloiy "Nasbur-roya" asarida, jumladan shunday degan: "Bu hadis «Bismillah»ni oshkora aytmaslikka doir ochiq bir dalildir. («Uqud'ul-javohir», 1-44).

## **Shom namozida ovoz chiqarib qiroat qilish**

101-hadis

"Kutubi sitta" sohiblari hadisni rivoyat qilganlar. Hadis lafzi Termiziyga oiddir («Uqud'ul-javohir», 1-51).

## **Bomdod namozida ovoz chiqarib qiroat qilish**

102-hadis

Muhammad ibn Mug'iyra rivoyat etgan. Muslim, Termiziy, Nasaiy, Ibn Moja hadisni keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-51).

## **Imomlik bahsi va imomga ergashgan kishining qiroat qilmasdan, sukut saqlashi**

103-hadis

Abu Musodan (r.a.) rivoyat qilinadi. Rasululloh (s.a.v.) bizga bunday o'rgatdilar:

"Namozga turganingizda sizdan birlaringiz imom bo'lsin. Imom qiroat qilganida siz jim turing". Bu hadisni Ahmad ibn Hanbal va Muslim rivoyat qilishgan. Hadis sahihdir. "Sunan" sohiblari bu hadisning sahihligi borasida ixtilof qilishgan. Bu mavzudagi tadqiqotlarning xulosasi quyidagicha: Abu Zahra bunday deydi: "Bu hadisning roviyi to'g'ri va ishonchli odamdir. Men aytdimki: "Abu Muso Ash'ariyning hadisi sahihligi sobit bo'lgan. Ibn Abdul Barr "Tamhid" nomli asarida Ahmad ibn Hanbaldan bu hadisni sanadi bilan sahih, deb aytgan".

Hofiz ibn Hajar: "U sahih hadisdir", deb aytgan. Muslim bu hadisni Abu Muso Ash'ariyning hadisidan rivoyat qilgan ("Osorus-sunan", 1-86).

Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda Rasululloh (s.a.v.) marhamat qiladilar: "Imom, unga ergashilishi uchun imom bo'lgan. Imom takbir aytsa, takbir ayting. U qiroat qilsa, jim turing". Mazkur hadisni Termiziydan boshqa "Kutubi sitta" sohiblari rivoyat qilishgan. Hadis sahih, barcha roviylari ishonchli.

Bu mavzu "Fathul qodir"ning 1-jild, 238-sahifasida kengroq zikr etilgan. Unda shunday kelgan: «Rasululloh (s.a.v.) bunday deb marhamat qildilar: "Kimning imomi bo'lsa, imomning qiroati uning qiroati o'rniga o'tadi". Bu hadisni Abu Hanifa (r.al.) "Musnad"ida Muso, Abdulloh ibn Shoddod, Jobir ibn Abdullohlar orqali rivoyat qilgan.

Ushbu hadis: "Namoz faqat qiroat bilan bo'ladi" hadisiga muoriz (zid) emas.

Peshvo sahobalarining sakson nafaridan imomga ergashgan kishining qiroat qilmasligi rivoyat etilgan. Sha'biy aytadi: «Badrda qatnashgan yetmish sahobani ko'rdim.

Hammasi imomning ortida turib, qiroat qilishdan qaytarar edi».

Abdulloh ibn Zayd ibn Aslam otasidan rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) ashobidan peshqadam o'n kishi imomning ortida qiroat qilishdan qat'iy man' etar edi. Bular: Hazrati Abu Bakr (r.a.), Hazrati Umar (r.a.), Hazrati Usmon (r.a.), Hazrati Ali (r.a.), Abdurrahmon ibn Avf (r.a.), Sa'd ibn Abu Vaqqos, Abdulloh ibn Mas'ud, Zayd ibn Sobit (ra.), Abdulloh ibn Umar (r.a.), Abdulloh ibn Abboslardir (r.a.). Bu sahobalarning man' etishini hech bir sahoba inkor etmagani uchun, sahobalarning bu sukuti ijmo hisoblanadi («Uqud'ul-javohir», 1-54).

## **Rukuda qo'llarni sonlar orasiga qo'yishdan qaytarish**

104-hadis

Hadisni Abu Ya'fur orqali Muslim rivoyat qilgan. Buxoriy esa bunday lafzlar bilan keltirgan: «Biz qo'llarimizni sonlarimiz orasiga qo'yar edik, bundan qaytarilib, qo'llarimizni tizzalarimizga qo'yishga buyurildik» («Uqud'ul-javohir», 1-46).

## **Rukudan qad rostlagach, «Robbana lakal hamd» deyish**

105-hadis

Buxoriyda Rufoa ibn Rofe'iyning hadisi rivoyat etilgan. Termiziy, Nasaiy, Abu Dovud ham hadisni keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-47).

Abu Hurayradan rivoyat qilinadi. Rasululloh (s.a.v.): «Imom «Samiallohu liman hamidah» deganida siz «Robbana lakal hamd», deb aytingiz. Kimning 6u so'zi farishtalarning so'ziga to'g'ri kelib qolsa, o'sha kishining o'tmishdagi barcha gunohlari kechiriladi», deya marhamat qildilarr. Bu hadis muttafaqun alayhdir («Osorus-sunan», 1-115).

Muslimning rivoyati esa mana bunday: «Rasululloh (s.a.v.) rukudan ko'tarilganlarida: «Samiallohu liman hamidah. Allohumma robbana lakal hamd mil'al arzi va mil'a maa shi'ta min shay'in biadadin», der edilar» («Sahihi Muslim», 2-46).

## **Sajdadan turishda qo'lga tayanmaslik kerak**

106-hadis

Hadisni «Sunan» sohiblari Ibn Huzayma, Ibn Hibbon rivoyat qilishgan. Termiziy: «Bu g'arib hasan hadisdir. Shurayhdan boshqa uni rivoyat etgan kishini bilmaymiz», degan. Hammam hadisni Osimdan mursal tarzda rivoyat qilgan. Unda Voil ibn Hajar zikr etilmagan. Bu hadis rivoyat yo'llari ko'p bo'lgani uchun hasan darajasidan tushmaydi («Osorus-sunan», 1-117).

Osimning hadisini «Sunan» sohiblari rivoyat etishgan. Termiziy hadisning hasan ekanini aytgan. Hokim esa: «Muslimning shartiga ko'ra hasandir», degan.

Imomi A'zam bu hadisdan quyidagi hukmni chiqarganlar: «Namoz o'qiyotgan kishi sajdadan qiyomga turishda, yerga suyanmay turishi kerak».

Molikning hadisida rivoyat etilgan istirohat jalsasi (tin olish uchun o'tirish. -Tarj.) esa uzrli kishiga oiddir («Uqud'ul-javohir», 1-48).

## **Sajda qilish**

107-hadis

«Men yetti a'zo bilan sajda qilishga buyurildim». Hadis muttafaqun alayhdir («Bulug'ul-marom», 60-bet).

«Va qo'llari bilan burunlariga ishorat qildilar» Nasaiyning bu rivoyati mazkur hadisning sharhida keladi.

Shuning uchun Abu Hanifa (r.al.): «Burunning o'zi bilan sajda qilish ham sajda o'rniga o'tadi», degan («Subulus-salom», 1-181).

## **Namozda bekorchi xatti-harakatning man' etilishi**

108-hadis

Hadisni Said ibn Muhammad shu tarzda rivoyat qilgan. Buxoriy, Muslim, Termiziy, Nasaiylar hadisni keltirishgan.

Buxoriy va Muslim lafzlarida «a'zum» (suyaklar) lafzidan so'ng «peshonani ham ular qatorida sanadilar» so'zi qo'shilgan. Buxoriy: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) qo'llari bilan burnini ko'rsatdilar», lafzi bilan keltirgan. Imomi A'zam shuning uchun burun bilan sajda qilish peshonada uzr bo'lmasa-da, joiz, deganlar. Imomayn (Abu Yusuf, Imom Muhammad) esa, peshonada biror uzr bor bo'lsa, shunday qilish mumkin, uzr bo'lmasa, peshonani yerga qo'yish farzdir, deydilar («Uqud'ul-javohir», 1-49).

## **Namozda tirsaklarni yerga qo'yishning makruhligi**

111-hadis

Abu Dovud Toiy shu tarzda rivoyat qilgan. Hadisni Termiziy va Ibn Moja Jobirdan (r.a.) rivoyat etishgan. «Kutubi sitta» sohiblari Anasdan (r.a.) shunga o'xshash hadisni keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-49).

Anasdan (r.a.) rivoyat etilgan bir hadisda Nabiy (s.a.v.) marhamat qiladilar: «Sajdada mo'tadil bo'ling. Sizdan biringiz sajda qilayotganida itlarga o'xshab tirsaklarini yerga yopishtirib olmasin» («Osorus-sunan», 1-117).



## **Bomdod namozida qunut duosini o'qishning nasx qilinishi**

112-113-hadis

Hammod va Atiyyaning birinchi hadisini Ibn Xusrav, Talha, va Ibn Hibbon rivoyat qilishgan.

Atiyyaning ikkinchi hadisini esa Bazzor, Ibn Abu Shayba, Tabaroniy, Tahoviy, Hokim va Bayhaqiy keltirishgan.

«Sahihi Buxoriy»da Anasdan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda: «Rasululloh (s.a.v.) bir oy (bomdod namozida. -Tarj.) Qunut duosini o'qidilar, dinni o'rgatishlari uchun yetmishta qorini bir qavmga yuborgan edilar», deyilgan («Uqud'ul-javohir», 1-62).

Buxoriy va Muslim rivoyat qilgan hadisda: «Rasululloh (s.a.v.) bir oy bomdod namozida Zakvon, Usayya va Bani Lihyon qabilalarini badduo qilib, qunut o'qidilar», deyiladi.

Abu Dovud va Nasaiyning rivoyatlari: «Rasululloh (s.a.v.) bir oy Qunut duosini o'qidilar, keyin esa tark etdilar» shaklidir («Taysirul-vusul», 2-222).

## **Tashahhudda o'ng oyoqni tik tutish**

114-hadis

Said ibn Mansur va Tahoviy sahih sanad bilan hadisni rivoyat qilishgan («Osorus-sunan», 1-123).

Osimning hadisini Termiziy taxrij etib, «Hadis sahihdir», degan («Uqud'ul-javohir», 1-49).

## **Tashahhudni o'rgatish**

116-hadis

Muslim Ibn Abbosning (r.a.) hadisini marfu tarzda keltirgan. Hadisni Bayhaqiy ham Tovus orqali marfu tarzda rivoyat etgan.

## **Tashahhud haqida**

118-hadis

Hadis muttafaqun alayhdir. Ahmad ibn Hanbal va Nasaiy hadisni sahih sanad bilan rivoyat qilishgan.

Termiziy va Bazzor: «Tashahhud haqidagi hadislarning eng sahihi Ibn Mas'udning hadisidir», degan.

Ibn Mas'udning tashahhud haqidagi hadis yigirma bir tariq (yo'l) bilan rivoyat qilingan.

Muslim: «Insonlar Ibn Mas'ud rivoyat etgan tashahhudga ijmo qilishgan», degan. Chunki uning sohiblari bir-birlariga muxolifat qilmaganlar.

Tashahhud haqidagi hadisni yigirma to'rt sahoba turli lafzlar bilan rivoyat qilishgan.

Jumhur (ulamolar) Ibn Mas'udning hadisini tanlaganlar. («Subulus-salom», 1-190).

Hammodning hadisini «Kutubi sitta» sohiblari, Doraqutniy va Bayhaqiy rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-49).

## **Ikki tomonga salom berish**

120-121-hadislar

Omir ibn Sa'd otasidan rivoyat qilgan hadisda: «Men Rasululloh (s.a.v.) o'ng va chap tomonlariga salom berganlarida yonoqlarining oqligini ko'rar edim», dedilar.

Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda: «Nabiy (s.a.v.) o'ng va so'lga salom berar edilar. «Assalomu alaykum va rahmatullohi», der edilar, men o'ng va chap tomonga salom berganlarida ul zot (s.a.v.) yonoqlarining oqini ko'rar edim», deyiladi. «Kutubi sitta» sohiblari hadisni rivoyat etishgan. Termiziy hadisni sahih degan («Osorus-sunan», 1-125).

«Sunan» sohiblari hadisni: «Men ul zot (s.a.v.) yonoqlarining oqini ko'rar edim» qismisiz rivoyat etishgan («Taysirul-vusul», 2-227).

Ikki tomonga salom berish bilan bog'liq hadisni o'n besh sahoba turli lafzlar bilan rivoyat qilishgan. Bular orasida sahih, hasan, zaif, matruk hadislar bor. Hammasida «Barokatuhu» lafzisiz rivoyat qilingan («Subulus-salom», 1-195).

Omirning hadisini Nasaiy, Muslim keltirilgan lafz bilan rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-50).

### **Bo'ya ustida namoz o'qish mubohligi**

122-hadis

Abu Sufyonning hadisini Ibn Yunus ham rivoyat qilgan. Muslim, Termiziy, Ibn Moja keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-49).

### **Hazrati Abu Bakrning musulmonlarga imom bo'lib namoz o'qiganlari**

126-127-128-hadislar

Ibn Umardan shunday rivoyat etilgan hadis «Hazrati Payg'ambarning kasalliklari zo'rayganida ...» lafzi bilan keladi.

Anasdan (r.a.) rivoyat qilingan: «Hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) og'riqlari kuchayganida Abu Bakr (r.a.) insonlarga namoz o'qib bergan edi...» hadisini Buxoriy, Muslim va Nasaiy keltirishgan («Taysirul-vusul», 3-232).

«Abu Bakrga buyuring, insonlarga namoz o'qib bersin...» hadisini Buxoriy, Muslim, Nasaiy, Ibn Moja rivoyat etishgan.

Hadisni Hammoddan Muslim va Ibn Moja ham Ibrohim orqali rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-55).

### **Ko'r va qul kishilarning imomlik qilishi**

129-hadis

«Osorus-sunan» sohibi ushbu hadislarini «Ko'r kimsaning imomati», «Ko'r holda qavmiga imom bo'lardi» boblarida keltirilgan. Bu hadisni Buxoriy rivoyat qilgan. «Ko'r bo'lgani holda Ummu Maktum insonlarga namoz o'qib berardi» (imomlikka o'tardi. - Tarj.) hadisini Abu Dovud hasan sanad bilan rivoyat qilgan. Qulning imomatiga doir hadis Ibn Umardan (r.a.) rivoyat etilgan. Unda: «Ilk muhojirlar jamoasi Rasulullohdan (s.a.v.) oldin Quboga kelganida Abu Huzayfaning (r.a.) quli Solim ularga imomlik qilardi. Solim ular ichida Qur'onni eng ko'p yodlagan kishi edi», deyiladi. Buxoriy rivoyat qilgan («Osorus-sunan», 1-131).

### **Ayol kishi bilan safda yonma-yon turgan erkak namozining buzilishi**

130-hadis

Haysamning hadisini shu holda Hafsa ibn Solim rivoyat qilgan. Nasaiy hadisning ma'nosini Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qilgan: Unda: «Hazrati Payg'ambarning (s.a.v.)

yonlarida namoz o'qidim. Oyisha onamiz (r.a.) orqa safda biz bilan birga namoz o'qidilar, men Payg'ambarimiz (s.a.v.) yonlarida o'qidim», deyiladi.

«Men hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) yonlarida edim» so'zi bilan hadisidagi mubhamlik (noaniqlik. -Tarj.) oydinlashadi.

Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) bilan o'qilgan namozda Ibn Abbosning (r.a.) o'ngtomonda turgani «Sahihayn»da kelgan mashhur qissada zikr etilgan.

«Ayol erkak bilan namozda yonma-yon tursa, ularning namozi buzilishiga» Imomi A'zam shu hadisni dalil qildilar. «Agar namoz fosid bo'lmaganida Oyisha onamiz (r.a.) orqa safda turmas edilar...» Orqa safda yolg'iz turish Imomi A'zamga ko'ra, makruh, Ahmad ibn Hanbalga ko'ra mufsidir («Uqud'ul-javohir» 1-53).

### **Birinchi safning fazilati va saflarni to'ldirish haqida**

131-hadis

«Birinchi safga Alloh taolo rahm qiladi va farishtalar duoi xayr qilishadi».

Ahmad ibn Hanbal, Termiziy va Ibn Moja Barodan, Ibn Moja yana Abdurahmon ibn Avfdan, Tabaroniy No'mon ibn Bashirdan, Bazzor esa Jobirdan rivoyat qilgan («Al-munaviy», 2-269).

Saflarni to'ldirish haqidagi hadis Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat etilgan. Bu hadisni Ahmad ibn Hanbal, Ibn Moja va Ibn Hibbon «Sahih»da keltirishgan. Hadis oxirida: «Kim safdagi bo'shliqni to'ldirsa, Alloh taolo uning darajasini yuksaltiradi» («Al-munaviy», 2-269) deyiladi.

### **Ayollarni masjidga qo'ymaslikdan qaytarish**

134-hadis

Hammodning hadisini Abu Yusuf shunday rivoyat qilgan

### **Kechki ovqatni xufton namozidan oldin yeyish haqida**

135-hadis

Zuhriyning hadisini Imom Buxoriy, Imom Muslim, Termiziy, Nasaiy, Ibn Moja Ibn Umardan marfu' holda rivoyat qilishgan.

### **Farzga qo'shilish**

136-hadis

Haysamning hadisini Abu Dovud, Termiziy, Nasaiy Jobirdan rivoyat qilishgan.

### **Juma kuni g'usl olish**

137-138-hadislari

Nofe'ning hadisini Ibn Xusrav va Ibn Muzaffar rivoyat qilishgan. Imom Muslimning lafzi: «Sizlardan biringiz juma namozi uchun masjidga bormoqchi bo'lsa, g'usl qilsin» («Uqud'ul-javohir», 1-27).

Hazrati Oyisha onamizning (r.a.) hadisini Buxoriy va Muslim bir-biriga yaqin, o'xshash lafzlar bilan rivoyat qilishgan («Osorus-sunan», 2-88).

### **Xotibning xutbada minbarda o'tirishi**

139-hadis

Abu Dovud hadisni «...Muazzin azonni tugatguniga qadar o'tirdi» lafzi bilan rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-72).

### **Xotibning xutba asnosida tik turishi**

140-hadis

Hammodning hadisini bir jamoat shunday rivoyat qilgan. Ibn Moja hadisni A'moshdan, u Ibrohimdan, u Alqamadan, u Abdullohdan rivoyat qilgan («Uqud'ul javohir», 1-72). Jobirning hadisini Buxoriy, Muslim va Termiziy keltirishgan («Taysirul-vusul», 1-182).

### **Juma namozida qiroat**

141-hadis

Ibn Xusrav va Talha Ibn Junodaning rivoyatini naql qilishgan. Muslim, Abu Dovud va Nasaiy hadisni "Fajr namozida" lafzini qo'shib keltirishgan ("Uqud'ul-javohir", 1-51).

### **Ikki hayitda A'lo va G'oshiya suralarini o'qish**

142-hadis

Ibrohimning hadisini Ibn Xusrav shunday rivoyat qilgan. Imom Buxoriydan boshqa «Kutubi sitta» sohiblari keltirishgan. Nasaiy Anasdan (r.a.): "Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) bilan birga peshin namozini o'qidim. A'lo va G'oshiya suralarini o'qidilar" tarzida rivoyat qilgan ("Uqud'ul-javohir", 1-51).

«Hayit va juma namozi bir kunda kelsa, har ikkala namozda ham shu ikki surani o'qiydi». Buni Muslim rivoyat qilgan. ("Osorus-sunan", 2-98).

### **Juma kuni vafot etganning qabr azobidan qutulishi**

144-hadis

Qosim ibn Hakam Abu Hanifadan (r.al.) shunday rivoyat etgan. Abu Ya'lo, Anasdan (r.a.) shunga o'xshash hadisini keltirgan. Termiziy Ibn Umardan: "Juma kuni o'lgan yoxud juma kechasi o'lgan har musulmonni Alloh taolo qabr fitnasidan asraydi" mazmunli hadisni keltirgan ("Uqud'ul-javohir", 1-21).

### **Turmushga chiqmagan va hayzli ayollarning namozgohga chiqishlari mubohligi haqida**

145-hadis

Hammodning hadisini Horisiy rivoyat qilgan. Buxoriyda Hafsa orqali Ummu Atiyyadan hadis rivoyat etilgan ("Uqud'ul-javohir", 1-53).

### **Ayollarning namozgohga chiqishlarining muboh bo'lishi**

146-hadis

Abdulkarimning hadisini Ibn Muzaffar va Ibn Xusrav rivoyat etishgan.

## **Hayit namozidan avval va keyin boshqa namoz yo`q**

147-hadis

«Kutubi sitta» sohiblari Ibn Abbosdan (r.a.) hadisni rivoyat etishgan. Termiziy Ibn Umardan (r.a.) shunga o'xshash hadisni keltirgan. Termiziy va Hokim hadisni sahih, deyishgan ("Uqud'ul-javohir", 1-72).

## **Zul-Xulayfada namoz**

148-hadis

Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy va Nasaiylar rivoyat qilishgan.

## **Sahobai kiromning safardagi namozi**

149-hadis

Hammodning hadisini Nasaiy "Rasululloh (s.a.v.) bilan birga namoz o'qidim"lafzi bilan keltirgan ("Uqud'ul-javohir", 1-71).

## **Minoda namozni qisqartirish**

150-hadis

Hammodning Ibrohimdan rivoyat qilgan hadisini Buxoriy, Muslim va Abu Dovud rivoyat etishgan ("Uqud'ul-javohir", 1-62).

## **Vitr namozining vojib bo'lishi**

152-hadis

Ibn Umarning hadisi Ibn Muzaffar, Ibn Xusrav va Ashnoniy va Talha rivoyat qilishgan. Va Talhadan boshqalari sanad va matni borasida ittifoqdirlar. Talha va Abu Ya'fur Abdi Vaqdon ixtilof qilishgan. Roviylar ishonchli bo'lgani uchun bu ixtilof zarar bermaydi. Nasaiydan boshqa «Sunan» sohiblari, Ahmad ibn Hanbal va Doraqutniy hadisni rivoyat qilishgan.

Vitr vojibdir, amaliy farzdir. Zufar vitrni farz degan. Nuh ibn Maryam vitrni sunnat deb rivoyat qilgan. Bu rivoyatlar shunday uyg'unlashtirilgan. Vitr amalan farz, e'tiqodan vojib, sunnat bilan sobit bo'lgan («Uqud'ul-javohir», 1-60).

## **Vitr namozi va uni ado etish muhimligi**

153-hadis

Vitr namozi bilan bog'liq hadislarni «Sunan» sohiblari Abu Dovud va Hokim Ibn Buraydaning «Vitr namozi haqdir» so'zi bilan keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-60). «Alloh taolo sizga bir namozni sizga ziyoda etdi, u vitr namozidir» hadisini Tabaroniy rivoyat qilgan. Hofiz: «Bu hadisning isnodi hasandir», degan («Osorus-sunan», 2-4). «Alloh taolo sizga bir namoz orttirdi. Bu namoz sizga qizil tuyalardan-da yaxshiroqdir. Alloh taolo vitr namozini xufton namozi bilan tong otguncha bo'lgan vaqtda o'qishni buyurdi».

Ahmad ibn Hanbal «Musnad»ida rivoyat qilgan. Abu Dovud, Termiziy, Hokim, Doraqutniylar rivoyat etishgan. Hokim bu hadisni «Sahih» degan. Ibn Hajar Buxoriyning

buni zaif, deganini aytgan. Aksariyat muhaddislar ham zaif deyishgan («Al-munaviy», 2-224).

### **Vitr namozining uch rakat ekani va unda o'qilgan suralar haqida**

154-155-hadislari

Zabidiyning hadisini Nasaiy Zuroda ibn Abu Avfa orqali rivoyat qilgan. Hokim Oyisha onamizdan rivoyat qilingan hadisda: «Rasululloh (s.a.v.) uch rakat vitr namozini o'qir edilar», deyiladi.

Vitr namozidagi qiroatga doir hadisni Tahoviy, Nasaiy va Ahmad keltirishgan. Ishoq: «Vitr namozida o'qiladigan oyatlar haqida eng sahih rivoyat shulardir», degan («Uqud'ul-javohir», 1-60-61).

Hammodning hadisini Hokim keltirgan va: «Bu Buxoriy va Muslimning shartiga ko'radir», degan.

«Sunan» sohiblari, Ibn Abbos va Doraqutniy Oyisha onamizning (r.a.) hadisini ushbu lafzlar bilan rivoyat qilishgan: «Uch rakatli vitr namozining oldingi ikki rakatida «A'lo» suralarini o'qir edilar» («Uqud'ul-javohir», 1-61).

### **Vitr namozi vaqtining kengligi haqida**

158-hadis

Ibn Abu Shayba hadisni keltirgan. Buxoriy Masruqdan, u Oyisha onamizdan (r.a.) ayni ma'nodagi hadisni rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-61).

### **Sahv sajdasi salom berganidan so'ng qilinadi**

159-hadis

Hammodning hadisini «Kutubi sitta»da rivoyat etilgan. Buxoriyning lafzi «Sizdan biringiz shubha qilganida...» shaklidir («Uqud'ul-javohir», 1-69).

### **Sod surasidagi sajda oyati**

160-hadis

Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat etilgan hadis: «Nabiy (s.a.v.) Sod surasida sajda qildilar» tarzidir. Buxoriy hadisni «Nabiy (s.a.v.) sajda qilayotganlarini ko'rdim» lafzi bilan rivoyat qilgan.

Abu Dovud Abu Saiddan qilgan rivoyat: «Rasululloh (s.a.v.) bizga xutba irod etdilar. Xutbada Sod surasini o'qidilar, sajda oyatiga kelgach, minbardan tushdilar, sajda qildilar. Biz ham Ul zot bilan birga sajda qildik», deyiladi.

Imom Ahmad Abu Saiddan keltirgan boshqa bir rivoyatda «Nabiy (s.a.v.) sajda qilar edilar» shaklidir.

Tilovat sajdasi sajda oyatini o'qiganida, eshitganida, imomga iqtido qilganida (agar imom o'qisa) vojibdir («Uqud'ul-javohir», 1-70).

### **Namozni buzuvchi narsalar**

161-hadis

Hammodning hadisini shu holda Hafs ibn Muslim rivoyat qilgan. Buxoriy, Muslim, Abu Dovud va Nasaiy A'mash orqali keltirishgan.

162-164-hadislari

Namoz o'qiyotganing oldidan o'tgan hech bir hayvon namozni buzmaydi. Hammod rivoyat qilgan hadis so'nggida bunday deyilgan: «Namozini hech bir narsa buzmaydi» hadisini Ibn Xusrav, Horisii, Zufar va Al-Ashnoniy rivoyat qilishgan. Abu Dovud hadisni keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-58).

### **Erkaklar namoz o'qiyotganini «Subhanalloh» deyish bilan, ayollar qo'lni qo'lga urish bilan bildirishadi**

Nofe'ning hadisini Hokim ibn Zayd rivoyat qilgan. Ibn Moja «Ruxsat berdi» lafzi bilan keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-59).

### **Kusuf namozi ikki rakatdir**

165-hadis

Hammodning hadisi bir rivoyatda bunday: «Quyosh va oydan qaysi biri tutilsa, ochilguniga qadar namoz o'qing» yoki: «Alloh taolo uni o'zgartirgunicha namoz o'qing», dedilar, minbardan tushdilar va ikki rakat namoz o'qidilar». Horisii «Musnad»ining ba'zi nusxalaridagi «xutba o'qidilar» so'zi «Hidoya»dagi: «Kusuf (quyosh) tutilishida xutba yo'qdir. Chunki bunday bir naql kelmagan» so'ziga ziddir. Hofiz keltiradi: «Bu «Hidoya»dagi fikr «Sahihayn»da Asmodan kelgan rivoyat bilan rad etiladi. Unda: «Quyosh ochilganidan so'ng turdilar. Insonlarga xutba o'qidilar, Alloh taologa hamdu sano aytdilar», deyilgan («Uqud'ul-javohir», 1-73).

### **Kusuf namozi boshqa namozlar kabidir**

166-hadis

A'toning hadisini Ibn Xusrav va Ibn Muzaffar naql qilishgan. Termizii «Shamoil»da va Nasaii Shu'ba rivoyati bilan keltirgan. Hokim: «U hadis sahihdir» degan («Uqud'ul-javohir», 1-74).

### **Istixoraning o'rgatilishi**

167-hadis

Nosihning hadisini Qosim ibn Hokim shunday rivoyat qilgan. Termizii, Nasaii, Abu Dovud Jobirdan shunga o'xshash hadisni zikr etishgan.

### **Istixora**

168-hadis

Hammodning hadisini Ismoil ibn Ayosh rivoyat etgan. Bazzor uni taxrij qilgan. Buxoriy Ibn Munkadirning Jobirdan rivoyat qilgan hadisini taxrij etgan («Uqud'ul-javohir», 1-67).

### **Zuho (quyosh ko'tarilgan payt) namozi**

169-hadis

Abdurahmon ibn Abu Laylodan rivoyat qilingan hadisda «Ummu Honiydan (r.a.) boshqa hech kim menga Rasulullohning (s.a.v.) zuho namozini o'qiyotganlarini ko'rganini

aytmadi», deyiladi.

Ummu Honiy (r.a.) Nabiy (s.a.v.) Makkaning fathi kuni uning (Ummu Honiyning. - Tarj.) uylariga kirib, sakkiz rakat namoz o'qiganlarini, bu namozdan boshqa biror namozni ruku va sajdalariga to'la rioya qilib, qisqa o'qiganlarini aslo ko'rmaganini aytadi. Bu hadisni Buxoriy va Muslim rivoyat qilishgan. Zuho namozi haqida hadis ko'pdir («Osorus-sunan», 2-44).

### **Ramazon oyining oxirgi o'n kechasini bedor o'tkazish**

170-hadis

«Kutubi sitta» sohiblari hadisni farqli yo'llar bilan rivoyat qilishgan.

### **Ramazon oyidan unumli foydalanish va taroveh namozi haqida salafi solihynning qarashi**

171-hadis

Ziyodning hadisini Imom Buxoriy, Muslim, Termiziy va Nasaiy keltirishgan.

Rasululloh (s.a.v.) «Alloh taolo sizlarga Ramazon ro'zasini farz qildi, men esa sizlarga (tarobeh) namozini sunnat qildim», deya marhamat etdilar.

Urva Oyisha onamizdan (r.a.) qilgan rivoyatda bunday deyiladi: «Rasululloh (s.a.v.) Ramazon oyida masjidida kechqurun odamlar bilan birga namoz o'qidilar. So'ngra ikkinchi kecha o'qidilar. Bu kecha birinchi kechadan ko'p jamoat yig'ildi. Uchinchi yo to'rtinchi kecha esa masjid batamom to'ldi. Rasululloh ularning yonlariga chiqmadilar. Odamlar Rasuli akramni (s.a.v.) chaqira boshlashdi. Rasululloh (s.a.v.) chiqmadilar. Tong otgach, hazrati Umar (r.a.) hazrati Payg'ambarga (s.a.v.):

- O' Rasululloh! Insonlar sizni kecha kechqurun kutishdi,- dedi.

- Ularga farz qilinadi degan qo'rquv bilan chiqmadim, - deya marhamat etdilar Rasululloh (s.a.v.)».

Imom Buxoriy rivoyatida ilova qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) vafot etganlarida ish ana shu holda edi».

Buxoriy, Muslim, Abu Dovud va Nasaiy hadisni Molik orqali rivoyat etishgan.

Buxoriy hadisni Uqayl orqali taxrij qilgan. Hadisni Muslim va Nasaiy Yunus ibn Zayddan keltirishgan.

### **Kechasi vitr namozi o'qish**

172-hadis

Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilinadi: Nabiy (s.a.v.) kechasi o'n uch rakat namoz o'qir edilar. Vitr va bomdod namozining ikki rakat sunnati bu (sanoq)ning ichidadir. Muslim rivoyat qilgan («Zujajatul-masabih», 1-339).

### **Nafil namoz**

174-hadis

A'toning hadisini Buxoriy va Muslim rivoyat etishgan. Buxoriyda hadis lafzi bunday: «Rasulullohning (s.a.v.) hech bir nafil namozga bomdod namozining sunnatini o'qishga shoshilganlaridek shoshganlarini ko'rmadim».

Muslim Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilgan hadisda bunday marhamat qilinadi:



«Bomdod namozining ikki rakat sunnati dunyo va dunyo ichidagi hamma narsadan-da xayrlidir» («Uqud'ul-javohir», 1-65).

Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda Payg'ambar (s.a.v.): «Otingiz qochib ketadigan bo'lsa ham, bomdod namozining ikki rakat sunnatini tark qilmang», deydi. Ahmad ibn Hanbal va Abu Dovud rivoyat qilishgan, isnodi sahihdir («Osorus-sunan», 1-29).

### **Bomdod namozida qiroat**

175-hadis

Nofe'ning hadisini Talha rivoyat qilgan. Ibn Moja va Termiziy hadisni «qirq kun» lafzisiz keltirishgan. Nasaiy rivoyatida «yigirma kun» lafzi bor («Uqud'ul-javohir», 1-51).

### **Quyosh chiqqunicha masjidida o'tirish**

176-hadis

Anas ibn Molikdan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda Rasululloh (s.a.v.) marhamat qiladilar: «Kimki bomdod namozini jamoat bilan o'qib, quyosh chiqquniga qadar Alloh taoloni zikr etib, masjidida o'tirsa, so'ng ikki rakat namoz o'qisa, unga bir haj va bir umra savobi yoziladi».

Anas aytadi: «Rasululloh (s.a.v.): «To'la haj va umra savobi beriladi», deb marhamat qildilar».

Termiziy rivoyat qilgan va isnodi hasan-g'arib degan («At-targ'ib vat-tarhib», 1-295).

### **Xufton namozidan so'ng to'rt rakat namoz o'qigan kishi haqida**

177-178-hadislari

Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qilingan hadis Muhorib ibn Dasordan (r.a.) marviydir. Bu ma'nodagi hadisni Abu Dovud Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilgan.

Nasaiy Shurayh ibn Honiy orqali keltirgan. Ahmad, Bazzor, Tabaroniyning rivoyatida «xufton namozini o'qiganlarida» iborasi mavjud.

Buxoriy Ibn Abbosdan (r.a.), Bayhaqiy Oyisha onamizdan (r.a.) mavquf tarzda rivoyat qilgan.

Nasaiy, Doraqutniy Ka'bdan mavquf holda keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-66).

### **Peshin namozining farzidan keyingi sunnati**

179-hadis

Hazrati Oyisha onamizdan (r.a.) Rasulullohning (s.a.v.) nafl namozlari haqida so'raldi. U shunday javob berdi: «Rasululloh (s.a.v.) uyimda peshin namozining farzidan oldin to'rt rakat o'qir edilar, so'ng farzini chiqib jamoat bilan o'qir edilar, keyin esa uyga kelib, ikki rakat namoz o'qir edilar». Muslim rivoyati («Zujajatul-masabih», 1-332).

### **Uydagi namoz**

180-hadis

Nofe'ning hadisini Buxoriy va Muslim Zayd ibn Sobitdan marfu' yo'l bilan rivoyat qilgan. Unda aytilgan: «Ey insonlar!.. Uylaringizda namoz o'qing». Boshqa bir lafz bilan «Uylaringizda namoz o'qishingiz kerak. Farz namozlaridan boshqa eng xayrli namoz -

kishining uyida o'qigan namozidir».

Abu Dovuddan rivoyat etilgan hadisda esa: «Kishining uyida o'qigan namozi bu masjidimda o'qigan nafl namozidan afzaldir», deyilgan.

Ibn Abu Shayba va Termiziy «imomning namozi» lafzi bilan rivoyat qilishgan. Termiziy hadisni sahih-hasan degan.

Nasaiy va boshqalar hadisni Ibn Umardan (r.a.) keltirishgan. Ibn Abu Shayba va Tabaroniy esa Zayd ibn Xolid Juhaniydan rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-67).

### **Ka'bada o'qilgan namoz**

181 -182-hadislar

Nofe'ning hadisini Buxoriy «Ibrohim maqomida namoz o'qiydigan joy qiling» bobida keltirgan.

Doraqutniy hasan sanad bilan rivoyat qilgan. Buxoriy va Muslim Ayyubdan, Nofe'dan rivoyat qilishgan. «Sahihayn»da Molikdan, u Nofe'dan, u Ibn Umardan (r.a.) qilgan rivoyatda: «Nabiy (s.a.v.) Ka'baga Usoma bilan birga kirdilar» lafzi mavjud («Uqud'ul-javohir», 1-78).

«Sahihayn»da Ayyub, Nofe', Ibn Umar (r.a.) orqali kelgan rivoyatga binoan bu Makkaning fathi kuni bo'lgan. Bu va bundan boshqa «Sahihayn»da mavjud hadis Ibn Abbosning: «Nabiy (s.a.v.) Ka'baga kirdilar. U yerda oltita ustun bor edi», rivoyatiga muoriz (zid)dir. («Fathul-qodir», 1-479; «Al-muntaqo», 2-287-325).

### **Uch farzandi o'lgan kishi haqida**

183-hadis

Imom Ahmad ibn Hanbal, Muslim va Hokim Ibn Buraydaning otasidan rivoyat etilgan hadisni rivoyat qilishgan. Nasaiy esa hadisni Anasdan (r.a.) keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-78).

### **Bolasi tushgani tufayli ota-onaning jannatga kirishi**

184-hadis

Tabaroniy hadisni «Mu'jamul avsot» kitobida Sahl ibn Hanifdan marfu' tarzda naql etgan: «Turmush quringlar. Men sizning ko'pligingiz bilan faxrlanaman. Tushgan (o'lik tug'ilgan. - Tarj.) bola jannatning eshigida turadi. Unga:

- Jannatga kir, - deyilganida:

- Onam va otam jannatga kirmagunlaricha kirmayman, - deydi». «Hadisda zikr etilgan Muso ibn Rabaziy zaif roviydir» deyilgan («Tarhut-tasrib», 3-250).

### **Tobutni ko'tarish tartibi**

186-hadis

Hadisni shu matn bilan Abu Na'im, Al-Horisiy, Ibn Xusrav va Abu Bakr ibn Abdulboqiy rivoyat qilgan. Ibnul Muqriy ulardan boshqacha rivoyat qilgan. Ibn Moja ham «Sunan»ida hadisni shunday keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-76).

Abu Ubayda Abdulloh ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qilgan: «Kim tobut orqasidan yursa, tobutning hamma tomonidan ko'tarsin. Bu sunnatdir. So'ng agar xohlasa ko'tarsin,

xohlamasa ko'tarmasin». Buni Ibn Moja rivoyat qilgan. Sanadi mursaldir («Osorus-sunan», 2-121).

### **Janoza namozining takbirlari**

188-hadis

Hadisni Horisiiy va Ashnoniy rivoyat qilishgan. Ibn Xusrav va Abu Hanifa (r.al.) Haysamdan, u Ibn Sirindan, u hazrati Alidan (r.a.) rivoyat etgan.

Hadisni Tabaroniy va Bayhaqiy Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qilishgan. Bayhaqiy aytadi: «Bu hadis bir necha yo'llar orqali rivoyat etilgan, hammasi zaif. Faqat sahobalarning janoza namozi to'rt takbir bilan bo'lishiga oid ijmosi bu borada dalildir».

Molik esa hadisni Abu Umomadan rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-75).

### **Janoza namozida o'qiladigan duolar**

189-hadis

Shaybonning hadisini Qosim ibn Hakam rivoyat qilgan. Ahmad ibn Hanbal keltirgan va unga quyidagilarni qo'shimcha qilgan: «Allohumma man ahyaytahi minna fa ahyihi».

Abu Dovud va Termiziy hadisini Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-75).

### **Marhumni qibla tomondan qabrga qo'yimoq**

190-hadis

Ibn Adiy «Komil» asarida, Uqayliy «Zuafo» asarida Amr ibn Yazid Taymiydan hadisni keltirishgan. «Sunan» sohiblari Ibn Abbosdan (r.a.) hadisni rivoyat qilishgan. Termiziy hadisning g'arib ekanini aytgan.

Ibn Moja va Ahmad hadisni Jarirdan keltirishgan. Abdurrazzoq sahih sanad bilan keltirgan. Termiziy Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qilgan va «Hadis hasandir», degan («Uqud'ul-javohir», 1-76).

«Osorus-sunan» muallifi bu mavzuga «O'limi yaqinlashganni qibla tomonga qaratish» nomli maxsus bob ajratgan.

Abu Qatodadan rivoyat qilinadi: Nabiy (s.a.v.) Madinaga kelganlarida Al-Baro ibn Marurni so'radilar. «U vafot etdi, yuzini qiblaga tomon burib qo'yishni vasiyat qildi», deyishdi. Bu so'zni eshitgan Rasululloh (s.a.v.): «Fitratga (sunnatga - Tarj.) muvofiq qilibdi», dedilar va uning janozasini o'qidilar».

Hokim «Mustadrak» asarida rivoyat qilgan va hadisni sahih, degan («Osorus-sunan», 2-116).

### **Qabr savoli va azobi**

191-hadis

Toyolisiy, Ibn Abi Shayba, Ibn Muni' ham shu yo'l bilan rivoyat etishgan.

Abu Dovud, Nasaiy va Ibn Moja muxtasar tarzda rivoyat qilishgan.

Barodan rivoyat qilingan hadis muttafaqun alayhdir («Uqud'ul-javohir», 1-21).

### **Ajali ko'rinib qolganning yonida Yosin surasini o'qish**

192-hadis

Ma'qal ibn Yosirdan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh (s.a.v.) bunday deydilar: «Ajali ko'rinib qolganlaringizga Yosin surasini o'qingiz». Buni Abu Dovud, Ibn Moja va Nasaiy rivoyat etishgan. Ibn Hibbon hadisni sahih degan («Osorus-sunan», 6-117).

Ahmad ibn Hanbal va Ibn Moja Sulaymon Taymiyning hadisini rivoyat qilishgan.

Abu Zarr va Abu Dardo (r.a.) sanadi bilan kelgan hadisda Rasululloh (s.a.v.) bunday marhamat qiladilar: «O'lim to'shagida yotgan insonga Yosin surasi o'qilsa, Alloh taolo unga o'limni oson qiladi» («Subulus-salam», 2-91).

### **Rasulullohning (s.a.v.) ota va onalari qabrini ziyorat etishlari**

193-hadis

Muslim Abu Hurayradan (r.a.) hadisni quyidagi lafzlar bilan keltirgan: «Onamning qabrini ziyorat etish uchun Rabbimdan ruxsat so'radim, menga ruxsat berildi. Qabrlarni ziyorat qiling, chunki bu sizga o'limni eslatadi» («Uqud'ul-javohir», 1-78).

### **Mutaaxxirin olimlar**

Mutaaxxirin olimlar Rasululloh (s.a.v.) ota-onalarining musulmon ekanini isbot qilishgan. Ularning isbotida uch yo'l bor.

Rasululloh (s.a.v.) ota-onalarining tiriltirilgani xususidagi hadis. Bu hadis aniq zaif bo'lsa-da, uni sahih deb qabul qilishgan. Bir necha yo'l bilan uni hasan deyishadi. Go'yoki, bu ma'lumot ilgari olimlardan yashirin edi-yu, Alloh taolo buni keyingi olimlarga ochgandek. Jaloliddin Suyutiy bu mavzuda risola yozib, buni isbotlashga harakat qilgan («Zujajatul-masabih», 1-486).

### **Qabrlar ziyoratining mubohligi**

194-hadis

Alqamaning hadisini Hokim Anasdan (r.a.) keltirgan. Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Ibn Hibbon va Hokim Ibn Buraydaning hadisini rivoyat qilishgan.

Muslim, Nasaiy va Mahomiliy hadisni Ziror ibn Qurro orqali keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-77).

### **Qabrlarni ziyorat qilgan kishi nima deydi?**

195-hadis

Ahmad va Muslim hadisni quyidagi lafz bilan rivoyat qilishadi: «Allohning salomi sizga bo'lsin, ey ahli maskan mo'minlar». Hadisning qolgan jumalari bir xildir.

Hadisni Muslim Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-87).

Ibn Abbosdan (r.a.) shunday rivoyat etiladi: «Nabiy (s.a.v.) Madina qabristoni yonidan o'tayotganlarida yuzlarini qabristonga qaratib, dedilar: «Sizga Allohning salomi bo'lsin, ey qabr ahli! Alloh taolo bizni va sizlarni mag'firat etsin. Siz bizning salafimizsiz (bizdan oldin kelganlarsiz. - Tarj.), biz ham sizning ortingizdan kelamiz».

Bu hadisni Termiziy rivoyat qilgan va: «hasan-g'arib hadisdir», degan («Zujajatul-masabih», 1-448).

## ZAKOT

### Ma'dan va rikoz haqidagi xabar

196-hadis

«Rikozda beshdan biri beriladi». Hasan ibn Ziyod shunday rivoyat qilgan. Buxoriy va Muslim Abu Hurayraning (r.a.) hadisini keltirgan.

Iroq ahli rikozning tafsirida ixtilof qilib, «U ma'danlardir», deydi. Hijoz ahli esa: «U johiliyatning xazinalaridir», degan. Rikozda har ikki ma'no ham bor.

Abu Hurayraning (r.a.) hadisida «boyga sadaqa berish»: «Shoyad boy bundan ibrat olib, Alloh taolo bergan narsalardan o'zi ham sadaqa qilsa...» ma'nosida kelgan. Hadis muttafaqun alayhdir («Al-muntaqo», 2-140).

### Har yaxshilik sadaqadir

197-hadis

«Boy va kambag'alga qilgan har yaxshiliging sadaqadir».

«Jomiy»da Jobir va Tabaroniydan, u esa Ibn Mas'uddan rivoyat qilgan. Hofiz Iroqiy hadis sanadini zaif deydi. Haysamiy Tabaroniy rivoyat qilgan sanadda Sadaqo ibn Muso Daqiqiy zaif kimsadir, degan («Al-munaviy», 5-23).

198-hadis

Bu Muslim rivoyat qilgan uzun hadisning bir qismidir («Zujajatul-masabih», 2-430).

«Kutubi sitta» sohiblari, Termiziy va Ibn Moja Asvadning hadisidan taxrij etishgan. Hadis «Valo» bahsida keladi («Uqud'ul-javohir», 1-50).

## RO'ZA

199-hadis

Abu Usoma (r.a.) hadisni rivoyat qilgan. «Kutubi sitta» va Ibn Hibbon hadisni to'laligicha keltirishgan. Unda: «Ro'zador og'zining hidi Alloh taolo nazdida mushki anbardan xushbo'yroqdir» lafzlari qo'shilgan («Uqud'ul-javohir», 1-81).

Abu Hurayradan (r.a.): «Kimki iymon keltirib va savobini Allohdan umid qilib ramazon ro'zasini tutsa, Alloh taolo uning o'tmishdagi gunohlarini kechiradi» deb rivoyat qilingan.

Yana Abu Hurayradan (r.a.) «Odam bolasi amalining savobi orttirilib beriladi» hadisini rivoyat qilingan. Hadis muttafaqun alayhdir («Zujajatul-masabih», 1-543).

Ro'za Rasulullohning (s.a.v.) Madinaga hijratlarining ikkinchi sanasida farz qilingan.

### Ashuro kunining ro'zasi vojib edi, nasx qilindi

201-hadis

Ahmad ibn Hanbal, Ibn Hibbon va Ibn Abu Shayba Asmo binti Horisadan hadisni rivoyat etishgan.

Buxoriy, Muslim va Nasa'iy Salama ibn Akva'ning hadisini marfu' tarzda keltirgan.

Salamaning hadisini kechasi ro'zaga niyat qilmagan kishi ro'zasining joizligiga dalildir («Uqud'ul-javohir», 1-82).

### Ayyomi biyz ro'zasi

202-hadis

Haysamiyning hadisini Ishoq ibn Rohavayh, Horis ibn Abu Usoma va Bayhaqiy rivoyat qilishgan. Nasaiy shu hadisga o'xshash hadisni Abu Hurayradan (r.a.) keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-87).

### **Ovqat yeyish harom bo'lgan vaqt**

203-hadis

Abdullohning hadisini «Osor»da Muhammad ibn Hasan va Talha rivoyat qilgan. Buxoriy, Muslim va «Sunan» sohiblari hadisni mazkur lafzlarda va yana: «Bilolning azoni hech biringizning saharligiga mone' bo'lmasin. Zero, uning azon chaqirishi tunda turadigan kimsalarga bildirish, uxlaganlarni uyg'otish uchundir» lafzlari bilan keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-88).

### **Ro'zadorning qon oldirishi joizligi**

204-205-206-hadislari

«Rasululloh (s.a.v.) ro'zador bo'lganlarida Qohot degan joyda qon oldirdilar» hadisini Buxoriy va Muslim Ibn Abbosdan quyidagi lafz bilan keltirgan: «Rasululloh (s.a.v.) ihromda bo'lganlarida, qon oldirdilar. Ro'zador bo'lganlarida, qon oldirdilar».

Termiziyda: «Rasululloh (s.a.v.) Makka va Madina orasida ihromda va ro'zador bo'lganlarida, qon oldirdilar», deya rivoyat etilgan.

Zuhriyning hadisini Buxoriy Homid va Anas orqali rivoyat qilgan.

Abu Saiddan rivoyat etilgan hadis «Ro'zadorning qon oldirishiga ruxsat berdilar» lafzi bilan marfu' tarzda rivoyat qilingan. Bu hadisni Nasaiy keltirgan. Roviylari siqodir.

Termiziy: «To'g'risi, hadis mavqufdir. Ruxsat faqat taqiqlanganidan so'ng beriladi», degan («Uqud'ul-javohir», 1-83).

### **Junub bo'lib tong ottirgan ro'zadorning hukmi**

207-208-209-210-hadislari

Sulaymonning hadisini Hasan ibn Ziyod mazkur tarzda rivoyat qilgan. «Kutubi sitta» sohiblari «U ro'zasini to'la ado etadi» lafzini qo'shib keltirishgan. Bu Ibn Moja va undan boshqalarning lafzidir. «Ro'zani tutadi» qo'shimchasi dalil mukammal bo'lishi uchun lozim. Bu qo'shimcha Hasan ibn Ziyod rivoyatida tushib qolganga o'xshaydi.

A'toning hadisini «Kutubi sitta» sohiblari va Tahoviy Abdurahmon ibn Horis ibn Hishomdan, u otasidan rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-85).

Hammodning hadisini Ibn Xusrav Fraj ibn Bayon rivoyati bilan keltirgan. «Kutubi sitta»da shu ma'noda hadis rivoyat qilingan. Tahoviy Abu Ishoqdan keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-86).

### **Ro'zador kishi ayolini o'pishi mubohligi haqida**

211-212-213-hadislari

Ziyodning hadisini Buxoriy, Muslim, Termiziy, Abu Dovud va Ibn Moja rivoyat qilishgan. Tahoviy esa Shaybondan rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-83).

Haysamning hadisini Muslim va Tahoviy Ibn Ishoq Hamadoniydan, u Oyisha onamizdan (r.a.) marfu' tarzda rivoyat qilgan. Unda bunday deyiladi: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.)

ro'zador bo'lganlarida, yuzimizdan o'par edilar» («Uqud'ul-javohir», 1-84).

### **Safarda ro'zaning hukmi**

214-215-hadislari

Haysamiyning hadisini Ibn Xusrav shunday rivoyat qilgan. «Xul'afot»da Makkiy ibn Ibrohimdan, u Abu Hurayradan (r.a.) qilgan rivoyat keltirilgan.

Hadisda bunday deyiladi: «Rasululloh (s.a.v.) safarda (ovqat yeb) ro'zalarini ochdilar, odamlar ham u zot (s.a.v.) bilan ro'zalarini ochishdi».

Bu hadisni Abu Bakr ibn Abu Shayba ham keltirgan. Tahoviy hadisini Ibn Abbos (r.a.), Jobir (r.a.) va Abu Saiddan rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-86).

### **Sukut ro'zasining makruhligi**

216-hadis

«Uzuluksiz ro'za va kun bo'yi so'zlamaslik yo'qdir». Talha va Zubayr hadisni shunday rivoyat qilishgan. Sanaddagi Juvay bir zaif kishidir. Biroq oldingi hadisga qo'shilib, kuchayadi. Toyalasiy «Musnad»ida faqat birinchi jumlaning Jobirdan rivoyat qilgan. Ikkinchi jumlaning esa Abu Dovud marfu' o'laroq quyidagi lafzlar bilan rivoyat qilgan: «Ibodati qasdi ila kun bo'yi gapirmasdan ro'za tutish yo'q» («Uqud'ul-javohir», 1-87).

### **Visol ro'zasining makruhligi**

217-hadis

Shaybonning hadisini Talha mazkur holda rivoyat qilgan. Bu hadisni Buxoriy va Muslim Abu Hurayra (r.a.), Oyisha onamiz (r.a.) va Anas (r.a.) rivoyati bilan keltirishgan. Abu Saiddan faqat Buxoriy rivoyat qilgan. Imom Ahmad Bashir ibn Hasosiyadan hadisning shu qismini marfu' tarzda rivoyat qilgan. Va: «Nasroniylargina shunday qilishadi» deb qo'shgan.

### **Ro'za tutish taqiqlangan uch kun**

218-hadis

Abdul Malikning hadisini Ibn Xusrav shu holda rivoyat qilgan. Tabaroniy Ibn Abbosdan (r.a.) marfu' tarzda quyidagi lafzlar bilan keltirgan: «Ogoh bo'ling! Bu kunlarda ro'za tutmang. Chunki bu kunlar yeyish, ichish va qo'shilish kunlaridir».

Tabaroniy Abu Hurayradan (r.a.) marfu' o'laroq hadisni bunday ibora bilan naql etgan: «Mino (hojilar Minoda o'tkazadigan ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi) yemoq va ichmoq kunidir». Bu hadisning asli Imom Muslimdadir («Uqud'ul-javohir», 1-86).

### **Shak kuni ro'za tutishdan qaytarilgani**

219-hadis

Hofiz bunday degan: «Hadisni bu lafz bilan topolmadim. Ma'nosi esa mana bu hadisdan chiqarilgan: «Ramazon ro'zasini (oy kirmay) bir kun yoxud ikki kun avvaldan tutmang». Abu Hurayraning (r.a.) bu hadisi muttafaqun alayhdir.

Shak kunida ro'za tutish haqida faqihlarimiz bunday deyishgan: «O'sha kuni kim agar bugun ramazon deb ro'za tutsa, tahriman makruh (haromga yaqin makruh. - Tarj.) ish qilgan bo'ladi. Chunki bunda ahli kitobga o'xshashlik bor. Ahli kitob tutgan ro'zalarining

muddatini ko'paytirgandir».

Shunga asosan Ramazon ro'zasini oy boshlanmay turib tutishdan qaytarilganmiz.

## **E'tikof**

220-hadis

Nofe'ning hadisini Marvon ibn Muoviya mazkur tarzda rivoyat qilgan. Buxoriy va Muslim «Kechasi Masjidul Haramda e'tikof qilishimni...» lafzi bilan keltirishgan.

Buxoriy va Muslimning yana bir rivoyatida: «Hazrati Umar (r.a.) bir kun e'tikof o'tirishni o'zlariga vojib qilgan edi», deyiladi.

Abu Dovud esa «E'tikof o'tir va ro'za tut» lafzi bilan hadisni keltirgan.

Nasaiy va Tabaroniy bir rivoyatda: «Rasululloh (s.a.v.) hazrati Umarga (r.a.) e'tikof o'tirishni va ro'za tutishni buyurdilar», deya naql etishgan.

E'tikofda ro'zador bo'lishni faqat Abdulloh ibn Navfal hadisda keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-88).

Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilinishicha, Rasululloh (s.a.v.) vafot etgunlariga qadar Ramazonning so'nggi o'n kunida e'tikof o'tirganlar. Hazrati Payg'ambardan (s.a.v.) so'ng zavjalari e'tikof o'tirganlar («Zujajatul-masabih», 1-585).

## **Haj**

221-hadis

Atiyyaning hadisini Ahmad ibn Hanbal, Abu Dovud va Hokim Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qilishgan. Hokim hadisni sahih degan.

Tabaroniy, Ahmad va Ibn Moja Fazl ibn Abbosning hadisiga «Ba'zan kasallikka chalinasan, ba'zan narsa yo'qotasan, ba'zan esa ehtiyoj hosil bo'ladi» lafzlarini qo'shib rivoyat etishgan.

Imomi A'zamdand kelgan ikki rivoyatning sahihi (to'g'rirog'i) shudir. Shu ixtiyor etilgan.

«Hidoya» sohibi bunday deydi: «Abu Hanifadan (r.a.) bunga dalolat etuvchi rivoyat bor». Imom Muhammad nazdida boshqa yillarga surish ham joizdir («Uqud'ul-javohir», 1-88).

## **Haj qilganni Alloh taolo avf etadi**

222-hadis

Ibn Umardan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda Rasululloh (s.a.v.) marhamat qiladilar:

«Hajga borgan kishini uchratsangiz unga salom bering, u bilan qo'l berib ko'rishing.

Uyiga kirmasidan oldin sizni duo qilishini so'rang, chunki uning gunohi kechirilgandir».

Ahmad ibn Hanbal rivoyat qilgan («Zujajatul-masabih», 2-102).

## **Talbiyaning fazilati va uni baland ovozda aytish**

223-hadis

Ibn Abdulboqiy va Hasan ibn Ziyod mazkur tarzda rivoyat qilishgan. Ibn Abu Shayba, Abul Ali Mahsiliy «Musnad»larida shu yo'l bilan hadisni keltirishgan.

Hokim Abu Bakr Siddiqning (r.a.) hadisini rivoyat qilishgan. «Hadis sahihdir, biroq uning sanadida Voqidiy bor, sanadi uzilgan», degan.

Termiziy ham Abu Bakrdan (r.a.) keltirgan. Termiziy va Ibn Moja Ibn Umardan (r.a.)



ham hadisni rivoyat qilishgan. Hadisning sanadidagi Ibrohim Yazid Havza zaif roviydir («Uqud'ul-javohir», 1-95).

Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: «Jabroil kelib ashobimga ovozlarini ko'tarib tahlil va talbiya aytishlarini buyurishimni aytdi».

Bu hadisni Molik, Termiziy, Abu Dovud, Nasaiy, Ibn Moja va Doramiy rivoyat qilishgan («Zujajatul-masabih», 2-113).

## **Miyqot joylari**

224-225-hadislari

Yahyoning hadisini Zufar shunday rivoyat qilgan. Buxoriy Molik orqali Nofe'dan hadisni quyidagi lafzlar bilan keltirgan: «Madina ahli Zulxulayfadan talbiya aytadi».

Hammodning hadisini Hasan ibn Ziyod va Hayyoj ibn Bastom rivoyat qilgan. Buxoriy Nofe' orqali Ibn Umardan hadisni taxrij qilgan.

Muslim Abu Zubayr orqali Jobirdan hadisni keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-89).

Zulxulayfa bilan Makka orasi 198 mil, taxminan, o'n marhaladir. U yerda «Masjidi Shaja» degan masjid bor. Yana u yerda «Alining qudug'i» deb nomlanuvchi quduq ham bor.

Juhfa - Makkaga besh yoki olti marhala uzoqlikdadir. Makkadan 82 mil uzoqda joylashgan. U yerda «Qodiyri Xum» deyiluvchi joy bor. Qarn - Makkaning sharqida, ikki marhala uzoqlikda. Yalamlam - Makkaga ikki marhala uzoqlikda («Al-muntaqo», 2-217).

## **Ihromdagi kishining libosi**

Abdullohning hadisini «Kutubi sitta» sohiblari Nofe' va Ibn Umar (r.a.) orqali rivoyat qilishgan.

Buxoriyning lafzi «Ihromli kishi ko'ylak kiymaydi» shaklidir. Muslim Umar ibn Dinorning hadisini Abu Zubayr orqali keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-94).

## **Ihromga kirishda xushbo'ylik surish**

228-hadis

Talha, Horisiy, Ibn Xusrav, Hasan ibn Ziyod shunday rivoyat qilishgan. Ibn Umardan (r.a.) rivoyat etilgan hadis muttafaqun alayhdir.

Muhim eslatma: ihromga kirilganidan so'ng, asli qoladigan xushbo'ylik bor, asli yo'qolib ketadigani ham bor. Bu hadis hammasiga shomildir (taalluqlidir. - Tarj.). Abu Hanifa va Abu Yusuf nazdlarida, hadisning zohiridan anglashilgan ma'no va mavzuga oid boshqa hadislarga binoan xushbo'ylik surish sunnatdir. Imom Muhammad va Zufar Imomi A'zam va Abu Yusufning qarashlariga xilof etib: «Ihromdan keyin asli ketmaydigan xushbo'ylikni surmaydi» deyishgan («Uqud'ul-javohir», 1-92).

Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat etilgan hadisda: «Men Rasululloh (s.a.v.) ihromlariga, (unga) kirmaslaridan oldin misk aralashgan xushbo'ylik surar edim. U zot (s.a.v.) mushk hidlari bo'lgani holda ayollarini aylanib chiqar edilar. Men u zotning xushbo'yliklariga e'tibor berar edim», deyiladi («Zujajatul-masabih», 2-113).

## **Hazrati Payg'ambarning sahobalarga Qiron hajini buyurishlari**

229-hadis

Jobirning hadisini Muslim mazkur holda keltirgan. Tahoviy hadisni Ibn Ishoq orqali rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-100).

«Umra va hajni bir qilib ado etdilar va vafotlariga qadar bundan qaytarmadilar. Bu hadisni nasx qiluvchi bir oyat ham nozil bo'lmadi».

Muslim hadisni Imron ibn Husayndan rivoyat qilgan («Fathul-qodir», 2-201).

### **Umraning haj ibodati bilan birga abadiy bo'lishi**

230-hadis

Jobirning hadisini Doraqutniy shu holda keltirgan. Uning roviylari ishonchlidir.

Nasa'iy va Ibn Moja Tovus orqali keltirishgan. Hofiz: uning muttasilligida shubha bor, degan.

Tahoviy hadisni Abu Dovud orqali keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-101).

### **Umrani tark etib haj qilmoq**

231-hadis

Haysamiyning hadisida: «Oyisha onamiz (r.a.) haj qila boshladi. Bitirganida Rasululloh (s.a.v.) unga umrani buyurdilar», deyiladi.

Buxoriy va Muslim hadisni keltirishgan. Muslim rivoyatida: Oyisha onamiz (r.a.) Sarf degan joyda hayz ko'rdilar. Arafotda pokiza bo'ldilar («Uqud'ul-javohir», 1-103).

### **Umraning qazosi**

232-235-hadislari

Hammodning hadisini Buxoriy va Muslim «Yo Rasululloh!» lafzi bilan keltirishgan.

Buxoriy: «So'ng umra qildim» lafzi bilan rivoyat qilgan. Buxoriyning lafzlaridan ba'zilari esa: «Oyisha onamizga xitoban «Bor!.. Abdurrahmon ham sen bilan birga borsin» shaklidir. Buxoriy buni «Jihad» bobida zikr etgan («Uqud'ul-javohir», 1-103).

### **Boshqa kishi uchun qurbonlik so'yish**

233-hadis

Haysamiyning hadisini Muslim Jobirdan naql etgan: Unda: «Qurbon kunida Rasululloh (s.a.v.) Oyisha onamiz (r.a.) uchun sigir qurbonlik qildilar» tarzida rivoyat qilingan.

Nasa'iy va Hokim Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-104).

### **Ihromdagi kishi o'zi ovlamagan hayvon go'shtini yeydi**

Muhammad ibn Munkadirning hadisini Talha, Ibn Muzaffar, Ibn Xusrav, Ibn Abdulboqiy rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-102).

### **Ihromli kishining ihromda bo'lmagan odam so'ygan hayvon go'shtini yeyishi**

237-hadis

Muslim va Ibn Hibbon «Sahih»larida hadisning ma'nosi keltirilgan. Muslim Ibn Munkadirdan, u Muozdan rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-102).

## **Ihromli kishi o'ldirishi mumkin bo'lgan hayvonlar**

238-hadis

Nofe'ning hadisini Horisiy, Ibn Muzaffar, Ibn Xusrav mazkur holda rivoyat qilishadi. «Sahihayn»da Ibn Umarning (r.a.) hadisidir marfu' tarzda «hayvonlardan beshtasi» shaklida kelgan.

Muslim Ibn Umardan (r.a.) boshqa yo'l bilan rivoyat qilgan. Abu Dovud va Termiziy Abu Saiddan hadisni rivoyat qilishgan. Nasaiy va Ibn Moja Oyisha onamizning (r.a.) hadisini marfu' tarzda rivoyat qilishgan.

Sanab o'tilgan bu besh narsani o'ldirish Abu Hanifa, Abu Yusuf va Imom Muhammadning nazdlaridadir. Ular bo'rini it bilan bir hisob etishgan («Uqud'ul-javohir», 1-102).

## **Ihromdagi kishining ihromi nikoh aqdiga mone' bo'lmaydi**

239-hadis

Ibn Abbosning hadisini barcha muhaddislar rivoyat qilishgan. Imom Buxoriyga ko'ra, Nabiy (s.a.v.) ihromda bo'lganlarida Maymuna onamizni nikohlab oldilar, ihromdan chiqqanlaridan so'ngra u bilan qo'shildilar («Al-muntaqo», 2-247).

## **Ihromda bo'lganning qon oldirishi**

240-hadis

Hammod Ibn Abbosdan rivoyat qilgan hadis muttafaqun alayhdir («Al-muntaqo», 2-245).

## **Hajarul-asvadni iste'lom qilish**

241-hadis

Nofe'ning hadisini Yahyo ibn Abdulhamid al-Hamoni rivoyat qilgan. Buxoriy va Muslim keltirishgan. «Fathul-qodir» asarida: «Tavofni Hajardan boshlash sunnatdir. Boshqa joydan boshlasa ham joizdir. Biroq ko'pchilik mashoyix nazdida makruhdur» deyilgan. («Uqud'ul-javohir», 1-95).

## **Ruknlarni hassa va boshqa narsalar bilan iste'lom qilish mubohligi haqida**

245-hadis

Hammodning hadisini «Kutubi sitta» sohiblari Ibn Abbosdan (r.a.) keltirishgan. Muslim va Abu Dovud Jobirdan (r.a.) rivoyat qilgan hadisda «Hajarul-asvadni hassasi bilan iste'lom qilar edi», deyiladi. Imom Buxoriy hadisni boshqa yo'l bilan keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-96).

## **Ikkinchi shavtda raml qilmoq**

246-hadis

Muslim, Abu Dovud, Nasaiy va Ibn Moja Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qilishgan. Abu Dovud, boshqa «Sihoh» sohiblari va Muslim hadisni Jobirdan rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-96).

## **Bir iqomat bilan namozni jam qilish**

247-hadis

Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qilingan hadisda: «Rasululloh (s.a.v.) shom va xuftonni jam qilib o'qidilar. Shomni uch rakat, xuftonni ikki rakat, bitta iqomat bilan ado etdilar», deyiladi. Bu hadisni Muslim rivoyat qilgan.

Abu Hanifa (r.al.) shu kecha jam etishni olganlar («Zujajatul-masabih», 2-155).

### **Bir azon va bir iqomat bilan ikki namozni jamlash**

249-hadis

Ibn Abdulboqiy «Musnad»ida bu hadisni rivoyat qildi. Ibn Abu Shayba, Ishoq va Tabaroniy shunday keltirishgan. Faqat ular: «Muzdalifada», deyishgan.

Imom Buxoriy Ibn Umardan (r.a.) qilgan rivoyatda: «Bitta iqomat takbiri bilan shom namozi va xufton namozini jam qildilar», deyilgan.

Imom Muslim shu ma'noda Jobirdan rivoyat qilgan. Unda «Bir azon va ikki iqomat takbiri bilan jam qildilar...» deyilgan. Abu Ja'far Tahoviy shuni ixtiyor etgan («Uqud'ul-javohir», 1-97).

### **Vaqfada turish va shaytonga tosh otish vaqtini tayin etish**

250 -251-hadislari

Hadisni Hasan ibn Ziyod, Xorisiy va Ibn Xusrav rivoyat qilishgan. To'rt «Sunan» sohiblari ham keltirishgan. Uni «bi laylin» o'rniga «bi falsin» lafzi bilan keltirishgan. Ibn Abbosning muttafaqun alayh hadisida: «Men ham Rasululloh (s.a.v.) yuborgan kimsalar orasida edim», deyiladi.

Abu Dovud hadisni boshqa bir shaklda keltirgan, isnodi sahihdir. Imom Buxoriy va Imom Muslim Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-97).

### **Haj qilayotgan kishi qachon talbiya aytishdan to'xtaydi?**

252-hadis

Ibn Xusrav shunday rivoyat qilgan. «Kutubi sitta»da kelgan. Ibn Moja unga quyidagini qo'shgan: «Toshni otgach, talbiyani to'xtatadi». Abu

Dovud Ibn Mas'uddan keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-98).

### **Hady qurbonligi, tamattu' va qiron haji qiluvchi so'yadigan qurbonlik moliga miniladimi, minilmaydimi?**

253-hadis

Hady - Ka'baga hadya qilingan tuya, sigir, qo'ydir. Hadyning eng kichigi qo'ydir. Bu hadisni Abu Dovuddan boshqa «Kutubi sitta» sohiblari Abu Hurayradan rivoyat qilishgan.

Imom Buxoriy marfu' degan. Unda: «Hayvonlarni haydayotgan odamni ko'rdi», deyiladi. Abu Hanifa, Abu Yusuf va Imom Muhammad bunday deydilar: «Tamattu', qiron va hady uchun olib borilgan hayvonni minsa bo'ladi. Ammo bu minishga ehtiyoj bo'lganidagina joiz». Imom Muslim Jobirdan rivoyat etgan hadisni hujjat qilganlar.

Bu qo'shimchalar xabarlardagi sahih yo'llar orqali kelgan. Bu rivoyatlar minish faqat zarurat bo'lgan paytda joizligiga dalolat qiladi. Imomlarimiz ham shuni ta'kidlaganlar («Uqud'ul-javohir», 1-104).

## **Ithromda shart qilingan narsalar**

254-hadis

Hammodning hadisini Ahmad, Ibn Moja va Nasaiy rivoyat qilishgan. «Subay» ismi «sod» harfining zammasi bilan, ismning kichraytirilgan shaklidir. Subay johiliyatda va Islomda yashagan.

Ibn Hibbon hadisni ishonchli deb zikr etadi. Abu Dovud hadisni «Men nasroniy bir kishi edim» lafzi bilan keltirgan («Al-muntaqo», 2-229).

Eslatma: «Musnad»ni o'qishda Abu Hanifadan (r.a.) avval Hammod ismi zikr etilsa, bu Imomi A'zamning o'g'illaridir. Agar Hammod ismi Abu Hanifadan keyin tilga olingan bo'lsa, bu Imomi A'zamning ustozlaridir. Abu Hanifa ustoziga bo'lgan hurmati tufayli o'g'liga Hammod deb ism qo'yganlar.

## **Ramazonda umra qilishning fazilati**

255-hadis

Asad shunday rivoyat qilgan. Imom Buxoriy va Imom Muslim hadisni keltirishgan. Imom Muslimning rivoyatida: «Rasululloh (s.a.v.) ansordan bir ayolga dedilar...» deyiladi.

Imom Buxoriy: «Haj yoki haj kabidir» shaklida rivoyat qilgan.

Imom Muslim boshqa yo'l bilan rivoyat qilgan. Unda: «Ramazonda umra qilish haj qilgan kabidir. Yoki men bilan birga haj qilgan kabidir», deyiladi.

Imom Buxoriy ham shu yo'l bilan keltirgan. Nasaiyda «Men bilan birga» lafzi bo'lmay, «hajga tengdir» lafzi mavjuddir. Imom Ahmad Jobirning (r.a.) hadisidan rivoyat qiladi («Uqud'ul-javohir», 1-103).

Ibn Abbosdan (r.a.) naql etilgan «Ramazondagi umra hajga tengdir» rivoyatini Imom Termiziydan boshqa hamma muhaddislar rivoyat qilishgan («Al-muntaqo», 2-222).

## **Makka fathida Rasululloh (s.a.v.) Makkaga qanday kirib borganlar?**

256-hadis

Abdulloh ibn Dinorning hadisini Imom Buxoriy, Imom Muslim va Imom Termiziy keltirishgan. Ibn Moja Jobirdan rivoyat qilgan hadisda quyidagicha kelgan: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) Makkaga kirganlarida boshlarida qora sallalari bor edi» («Uqud'ul-javohir», 1-151).

## **Hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) qabrlarini ziyorat qilish**

257-hadis

Alloma Namaviy «Osorus-sunan» asarida hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) qabrlarini ziyorat qilish haqida maxsus bir bob ajratgan. Unda shunday deyiladi: «Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qilinadi. Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilar: «Kim mening qabrimni ziyorat qilsa, unga shifoatim vojib bo'ladi».

Buni Ibn Huzayma «Sahih»ida, Doraqutniy, Bayhaqiy va boshqalar rivoyat etishgan. Isnodi hasan, deyilgan. Ba'zi ahli ilm zaif degan.

Taqiyyuddin Sabukiy «Shifa us-saqom» asarida ularga qarshi chiqqan. Bu kitobni u qabr ziyorati haqida Ibn Taymiyaga raddiya tarzida yozgan. Bu nodir kitobdir. So'ngra Abu Dardodan hadis keltiradi. U «Bilol tushida ko'rdi...» deb boshlanadigan hadisdir («Osorus-sunan», 2-127).

Ibn Adiy hasan sanad bilan quyidagi hadisni rivoyat qilgan: «Kim haj qilsa-yu meni ziyorat etmasa, menga jafo qiladi» («Hoshiya-tut-Tahoviy», 405).

«Kim vafotimdan keyin haj qilganida mening qabrimni ziyorat qilsa, meni tirikligimda ziyorat qilgan kabi bo'ladi».

Ushbu hadisni Tabaroniy va Bayhaqiy «Sunan»ida Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qilishgan («Fayzul qodir», 2-116); («Fathul-qodir», 2-336).

Hazrati Payg'ambarimizning (s.a.v.) qabrlarini ziyorat qilish fazilatli sanaladi. «Kim faqat mening qabrimni ziyorat qilish maqsadida kelsa, Alloh taolo albatta u kishiga meni shifoatchi qiladi». Bu hadisni Tabaroniy Ibn Umardan keltirgan. Ibn Sakan hadisni sahih, degan («Ihyo», 2-266).

## **NIKOH**

258-hadis

Qosimning hadisini Abu Dovud, Tayolasiy, to'rt «Sunan» sohiblari, Hokim va Bayhaqiyalar keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-105).

### **Uylanishga tashviq**

259-hadis

Talha hadisni quyidagi lafz bilan rivoyat qilgan: «Uylaning, ko'paying, chunki men Qiyomat kunida boshqa ummatlar oldida sizning ko'pligingiz bilan faxrlanaman».

Abu Dovud, Nasaiy va Ibn Hibbon Ma'qal ibn Yasorning hadisidan keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-105).

«Suyukli va ko'p tug'adigan ayollarga uylaning. Chunki men sizning ko'p ekaningiz bilan faxrlanaman» hadisini Abu Dovud va Nasaiy rivoyat qilishgan («Al-muntaqo», 2-495).

### **Bokiralarga uylanish**

260-hadis

Abu Naim va Ibn Sunniy hadisni Ibn Umardan rivoyat qilishgan. Ibn Moja, Bayhaqiy va Ibn Hibbon hadisni keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-106).

«Bokiralarga uylaning, chunki ular og'izlari totli, rahmlari serpusht, oziga qanoat qiluvchidir».

Ushbu hadisni Ibn Moja mursal, Bayhaqiy muttasil tarzda rivoyat qiladi («Zujajatul-masabih», 2-382).

### **Tug'adigan qora xotin**

262-hadis

«Tug'maydigan chiroyli xotindan tug'adigan qora xotin yaxshidir». Hadisni Tabaroniy, Daylamiy, Muoviya Ibn Xaydadan rivoyat qilishgan («Al-munaviy», 4-115).

### **Ayoldagi xosiyatsizlik**

263-hadis

Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qilinadi. Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilar: «Ayolda, uyda, otda xosiyatsizlik bor». Bu hadis muttafaqun alayhdir.

Bu rivoyatda: «Xosiyatsizlik uch narsada - ayolda, maskanda, ulovdadir», deyildi. «Sahihayn»da Sahl ibn Sa'ddan rivoyat qilinadi: «Rasululloh (s.a.v.): «Agar xosiyatsizlik bo'lsa, (u) ayolda, uyda, otdadir», deb aytdilar». Imom Buxoriy «Agar biron narsada xosiyatsizlik bo'lsa...» lafzi bilan rivoyat qiladi («Miftahus-saodat», 2-225). Uyning xosiyatsizligi yomon bilan qo'shni bo'lish. Otning xosiyatsizligi -Alloh taolo yo'lida g'azotga minilmaslik. Ayolning xosiyatsizligi tug'masligi va xulqining yomonligi.

### **Tul xotin xohlamasa ham, valiyi uni turmushga bersa, eridan ajratiladi**

268-hadis Abdulazizning hadisini Imom Buxoriy Hanso binti Hizom al-Ansoriyadan keltirgan. Bu hadisni Buxoriy yolg'iz o'zi keltirgan. Imom Muslim kitobida Hansodan hech narsa keltirmagan. Nasaiy Hansoning hadisida «(bokira) edi» deb keltirgan. Ahmad ibn Hanbal hadisni Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-115).

### **Nikohi harom qilinganlar**

269 -270-hadislar

Abu Dovud, Termiziy va Nasaiy rivoyat qilgan. Termiziy bu hadisni sahih-hasandir, degan. Ibn Hibbon ham hadisni sahih degan va unga quyidagicha qo'shimcha qilgan: «Amm erkak qardoshining (aka-ukaning.-Tarj.) qizi ustiga, xola esa qiz qardoshining (singlisining. -Tarj.) ustiga nikohlanmaydi». Buni Imom Muslim rivoyat qilgan. Atiyyaning hadisini Al-Hul'iy «Favoid» asarida keltirgan. Imom Muslim Abu Hurayradan rivoyat qilgan. Imom Buxoriy Jobir va Abu Hurayradan rivoyat qilgan. («Uqud'ul-javohir», 1-107,108).

«Kutubi sitta» sohiblari rivoyat qilishadi: «Nabiy (s.a.v.) ayolning ammasi yo xolasi ustiga nikohlanishini taqiqladilar» («Al-muntaqo», 2-528).

### **Mut'a nikohining harom bo'lishi**

271-272-273-274-275-276-hadislar

Muxtalif (har xil, turli) sanadlar bilan yetti rivoyat bor. Imom Buxoriy va Imom Muslim Ibn Mas'uddan rivoyat qilishgan. Bu rivoyatlar mut'a nikohining harom bo'lganiga dalolat qiladi. Dastlab mut'a muboh edi. Keyin sahobalarning ijmosi bilan nasx qilindi. Bu Abu Hanifa, Abu Yusuf va Imom Muhammadlarning so'zlaridir. Muvaqqat nikoh ham mut'a nikohi kabi haromdir («Uqud'ul-javohir», 1-110).

Sobraning «Mut'a nikohidan qaytardilar» deganini Imom Muslim rivoyat qilgan. Imom Buxoriy hazrati Alidan rivoyat qilgan. Bu hadis sahihdir («Fayzul qodir», 6-321).

### **Azl**

277-hadis

Ahmad hadisni boshqa lafz bilan rivoyat qilgan. Muslim hadisni Jobirdan rivoyat qilgan. Unda bir guruh azl qilishni karih (ya'ni, jirkanch) hisoblashgan, deyiladi. Ular Imom Muslim Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilgan hadisni dalil qilishgan. Unda: «Bu tirik bolani yashirincha ko'mishdir», deyilgan («Uqud'ul-javohir», 2-90).

Abu Saiddan qilingan rivoyatda aytiladi: «Bani Mustalaq g'azotida Rasululloh (s.a.v.) bilan birga jangga chiqdik. Arablardan asirlar oldik. Ayollarga jinsiy rag'batimiz paydo bo'ldi. Bo'ydoqlik bizga zo'rlik qila boshladi. Azl qilmoqchi bo'ldik. Bu haqda Rasulullohdan (s.a.v.) so'radik. Ul zot: «Azl qilishingiz lozim emas. Alloh Qiyomat kuniga

qadar yaratajak narsalarini yaratgandir», dedilar. Bu hadis muttafaqun alayhdir. Imom Muslim rivoyatidagi hadisda bunday deyiladi: «Keyin u (sahobalardan birlari. - Tarj.) joriyaga yaqinlashdi va joriya homilador bo'lib qoldi. Rasululloh (s.a.v.): «Undan taqdir etilgan narsa vujudga keladi, deb sizga aytgandim», dedilar («Zujajatul-masabih», 2-425).

### **Jimo' asnosida xotinning qiniga har xil tomondan kelish**

278-hadis

«Sahihayn»da Jobirdan qilingan rivoyatda: «Yahudiylar: Erkaklar xotiniga orqa tomonidan qiniga yaqinlashsa, bola g'ilay bo'ladi, deb aytishadi», deyilgan.

Imom Muslimning lafzi bunday: «Xohlasi, yuzi bilan, xohlasi orqa bilan yotqizib, qiniga bo'lishi sharti bilan xotiniga yaqinlashadi».

### **Xotinlarning orqasiga yaqinlashmoq**

279-280-281-hadislari

«Rasululloh (s.a.v.) xotinlarning orqalariga yaqinlashishni taqiqladilar».

Nasaiy, Tabaroniy «Avsat» asarida Jobir ibn Abdullohdan rivoyat qildilar: «Xotinlarning orqalariga yaqinlashishdan qaytarish bu ishning harom va katta gunoh ekani uchundir». Haysamiy deydi: «Hadisni rivoyat qilgan kishilar ishonchlidir». Nasaiy sahih sanad bilan rivoyat qilgan («Fayzul qodir», 6-339).

Huzayma ibn Sobitdan rivoyat qilinadi: «Rasululloh (s.a.v.) Uch marta: «Alloh taolo haqdan uyalmaydi», dedilar va «Xotinlarning orqalariga yaqinlashmang» deb aytdilar.

Tabaroniy «Avsat»ida ishonchli sanad bilan rivoyat qilgan: «Xotinlarning orqalariga yaqinlashganni Alloh taolo la'natlaydi» («Az-zavajiru Ibn Hajar», 2-26).

### **Bola yotoqqa oid**

282-hadis

«Bola yotoqqa oiddir (Ya'ni, xotin bilan to'shakda yotadigan er nasabidan bo'ladi). Zino qilgan toshbo'ron qilinadi».

Hadisni Imom Buxoriy, Imom Muslim, Abu Dovud, Nasaiy va Ibn Moja Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilishgan.

Nasaiy Ibn Mas'uddan, u Abu Umomadan, u Abdulloh ibn Zubayrdan rivoyat qilgan.

Ibn Moja Umar ibn Xattobdan (r.a.) rivoyat qilgan. Ibn Abdulbar bu hadis yigirmadan ortiq sahobiydan rivoyat qilinganini aytgan. Hadisdagi «bola»dan murod «o'g'il, qiz, bitta yoki ko'p farzanddir», deyishgan.

Yotoq boshqasiga oid (tegishli) bo'lgani uchun zino qilgan kimsa nasab iddao etolmaydi, bundan mahrumdir («Fayzul qodir», 6-377).

Imom Buxoriy va Imom Muslim Abu Hurayradan rivoyat qilishgan. Imom Buxoriy boshqa bir hadisda: «Bola yotoq egasiga oiddir» deb keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-225).

## **ISTIBRO**

### **Joriya rahmining tozalanishi**

283-hadis



Al-Horisiy hadisni Usmon ibn Dinordan rivoyat qilgan: «Homilador asiralar bilan jimo' qilishdan qaytardilar».

Ahmad, Abu Dovud va Hokim Abu Said al-Xudriydan rivoyat qilishgan.

Ibn Abu Shayba hazrati Alidan (r.a.) rivoyat qilgan: «Rasululloh (s.a.v.) homilador joriya bilan toki ko'zi yoriguniga qadar, homilasi yo'q joriya bilan hayz ila tozalangunicha jimo' qilishni man etdilar». Biroq bu hadisning sanadida zaiflik va inqito (uzilish) bor («Uqud'ul-javohir», 2-105).

## **RADO (Sut bahsi)**

285-hadis

Abu Yusuf rivoyat qilgan. Ibn Abbos va Oyisha onamizning (r.a.) hadisini Ibn Mojadan boshqa barcha «Kutubi sitta» sohiblari keltirishgan.

Imom Muslim: «Tug'ilishdan harom bo'lgani kabi sutdan ham harom bo'ladi» tarzida, boshqalar «Nasabdan harom bo'lgani kabi» shaklida keltirgan.

## **TALOQ**

### **Taloq etishga majburlanganning talog'i sobit bo'ladi**

286-hadis

Hadisni Abu Dovud, Ibn Moja va Termiziy keltirishgan. Termiziy uni hasan-g'arib hadis, degan. Hokim sanadi sahih, degan.

Nasaiydan boshqa «Kutubi sitta» sohiblari Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat etilgan hadisni keltirishgan («Al-muntaqo», 2-604).

### **Hazrati Payg'ambarimizning (s.a.v.) Savdani raj'iy taloq qo'yib, unga idda saqlashni buyurishlari**

287-288-hadislari

Hadis «Sahihayn»da Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilingan.

### **Taloq beriladigan payt**

289-hadis

Ibn Umar (r.a.) ayolini hayzli paytida taloq qildi va bu ishi uchun hazrati Payg'ambardan (s.a.v.) tanbeh eshitdi. Shundan so'ng xotiniga raj'at qildi (qaytib oldi) va uni hayzdan pok holida taloq qildi. Muhammad ibn Hasan hadisni shunday rivoyat qilgan.

«Kutubi sitta» sohiblari uni keltirishgan. Ular tanbeh bergan kishi Rasululloh (s.a.v.) ekanlarini aytishgan.

Imom Buxoriy lafzida: «Ibn Umar (r.a.) ayolini hayz ko'rgan payti taloq qildi», deyiladi («Uqud'ul-javohir», 1-120).

### **Allohning dinini masxara qilganlarga, din hukmlarida sustkash va beparvo bo'lganlarga tanbeh berish**

290-hadis

Ibn Moja «Sunan»da, Ibn Hibbon «Sahih»da, Tabaroniy «Mu'jam»da hadisni keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-123).

### **Majnun va aqli zaifning talog'i o'tmaydi**

291-hadis

Imom Termiziy hadisni Abu Hurayradan (r.a.) marfu' tarzda quyidagi lafzlar bilan keltirgan: «Aqli zaif (ojiz)ning talog'idan boshqa barcha taloqlar haqiqiydir» (o'tadi. - Tarj.).

Ibn Shayba hadisini hazrati Alidan (r.a.) sahih sanad va quyidagi lafzlar bilan keltirgan: «Aqli zaif (ojiz)ning talog'idan boshqa barcha taloqlar haqiqiydir (o'tadi. - Tarj.)» («Uqud'ul-javohir», 1-121).

Hazrati Ali (r.a.) aytdi: «Aqli zaif (ojiz)ning talog'idan boshqa barcha taloqlar haqiqiydir (o'tadi. - Tarj.)». Imom Buxoriy «Sahih»ida bu hadislarni rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-121; «Al-muntaqo», 2-606).

### **Kishining xotiniga turmush qurib, yashashi yo yashamasligiga ixtiyor Berishi**

292-293-hadislari

Hadis «Kutubi sitta»da kelgan. Hadis lafzi «Sahihayn»da quyidagicha: «Rasululloh (s.a.v.) uni bizning zararimizga hisoblamadilar» («Uqud'ul-javohir», 1-124).

Oyisha onamiz (r.a.) aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.) bizlarni o'zlari bilan yashash yo yashamaslik xususida ixtiyorli qilganlarida biz U zotni tanladik va bu holatni hech bir narsa (taloq) sanamadilar» («Al-muntaqo», 2-609).

### **Joriyaning talog'i va iddasi hur ayolnikidan farqlidir**

294-hadis

Hadisni Ibn Moja «Sunan»da keltirgan. Bazzor, Tabaroniy va Doraqutniy ham hadisni keltirishgan. Abu Dovud, Termiziy va Ibn Moja hadisni Qosimdan, u Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyatini marfu' tarzda keltirishgan.

Imom «Musnad»ida hadisni Atiyyadan rivoyat qilgan. Termiziy bu hadisni hasan, degan («Uqud'ul-javohir», 1-123).

### **Xoh boin, xoh raj'iy taloq qilingan ayolning idda vaqtida nafaqaga va yashash joyiga haqqi bor**

295-hadis

Imom Muslim Abu Ishoqdan keltirgan. Imom Termiziy ham shunday rivoyat qilgan. Va bu lafzni qo'shgan: «Hazrati Umar (r.a.) taloq qilingan ayolga nafaqa va yashash joyini hukm qilganlar» («Uqud'ul-javohir», 1-129).

### **Homilador xotinlarning iddasi**

296-hadis

Imom Buxoriy, Imom Muslim va «Sunan» sohiblari hadisni keltirishgan. Imom Muslim Umar ibn Abdulloh ibn Arqamdan rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-128).

297-hadis

Hadisni Bazzor, Abu Dovud, Nasaiy va Ibn Moja quyidagi lafzlarni qo'shib keltirishgan: «Kim xohlasa, u bilan la'nat aytishaman».

«Homiladorlar tuqqach, iddalari tugaydi» mazmunidagi oyat to'rt oyu o'n kun idda kutish haqidagi oyatdan keyin nozil bo'lgan.

Imom Buxoriy quyidagi lafz bilan rivoyat qilgan: «U xotinlarga og'ir bo'ladi, ularga ruxsatni bermang!» («Uqud'ul-javohir», 1-128).

### **Eri o'lgan xotin**

298-hadis

«Sunan» sohiblari hadisni keltirishgan. Termiziy hadisni hasan, degan. Hokim hadisni ikki yo'l bilan keltirgan. Birida Imom Muslimning shartiga muvofiq, ikkinchisida esa shayxaynning shartiga muvofiq degan. Bu hadisni Ibn Hibbon «Sahih»ida keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-116).

### **Xul'u**

300-hadis

Xul'u xotinning «Mening javobimni bersin», deya eriga fidya berishidir. Ikkisi kelishsa, ayol mol berishi kerak. O'rtalarida bir boin taloq sodir bo'ladi. Imom Buxoriy bu hadisni Ikrimadan, u Ibn Abbosdan rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-127).

### **NAFAQA**

302-hadis

Xotinga va oilaga sarflangan nafaqadan savob qozonilishi haqidagi hadisni Imom Buxoriy «Sahih»ida Zuhriydan rivoyat qilgan.

### **MUDABBAR VA VALO**

#### **Mudabbar qul**

303-hadis

Hadis «Kutubi sitta»da kelgan. «Sahihayn»da bu hadis Jobirdan rivoyat etilgan. Bu hadisni Imom Muslim, Abu Dovud, Nasaiy turli rivoyatlar bilan keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-132).

#### **Aqdga xilof shartlarning bekor bo'lishi va qul ozod etganning valosi haqida**

304-hadis

Oyisha onamizning (r.a.) hadisi muttafaqun alayhdir. Imom Termiziy va Imom Moja Asvad rivoyati bilan keltirishgan. Boshqalari esa Qosimdan, u Oyisha onamizdan (r.a.) keltirgan. Tahoviy har ikki yo'l bilan keltirgan. Imom Muslim Abu Hurayradan (r.a.) keltirgan («Uqud'ul-javohir», 2-54).

Hadisni Imom Muslim Shu'b'adai rivoyat qilgan («Zujajatul-masabih», 2-429).

#### **Valo sotilmaydi va bag'ishlanmaydi**

305-hadis

Bu hadisni Ahmad ibn Hanbal va «Kutubi sitta» sohiblari keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 2-55).

### **Noo`rin qasam ichish**

306-hadis

Hadisni Imom Termiziy keltirgan. Buning «g`omus» deyilishiga sabab -bunday qasam ichgan kishi avval gunohga, so`ng otashga sho`ng`iydi («Uqud'ul-javohir», 1-134).

### **Mutlaq va shartga bog`liq nazr**

307-hadis

Imom Buxoriy hadisni Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-137).

Muhammad ibn Zubayr Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilgan hadisni Muslimdan boshqa barcha muhaddislar keltirishgan. Faqat hadis so`nggidagi «G`azablangan paytda nazr qilish yo`qdir» jumlasini qo`shmaganlar («Al-muntaqo», 2-920).

308-hadis

Nasaiy, Hokim va Bayhaqiy keltirishgan. Abu Dovud, Termiziy, Nasaiy va Ibn Moja Sulaymon ibn Biloldan rivoyat qilishgan.

### **Qasamning ma`nosi**

309-310-hadislari

«Billahi» deb qasam ichish uch turlidir: g`omus, lag`v va mun`aqid. G`omus va lag`vda kafforat yo`q. Mun`aqid qasam buzilganida kafforat beriladi. Ularning barchasi oid hukmlar bor.

Hadisni Imom Buxoriy keltirgan. Bu hadisni Abu Dovud, Bayhaqiy, Ibn Hibbon Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-134).

### **Kishi qasamda istisno qilishi bilan qasamini buzgan bo`lmaydi**

311-312-hadislari

Hadisni Termiziy, Ibn Moja, Nasaiy, Hokim va Ibn Hibbonlar Abdurazzoqdan keltirishgan. Hofiz ushbu hadis bir necha roviy orqali rivoyat etilganini aytgan.

Ibn Umarning (r.a.) «Kim qasam ichsa...» lafzi bilan boshlagan hadisini Shofe`iy, Ahmad ibn Hanbal, «Sunan» sohiblari, Ibn Hibbon va Hokim rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-135).

## **HUDUD JAZOLARI**

### **O`yin anjomlari bilan o`ynashning haromligi**

313-hadis

Hadis so`nggidagi «daf chalmoq» lafzi «Musnad»da zikr etilmagan. Abu Dovud hadisni Validdan rivoyat qilgan. Ahmad, Ibn Hibbon va Bayhaqiy «Kub» va «Tabl» lafzlari bilan keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 2-89).

Abu Dovuddan kelgan rivoyatda «Nabiy (s.a.v.) ichkilikdan, qimor va shatranj, do'mbra o'yinidan qaytardilar», deyiladi.

### **Had jazosida ichgan kishidan ichkilik hidi kelayotgani e'tiborga olinadi**

314-hadis

Humaydiy va Ibn Abi Umar «Musnad»larida hadisni to'laligicha keltirishgan. «Sahihayn»da Abdulloh ibn Mas'uddan rivoyat qilingan («Uqud'ul-javohir», 1-143).

### **O'g'rilikning jazosi**

315-hadis

Ibn Xusrav Muhammad ibn Hasan orqali hadisni quyidagi lafz bilan rivoyat qilgan: «O'n dirhamdan kamida (ya'ni, o'n dirhamdan kam o'g'irlansa. - Tarj.) qo'l kesilmaydi». Vake', Savriy, Ibn Muborak, Mas'udiy unga ergashganlar. To'rt «Sunan» sohiblari rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-144).

### **Shubhalar bilan hadlar to'xtatiladi**

316-hadis

Bayhaqiy Savriydan, u Osimdan quyidagi lafz bilan keltirgan: «Kuchingiz yetgunicha musulmonlardan o'limni (o'lim jazosini. -Tarj.) qaytaring». Hadisni Imom Termiziy va Nasaiy shu ma'noda keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-137).

### **Zino qilganiga iqror bo'lish**

317-hadis

Zino qilganini e'tirof etgan kimsa bu qilmishiga to'rt majlisda to'rt marta iqror bo'lsa, uning gapi e'tiborga olinadi. Imom Muslim va Ahmad Buraydadan boshqa roviylar orqali hadisni keltirgan. Jobir va Abu Hurayraning hadisini «Kutubi sitta» sohiblari o'sha ma'noda «Uning jasadiga boshqalarga qilganingizni tatbiq eting» lafzisiz rivoyat etishgan. Imom Muslim tafsilotini keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-139).

### **Musulmonning zimmiy evaziga o'ldirilishi**

318-hadis

Abu Dovud mursal hadislarda Sulaymon ibn Biloldan keltirgan. Doraqutniy hadisni marfu' tarzda keltirgan («Uqud'ul-javohir», 2-129).

## **SARIYYALAR**

### **G'oziy yo'qligida uning oilasiga xoinlik qilishning gunohi**

319-hadis

Imom Muslim, Abu Dovud va Nasaiy hadisni Buraydadan: «Urushdan ortda qolgan hech bir kimsa yo'qki...» lafzlari bilan keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-149). Imom ilohiy da'vat yetib bormagan dushmanga ro'baro' kelganida uni Islomga chaqiradi

Imom Buxoriydan boshqa barcha muhaddislar shu yo'l bilan keltirishgan. Imom Muslim No'mon ibn Muqrindan rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-147).

### **Tana a'zosini kesishning taqiqlanishi**

320-hadis

Hadisni Imom Muslim Buraydadan rivoyat qilgan. Imom Buxoriy Abdulloh ibn Yaziddan keltirgan.

Musla - ba'zi a'zolari kesish, demakdir. «Hidoya» muallifi: «U'raning» qissasida kelgan a'zo kesish o'zidan keyingi hadis bilan mansuxdir», degan («Uqud'ul-javohir», 1-149).

### **Ehtilom bo'lmagani holda balog'atga yetgan harbiy dorul harbda (kufr diyori) o'ldiriladi (harbiy - kufr diyoridagi kishi)**

321-hadis

Hadisni «Sunan» sohiblari rivoyat qilishgan. Imom Termiziy va Ibn Hibbon uni sahih, deyishgan. Hokim Abul Qosim ibn Mug'niyning lafzi bilan keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-152).

### **Mushriklarning jasadi xabis (murdor, iflos)dir. Unga ahamiyat ko'rsatilmaydi va uning evaziga badal ham olinmaydi**

322-hadis

Hadisni Imom Termiziy va Hokim keltirishgan. Hokim: «Hadisning isnodi sahihdir», degan. Hadisni Tabaroniy ham keltirgan («Uqud'ul-javohir», 1-148).

### **Imom o'ljalarni taqsimlamasidan oldin ularning beshdan bir qismi sotilishining taqiqlanishi**

323-hadis

Imom Termiziy va Bayhaqiy Abu Saiddan «Taqsimlanmasdan o'ljalarning sotilishini taqiqladilar» lafzi bilan rivoyat qilishgan.

Ahmad va Abu Dovud hadisni «Allohga va Oxirat kuniga iymon keltirgan kishiga halol emas» lafzi bilan keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-154).

### **Molliklik sababi to'la istilodir**

324-hadis

Hadisni Al-Horisiy Muhammad ibn Bashir orqali rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-155).

## **OLDI-SOTDI**

### **Shubhalardan saqlanish**

325- hadis

Abu Abdulloh No'mon ibn Bashirdan (r.a.) rivoyat qilinadi. No'mon ibn Bashir aytdi: Rasulullohdan (s.a.v.) eshitdim, shunday dedilar: «Halol aniqdir, harom aniqdir, ularning

o'rtasida insonlarning ko'pchiligi bilmaydigan, harom yo halolligi noma'lum, shubhali narsalar bor. Kim shubhali narsalardan saqlansa, dini va nomusini pok tutadi. Shubhali narsalarni qilgan, haromlarni ham qiladi. Buning misoli: chegara yonida qo'y boqayotgan cho'pon chegarada boqishga ham yaqin boradi. Har hukmdorning chegaralari bor. Alloh taoloning chegarasi harom qilgan narsalaridir.

«Tanada bir go'sht parchasi bor. U sog'lom bo'lsa, butun tana sog'lom bo'ladi. U buzilsa, butun tana buziladi. U - qalbdir».

Imom Buxoriy va Muslim rivoyat qilgan («Al-arba'in-un-Nuriyya», 58).

### **Aroqning la'natlanishi**

326-hadis

Abu Dovud va Ibn Moja Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qilishgan. Ibn Umar aytdi: Rasululloh (s.a.v.) shunday dedilar: «Alloh aroqni, uni ichganni, uni quyib uzatganni, sotganni, tayyorlovchini va asbobini olib kelganni va vositachini la'natladi» («Zujajatul-masabih», 3-108); («Uqud'ul-javohir», 2-116).

### **Aroqning savdosi botildir**

327- hadis

Imom Muslim Jobir ibn Abdulloh va Ibn Abbosning hadislaridan keltirgan. Imom Buxoriy: «Bir kishining ichkilik sotgani xabari Hazrati Umarga (r.a.) yetib keldi...» lafzi bilan rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 2-150).

### **Riboning (foizning) keskin taqiqlanishi**

328- hadis

Hadisni Nasaiy shu yo'l bilan rivoyat qilgan. Abu Dovud esa Abdurrahmon orqali rivoyat etgan. Termiziy va Ibn Moja ham keltirishgan.

Termiziy bu hadisni sahih-hasan degan.

Imom Muslim hadisni Abdullohdan rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 2-33).

Ibn Mas'ud (r.a.) bunday dedi: «Rasululloh (s.a.v.) foiz yeganni ham, foiz yedirganni ham la'natlagan edilar». Abu Dovud va Termiziy qo'shimcha qilib quyidagilarni keltirishgan: «...Unga guvoh bo'lganni ham, uni yozganni ham» («Taysirul-vusul», 1-68).

### **Nasiyaning riboligi Qur'onda kelgan**

329-hadis

Imom Buxoriy, Muslim, Nasaiy va Ibn Moja rivoyat etishgan («Uqud'ul-javohir», 2-130).

### **Tilla yo kumush pullar o'z tengiga sotilganida teng bo'lishi va savdo joyida ayirboshlanishi shart.**

330- hadis

Imom Buxoriy va Muslim hadisni «Sotmang...» lafzi bilan rivoyat etishgan. Imom Muslim Abu Saiddan va Abu Hurayradan hadisni marfu' o'laroq rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 2-27).

### **Bir qulga ikki qul sotib olish**

331- hadis

Abu Dovud hadisni muxtasar tarzda rivoyat qilgan. Imom Termiziy, Muslim va Nasa'iy hadisni keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 2-32).

### **Oldi-sotdida aldashdan qaytarish**

333- hadis

Imom Muslim Abu Hurayradan rivoyat qilgan. Imom Ahmad va Abu Dovud ham hadisni keltirishgan. («Uqud'ul-javohir», 2-17).

Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qilinadi: «Rasululloh (s.a.v.) aldab sotishdan, tosh otib, tekkanini sotishdan qaytardilar».

### **Muhoqala va muzobanadan qaytarish**

334- hadis

Muhoqala: Boshqa odamdagi bug'doyni mavjud bug'doy evaziga sotmoq.

Muzobana: Daraxtdagi xurmoni xurmo evaziga sotmoq.

Imom Ahmad, Abu Dovud, Termiziy, Nasa'iy, Ibn Hibbon hadisni keltirishgan. Imom Muslim Jobirdan (r.a.) hadisni ushbu lafz bilan rivoyat etgan: «Rasululloh (s.a.v.) muhoqala, muzobana, muovama, muxobaradan... qaytardilar» («Uqud'ul-javohir», 2-16).

336- hadis

Hadisni Abu Dovud rivoyat qilgan. Abu Shayba ushbu lafz bilan naql etgan: «Mevani iste'molga loyiq bo'lishidan oldin (salam savdosida) sotmang» («Uqud'ul-javohir», 2-33).

### **Mevasi bor xurmo daraxtini sotish**

338- hadis

Horis'iy va Ibn Xusrav Muhammad Hasan orqali hadisni rivoyat etgan. U aytdi: «Bu Abu Hanifaning qavli (so'zi)dir, biz ham unga amal qilamiz. Tahoviy hadisni Ibn Umardan (r.a.) marfu' tarzda «Kim sotib olsa...» lafzi bilan keltirgan («Uqud'ul-javohir», 2-3).

### **Musulmon birodari sovchi bo'lgan qizga sovchi qo'yish va mardikor ishlatgan kishi haqida**

339- hadis

«Kutubi sitta» sohiblari Abu Hurayra hadisining «Alloh rizq beruvchidir...» so'zigacha bo'lgan qismini naql etishmagan.

### **Ovga o'rgatilgan itni sotish mumkinligi haqida**

341- hadis

Ahmad ibn Hanbal «Musnad»ida quyidagi lafz bilan rivoyat qilgan: «Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) ovga o'rgatilgan itlardan boshqa itni sotishdan, pulini ishlatishdan qaytardilar» («Uqud'ul-javohir», 2-24).



## **Savdoga, unda bo'lmagan shart qo'shilsa, savdo botil bo'ladi**

342- hadis

Ibn Moja hadisni Laysadan keltirgan. Hadisni Bayhaqiy Ibn Ishoqdan rivoyat qilgan. Hadisni Ibn Mojadan boshqa barcha «Sunan» sohiblari keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 2-21).

## **Qiyin ahvolda qolgan qarzdorga muhlat berishning fazilati**

344-345- hadislar

Hadisni Imom Buxoriy keltirgan. Imom Muslim hadisni Ibn Mas'ud va Abu Hurayraning rivoyati bilan keltirgan («Uqud'ul-javohir» 2-50).

## **Muomalalarda (oldi-sotdida) aldashdan qaytarish**

346- hadis

Hadisni Imom Ahmad va Dorimiy rivoyat etishgan. Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Ibn Moja Abu Hurayraning (r.a.) hadisini «oldi-sotdi» lafzini tushirib, rivoyat qilishgan. («Uqud'ul-javohir», 2-26).

## **RAHN (Garov)**

348- hadis

Doraqutniy shu rivoyat bilan hadisni keltirgan. Hadis muttafaqun alayhdir («Uqud'ul-javohir», 2-57).

## **SHUF'A**

### **Shuf'a bahsi**

349-350- hadislar

Abdulkarimning hadisi Imomi A'zam orqali turli yo'llar bilan rivoyat etilgan. Nasaiy rivoyat qilgan. Imom Buxoriy hadisni Amr orqali rivoyat qilgan. Ibn Hibbon «Sahih»ida hadisni Abu Rofe'dan keltirgan. Abu Dovud, Termiziy, Nasaiy va Ibn Mojalar ham rivoyat etishgan («Uqud'ul-javohir», 2-68).

### **Zulmdan qaytarish**

351- hadis

Imom Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy va Ibn Moja Abu Hurayra (r.a.) orqali rivoyat etishgan.

Imom Buxoriy va Muslimda bunday lafzda kelgan: «Hech biringiz qo'shnisini devoriga yog'och (to'sin) qo'yishdan qaytarmasin».

(«Uqud'ul-javohir», 2-39).

## **SHERIK BO'LIB DEHQONCHILIK QILISH**

352-hadis

Imom Muslim A'toning Jobirdan rivoyat etgan hadisini keltirgan. Imom Buxoriy, Abu Dovud, Termiziy va Nasaiy boshqa rivoyat bilan hadisni keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 2-71).

## **Ekinning ma'lum bir qismi evaziga yerni ijaraga berishdan qaytarish**

353- hadis

Abu Dovud Abdurrahmon rivoyat qilgan hadisni keltirgan. Rofe' ibn Hudayjning bu hadisini «Kutubi sitta» sohiblari har xil sanadlar bilan rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 2-54).

## **FAZILAT VA SHAMOYIL**

### **Hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) vafotlari**

354- hadis

Imom Muslim hadisni Anasdan (r.a.) rivoyat qilgan. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy: «Vafot etganlarida 63 yoshdan o'tgan edilar», deganlar. ( «Zujajatul-masabih», 4-51).

### **Hazrati Muhammadning (s.a.v.) payg'ambar qilib yuborilishlari**

355- hadis

Hadis Anasdan (r.a.) bir necha rivoyatlar bilan kelgan. Muttafaqun alayhdir («Zujajatul-masabih», 4-27).

### **Xushbo'ylik (atr) rad etilmaydi**

356-357- hadislar

«Qay biringizga xushbo'ylik keltirilsa, uni sursin». Abu Dovud va Nasaiy Abu Hurayradan (r.a.) shu mazmundagi hadisni keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 2-100).

### **Hazrati Payg'ambarimizning (s.a.v.) davrada birga o'tirganlar oldidagi odoblari**

359- hadis

Imom Termiziy hadisni Anasdan rivoyat etgan («Zujajatul-masabih», 4-40).

### **Hazrati Payg'ambarimizning (s.a.v.) axloqlari**

360- hadis

Oyisha onamizdan (r.a.) Rasulullohning (s.a.v.) axloqi haqida so'ralganida: «Ul zotning axloqi Qur'on edi», dedilar, ya'ni Rasululloh Qur'on axloqi bilan odoblangan, Qur'onning go'zalligi bilan bezangan edilar». Hadisni Imom Muslim rivoyat qilgan.

«Rasululloh (s.a.v.) axloq jihatidan insonlarning eng go'zali edilar». Bu hadisni Imom Termiziy «Shamoili sharif»da rivoyat etgan.

Kengroq ma'lumot olmoqchi bo'lganlar: «Shubhasiz, siz buyuk xulq ustidasiz» mazmunli

oyati karimaning tafsirlariga, axloq borasida vorid bo'lgan hadislarga, Ibn Kasir tafsiriga qarashlari mumkin. («Shamoili Muhammadiya», 319); («Ihyo-u ulumiddin», 2-357); (Ibn Kasir tafsiri, 4-402).

### **Payg'ambarimizning tavozu'lari**

361- hadis

Ibn Moja va Bayqaqiy «Shu'bil iymon»da Anasdan (r.a.) rivoyat etgan. Imom Termiziy ham hadisni keltirgan. («Zujajatul-masabih», 4-40); («Uqud'ul-javohir», 2-62).

### **Hazrati Payg'ambarimizni (s.a.v.) yuvgan sahobalar**

364- hadis

Imom Buxoriy va Nasaiy Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilgan hadisga qarang («Taysirul-vusul», 2-40).

Omira Sha'biydan qilingan rivoyatda ushbu qo'shimcha bor: «Ul zotni Hazrati Ali (r.a.), Hazrati Fazl (r.a.) va Hazrati Usoma (r.a.) yuvishdi va qabrga ham ular qo'yishdi». Abu Dovud hadisni keltirgan («Taysirul-vusul», 4-172).

### **Hazrati Abu Bakrning (r.a.) boshqalardan fazilati**

365- hadis

Imom Termiziy «Manoqib» bo'limida hadisni keltirgan va uni hasan, degan. Hokim Ibn Moja va Ibn Hibbon hadisni Abdulmalikdan rivoyat etgishgan («Uqud'ul-javohir», 1-23).

### **Abdulloh Ibn Mas'udning (r.a.) fazilati**

366-hadis

Imom Termiziy hadisni Abdulloh ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat etgan va uni hasan hadis, degan («Uqud'ul-javohir», 1-23).

Imom Termiziy hadisni Xuzayfadan rivoyat etgan («Taysirul-vusul»; 4-229).

### **Hazrati Hafsaning (r.a.) turmush qurishi**

367-hadis

Imom Buxoriy va Nasaiy hadisni Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qilishgan («Taysirul-vusul», 4-222).

### **Hazrati Ali (r.a.) birinchi musulmon bo'lgan kishidir**

368-hadis

Hazrati Ali (r.a.) Hadicha onamizdan (r.a.) so'ngra, Hazrati Abu Bakrdan oldin musulmon bo'lgan, deganlar ham bor. Bu fikrni Ibn Ishoq va boshqalar Rofe'ning hadisini hujjat qilib isbotlashgan.

Unda shunday kelgan: «Dushanba kuni ertalab Rasululloh (s.a.v.), kun oxirida Hadicha (r.a.) namoz o'qidilar. Seshanba kuni esa hazrati Ali (r.a.) namoz o'qidi». Bu hadisni Tabaroniy rivoyat etgan. Ikkinchi dalil «Mustadrak»da shunday kelgan: «Hazrati Payg'ambarga (s.a.v.) dushanba kuni nabiyluk berildi. Hazrati Ali (r.a.) esa seshanba kuni musulmon bo'ldi».

Ibn Abdulbarrdan rivoyat qilinadi. Muhammad ibn Ka'b Qurozdan qaysi birlarining oldin musulmon bo'lganlari so'raldi. U: «Subhanalloh!... Hazrati Ali (r.a.) birinchi musulmon bo'lganlar. Odamlar chalkashayotganining sababi - Hazrati Ali (r.a.) musulmon bo'lgach, musulmon bo'lganini otasidan yashirganlar». Hazrati Abu Bakr (r.a.) esa imonini izhor etgan, deb javob berdi («Al-mavohibul-laduniyya», 1-241).

### **Shahidlikning eng afzal darajasi**

370-hadis

Xotib va Hokim hadisni Jobirdan (r.a.) rivoyat etishgan. Nasaiy Abu Saiddan rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-151).

### **Zubayr ibn Avvom va Ahzob kechasida bo'lgan voqea**

371- hadis

Hadisni Imom Buxoriy, Muslim va Termiziy rivoyat qilishgan. Havoriy xolis inson demakdir («Taysirul-vusul», 3-238).

Imom Buxoriy va Muslim hadisni Sufyondan rivoyat qilishgan. Imom Muslim hadisni Jobirdan (r.a.) rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-150).

### **Huzaymaning guvohligi ikki kishining guvohligiga tengdir**

377-hadis

Hadisni Abu Dovud, Ibn Huzayma «Sahih»da keltirishgan. Nasaiy ham rivoyat qilgan.

### **Hadicha onamizga (r.a.) Jannat xushxabari berilishi**

378- hadis

Hadisni Imom Ahmad, Tabaroniy, Abu Ya'lo ishonchli (siqo) roviylar orqali rivoyat qilishgan. Ibn Hibbon Abdulloh ibn Ja'fardan quyidagi marfu' hadisni rivoyat etgan: «Hadichaga (r.a.) Jannatda ichida shovqin-suron, behuda baqir-chaqir va charchoq bo'lmagan bir uy berilishi haqidagi xushxabarni yetkazishga buyurildim».

Imom Buxoriy va Muslim Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilgan hadisda: «Rasululloh (s.a.v.) Hadichaga (r.a.) Jannatda bir uy berilishi xushxabarini yetkazdilar...», deyiladi. Tabaroniy Jobirdan (r.a.) rivoyatlari sahih bo'lgan kishilar orqali quyidagi hadisni rivoyat etgan: «Hazrati Payg'ambardan (s.a.v.) Hadicha onamiz (r.a.) haqida so'raldi. Ul zot (s.a.v.) marhamat qildilar: «Hadichani Jannatdagi daryolardan bir daryo ustida, ichida bekorchi so'z, behuda shovqin-suron va charchoq bo'lmagan bir uyda ko'rdim» («Al-mavohibul laduniyya», 2-222).

### **Oyisha onamiz (r.a.) jannatdadir**

379- hadis

Ibn Asokir hadisni ushbu lafzlar bilan rivoyat etgan: «Sen mening Jannatda zavjam bo'lishingni bilganimdan buyon o'limga parvo qilmayman».

Ammor ibn Yosir xutba o'qidi va bunday dedi: «Allohga qasamki, men Oyisha onamizning (r.a.) dunyoda va oxiratda Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) zavjasi ekanligini bilaman» (Imom Buxoriy rivoyati).

## **Oyisha onamizning (r.a.) fazilatlari**

380, 381, 382, 383-hadislari

Ibn Sa'd Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qiladi: «Hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) ayollari orasida o'n fazilatim bilan ajralib turaman...»

Ibn Sa'd va Tabaroniy sahih sanad bilan va Ibn Abu Shayba: «Menga to'qqiz xislat berildi» lafzi bilan hadisni rivoyat qilishgan.

Abu Ya'lo esa ushbu lafz bilan rivoyat qilgan: «Menga to'qqiz xislat berildi... mendan boshqa bokira ayolga uylanmadilar» («Al-mavohibul laduniyya», 3-223).

Hofiz, ushbu hadis ahli hadis orasida muttafaqun alayhdir, degan («Al-mavohibul laduniyya», 3-233).

## **Hazrati payg'ambar (s.a.v.) ummatining fazilati**

Oxiratda kofirlar musulmonlarning fidyasi bo'ladi.

388- hadis

Hadisni Ibn Xusrav Avn ibn Ja'fardan rivoyat qilgan. Imom Muslim hadisni «Tavba» bo'limida keltirgan. («Uqud'ul-javohir», 1-22; «Sahihi Muslim», 8-104).

## **Bu ummat rahmatga sazovor bo'lgan ummatdir**

389-391- hadislar

Abu Musodan (r.a.) rivoyat qilinadi. Rasululloh (s.a.v.) dedilar: «Bu ummat rahmatga sazovor bo'lgan ummatdir. Ularga oxirat azobi yo'qdir. Azoblari dunyodadir: fitnalar, zilzilalar va qatllar».

Hadisni Abu Dovud rivoyat qilgan («Zujajatul-masabih»,1-23).

## **Ta'n va tou'n**

392-393-hadislari

Imom Ahmad va Tabaroniy Ziyod ibn Aloqatadan, u Abu Musodan, u Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qilgan.

Hofiz Iroqiy: «sanadi sihatlidir», degan.

Haysam: «Ahmad ibn Hanbal sanadlar bilan va siqot roviylar orqali hadisni rivoyat etgan», degan («Al- munaviy», 4-444).

## **Yeyish, ichish, qurbonlik qilish, ovchilik va hayvon so'yish, yeyish halol va harom bo'lgan narsalar**

394-395-hadislari

Boshqa hadis kitoblarida Nofe' Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qilgan hadis keltirilgan. Imom Muslim hadisni Abu Birr rivoyati bilan keltirgan.

Imom Muslim hadisni Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 2-17).

## **Xonaki eshak go'shtini yeyishdan qaytarish**

396- hadis

Hadisni Imom Buxoriy, Muslim va Nasaiy keltirishgan. («Uqud'ul-javohir», 2-79).

«Rasululloh (s.a.v.) barcha yirtqich hayvonlar (go'sht)ini yeyishni man' etdilar». Bu hadis «Kutubi sitta»da kelgan. Hadisni Imom Muslim, Abu Dovud va Nasaiy Ibn Abbosdan quyidagi qo'shimcha bilan rivoyat etishgan: «va barcha yirtqich qushlarni» («Taysirul-vusul», 3-122).

### **Qurbaqani o'ldirishdan qaytarish**

398-hadis

«Rasululloh (s.a.v.) dorilik uchun qurbaqani o'ldirishdan qaytardilar». Bu hadisni Ahmad, Abu Dovud, Nasaiy va Hokim Abdurahmon ibn Usmon Taymiydan rivoyat qilishgan. Bayhaqiy: «Bu hadis qurbaqani o'ldirishdan qaytarish borasida vorid bo'lgan hadislarining eng quvvatlisidir», degan. («Al-munaviy», 6-337).

### **Kaltakesakni yeyishdan qaytarish**

399- hadis

Bu hadisni Imom Ahmad ibn Hanbal «Musnad»ida keltirgan. Abu Dovud Abdurrahmondan rivoyat qilgan. Abu Hanifa (r.al.), Abu Yusuf va Imom Muhammad nazdlarida kaltakesakni yeyish makruhdur. Nabiy (s.a.v.) o'zlari va boshqalarga uni yeyishni karoh ko'rganlari shunga dalolat etadi.

### **Ovchilik**

400-hadis

Imom Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Nasaiy va Ibn Moja Hammam ibn Horisdan rivoyat qilishgan. «Kutubi sitta»da Adiydan rivoyat qilingan («Uqud'ul-javohir», 2-73).

### **Suv qurib, o'lgan baliqni yeyish**

401-hadis

Ibn Abu Shayba hadisni shu yo'l bilan Abu Saidga bog'lab rivoyat qilgan. Abu Dovud va Ibn Moja Jobir rivoyati bilan keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 2-80).

### **Chigirtka yeyishning mubohligi**

402-hadis

Abu Dovud Salmon Forsiydan rivoyat qilgan. Imom Buxoriy, Muslim, Nasaiy hadisni keltirishgan («Uqud'ul-javohir»), 2-79). Salmondan rivoyat etiladi. Rasulullohdan (s.a.v.) chigirtkalar haqida so'rashdi. Ul zot (s.a.v.) aytdilar: «Uni yemayman va harom ham demayman». Abu Dovud hadisni rivoyat qilgan («Taysirul-vusul», 3-118).

### **Otilgan yoy hayvonning jon joyiga tegsa bo'g'izlash hisobiga o'tadi**

403-hadis

«Kutubi sitta»da hadis to'laligicha rivoyat qilingan. («Uqud'ul-javohir», 2-77).

### **Hayvonni bog'lab, nishon qilishdan qaytarish**

404- hadis

Abu Dovuddan rivoyat qilinadi: «Rasululloh (s.a.v.) bog'lab, nishonga olib o'ldirilgan hayvon go'shtini yeyishdan qaytardilar».

Abu Osimdan: «Mujassama nima?» deb so'raldi. Dedi: «Qushning joyga bog'lab qo'yib, nishon qilinishidir» («Zujajatul-masabih», 3-297).

### **Zabiha (so'yilgan hayvon)**

405-hadis

Imom Buxoriy, Ibn Moja rivoyat qilishgan. Molik «Muvatto»da keltirgan. Zabiha so'yilgan hayvondir («Uqud'ul-javohir», 2-76).

### **Tosh bilan so'yish**

406- hadis

Imom Termiziy Jobirning (r.a.) hadisini rivoyat qilgan. Ikkinchi rivoyatni Abu Dovud, Nasaiy, Ibn Moja va Ibn Hibbon «Sahih»ida keltirgan («Uqud'ul-javohir», 2-76).

### **Zulhijja oyi avvalgi o'n kunining fazilati**

408-hadis

Dorimiy «Ro'za» bobida, Ibn Huzayma «Haj» bobida hadisni keltirishgan. Imom Termiziy va Ibn Moja hadisni Abu Hurayradan quyidagi lafzda rivoyat qilgan: «Alloh taolaga ibodat qilinadigan kunlar ichida Zulhijja oyining (avvalgi) o'n kunidan sevimli kun yo'q. U kunlarda tutilgan ro'za yil davomida tutilgan ro'zaga teng. U kechalarda qilingan ibodat Qadr kechasida qilingan ibodatga tengdir» («Uqud'ul-javohir», 2-831).

### **Qurbonlikning vojibliigi**

409- hadis

Ibn Moja: «Rasululloh (s.a.v.) qurbonlik so'ydilar» lafzi bilan hadisni rivoyat etgan («Uqud'ul-javohir», 2-81)

### **Qanday qo'yni qurbonlik qilish mustahab?**

410-hadis

Abu Dovud, Ibn Moja va Hokim hadisni rivoyat qilishgan. Muslimning shartiga ko'ra, hadis sahihdir. Ibn Moja hadisni yana Oyisha onamizdan (r.a.), Ahmad ibn Hanbal Abu Rofe'dan rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 2-82).

### **Yoshiga to'lmagan (olti-etti) oylik echki qurbonlikka yaramaydi**

411-hadis

Ibn Mojadan boshqa «Kutubi sitta» sohiblari Barro ibn Ozibdan rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 2-81).

### **Qurbonlik go'shtini saqlab qo'yish joizligi**

412-hadis

Bu hadisni Imom Muslim, Abu Dovud va Nasaiy Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilishgan. Termiziy ham keltirgan. («Uqud'ul-javohir», 2-83).

### **Mehmonni takalluf bilan (o'zini mashaqqatga solib) kutishning Makruhligi**

413-414-hadislari

Ahmad ibn Hanbal, Muslim va «Sunan» sohiblari Jobirdan rivoyat qilishgan. Imom Termiziy «Sunan»da va «Shamoil»da Oyisha onamiz (r.a.) va Jobirdan bu hadisni keltirgan. «Sirka qanday ham yaxshi nonxurushdir» (non bilan qo'shib yeyiladigan narsa. -Tarj.). Bu uch marta takror aytilgan. Imom Buxoriydan boshqa «Kutubi sitta» sohiblari hadisni rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 2-91; «Taysirul-vusul», 3-123).

### **Mo'min bir me'daga taom yeydi**

415-hadis

Imom Buxoriy rivoyat qilgan. Imom Muslim Abu Muso va Ibn Umardan rivoyat etgan: «Mo'min bir me'daga yeydi, kofir yetti me'dasiga yeydi».

Bu hadis mo'minning oz dunyoga qanoat qilishiga, kofirning esa ochko'zligiga tamsildir («Taysirul-vusul», 3-114).

### **Suyanib yeyishning makruhligi**

416-hadis

Horisiy Ibn Mas'uddan shunday rivoyat qilgan: «Men suyanib ovqat yemayman». Imom Buxoriy, Abu Dovud va Ibn Moja ana shunday rivoyat qilishgan. Tabaroniy Ali Ibn Aqardan rivoyat qilgan. Imom Buxoriy va «Sunan» sohiblari Abu Juhayfadan ham rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 2-88).

### **Erkaklarning ipak kiyim kiyishi**

417-419-hadislari

Hadisni Imom Buxoriy va Muslim Abu Farvadan «Kiyimangiz...» lafzi bilan rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 2-84).

### **Oltin, kumush idishdan yeb-ichishning makruhligi**

420-hadis

Hadisni Imom Buxoriy, Muslim va «Sunan» sohiblari Ibn Laylodan rivoyat qilishgan. Nasaiy hadisni Anasdan keltirgan.

«Sahihayn»da Ummu Salamadan rivoyat qilingan («Uqud'ul-javohir», 2-84; «Zujajatul-masabih», 3-361).

### **«Dubba» va «xantam» deb ataladigan idishda nabiz tayyorlashning taqiqlanishi**



421-hadis

Hadisni Imom Muslim, Abu Dovud, Nasaiy va Tahoviy bir necha yo'llar bilan turli lafzda rivoyat qilishgan. Abu Said rivoyat qilgan hadisni Muslim va Tahoviy, Abu Nazra orqali keltirgan («Uqud'ul-javohir», 2-119).

### **Qabr hayoti va mast qiluvchi ichkilik ichishning haromligi haqida**

422- 423-hadislari

Ibn Hibbon «Sahihayn»dagina shunday keltirgan va Nasaiy Muhammad ibn Odamdan, Hokim Anasdan rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 2-91).

### **Qanday nabiz halolu, qanday nabiz harom ?**

424-hadis

Horisiy shunday rivoyat qilgan. Hadisning sanadida zaiflik bor («Uqud'ul-javohir», 2-111).

Imomi A'zamning «Musnad»larida nabiz va musallasni ichish joizligiga bog'liq hukmlarga qarang.

Hadisni Abu Dovud va Nasaiy Abdullohdan rivoyat qilishgan.

### **Ikki narsani aralashtirishning ma'n etilishi**

425-hadis

«Kutubi sitta» sohiblari hadisni quyidagi lafz bilan keltirishgan: «Qurigan uzumga (mayizga. - Tarj.) qurigan xurmoni aralashtirib nabiz tayyorlashdan, qurigan xurmo bilan ho'l xurmoni aralashtirib, nabiz tayyorlashdan qaytardilar».

Abu Dovud, Nasaiy va Ibn Moja Abdullohning hadisini keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 2-117).

### **Har qanday mast qiluvchi ichimliklarning harom qilinishi**

426-hadis

Hadisni Ahmad ibn Hanbal keltirgan. Abu Dovud Shahr ibn Hushabning hadisini rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 2-110).

### **Aroqning haromligi qat'iydir**

427-hadis

Nasaiy, Bazzor, Tabaroniy, Doraqutniy hadisni mavquv va marfu' tarzda rivoyat qilishgan.

### **Rasulullohga hadya qilingan harom narsa**

428-hadis

Bu hadisni mazkur tarzda Hasan ibn Ziyod rivoyat qilgan. Imom Muslim hadisni yolg'iz o'zi keltirgan («Uqud'ul-javohir», 2-16).

## **KIYIM VA BEZANISH**

### **Kiyim bahsi**

429-hadis

«Rasulullohning (s.a.v.) uchta qalansuvalari (bosh kiyimlari) bor edi. Ul zotda (s.a.v.) muzariy oq qalansuva bor edi».

Imom Bayhaqiy «Shu'ab imon»da Ibn Umardan (r.a.) «Rasululloh (s.a.v.) oq qalansuva kiyar edilar», deb rivoyat qilgan («Ihyo», 2-376).

### **Ipak kiyishning taqiqlanishi**

431-hadis

Horisiy hadisni shunday rivoyat qilgan. «Hidoya»da «oxiratda...» lafzi ziyoda etilgan.

Hofiz: «Bu hadis ikki hadisdan - Huzayfaning va Ibn Umarning muttafaqun alayh hadislaridan tashkil topgan», degan («Uqud'ul-javohir», 2-84).

### **Uylarga surat osishning makruh ekanligi**

432-hadis

Imom Muslim Maymunaning hadisini marfu' tarzda rivoyat qilgan. Imom Termiziy, Nasaiy, Abu Dovud va Ibn Hibbon hadisni Abu Hurayradan (r.a.) marfu' shaklda bunday rivoyat etishgan. Abu Dovud, Nasaiy, Ibn Moja va Ahmad shunday keltirishgan: «Farishtalar it, rasm va junub kimsa bor uyga kirmaydilar» («Uqud'ul-javohir», 2-57).

### **Xina qo'yishga ruxsat**

483-hadis

Nasaiy Abu Hurayraning hadisni ma'nosidagi hadisni keltirgan: «Yahudiy va nasorolar bo'yamaydilar. Siz ularga xilof yo'l tuting». Imom Buxoriy va Ibn Moja hadisni shunday keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 2-99).

### **Xina va katam ishlatish**

434-hadis

Abu Dovud, Termiziy, Nasaiy va Ibn Moja «Bu sochni o'zgartiradigan narsa» lafzi bilan hadisni rivoyat qilishgan. Bir rivoyatda «oqargan soch» ifodasi ishlatilgan. Termiziy hadisni «sahih-hasan», degan.

Nasaiyda ifoda «eng afzal» shaklidir. Ahmad ibn Hanbal, Ibn Hibbon va Hokim Abu Zarrning hadisini keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 2-99).

### **Xotinlarning ulama soch taqishlari makruh**

436-hadis

Abdulloh ibn Umarning (r.a.) hadisini «Kutubi sitta» sohiblari rivoyat qilishgan. Hadis «La'nat bo'lsin...» deya boshlanadi («Uqud'ul-javohir», 2-98).

## **Kasallikning savobi, davo va duolar Kasal bo'lgan va safarga chiqqan kimsa haqida**

438-hadis

«Kishi xastalansa yoki safarga chiqsa, Alloh taolo unga sog' va muqim holida bajargan amallarining savobini beradi».

Bu hadisni Ahmad ibn Hanbal va Imom Buxoriy Abu Musodan rivoyat qilishgan («Al-munaviy», 1-144).

### **Har bir dardning davosi bor**

439-hadis

Jobirdan (r.a.) rivoyat etiladi: «Rasululloh (s.a.v.): "Har dardning davosi bordir. Dori dardga yetsa, Alloh taoloning izni bilan tuzaladi", dedilar».

Hadisni Imom Muslim rivoyat etgan («Taysirul-vusul», 3-130).

### **Sigir suti bilan davolash**

440, 441, 442-hadislar

Bayhaqiy hadisni «Shu'ab»da keltirgan. «Sunan» sohiblari Usomaning hadisini rivoyat etishgan. Termiziy hadisni «hasan», degan. Hokim hadisni «sahih», degan. Abu Dovud hadisni keltirgan («Uqud'ul-javohir», 2-92).

443-hadis

Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qilinadi: «Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilar: «Sedanada o'limdan boshqa har narsaga shifo bor».

Imom Buxoriy, Muslim va Termiziy hadisni keltirishgan («Taysirul-vusul», 3-131).

### **Qo'ziqorin ne'matlardandir**

444-hadis

Said ibn Zayddan (r.a.) rivoyat qilinadi. Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Qo'ziqorin ne'matlardandir. Suvi ko'zga shifodir».

Hadisni Imom Buxoriy, Muslim va Termiziy rivoyat qilishgan («Taysirul-vusul», 3-131).

### **Duo va zikrlar**

445-hadis

Havla binti Hokimdan (r.a.) rivoyat qilinadi. Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: «Kim bir joyga qo'nganida: «A'uzu bi kalimatillahit-tomma min sharri ma xolaq», desa, unga hech narsa zarar bermaydi

Hadisni Imom Muslim, Molik va Termiziy rivoyat qilishgan.

### **Alloh kasalliklarga shifo beruvchidir**

446-hadis

Imom Termiziy hadisni hazrati Alidan (r.a.) rivoyat qilishgan («Taysirul-vusul», 3-137)

### **«Salom» Allohning ismidir**

450-hadis

«Salom Allohning ismlaridan biri. Uni (butun) yer yuziga o'rnatgandir. Shunday ekan, orangizda (oshkora) salomni yoying».

Tabaroniy «Jomius-sag'ir»ida hadisni boshqa lafz bilan rivoyat etgan: «Salom Allohning ismlaridan bir ismdir» («Al-munaviy», 2-346).

## **ODOB**

### **Odob bahsi**

451-hadis

«Sen va moling otangga tegishli». Bu hadisni Ibn Moja Jobirdan, Tabaroniy Samura va Ibn Mas'uddan rivoyat qilgan. Ibn Hajar «Hidoya»ning hadisleri zikrida bu hadis rijolini (roviylarining) ishonchli ekanlarini aytgan.

Bazzor: «Hishomdan, u Ibn Munkadirdan rivoyat etgan hadis mursal sifatida ma'lum», degan («Al-munaviy», 3-50).

### **Ota-onaga xizmat jihod o'rniga o'tadi**

452-hadis Ahmad ibn Hanbal, Ibn Hibbon, Tabaroniy va ko'pchilik hadisni Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-149).

#### **«Buyuklik mening ridomdir...»**

454-hadis

Imom Muslim va Abu Dovud Abu Said va Abu Hurayradan rivoyat qilgan («Taysirul-vusul», 1-132).

### **Go'zal axloq va halimlik**

454-457-hadislari «Fazilat» bobidagi 360 - hadisga qarang.

### **Bay'at payti xotinlar bilan qo'l ushlabish makruh**

460-hadis

Ibn Hibbon bu hadisni Umayya hadisidan keltirgan. «Sahihayn»da Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilingan («Uqud'ul-javohir», 1-154).

### **Rasululloh (s.a.v.) xushbo'ylikni sevar, yomon hidni yoqtirmas edilar**

463-hadis

Nasaiy hadisni Anasdan (r.a.) rivoyat qilgan. Sahih xabarlarida kelgan: «Rasululloh (s.a.v.) xushbo'ylik surmasalar ham muborak vujudlaridan doimo yoqimli hid taralar edi» («Shamoili sharif», 195-bet).

### **Yulduzlarga qarab, kelajakdan xabar berishdan qaytarish**

464-hadis

Doraqutniy hadisni Aqoba ibn Abdulloh Asamdan rivoyat qilgan. Abu Dovud shu ma'nodagi hadisni Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi: «Kim ilmi nujumdan bir qism olsa, seyr ilmidan bir qism olgan bo'ladi».

Ibn Moja hadisni rivoyat etgan.

Bu ilmning man etilgan tomoni hali sodir bo'lmagan voqealarni yulduzlarning harakati, yig'ilishi va ajralishiga qarab bilishni iddao etishdir. Buni bilguvchi tanho Allohdir. Yulduzlarga qarab, qiblani aniqlash, zavolni bilish man etilmagan («Uqud'ul-javohir», 2-971).

### **Izor (peshtomol, lungi)siz hammomga kirilmaydi**

465-hadis

Imom Termiziy va Nasaiy hadisni rivoyat etgan. 74-hadisga qarang («Uqud'ul-javohir» 1-41).

### **Allohga sevimli ismlar**

466-hadis

Muslim Ibn Umardan (r.a.) rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: «Allohga eng sevimli ismlar Abdulloh va Abdurrahmondur». Bundan tashqari Ali, Rashid va boshqa mushtarak ismlarni qo'yish ham joizdir» («Durrul Muxtor»).

### **Yaxshilik yo'q bo'lmaydi (unutilmaydi)**

467-hadis

Abu Qalobadan mursal tarzda bunday rivoyat qilinadi: «Yaxshilik yo'q bo'lmaydi, gunoh unutilmaydi, Dayyon (Alloh) o'lmaydi. Xohlaganingni qil, toatingga ko'ra ajr olasan».

Buni Bayhaqiy rivoyat qilgan. Abu Na'im, Daylamiy Ibn Umardan (r.a.) rivoyat etishgan («Al-munaviy», 3-218).

### **Majlisda yetgan joyida o'tirish**

468-hadis

«Majlisda yetgan joyiga o'tiradi». Imom Termiziy «Shamoil»da shunday rivoyat qilgan («Ihyo», 2-366).

### **Insonlarga tashakkur bildirish**

469-hadis

«Insonlarga tashakkur etmagan Allohga shukr etolmaydi».

Bu hadisni Imom Termiziy Abu Saiddan rivoyat qilgan va uni hasan hadis, degan. Abu Dovud va Ibn Hibbon Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qilishgan. Uni sahih-hasan deyishgan.

### **Hokimlarni zulmlaridan ogoh etish**

Imom Buxoriy va Muslim hadisni keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 2-39).

## **Egasining roziligisiz so'yilgan qo'ying pulini to'lamay, yeyish nojoizdir**

471-hadis

Abu Dovud va Ahmad ibn Hanbal hadisni keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 2-63).

## **Alloh yo'lida bir g'oziyni kiyintirish**

472-473-474-hadislari

Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qilingan bir hadisda: «Kim yaxshilikka dalolat qilsa, unga yaxshilik qilganning savobi kabi savob yoziladi», deyiladi.

Imom Muslim bu hadisni rivoyat qilgan.

Bazzor Ibn Mas'uddan, Tabaroniy Sahl ibn Saiddan va Ibn Mas'uddan hadisni rivoyat qilishgan («Al-munoviy», 3-536).

474-hadis

Bu hadisni Ahmad ibn Hanbal rivoyat qilgan. Muslim Abu Mas'uddan rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-149).

## **Eng afzal amal**

475-hadis Hadisni Nasaiy Abu Saiddan rivoyat qilgan.

Ahmad ibn Hanbal va Tabaroniy «Kabir» asarida hadisni keltirishgan («Uqud'ul-javohir», 1-149).

## **Mo'minlar o'zaro mehribon bo'lishlari zarur**

477-hadis

Imom Muslim «Sahih»ida No'mon ibn Bashirdan rivoyat qilgan («Sahih Muslim», 8-20).

Imom Buxoriy va Muslim hadisni keltirishgan («Taysirul-vusul», 3-21).

## **Qo'shni haqida vasiyat**

478-hadis

«Jabroil menga qo'shni haqida shunchalar tavsiya berdiki, qo'shni qo'shniga merosxo'r bo'ladi, deya o'yladim».

Bu hadisni Ahmad ibn Hanbal, Abu Dovud va Termiziy Ibn Umardan (r.a.) rivoyat etishgan. Hadis muttafaqun alayhdir.

Ahmad ibn Hanbal va «Sunan» sohiblari Oyisha onamizdan (r.a.) hadisni rivoyat etishgan («Fayzul qodir», 5-447).

## **Ishlarni zamonga bog'lamaslik kerak**

480-hadis

Hadisni Imom Buxoriy va Muslim rivoyat qilishgan. Abu Dovud va Nasaiy Abu Hurayradan (r.a.): «Menga odam farzandi zamon sababidan ozor beradi», lafzlari bilan rivoyat etishgan.

481-hadis

Imom Termiziy Vosiladan hadisni bunday lafz bilan rivoyat qilgan: «Mo'min birodaring

boshiga kelgan musibatlarga sevinma. Alloh unga marhamat qiladi, seni o'sha musibatga giriftor etadi».

### **Birodarining boshiga tushgan musibatga sevinish**

482-hadis Imom Termiziy hadisni hasan-g'arib degan.

### **Riqoq (ko'ngil yumshoqligi)**

483-hadis

325-hadisga qarang. U yerda hadis rivoyati bayon qilingan. «Riqoq» «raqiq» so'zining ko'pligidir. Nazokat, zarofat ma'nolarida keladi. Bu hadislarning shunday nomlanishining boisi ularni o'rgangan qalbdan nazokat paydo bo'lishidir.

### **Hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) ovqatlanishlari**

484-hadis

Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilinadi: «Rasululloh (s.a.v.) vafotlariga qadar ketma-ket ikki kun arpa non yemaganlar».

Bu hadis muttafaqun alayhdir («Zujajatul-masabih», 4-172).

### **Hazrati Payg'ambarning (s.a.v.) bo'yra ustida o'tirganlari**

485-hadis

Bu hadis muttafaqun alayhdir. Bir rivoyatda: «Ularga dunyo, oxirat bizga bo'lishini istamaysanmi», deyiladi. («Zujajatul-masabih», 4-173).

## **JINOYATLAR**

### **Qasos olmay, avf etishga targ'ib**

486-hadis

Bu ma'nodagi hadisni Abu Dovud, Nasaiy va Ibn Moja Anas ibn Molikdan (r.a.) rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 2-140). Xotib hadisni Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qilgan («Al-munaviy», 6-180).

### **Qasos olishni lozim qiluvchi narsalar**

488-hadis

Jinoyatdan boshqa narsa qasos olishni lozim qilmaydi. Bayhaqiy va Abu Dovud hadisni «Mursal»larida rivoyat etishgan («Uqud'ul-javohir», 4-148).

## **AHKOM**

### **Insonlar orasida boshliq tayinlash**

489-hadis

Hadisni Imom Muslim va Abu Dovud rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 2-38).

### **Hukmda adolatli hokimning fazilati**

490-hadis

Imom Termiziy hadisni bunday lafz bilan rivoyat qilgan: «Qiyomat kuni Allohga insonlarning eng sevimlisi va eng yaqini odil rahbardir».

Abu Hurayraning hadisida: «Yetti toifa inson Arshning soyasidadir. Bulardan biri odil rahbarlardir», deyiladi («Uqud'ul-javohir», 2-39).

### **Hukm**

491-hadis

Abu Dovud, Termiziy, Ibn Moja, Hokim va Bayhaqiy hadisni rivoyat qilishgan. Hokim: «U Muslimning shartiga asosan», degan.

### **Hukm chiqaruvchining odobi**

492-hadis

Muslim va Abu Dovud Abdurrahmondan rivoyat qilishgan. Hadis muttafaqun alayhdir.

### **Da'vo va dalillar**

493-hadis

Horisiy, Ibn Muzaffar va Doraqutniy hadisni rivoyat qilishgan. Bu mavzuda Umar ibn Shuayb otasidan rivoyat qilgan to'rt hadis bor.

Rasululloh (s.a.v.) marhamat qiladilar: «Da'vogar dalil keltiradi. Ayblanuvchi qasam ichadi».

Ibn Abbosning (r.a.) hadisini Imom Buxoriy, Muslim va «Sunan» sohiblari keltirishgan. Imom Muslimning lafzi quyidagicha: «Koshki da'vo qilayotgan insonlar da'vo qilayotgan narsalarini topolsalar edi». Bunda quyidagi shartlar mavjud:

1. Da'vogar faqatgina da'vo bilan haq sohibi bo'lolmaydi.
2. Inkor etganning so'zi e'tiborlidir.
3. Da'vogar dalil keltiradi.
4. Ayblanuvchi qasam ichadi.
5. Da'vo inkor bilan o'rtadan ko'tarilmaydi.
6. Inkor etgan qasam ichadi.
7. Mutlaq mulkda hokimning dalili qabul qilinmaydi («Uqud'ul-javohir». 2-43).

### **Aqlsiz bolaning tasarrufi o'tmaydi**

494-hadis

Imom Termiziydan boshqa «Sunan» sohiblari hadisni Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat etishgan. Hokim Hammod ibn Salama orqali rivoyat qilgan va Muslimning shartiga ko'ra sahih, degan («Uqud'ul-javohir», 2-58).

Ikki kishi bir narsani da'vo etganida ikkisinin ham dalili bo'lmasa, sotgan odamning so'zi inobatga olinadi yoki ahdnoma bekor qilinib, olingan narsalar o'zaro qaytarib beriladi.



495-496-hadislari

Hammodning hadisini «Sunan» sohiblari, Hokim, Ahmad ibn Hanbal va Dorimiy rivoyat etishgan. Ifoda Dorimiyga oid («Uqud'ul-javohir», 2-45). Abu Dovud, Abdurahmon ibn Qays ibn Muhammad ibn Ash'as, u otasidan, u bobosidan birinchi ifoda bilan rivoyat etgan. Nasaiy Qosim ibn Abdurrahmondan, u otasidan, u Ibn Mas'uddan (r.a.) rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 2-46).

**Mol qo'lida bo'lgan va uni da'vo qilganning har ikkisi narsa o'ziga tegishli ekaniga dalil keltirishganida, mol qo'lida bo'lgan unga haqlidir**

497-498-hadislari

Abu Dovud Abu Muso Asha'riyning hadisini rivoyat etgan («Uqud'ul-javohir», 1-152). Bu hadisni Nasaiy, Ibn Moja ham keltirgan.

## **FITNA**

**Zulm etib, qilich ko'targanning oqibati (gunohi)**

499-hadis

Hadisni Ahmad ibn Hanbal, Termiziy va Ibn Moja rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-152).

## **TAFSIR**

**Mo'minning farosati**

504-hadis

Imom Buxoriy va Termiziy hadisni Abu Saiddan rivoyat qilishgan. Tabaroniy «Kabir» asarida, Ibn Adiy «Komil» asarida Abu Umoma ibn Jarirdan, u Ibn Umardan hadisni rivoyat qilishgan. Hadis hasan-sahihdir («Al-munaviy», 1-142).

**«Qasamki, ularning hammasidan qilganlarini so'raymiz».**

505-hadis

Atiyya Avfiy Ibn Umardan rivoyat qilishicha, so'raladigan narsa «La ilaha illalloh»dir. Imom Termiziy va Abu A'lo Anasdan rivoyat qiladi: «Oyatda nazarda tutilayotgan narsa «La ilaha illalloh»dir.

Imom Termiziy va boshqa muhaddislar Anasdan marfu' tarzda rivoyat qilishgan (Ibn Kasir tafsiri, 2-558).

**«Faqat Rabbing amri ila tushamiz».**

506-hadis

Mazkur oyat Jabroilning (a.s.) Rasulullohni (s.a.v.) ko'p ziyorat etishi bilan bog'liq holda nozil bo'lgan.

Ahmad ibn Hanbal Said ibn Jubayrdan, u Ibn Abbos orqali rivoyat etgan. Hadisning so'ngida ziyoda (qo'shimcha) bor: «Bu Hazrati Payg'ambarga (s.a.v.) javobdir». Oyati

karimadagi «oldimizdagi narsa»dan maqsad dunyodir, «ortimizdagi narsa»dan murod oxiratdir (Ibn Kasir tafsiri, 3-130).

### **Allah sizni bir suvdan yaratdi**

508-hadis

Allah taolo odam farzandi yaratilish holatining asli bo'lgan tuproqdan boshqa hollarga o'tishini bayon etmoqda. Hadisni Abu Hanifa (r.al.) Atiyya Avfiydan rivoyat qilgan. Abu Dovud va Imom Termiziy Fuzayldan rivoyat etishgan. Termiziy hadisni hasan, degan. Abu Dovud Abdulloh ibn Jobirdan, u Atiyya Abu Saiddan hadisni rivoyat qilgan (Ibn Kasir tafsiri, 3-440).

#### **«Farzandlaringiz kasbingizdandir».**

510-hadis

Imom Buxoriy «At-tarix» asarida rivoyat qilgan. Imom Termiziy, Nasaiy, Ibn Moja Oyisha onamizdan (r.a.) rivoyat qilishgan. Faqat Ibn Moja va Abu Dovud rivoyatining lafzi bunday: «Kishi yegan narsasining eng totlisi kasbidan (ishlab topganidan. - Tarj.) yeganidir. Kishining farzandi uning kasbidandir». Termiziy hadisni hasan, degan. («Fayzul qodir», 2-423).

### **Tavba**

511-hadis

Imom Buxoriy Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qiladi: «Mushriklardan bir guruhi ko'p qotillik, ko'p zino qilgan edi. So'ng ular Hazrati Muhammadning (s.a.v.) huzurlariga keldilar va bunday dedilar:

- Siz aytayotgan va da'vat etayotgan narsa yaxshidir. Biz qilgan narsalarning kafforati haqida bizga xabar bersangiz?

Shunda mazkur oyatlar nozil bo'ldi: «Ular shunday kishilarki, Allohdan boshqani iloh deb bilishmaydi, biror jonni nohaq o'ldirishmaydi, zino qilishmaydi...» (Furqon, 68-69)

So'ngra quyidagi oyat nozil bo'ldi: «Ayting: Ey nafsiga zulm etib haddidan oshgan qullarim. Allohning rahmatidan umid uzmang» (Zumar, 53).

Imom Muslim, Abu Dovud, Nasaiy Ibn Jurayhdan, u Ya'lo ibn Muslimdan, u Makkiydan, u Said ibn Jubayrdan, u Ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qilgan. Imom Ahmad ibn Hanbal hadisni yolg'iz yo'l bilan rivoyat qilgan (Ibn Kasir tafsiri, 4-58).

### **Hazrati Hamza qotilining Islomga kirganidan so'ng avf etilishi**

512-hadis

Imom Buxoriy Ja'far ibn Umar va Ibn Umayya Zumriydan rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 1-151).

#### **«Al-huqub (vaqt) sakson sanadir».**

515-hadis

Allah taolo marhamat qiladi: «U yerda davrlar davomida (ahqoban) qoladilar» (Naba', 23).

Ahqob miqdori borasida quyidagicha ixtilof etishgan:

Ali ibn Tolib bu davrni sakson yil, Hasan va Saddiy yetmish yil, Abdulloh ibn Amr qirq yil - deydi.

Saddiy bunday degan: «Yetti ming davr va har davr yetmish yil, har yil uch yuz oltmish besh kun, har kuni sizning ming yilga teng» (Ibn Kasir tafsiri, 4-464).

### «Xusno»ni tasdiqlash

516-hadis

Ibn Kasir aytadi:

1. Ibn Abbas, Mujohid, Ikrima, Abu Solih va Zayd ibn Muslim: «Xusno»dan murod qasamdir», deyishgan.

2. Abu Abdurrahmon Solamiy va Zahhok: «Xusno» «La ilaha illalloh»dir, deyishgan.

3. Ubay ibn Ka'b aytadi: «Men Rasulullohdan (s.a.v):

- «Xusno» nima? - deya so'radim.

- Jannatdir, - dedilar Rasuli Akram (s.a.v)» (Ibn Kasir tafsiri, 4-518).

Imom Buxoriy, Muslim Abu Dovud va Termiziy hazrati Alidan (r.a.) rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 1-18).

## VASIYAT VA MEROS

### Vasiyat

517-hadis

Vasiyatning eng ko'p miqdori molning uchdan bir qismidir. Imom Buxoriy shunga yaqin bir hadisni rivoyat qilgan. «Kutubi sitta»da hadis Molik orqali rivoyat etilgan. Imom Buxoriy va Muslim Sufyondan, u Zuhriydan rivoyat qilgan. Hadisni Imom Muslim Shu'ba orqali keltirgan («Uqud'ul-javohir», 2-150).

### Musulmon kofirga, kofir musulmonga merosxo'r bo'lolmaydi

518-hadis

«Uqud'ul-javohir» muallifi bu haqda uchta hadisni naql etgan. «Kutubi sitta»da Usoma ibn Zaydning hadisi marfu' tarzda ushbu lafz bilan keltirilgan: «Musulmon kofirga, kofir musulmonga merosxo'r bo'lolmaydi» («Uqud'ul-javohir», 2-153).

### Asabning merosi

519-hadis

Hadisni Imom Buxoriy, Muslim, Termiziy, Nasaiy va Ibn Moja rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 2-156).

### Hissa (ulush)lar taqsimidagi ixtilof

520-hadis

Kengroq ma'lumot olish uchun «Uqud'ul-javohir»dagi ushbu hadisga va bu borada kelgan boshqa hadislarga qarang. Hadisni Ahmad ibn Hanbal, Imom Buxoriy, Abu Dovud, Termiziy, Ibn Moja va Hokim rivoyat qilishgan («Uqud'ul-javohir», 2-157).

## **Yetimning molini vasiy o'z moliga qo'shishi haqida**

521-hadis

Hadisni Nasaiy rivoyat qilgan («Uqud'ul-javohir», 2-151).

## **Bola balog'atga yetgach, yetim hisoblanmaydi**

522-hadis

Hazrati Alining hadisini Abu Dovud rivoyat qilgan. Hazrati Ali aytdilar: «Men Rasulullohdan yodlab oldim: «Ilk ehtilomdan (maniyning chiqishi) keyin yetimlik yo'q, kun bo'yi gapirmasdan yurish yo'q» («Uqud'ul-javohir», 2-60).

Bu mavzuda kengroq ma'lumot olish uchun «Taysirul-vusul»ning 4-bob, 257-betidagi «Babul vasiyya fil yatim» sarlavhali 2-hadisga qarashingiz mumkin.

524-hadis

Zumar surasida marhamat qilinadi: «Jannatda xohlagan joyimizda turamiz...» (mazmuni).

Meroj haqida Zuhriyning Anas ibn Molikdan (r.a.) rivoyat etgan hadisi Imom Buxoriy va Imom Muslimda quyidagicha keladi: «Nabiy (s.a.v.) aytdilar: «Jannatga kiritildim, u yerning hurlari marvarid (dur, inju), tuprog'i mushk ekanini ko'rdim».

Abu Said Xudriydan rivoyat qilinadi: Ibn Said Rasulullohdan (s.a.v.) jannatning tuprog'i haqida so'radi. Rasuli Akram (s.a.v.): "Makkaning oq injusi kabi sof mushkdir", dedilar». Bu hadisni Imom Muslim rivoyat qilgan (Ibn Kasir tafsiri, 4-67).

\* \* \*

Alloh taologa hamdu sanolar bo'lsin, Uning inoyati ila Imomi A'zam Abu Hanifaning Haskafiy rivoyatidagi «Musnad»larining tarjimasi nihoyasiga yetdi.

Alloh subhanahu va taolo bizlarni va barcha musulmonlarni Payg'ambarimiz (alayhissalom) shifoatlariga noil etib, O'z rahmatiga olsin. Omiyn.

## HADIS ISTILOHLARI

**Adl** - adolat sifatiga ega, hadis naql etishga loyiq bo'lgan shaxs. (Man' etilgan narsalardan saqlanib, shar'iy amrlarga itoat etuvchi kishi).

**Ohod xabar** - mutavotir darajasiga yetmagan xabar.

**Ahkom hadislar** - harom, halol, makruh kabi shar'iy hukmlarni qamrab olgan hadislar.

**Aql** - roviyda bo'lishi lozim shartlardan biri. (Shar'iy hukmlar vojib bo'lishi uchun belgilangan idrok).

**Ashobi sunan arba'a** - Abu Dovud, Imom Termiziy, Nasaiy, Ibn Moja.

**Aziz** - hadisni rivoyat qilgan sahobiydan ikki kishi va bu ikki kishidan yana ikki kishi rivoyat qilsa, hadis aziz deyiladi. Sanad va matnning vaziyatiga qarab sahih va zaif bo'lishi mumkin.

**Aziz-mashhur** - aziz hadisni ko'pchilik rivoyat qilsa, shunday nom oladi. Aziz-mashhur hadis sanad va matnning ahvoliga ko'ra sahih, hasan va zaif bo'lishi mumkin.

**Jarh** - roviydagi adolat va zabt (yodlash) sifatlarining nechog'li ekanini aniqlash.

**Javomi'ul kalim** - oz lafzda (qisqa so'z bilan) ko'p ma'noni qamragan kalom (so'z), Rasulullohning (s.a.v.) xususiyatlaridan biridir.

**Aimmai xamsa** - Imom Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Nasaiy, Termiziy.

**Aimmai sitta** - Imom Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Nasaiy, Termiziy, Ibn Moja.

**Ansob kitoblari** - roviylarning nasablari haqida ma'lumot beruvchi kitoblar.

**Arba'in** - qirq yoxud shunga yaqin sanoqda hadisni o'z ichiga olgan asar.

**Fazoil** - xususan, amallarning fazilatlar bilan, umuman esa, ahkom hadislaridan tashqari shar'iy bir hukmni o'z ichiga olgan axloq, muasharot odobi, amallarning ustunliklari bilan bog'liq hadislar.

**G'arib** - sanadining biror qismida tanho roviy bo'lgan hadis. Sanad va matniga ko'ra sahih, hasan va zaif bo'lishi mumkin.

**Hadisi qudsiy** - Rasululloh (s.a.v.) Allohga nisbat etgan hadislar.

**Hadisi Nabaviy** - Rasulullohning (s.a.v.) so'zlari, fe'llari va taqirlari (ma'qul ko'rganlari).

**Hasan** - roviylari adolatli, o'rta zehqli, muttasil, shuningdek, shozz va illati bo'lmagan hadis.

**Hasan-sahih** - ikkinchi bir yo'l bilan rivoyat etilgan hadis bilan quvvatlangan hasan hadis.

**Hasan-g'arib** - sanadida tanho roviy bo'lgan hasan hadis.

**Isnod** - hadis matnining sohibiga (Rasulullohga (s.a.v.) nisbat berish, yetkizish.

**Kutubi salasa** - Imom Buxoriy va Imom Muslim «Sahih»lari bilan Imom Molikning «Muvatto»si. Abu Dovud, Nasaiy va Termiziyning «Sunan»lari.

**Maqtu hadis** - tobe'inning so'zi va fe'llari.

**Marfu' hadis** - sanadi muttasil yo munqote' bo'lsa-da Rasulullohga (s.a.v.) nisbat etilgan hadis.

**Mashhur** - uch va undan ko'p kishi rivoyat qilgan hadis.

**Mavquf hadis** - sahobaning so'zi, fe'li va taqriri (ma'qullashi).

**Mursal** - tobe'in bevosita Rasulullohdan (s.a.v.) rivoyat etgan hadis.

**Musnad** - 1. Hadislarni turli tartiblarda jamlagan kitob. 2. Hadis matnlarini sanadi bilan o'z ichiga olgan hadis kitobi. 3. Sanadi uzilmay Rasulullohgacha (s.a.v.) borgan hadis. 4. Ishonchga sazovor hadis yoki hadis kitobi.

**Mutavotir** - sanadining barcha qismlarida odatda yolg'on gapirishga kelishishlari mumkin bo'lmaydigan darajada ko'p roviylar bo'lgan hadis.

**Mutavotir lafziy** - barcha roviylar tomonidan ayni lafzlar yoxud ayni ma'noni beruvchi lafzlar bilan rivoyat etilgan mutavotir hadis.

**Mutavotir ma'naviy** - turli voqealar munosabati bilan mushtarak mazmunda naql qilingan mutavotir hadis.

**Muttafaqun alayh** - 1. Imom Buxoriy va Imom Muslim «Sahih» kitoblariga kiritgan hadislar. 2. Imom Buxoriy va Imom Muslimning «Sahih»laridan va Ahmad ibn Hanbalning «Musnad»idan joy olgan hadis.

**Muztarib hadis** - bir xil darajadagi roviylar rivoyat qilgan, birini ikkinchisidan ustun qo'yib bo'lmaydigan, bir-biriga zid hadislar.

**Rijol** - hadis roviylari, hadis bilan shug'ullanuvchi kishilar.

**Rijolun siqot** - ishonchli roviylar.

**Sahih** - adolatli hofiz-roviylar bir-biridan rivoyat etgan, sanadi muttasil, shozz va muallal (nuqsonli, illatli) bo'lmagan hadis.

**Sahihon** - Imom Buxoriy va Imom Muslimning «Sahih» nomli asarlari. Bu ikki kitob eng mo'tabar hadis kitoblaridir.

**Sanad** - hadisni rivoyat qilgan roviylarning silsilasi.

**Sanadi g'arib hadis** - g'arib isnod ma'nosida ishlatiladi.

**Siqo** - ishonchli roviy.

**Sunan** - 1. Fiqhiy hukmni qamragan hadislar. 2. Fiqhiy mavzulariga ko'ra ahkom hadislar to'plangan kitob. Bunday kitoblarda mavquf va maqtu hadislar bo'lmaydi. Chunki «Sunan» mualliflarining istilohida mavquf sunnat hisoblanmaydi.

**Sunnat** - Rasulullohdan (s.a.v.), payg'ambarlik kelganidan oldin va so'ng naql etilgan so'z, fe'l va u zotning hayot tarzlari va boshqalar.

**Sunnati fe'liyya** - Rasulullohning (s.a.v.) fe'l va harakat tarzlari, faoliyatlari.

**Sunnati qavliyya** - Rasulullohning (s.a.v.) so'zlari.

**Sunnati taqriyya** - Sahobiylarning Rasululloh (s.a.v.) ma'qullagan so'zlari va qilgan amallari.

**Sunnatul huda** - Rasulullohning (s.a.v.) ibodat sifatida qilgan qo'shimcha amallari. Sunnatul hudaga amal qilish ibodatlarni mukammal ado etishga sabab bo'ladi. Bunday sunnatlarni tark etish makruhdir.

**Sunnatul zavoid** - Rasulullohning (s.a.v.) odat tarzida qilgan ishlari.

**Shozz** - siqo (ishonchli) roviy rivoyat etgan hadis undan ustun roviy rivoyat qilgan hadisga zid bo'lsa, u shozz deyiladi.

**Shamoil** - Rasulullohning (s.a.v.) axloqlari, tashqi ko'rinishlari, fe'l-atvorlari va kiyinish tarzlari, shaxsiy hayotlari bilan bog'liq hadislar jamlangan kitob.

**Taxrij** - 1. Bir hadisni yoki bir kitobda keltirilgan hadislarini manbalardan topish va ularni turli jihatdan tadqiq etish. 2. Bir yoki bir necha hadislarining sanadi zikr etilgan birinchi manbalardagi joylarini aniqlab, bularga nisbat etish. 3. Shu mavzuda yozilgan asar. 4. Hadisdan tushib qolgan, yanglishib, yozilmay qolgan so'z yo iborani sahifa chetiga yoki satriklar orasiga yozib qo'yish. 5. Mustaxraj kitob, bir hadis kitobidagi hadislarini o'zga isnodlar bilan keltirish; bir kitobga izoh, hoshiyalar yozish.

**Targ'ib va tarhib hadislar** - yaxshilikka, yaxshi ishlar qilishga tashviq etish, yomonlikdan va yomon ishlar qilishdan qaytarish mavzuidagi hadislar.

## QAYDLAR

1. Abu Dovud. «Sunan», 6; Nasaiy. «Imon»; Ibn Moja. «Muqaddima»,9; Ahmad ibn Hanbal. 1/38-51.
2. Ko'rsatilgan manbalar.
3. Abu Dovud. «Solat», 930.
4. Imom Buxoriy. «Kitabul marzo», 11.
5. Buxoriy. «Janoiz», 52; Ahmad ibn Hanbal, 2-jild, 233, 275, 393, 410, 481. 3/353.
6. Muslim. «Imon», 32, 36; Buxoriy. «Imon», 17, 28, «Solat», 28,
7. «Zakot», 1, «Iqtisom», 3. 38; Abu Dovud. «Jihad», 95; Termiziy.
8. «Tafsirus-sura», 88; Nasaiy. «Zakot», 3; Ibn Moja. «Fitan», 1, 3; Dorimiy. «Siyar», 10; Ahmad ibn Hanbal. 3/389.
9. Buxoriy. «Janoiz», 1, «Bad'ul xalq», 6, «Libos», 24, «Isti'zon», 30, «Riqoq», 13, 14. «Tavhid», 33-35; Muslim. «Imon», 153, 154. «Zakot», 32, 33; Termiziy. «Imon», 18; Ahmad ibn Hanbal. 5/152, 158, 161, 185, 6/166, 442.
10. Ibn Moja. «Fitan», 26.
14. Muslim. «Qadar», 8; Ibn Moja, 10; Ahmad ibn Hanbal, 3/293.
15. Buxoriy. «Qadar», 4; «Tafsirus-sura», 92, 3, 4, 5, 7; «Tavhid», 54; Muslim. «Qadar», 6, 7, 8; Termiziy. «Qadar», 3. «Tafsirus-sura 92»; Ahmad ibn Hanbal, 4/67.
16. O'sha manbalar.
17. Abu Dovud. «Sunnat», 16; Ahmad ibn Hanbal. 2/86, 5/403, 1/52, 53.
18. Muvatto. «Qadar», 1.
20. Termiziy. «Qadar», 2149.
23. Buxoriy. «Kitabur-Riqoq», 202.
24. Shu asar.
25. Shu asar.
26. «Ihyou ulumid-din», 4/26.
28. Abu Dovud. «Sunnat», 21; Termiziy. «Qiyomat», 11; Ibn Moja. «Zuhd», 37; Ahmad ibn Hanbal, 3/213.
29. Buxoriy. «Mavokit», 16, 26, «Azon», 129, «Tafsirus-sura 50», «Riqoq», 52, «Tavhid», 24; Abu Dovud. «Sunnat», 19; Termiziy. «Jannat», 16; Ahmad ibn Hanbal. 3/16, 17, 26, 27.
30. Ibn Moja. «Muqaddima», 17; «At-targ'ib vat-tarhib», 96.
31. Shu asar.
35. «Targ'ib va tarhib». 1/101.
36. Buxoriy. «Ilm», 38, «Janoiz», 33, «Anbiyo», 50, «Adab», 109.
37. Muslim. «Zuhd», 72; Abu Dovud. «Ilm», 4; Termiziy. «Fitan», 70.
38. «Ilm», 8,13; «Tafsir», 1, «Manoqib», 19; Ibn Moja. «Muqaddima»,
39. Dorimiy. «Muqaddima», 25, 46; Ahmad ibn Hanbal. 2/47, 83, 123, 150, 159, 171, 202, 214.
41. Buxoriy. «Tahorat», 68; Muslim. «Tahorat», 94, 96; Abu Dovud. «Tahorat», 36; Termiziy. «Tahorat», 51; Nasaiy. «Tahorat», 45; «G'usl», 1; Ibn Moja. «Tahorat», 25; Dorimiy. «Tahorat», 54; Ahmad ibn Hanbal. 2/259, 265, 288, 316, 346, 363, 394, 433, 464, 496, 529, 533, 3/341, 350.
42. O'sha manbalar.
43. Doraqutniy. «Tahorat», 1/66.
44. Buxoriy. «Tahorat», 60, 62, «Mazolim», 27; Muslim. «Tahorat», «Musofirun», 187; Abu Dovud. «Tahorat», 13; Termiziy. «Tahorat», 73, 74; Dorimiy. «Tahorat», 9; Ahmad ibn Hanbal. 1/284, 4/246, 5/382, 394, 403.

45. Buxoriy. «Tahorat», 52; «Ashriba», 12; Muslim. «Hayz», 95, «Tahorat», 76; Termiziy, «Tahorat», 66; Nasaiy. «Tahorat», 124; Ibn Moja. «Tahorat», 68; Ahmad ibn Hanbal. 1/223, 227, 329, 337.
46. Ahmad ibn Hanbal. 1/214.
47. Nasaiy. «Tahorat», 93, 94, 95; Termiziy. «Tahorat», 48, 404.
48. Abu Dovud. «Tahorat», 1/107.
49. Abu Dovud. «Tahorat» 1/107.
50. Buxoriy. «Tahorat»; Termiziy. «Tahorat», 42; Nasaiy. «Tahorat», 80; Ibn Moja. «Tahorat», 411.
51. Muslim. «Tahorat», 29; Ahmad ibn Hanbal. 2/201, 471.
52. Abu Dovud. «Tahorat», 1/168.
53. Nasaiy. 1/99.
54. Abu Dovud. «Tahorat», 1/172; Muslim. «Tahorat», 277.
55. Abu Dovud. «Tahorat», 1/172; Muslim. «Tahorat», 277; Termiziy. «Tahorat», 61; Ibn Moja. «Tahorat», 510; Nasaiy. «Tahorat», 133.
56. Termiziy. «Tahorat», 94; Abu Dovud. 1/96, 97.
57. Shu manba.
58. Buxoriy. «Kitobus-solat», 7- bob.
59. Shu manba.
60. Termiziy. «Tahorat», 98; Buxoriy. «Tarixul -avsot Ibn Hojar al-Talxis», 59; Abu Dovud. 1/63; Toyalasiy. «Musnad», 692; Bayhaqiy. 1/291. ^
61. O'sha asar.
62. Ibn Moja. «Tahorat», 546; Buxoriy. «Tahorat», 48.
64. Abu Dovud. «Tahorat», 157; Termiziy. «Tahorat», 95-96.
65. Termiziy. «Tahorat» 95, 96; Ahmad ibn Hanbal. 5/214, 215; Ibn Moja. 1/101.
66. O'sha manbalar.
67. Abu Dovud. «Tahorat», 87; Muslim. «Tahorat», 305; Ibn Moja. «Tahorat», 584; Nasaiy, «Tahorat», 257, 258, 259.
68. Abu Dovud. «Tahorat», 220-222; Termiziy. «Tahorat», 118.
69. Abu Dovud. «Tahorat», 87; Termiziy. «Tahorat», 120.
70. Nasaiy. «Tahorat», 1/172.
71. Muslim. «Tahorat», 372; Nasaiy. «Tahorat», 268; Ibn Moja. «Tahorat», 535; Abu Dovud, «Tahorat», 230.
72. Muslim. «Hayz», 11, 12,; Abu Dovud. «Tahorat», 103; Termiziy. «Tahorat», 101; Nasaiy. «Tahorat», 173, «Hayz», 18; Ibn Moja. «Tahorat», 13; Dorimiy. «Tahorat», 83, 108; Ahmad ibn Hanbal. 2/70, 3/103, 6/45. 101, 106, 110, 112, 114, 173, 179, 214, 229, 245.
73. Termiziy. «Tahorat», 122; Molik. «Muvatto», 72, 73; Buxoriy. 1/33, 333; Muslim. 1/98.
74. Termiziy. «Adab», 280; Ibn Moja. «Adab», 3749.
75. Termiziy. «Tahorat», 116; Muslim. «Tahorat», 1/94; Abu Dovud. «Tahorat», 1/143.
76. Shu manbalar.
77. Muslim. «Hayz», 105; Abu Dovud. «Libos», 38; Nasaiy. «Far'», 20; 30, 31; Dorimiy. «Adohi», 20, «Muvatto sayd», 17,18; Ahmad ibn Hanbal. 1/219, 227, 237, 270, 279, 280, 314, 328, 343, 360, 373, 6/73, 104, 148,153.
78. Buxoriy. «Zabaih», 30; Nasaiy. «Far'», 10; Ibn Moja. «Libos», 25.



## **NAMOZ**

79. Termiziy. «Solat», 388, 389.
80. Termiziy. «Adab», 40.
82. Muslim. 2/394-397; Buxoriy. «Solat», 4-bob.
83. Abu Dovud. «Solat», 633; Muslim. «Solat», 518.
84. Termiziy. «Solat», 170.
85. Termiziy. «Solat», 154.
86. Ibn Moja. «Solat», 694.
87. Muslim. «Solat», 626; Ibn Moja. «Solat», 685.
88. Termiziy. «Solat», 327; Ahmad ibn Hanbal. «Musnad», 3/11055.
89. Buxoriy. 2/65, 66; Muslim. 1/112; Nasaiy. 1/102; Ahmad ibn Hanbal. «Musnad», 2/6357.
90. Muslim. «Solat», 383.
91. Muslim. «Solat», 1/533; Ibn Moja. «Masjid», 738.
92. Muslim «Solat», 1- jild, 18, 81- bob.
93. Nasaiy. 2/1100
95. Termiziy. «Solat», 257.
96. Termiziy. «Solat», 257.
97. Termiziy. «Solat», 238.
98. Termiziy. «Solat», 247.
99. «Bulug`ul marom», 64,7-bob, 70-hadis.
100. Muslim. «Solat», 50.
101. Ibn Moja. «Solat», 834; Termiziy. «Solat», 309.
102. Ibn Moja. «Solat», 834; Termiziy. «Solat», 306; Muslim. «Solat», 35- bob, 166-hadis.
103. Muslim. «Solat», 36- bob, 176-hadis; Ibn Moja. «Solat», 850.
104. Termiziy. «Solat», 258-259.
105. Termiziy. «Solat», 267; Muslim. «Solat», 149, 150; Muslim. «Solat», 409.
106. Termiziy. «Solat», 268.
107. Muslim. «Solat», 1-jild, 227, 228, 229. 230, 231; Nasaiy. 2/1111.
108. Shu manba.
109. Shu manba.
110. Shu manba.
111. Dorimiy. «Solat», 1328.
112. Ibn Moja. «Solat», 1243.
113. Muslim. «Masjid», 300, 301, 303, 304, 307.
114. Buxoriy. «Azon», 145.
116. Buxoriy. «Tahajjud», 25, «Tavhid», 10; «Duo», 48; Abu Dovud. «Vitr», 18; Ibn Moja. «Iqomat», 188; Ahmad ibn Hanbal. 3/344.
117. Ibn Moja. «Solat», 900.
119. Dorimiy. «Solat», 1352.
120. Ibn Moja. «Solat», 915.
121. Ibn Moja. «Solat», 914.
122. Termiziy. «Solat», 332.
126. Muslim. «Solat», 90, 95, 96, 97.
127. Ahmad ibn Hanbal. 1/231. Buxoriy. «Azon», 39,67.
128. Muslim. «Solat», 96; Ibn Moja. «Iqomat», 142; Ahmad ibn Hanbal. 1/256, 6/210, 260.

129. Buxoriy. «Azon» , 54.
130. Buxoriy. «Azon», 164.
131. Abu Dovud, 45, 93.95; Rasoiy. «Azon», 14; «Imomat», 25; Ibn Moja, Ibn Moja, «Iqomat», 50, 51, 55; Dorimiy. «Solat», 49; Ahmad ibn Hanbal. 3/12,44.
132. Termiziy ; «Solat», 64.
133. Termiziy. «Solat», 64.
134. Buxoriy. «Azon», 162.
135. Muslim. «Masajidi», 64.
136. Termiziy. «Solat», 219.
137. Muvatto. «Juma», 2, 4, 5; Dorimiy. «Solat», 1544, 1545.
139. Abu Dovud. «Solat», 1092.
140. Buxoriy. «Juma», 27.
141. «Bulug`ul marom», «Juma», 12.
142. Dorimiy. «Solat», 1574, 1575, 1576; «Bulug`ul marom», «Juma», 13.
144. Termiziy. «Juma», 519, «Janoza»,72; Ahmad ibn Hanbal. 2/169, 176, 220.
145. Termiziy. «Juma», 539-540.
146. Termiziy. «Juma», Dorimiy. «Solat», 1617.
147. Termiziy. «Juma», 573.
148. Muslim. «Solatul musafirin», 10,11.
149. Nasaiy. «Taqirus-solat», 1431, 1436, 1437.
150. Muslim. «Solat», 695.
151. Buxoriy. «Vitr», 6.
152. Ibn Moja. «Solat», 1168.
153. Ibn Moja. «Solat», 1169; Termiziy. «Vitr», 453-454.
154. Dorimiy. «Solat», 1594, 1597.
155. Ibn Moja. «Solat», 1171, 1174.
158. Termiziy. «Vitr», 455-456.
159. Ibn Moja. «Solat», 1185, 1186, 1187.
160. Dorimiy. «Solat», 1474, 1475.
161. Abu Dovud. «Solat», 51, 270, 271- boblar.
163. Muslim. «Solat», 422, 23- bob; Termiziy. «Solat», 369; Ibn Moja. «Solat», 1034.
164. Muslim. «Solat», 51- bob; 270, 271.
165. Ibn Moja. «Solat», 1261, 1262, 1263, 1264, 1265.
166. Muslim. «Solatul kususuf», 23, 28, 29.
168. Buxoriy. «Tavhid», 11; Nasaiy. «Nikoh», 27.
169. Termiziy. «Vitr», 474.
170. Buxoriy. «Laylatul qadr», 5.
171. Ibn Moja. «Solat», 1419-1420.
172. Muslim. «Solatul musafirin», 127, 128.
174. Molik. «Muvatto», 1254; Buxoriy. «Solat», 2/72.
175. Molik. «Muvatto», 1266; Muslim. «Solatul musafirin», 2/161; Nasaiy. «Qiroat», 946.
176. Muslim. «Solat», 52- bob, 287-hadis.
180. Ibn Moja. «Solat», 1377.
183. Molik. «Muvatto», 39; Ibn Moja. «Janoiz», 1604, 1605, 1606.
184. Ibn Moja. «Janoiz», 1607, 1608, 1609.
186. Ibn Moja. «Janoiz», 1478.
187. Ibn Moja. «Janoiz», 1577.

188. Ibn Moja. «Janoiz», 1502.
189. Ibn Moja. «Solat», 1498.
190. Ibn Moja. «Janoiz», 1552, 1556.
191. Termiziy. «Janoiz», 60; Abu Dovud. «Janoiz», 77; «Ashriba», 7; Nasaiy. «Janoiz», 100; Ibn Moja. «Janoiz», 47; Ahmad ibn Hanbal. 1, 145.
192. Molik. «Muvatto», «Zohoya», 8.
193. «Bulug`ul marom», «Janoiz», 57.

## **ZAKOT**

196. Molik. «Muvatto», «Zakot», 3- bob, 9- hadis.
197. Buxoriy. «Adab», 33.
198. Muslim. «Zakot», 170, 171, 172.

## **RO'ZA**

199. Muslim. «Siyom»; Ibn Moja. «Siyom», 1638.
201. Nasaiy. «Siyom», 2319; Dorimiy. «Siyom», 1768.
202. Nasaiy. «Siyom», 2919.
203. Dorimiy. «Solat», 1192 - 1993.
205. Ibn Moja. «Siyom», 1682.
206. Ibn Moja. «Siyom», 1682.
207. Buxoriy. «Savm», 25.
208. Buxoriy. «Savm», 25.
209. Dorimiy. «Siyom», 1732.
210. Buxoriy. «Savm», 25.
211. Muslim. «Siyom», 69, 70, 71, 72, 73.
212. Muslim. «Siyom», 69, 70, 71, 72, 73.
213. Muslim. «Siyom», 69, 70, 71, 72, 73.
214. Nasaiy. «Siyom», 2285, 2286.
215. Nasaiy. «Siyom», 2285, 2286.
216. Buxoriy. «Savm», 48.
217. Buxoriy. «Savm», 48.
218. Muslim. «Siyom»
219. Nasaiy. «Siyom», 2188.
220. Ibn Moja. «Siyom», 1772.

## **ZAKOT**

196. Molik. «Muvatto», «Zakot», 3- bob, 9- hadis.
197. Buxoriy. «Adab», 33.
198. Muslim. «Zakot», 170, 171, 172.

## **RO'ZA**

199. Muslim. «Siyom»; Ibn Moja. «Siyom», 1638.
201. Nasaiy. «Siyom», 2319; Dorimiy. «Siyom», 1768.
202. Nasaiy. «Siyom», 2919.
203. Dorimiy. «Solat», 1192 - 1993.

205. Ibn Moja. «Siyom», 1682.
206. Ibn Moja. «Siyom», 1682.
207. Buxoriy. «Savm», 25.
208. Buxoriy. «Savm», 25.
209. Dorimiy. «Siyom», 1732.
210. Buxoriy. «Savm», 25.
211. Muslim. «Siyom», 69, 70, 71, 72, 73.
212. Muslim. «Siyom», 69, 70, 71, 72, 73.
213. Muslim. «Siyom», 69, 70, 71, 72, 73.
214. Nasaiy. «Siyom», 2285, 2286.
215. Nasaiy. «Siyom», 2285, 2286.
216. Buxoriy. «Savm», 48.
217. Buxoriy. «Savm», 48.
218. Muslim. «Siyom»
219. Nasaiy. «Siyom», 2188.
220. Ibn Moja. «Siyom», 1772.

## HAJ

221. Abu Dovud. «Haj», 1732; Hokim. «Mustadrak», 1/448; Bayhaqiy. «Sunan», 41339-340; Ahmad ibn Hanbal, 1973-1974.
223. Termiziy. «Haj», 14; «Tafsirus-sunna», 316; Ibn Moja. «Manosik», 6116; Dorimiy. «Manosik», 8.
224. Buxoriy. «Ilm», 52.
225. Muslim. «Haj», 13, 15, 17, 18.
226. Muslim. «Haj», 1, 2, 3.
227. Muslim. «Haj», 4, 5.
228. Termiziy. «Haj», 821; Muslim. «Haj», 185-186.
229. Muslim. «Haj», 141.
230. Muslim. «Haj», 132, 135, 136.
231. Muslim. «Haj», 132, 135, 136.
232. Ibn Moja. «Haj», 2963.
233. Ibn Moja. «Haj», 2963.
234. Muslim. «Haj», 126, 128.
235. Termiziy. «Haj», 847, 848; Buxoriy. «Sayd», 922; Muslim. «Haj», 65.
236. Termiziy. «Haj», 847, 848; Buxoriy. «Sayd», 922; Muslim. «Haj», 65.
237. Muslim. «Haj», 71, 72, 75, 76.
238. Buxoriy. «Sayd», 12, «Nikoh», 30, «Mag'oziy», 43; Muslim. «Nikoh», 46; Termiziy. «Haj», 24; Nasaiy. «Manosik», 90; Dorimiy. «Manosik»; Ahmad ibn Hanbal. 1/245,-66, 270, 285, 286, 324, 330, 333, 336, 346, 351,354, 360, 361.
239. Muslim. «Haj», 87.
240. Muslim. «Haj», 245, 246.
245. Muslim. «Haj», 253.
246. Muslim. «Haj», 233.
248. Muslim. «Haj», 285.
249. Muslim. «Haj», 286, 288, 289, 290.
250. Muslim. «Haj», 303.
251. Muslim. «Haj», 303.
252. Muslim. «Haj», 266, 267, 268.

253. Muslim. «Haj», 371, 372, 373.  
254. Abu Dovud. «Haj», 1799.  
255. Muslim. «Haj», 221.  
256. Ibn Moja. «Libos», 3584, 3585, 3586.  
257. Ibn Moja. «Libos», 3584, 3585, 3586.

## **NIKOH**

258. Abu Dovud. «Nikoh», 2118.  
259. Ibn Moja. «Nikoh», 1863; Nasaiy «Nikoh», 11.  
260. Ibn Moja. «Nikoh», 1861.  
262. Abu Dovud. «Nikoh», 2050.  
263. Buxoriy. «Nikoh», 17.  
267. Ibn Moja. «Nikoh», 1871.  
268. Buxoriy. «Nikoh», 42; Ibn Moja. «Nikoh», 1873.  
269. Muslim. «Nikoh», 33, 35, 37, 38.  
270. Muslim. «Nikoh», 33, 35, 37, 38. 273. Termiziy. «Nikoh», 1121.  
271. Buxoriy. «Mag'oziy», 1908.  
272. Muslim. «Sayd va zaboih», 22.  
273. Buxoriy. «Nikoh», 31.  
274. Muslim. «Nikoh», 125.  
275. Muslim. «Nikoh», 117-118.  
276. Ibn Moja. «Nikoh», 1923-1924.  
277. Abu Dovud. «Nikoh», 2162.  
282. Nasaiy. «Taloq», 48.

## **ISTIBRO**

283. Abu Dovud. «Nikoh», 2157.

## **RADO**

284. Muslim. «Rado» 1-2.  
285. Muslim. «Rado», 9; Buxoriy. «Nikoh», 117.

## **TALOQ**

287. Ibn Moja. «Taloq», 2039. 280. Buxoriy. «Taloq», 2.  
291. Buxoriy. «Taloq», 11.  
292. Buxoriy. «Taloq», 5.  
293. Buxoriy. «Taloq», 5.  
294. Dorimiy. «Taloq», 2199.  
295. Termiziy. «Taloq», 1180.  
296. Muslim. «Taloq», 56.  
297. Abu Dovud. «Taloq», 2307.  
298. Termiziy. «Nikoh», 1145.  
299. Buxoriy. «Taloq», 12.

## **NAFAQA**

302. Buxoriy. «Imon», 41.

## **VALO**

303. Buxoriy. «Kitabul itq», 9; Muslim. «Kitabul aymon», 58.

304. Muslim. «Kitabul itq», 15.

305. Muslim. «Kitabul itq», 16.

## **QASAMLAR**

307. Muslim. «Kitabun-nazir», 1525.

308. Muslim. «Kitabun-nazir», 1526.

310. Buxoriy. «Kitabul aymon va nazir», 14.

311. Buxoriy. «Kitabul aymon va nazir», 14.

312. Nasaiy. «Qasam», 39.

## **HUDUD**

315. Buxoriy. «Hudud», 13; Termiziy. «Hudud», 1446.

316. Ibn Moja. «Hudud», 2545.

317. Abu Dovud. «Hudud», 4421,4422,4427.

318. Abu Dovud. «Diyat». 4530; Termiziy. «Diyat», 1412.

319. Termiziy. «Siyar», 1617; Nasaiy. «Jihod», 48.

321. Termiziy. «Siyar», 1584.

322. Termiziy. «Jihod», 1715.

323. Termiziy. «Siyar», 1563.

## **SEHR**

325. Dorimiy. «Sehr», 2534.

326. Abu Dovud. «Asriba», 3674.

327. Ibn Moja. «Tijorat», 2167.

328. Ibn Moja. «Tijorat», 2277.

329. Nasaiy. «Sehr», 49; Ibn Moja. «Tijorat», 2257.

330. Nasaiy, 43-44.

331. Termiziy. «Sehr», 1239.

332. Muslim, «Sehr», 29-34.

333. Muslim. «Sehr», 4.

334. Termiziy. «Sehr», 1290.

335. Muslim. «Sehr», 49, 50, 54.

336. Nasaiy. «Sehr», 28.

338. Muslim, «Sehr», 77, 78, 79, 80.

339. Nasaiy. «Sehr», 19.

341. Termiziy. «Sehr», 1281.

342. Dorimiy. «Sehr», 2563.

348. Nasaiy. «Sehr», 59; Ibn Moja. «Rahin», 2436.

## SHUF'A

349. Ibn Moja. «Shuf'a», 2494.  
350. Buxoriy. «Shuf'a», 2.  
351. Abu Dovud. «Qazo», 31; Termiziy. «Ahkom», 21240, 396, 463.

## MUZORAAT

352. Muslim. «Sehr», 1548; Nasaiy. «Muzoraat», 1928.  
353. Shu asarlar.

## FAZOIL, SHAMOIL

354. Muslim. «Fazoil», 119.  
355. Muslim. «Fazoil», 113.  
359. Termiziy. «Kitabul-bir vas-silo», 2015; Ibn Moja. «Adab», 3716.  
361. Ibn Moja. «Zuhd», 4178.  
365. Termiziy. «Manoqib», 3805.  
366. Termiziy. «Manoqib», 3805. 368. Termiziy. «Manoqib», 3735. 371. Buxoriy. «Axbor», 1; «Ohod», 2.  
377. Abu Dovud. «Qazo» (Aqdiya), 20.  
378. Muslim. «Fazoilus-sahoba», 71-72.  
388. Ibn Moja. «Zuhd», 4291.  
389. Ibn Moja. «Zuhd», 4292.  
390. Ibn Moja. «Zuhd», 4289.  
391. Ibn Moja. «Zuhd», 4292.  
394. Ibn Moja. «Sayd», 3232.  
395. Ibn Moja. «Sayd», 3234.  
398. Nasaiy. «Aqqa», 36.  
399. Ibn Moja. «Sayd», 3241.  
400. Buxoriy. «Sayd va zaboih», 2, 3, 9; Abu Dovud. «Adohiy», 2847.  
401. Ibn Moja. «Sayd», 3247.  
402. Buxoriy. «Zaboih va sayd», 13.  
403. Ibn Moja. «Zaboih», 3183.  
404. Buxoriy. «Zaboih va sayd», 25; Nasaiy. «Dahoya», 41.  
405. Ibn Moja. «Zaboih», 3176.  
406. Ibn Moja. «Sayd», 3244.  
407. Buxoriy. «Zaboih va sayd», 19.  
408. Termiziy. «Savm», 758.  
409. Ibn Moja. «Adohi», 3124.  
410. Buxoriy. «Udhiyya», 9.  
411. Buxoriy. «Udhiyya», 8.  
412. Abu Dovud. «Adohi», 9, 10.  
413. Termiziy. «At'ima», 1839-1840.  
414. Termiziy. «At'ima», 1839-1840.  
415. Buxoriy. «Adab», 12.  
416. Termiziy. «At'ima», 1831; Abu Dovud. «At'ima», 16; Ibn Moja. «At'ima», 3262.  
417. Termiziy. «Ashriba», 1878.  
418. Shu manba.

419. Shu manba.  
420. Shu manba.  
421. Nasaiy. «Ashriba», 30, 36, 37, 38.  
422. Nasaiy. «Ashriba», 40.  
423. Termiziy. «Ashriba», 1869.  
424. Ibn Moja. «Ashriba», 3398; Abu Dovud. «Ashriba», 3710.  
425. Termiziy. «Ashriba», 1877; Muslim. «Ashriba», 16.  
426. Nasaiy. «Ashriba», 40.  
427. Nasaiy. «Ashriba», 25; Termiziy. «Ashriba», 1865. 429. Bayhaqiy. «Imon bahsi».  
431. Buxoriy. «Libos», 25.  
432. Muslim. «Libos», «Ziynat», 81, 82, 83.  
433. Muslim. «Salom», 88, 89.  
434. Termiziy. «Libos», 1753. 436. Termiziy. «Libos», 1759. 439. Muslim. «Salom», 69.  
443. Muslim. «Salom», 88.  
444. Termiziy. «Tib», 2066, 2067.  
445. «Muvatto shor», 11; Muslim. «Zikr, duo», 48; «Suul qazo», 35.  
446. Abu Dovud. «Tib», 3883. 477. Muslim. «Birr», 66. 480. Ibn Moja. «Adab», 3727.  
484. Termiziy. «Zuhd», 38.  
489. Muslim. «Ishorat», 16.  
490. Termiziy. «Ahkom», 1329.  
491. Termiziy. «Ahkom», 1322.  
492. Termiziy. «Ahkom», 1334.  
494. Termiziy. «Ahkom», 1341.  
495. Termiziy. «Sehr», 1270.  
496. Dorimiy. «Sehr», 16.  
500. Abu Dovud. «Malohim», 4333, 4334. 506. Buxoriy. «Badi'il xalq», b-bob, 80-bet.  
517. Termiziy. «Vasiyyat», 2116.  
518. Termiziy. «Faroiz», 2107.  
519. Termiziy. «Faroiz», 2098. 521. Buxoriy. «Vasiyyat», 23,24.

Online o'qish: <http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=499.0>  
Internet uchun Laylo tayyorladi.

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)  
2007